



ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL  
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

# Til va adabiyot.uz

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературе – Language and literature teaching» (<https://tilvaadabiyot.uz>)

<https://oak.uz/pages/4802>

2023-yil. 10-son



*Jamiyat hayotida o'qituvchining o'rni va ta'siri oshsa – mактабning обро'и ошади, илм-фан, та'лим ва тарбиya соҳасининг qadri ko'tariladi. Muallimning обро'-е'tibori esa bu millatning, butun xalqning обро'-е'tiboridir.*

*Shavkat MIRZIYOEV,  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti*



ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL  
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

# Til va adabiyot.uz

## Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

## Tahrir hay'ati:

Dilshod Kenjayev  
Nizomiddin Mahmudov  
Yorqinjon Odilov  
Jabbor Eshonqulov  
Baxtiyor Daniyarov  
Abdurahim Nosirov  
To'lqin Saydaliyev  
Baro Buranova  
Zulkumor Mirzayeva  
Qozoqboy Yo'ldoshev  
Salima Jumayeva  
Qayum Baymirov  
Manzar Abdulxayrov  
Alijon Safarov  
Madina Nuriddinova  
Latifa Xudayqulova  
Baro Kadirova  
Nargiza Mirzayeva  
Guli Shukurova  
To'maris Butunbayeva

## Axborot hamkorimiz:



## Muharrirlar:

Lutfullo JO'RAYEV  
Bibimaryam RAXMONOVA  
Oydin SHUXRATOVA

## Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV  
Gulnoza VALIYEVA

## Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri  
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.  
Telefon: (98) 121-74-16,  
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45, (71) 233-03-67.  
e-mail: til\_adabiyot@umail.uz  
vab-sayt: www.tilvaadabiyot.uz



Ilmiy-metodik elektron jurnal

## M U N D A R I J A

Rahmatilla Norbekov

Isajon Sultonning "Abu Rayhon Beruniy" romani sujetida hikoyatlarning tutgan o'rni ..... 3

Qayum Baymirov

Kasbiy malakaga me'yoriy talablar ..... 6

Dilnoza Istamova

Pedagogik texnologiyalar asosida chet tilini mutaxassislik fan sifatida o'qitish metodlarini takomillashtirish ..... 7

Umida Mamurjanovna

Oliy ta'lim muassasalari xorijiy til darslari jarayonida zamонавија jamiyatning ma'nавиј -axloqiy tamoyillari va qadriyatları ..... 9

Palzada Bakhiyeva

The role of language awareness in methodology ..... 11

Zarina Suyunova

"O'tkan kunlar" romanida XIX asr davlat boshqaruvining yoritilishi ..... 13

Sevara Xudoyqulova

Ikkinci darajali bo'lak ilovali element sifatida ..... 15

Yodgoroy Madaminova.

Comparative analysis of linguistic units with national and cultural content in English and Uzbek languages ..... 19

Shahnoza Rahmonova.

Navoiyshunoslik ufqqlari ..... 21

Shaxzoda Axmedova

Harbiy pedagoglarda kasbiy bilimdonlik rivojlanishining ijtimoiy-psixologik omillari ..... 23

A'зам Raxmatov

O'quvchilarga loyihalash va konstruksiyalash elementlarini o'rgatish metodikasi ..... 25

Zahro Muhammadiyeva

XVIII asrda buxoro amirligining tashqi siyosati ..... 29

Zulayho Muhammadiyeva

Qo'qon xoni Xudoyorxon davrida Xonlik va Rossiya imperiyasi o'rtaisdagi siyosiy-iqtisodiy alopqlar ..... 31

Gulmira Mirzayeva

Halq hunarmandchiligidagi kashtado'zlik san'ati mavzusini o'qitishni takomillashtirish ..... 33

Shahnoza Izmurodova

Hudhud obrazining kelib chiqish manbalari va timsolda aks etgan nabaviy tajalli ..... 36

Xurshida Jalilova

Badiiy tarjima va o'zbek jadid adiblar ijodi ..... 41

Bo'ritosh Nurbadalova

"Boburnoma"da keltirilgan turkiy g'azallarda qofiya va mazmun munosabati ..... 45

Nargiza Xusenova

Umumta'lim maktablarida fanlarni o'qitishda o'quvchilarda shakllantirilishi lozim bo'lgan hayotiy ko'nikmalar ..... 47

Nafisa Karimov

She'riyat ilmining shoirona talqini ..... 50

Mukaddas Xakimova

Shaxs diniy etiqodining stress holatdan chiqishdagini ijobiy ta'siri ..... 52

Gulruk begim Ravshanova

Hajviy asarlarda badiiy xronotop va hajviy-parodik usul talqini ..... 54

Shamsiya AAtoyeva

"Hasht behisht" va "majolis un-nafois" tazkiralarining qiyosiga doir ..... 58

*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayasatining 2023-yil 3-iyundagi 338/6-sonli qaror bilan Filologiya hamda Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyaları (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsisi etilgan milliy ilmiy nashrdir.  
<https://oak.uz/pages/4802>*

|   |     |
|---|-----|
| Shahnoza Yuldasheva, Fakhritdin Yakubov   |     |
| The role of non-verbal communication in "EFL" .....   | 59  |
| Surayyo Tursunova, Farzona Mirzayeva  |     |
| Milliy o'yinlar – millatni ulug'laydi .....   | 62  |
| Marg'uba Abdullayeva  |     |
| Adabiy ta'limdi ilmiy bilish usullari .....   | 63  |
| Nodira Xolikova   |     |
| Cho'lpox she'riyatida zamondosh ayollar taqdiri .....   | 66  |
| Maxsuda Karimova  |     |
| Milliy folkloristikamizning fidoiy vakili.....  | 68  |
| Shodiyona Abdugapparova   |     |
| Adabiyotshunoslikda "Badiiy obraz" tushunchasi talqini .....  | 71  |
| Nilufar Turg'unova  |     |
| Loyiha texnologiyasi va undan ona tili ta'limdi foydalanish.....  | 73  |
| Arzaim Berdixanova  |     |
| So'zlarning o'rganilishi .....  | 76  |
| Aziza Shodikulova   |     |
| Meronimianing metonimik kogeziyadagi ishtiroki.....   | 78  |
| Shahnoza Sidiqova   |     |
| Ulug'bek Hamdamning "Safar" hikoyasining sujet xususiyati talqini .....   | 80  |
| Durdona Abdurayimova  |     |
| Sud ekspertizasida psixologik-lingvistik metodikaning o'rni .....   | 82  |
| Mahliyo G'aniyeva   |     |
| Ijtimoiy tarmoqlarda neologizmlarning qo'llanilishi .....   | 84  |
| Dilnoza Tursunova   |     |
| Lakunaning madaniyatlararo va matn aspektlari .....   | 86  |
| Malik Xodjayorov  |     |
| Zamonaviy mediamatnlarning lingvistik tadqiqi .....   | 88  |
| Madina Abduqodirova   |     |
| Devid merrillning – "komponentlarni ko'rsatish" nazariyasi .....  | 90  |
| Firuza Sharipova  |     |
| Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy madaniyatni takomillahtirish .....  | 93  |
| Dildora Turg'unova  |     |
| "Kishnamoq" leksemasi qamrovidagi so'zlarning semantik va tarixiy-etimologik qamrovi .....                                    | 95  |
| Biloliddin Sharipov   |     |
| Dars jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati .....                                     | 97  |
| Nasiba Meyliyeva  |     |
| Ruboiy janri vaznlarini ta'lim jarayonida o'qitishga innovatsion yondashuv .....  | 98  |
| Jurabek Xolmirzayev   |     |
| «Qunduz bilan yulduz» dostoni kasb-hunar leksikasining leksik-semantik xususiyatlari.....                                     | 101 |
| Gulnoza Sheraliyeva   |     |
| Classification of idioms in english .....   | 103 |
| Gulfuza Madirimova  |     |
| "Mahbub ul-qulub"da payg'ambarlar obrazi talqini .....  | 105 |
| Xusniddin Irgashov  |     |
| Abu Bakr Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asari tarixiy manba sifatida .....   | 107 |
| Okila Turakulova  |     |
| Ta'lim jarayonida mustaqil mutolaa madaniyatini rivojlantirish .....  | 109 |
| Nigina Temirova   |     |
| Note-taking in consecutive interpretation .....   | 112 |
| Bobomurod Abdishukurov  |     |
| Piktografik yozuv va uning kishilik jamiyatidagi o'rni .....  | 114 |
| Шахноза Муракаева   |     |
| Развитие устной компетенции с использованием интерактивных методов в обучении английскому языку будущих военных юристов ..... | 118 |
| Камола Мирфайзиева, Дилфузা Аллярова  |     |
| Zaimstvovanie morfem v russkom jazyke .....   | 119 |
| Шахноза Муракаева   |     |
| Проблемы развития устной речевой компетенции при обучении английскому языку военных аудиторий .....                           | 121 |

Rahmatilla Norbekov,  
CHDPU tayanch doktoranti

## ISAJON SULTONNING “ABU RAYHON BERUNIY” ROMANI SYUJETIDA HIKOYATLARNING TUTGAN O’RNI

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada hozirgi o’zbek adabiyotining iste’dodli yozuvchisi Isajon Sultonning yana bir tarixiy romani “Abu Rayhon Beruniy” romanini haqida so’z boradi. Asardagi hikoyatlarning roman syujetida tutgan o’rni, badiiy to’qimaning niyoyatda ishonarli ifodalanganligi tahlil etilgan. Qolaversa, rivoyachi obrazining asar mohiyatini ochishdagi xizmati ham kontekst yordamida ochib berilgan.

**Kalit so’zlar:** roman, syujet, hikoya, tahlil, obraz, asar tili, tasvir.

**Annotation:** In this state, another historical novel «Abu Raikhan Beruni» is told by Isadjon Sultana, a talented writer of modern Uzbek literature. Analyzing its role in the plot of the novel, it is shown that the artist's role in the work is determined by the context of the plot. In addition, the role of the narrator in the novel is analyzed.

**Key words:** roman, plot, story, analysis, image, language of the work, image.

**Аннотация:** В данной статье рассказывается о другом историческом романе «Абу Райхан Беруни» Исаджона Султана, талантливого писателя современной узбекской литературы. Анализируется роль рассказов в произведении в сюжете романа, предельно правдоподобной выразительности художественной ткани. Кроме того, роль рассказчика в раскрытии сути произведения раскрывается с помощью контекста.

**Ключевые слова:** роман, сюжет, повесть, анализ, образ, язык произведения, образ.

Har bir asar o’zining muayyan estetik vazifasiga ega. Faqat asarlarda estetik vazifanini yuzaga keltiruvchi omillar turlicha. Odatda, badiiy asarning bosh obrazi estetik vazifa tashuvchidir. Muallif turli vositalar, usullar yordamida bosh obrazga ma'lum bir estetik vazifani yuklaydi. Zero, “obraz badiiy to'qima yordamida yaratilgan, estetik qiyimat kasb etgan inson hayotining umumlashma va ayni chog'da aniq manzarasidir”<sup>1</sup>. Badiiy to'qima obrazlarga estetik vazifani yuklash bir qadar oson bo'lsa, aniq bir tarixiy obrazga estetik vazifani yuklash bir qadar mushkulroqdir. Badiiy to'qimalik xususiyatiga ega obrazlarni muallif o'zi istagandek tasvirlaydi va unga o'zi istagancha estetik vazifa yuklash imkoniga ega. Kitobxon ham bu holatni tabiiy qabul qiladi, albatta. Ammo konkret prototipga ega bo'lgan, yoxud tarixiy shaxslar qiyofasini ochuvchi obrazlarga har bir badiiy yuk ehtiyojkorlik bilan yuklanadi va muallifdan ulkan mahorat bilan bir qatorda chuqur bilimni ham talab etadi. Isajon Sultonning “Abu Rayhon Beruniy” romanida muallifning ayni shunday bilim sohibi ekanligi anglashiladi. Yozuvchi Beruniy qiyofasini to'laqonli ochib berish uchun bir qancha badiiy vositalardan, usullardan, yo'llardan foydalananadi. Beruniyning qiyofasini bolalik davridan boshlab tasvirlar ekan, turli badiiy usullarga murojaat etishi bosh obraz qiyofasining konkretlashuvida muhim jarayon bo'lishi barobarida, asarning estetik vazifasining ham chuqurroq anglashinilishiga yordam beradi. Isajon Sulton Beruniyning badiiy qiyofasini yaratish maqsadida eng avvalo, Sharq xalqlari adabiyotida qadimdan mavjud bo'lgan hikoyatlar asnosida voqelikni bir-biriga ularshga, hikoyat ichida ham hikoyat yaratishga ahamiyat beradi. Asarning hikoyanavislari tilidan hikoya qilinishi, bosh obraz, ya'ni Beruniy qiyofasining ham yaratilshi bu romanning tiliga alohida to'xtalish joizligini ko'rsatadi. Bilamizki, adabiyotda *muallif tili* va *roviv tili* mavjud. Adabiyotshunos U. To'ychiyev roviy tilini *rivoyachi personaj tili* deb nomlaydi va bu haqida quyidagi fikrlarni keltiradi: “... rivoyachi personaj tili muallif tili bajargan vazifani bajara oladi, ayni holda, u o'ziga xos tarixi, maqsadi, xarakteri va tiliga ham ega, chunki muallif tili asarning syujet liniyasida harakat qilmaydigan, ammo voqeani bayon etuvchi kishiginadir. Shu sababli, rivoyachining o'zi mustaqil, o'z nomiga ega bo'lgan personajligi uchun xarakteri, ideali, tili o'ziga xos va aniq anglashilib turadi. Chunki badiiylik va obrazlilik rivoyachi tili uchun ham xosdir”<sup>2</sup>. Fikrimizcha, rivoyachi alohida obraz, alohida xarakter bo'lishi barobarida, uning imkoniyatlari muallif tiliga qaraganda ancha kengroq va hattoki, ko'proq hamdir. Zero, ularda syujetga aralashish, munosabat bildirish imkonini muallif tiliga qaraganda ancha yuqori. Shu sabab ham Isajon Sulton asarni yaratish jarayonida rivoyachi tilidan foydalanishni tanlaydi. Aytish joizki, “Abu Rayhon Beruniy” romanida rivoyachi bitta emas, ular bir nechta. Bu holat asar tilining yanada o'ziga xos bo'lishiga, syujetning qiziqarli kechishiga va kompozitsiyaning an'anaviy tuzilishdan ancha farqli bo'lishiga yordam beradi. Har bir roviy alohida obraz, alohida xarakter va har biri alohida til xususiyatiga ega hikoyachidir. Roviyarning biri podshoh, biri tabib, biri karvonboshi, biri mudarris, biri oddiy faqir odam va h.z. Ularning nutqi, ifoda uslui bir-biridan tamomila farq qilishi, bir- biriga o'xshamasligi tabiiy hol. Isajon Sulton albatta, bu narsani e'tibordan chetda qoldirmaydi. Yozuvchi bu hikoyachilarning kasbi, yoshi, xarakteri, ijtimoiy holatidan kelib chiqqan holda ularning tilini shakllantiradi va ular yordamida Beruniy qiyofasini bosqichma- bosqich yaratib, o'quvchi ko'z oldida Beruniyning mukammal portretini yaratadi. Dastavval, Beruniy portreti bilan *Abul A'lo Gurganjiy hikoyasi* orqali tanishamiz. Asarning boshidanoq roviy nutqi orqali muallif uning aqliy salohiyatiga, qobiliyatiga alohida e'tibor qaratadi. O'n to'rt yoshli Beruniyning ota-onasi kimligi haqidagi savolga “*Hammalatol -hattob edi*”<sup>3</sup>, deya

<sup>1</sup> Тимофеев. Основы теории литературы, М., 1971, стр. 62—63

<sup>2</sup> Umurov H. O'zbek adabiyotida badiiylik mezonlari va ularning marommlari. T. Yangi asr avlod. 2011. B. 236.

<sup>3</sup> “Masad” surasidagi yozuv, “o'tin orqalagan” degan ma'noni anglatadi.

bergan javobi uning zakovati bilan o'quvchini dastlabki tanishtiruv jarayoni edi deyish mumkin. Abul A'lo Gurganjiy uni: "uzun bo'yli, quyuq qora qoshli, ko'zlarida o'smirlarcha samimiyat va soqlik ufurib turgan Abu Rayhon", deya ta'riflab o'tarkan, o'quvchida bir hikoyaning o'zidayoq bosh obrazning ichki va tashqi olamini anglash imkon paydo bo'ladi. Zero, bosh qahramon portreti badiiy to'liq bo'lmasdan turib, asar mazmunan yetuk, g'oyaviy tomonlama mukammal bo'la olmaydi. Chunki: "portret badiiy asarda muhim g'oyaviy- estetik vazifani bajaradi"<sup>1</sup>. Ayni shu jihatdan Beruniy obraziga o'z davrining ijtimoiy holati, ilm ahlining orzu-umidlari ham qo'shilgan holda ijtimoiylik ham ma'lum darajada yuklanadi. Beruniy nafaqat ilm izlagani, balki butun boshli jamiyatning qutqaruvchisi sifatida ilmni ko'rishi roviylarning hikoyatlari, asosan *dialoglar* yordamida ochib beriladi. "Dialog personajlarning o'zaro munosabatlarini, xarakter qirralarini, ruhiy dunyolarini va umuman asar mazmunini ochishda muayyan vazifani ado etadi"<sup>2</sup>. Masalan, asardagi "Yadid Ibn Yunon hikoyasi"da ayni shu kabi diaoglarga guvoh bo'lamiz. Uning Yadid Ibn Yunon bilan kechgan suhbatlarining birida bildirgan fikrlariga e'tibor qarataylik:

— Allohga qasamki, yorug' olamda johildan ko'ra zararliroq yaratiq yo'q. shu damga qadar tevaragimdag'i insonlarga, voqeja va hodisalarga razm solib, maktabga olgan saboqlarimdan tashqari, sening va ustozim Mansur Ibn Iroqning menga bergen bilimlaringizdan boshqa birorta foydali narsa ko'rmadim.

Yadid Ibn Yunon Beruniyning bu vaqtida bor yo'g'i o'n olti yoshda bo'lganini yozar ekan, uning hayotga naqadar teran nigoh bilan boqishini, dunyoni jaholatdan qutqara oladigan yagona najot ilmda ekanini uqtirib o'tadi. Garchi asarda hikoyanavisnlarning asosiy vazifasi Beruniy haqida ma'lumot berish, uning ruhiy olamini yoritish, o'ziga xos qirralarini ko'rsatishdek tuyilsada, aslida yozuvchi ularning ham o'y-fikrlariga, ichki olamiga alohida e'tibor qaratadi. Ular orqali asar mazmunini, syujetni yanada kuchaytiradi, ular orqali bashariyatga xos bo'lgan orzu-umidlarni, muammolarni ko'rsatib berishga urinadi. Jumladan, Beruniyning ustozি Mansur Ibn Iroq o'z shogirdiga shunday maslahat beradi: "Iste'dodlilar xor, iste'dodsizlar izzatda bo'lgan bu zamonda o'z bilimlaringni ilm ahli bilan baham ko'rishing eng to'g'risidir. Johillar bilan aslo do'st tutinma, sal narsaga seni nodon va dahriy deb e'lon qilib yuborishlari hech gap emas". Bu nasihatlar nafaqat Beruniy uchun, balki butun insoniyat uchun saboq bo'la oladi. Yoxud Abu Nuos tomonidan "Ogil esang, ko'rlearning bozorida oyna sotma! Karlarning orasida g'azal aytna" kabi she'rlar asardagi butun umuminsoniy masalalarni o'zida aks ettirishi barobarida, boshqa obrazlarning ham salohiyatini, tafakkurini, ruhiy olamini ko'rsatib beradi. Beruniy, uning faoliyati bilan bog'langan holda asosiy e'tibor ma'rifatga, ilmga qaratiladi. Muallif bu kabi roviylarning fikrlarini o'quvchiga maslahat sifatida taqdim etsa, uning qalb ko'zini ochishga intilsa, yo'ldan adashgan, xato hayot tarzini tanlagan roviylar monologlari asnosida kitobxonni to'g'ri xulosa chiqarishga chaqiradi. Sobiyalar va Harroniylar vakilining tilidan aytilgan pushaymonlik, kechikkan afsus-nadomat har bir o'quvchini chuqurroq fikr yurishga, ma'lum xulosalar chiqarishga undaydi: "Hayoti dunyoda adashdik, chunki oramizda bilimli kishi yo'q, o'zimiz esa ilmdan uzoq va go'l edik. Bizdan boshqalar adashmasinlar, shoyad hayotimiz kelgusi avlodlarga o'rnak bo'la qolsa, degan ilinjdamiz". Bu kabi fikrlar, iqrorlar hech bir kitobxonni e'tiborsiz qoldirishi mumkin emas. Zero, adabiyotshunos H.Umurov ta'kidlaganidek: "Odamlar (kitobxonlar)ning hislarini qo'zg'atish, tuyg'ularimizdag'i to'lqinlarni uyg'otmoq orqali hayajonlantirish – estetik ta'sirdorlik ekan, badiiy obraz mag'zi to'q, hayotiy, umrboqiy bo'lgandagina baddiiy qimmatga ega bo'ladi; obraz yaratishga o'tadi, undan hayajonlanib o'rnak olamiz yoki nafratlanamiz"<sup>3</sup>.

Ko'rinib turganidek, asar syujeti qat'iy izchillikkiga ega. Sujet chizig'ida ortiqcha yoxud sun'iy tarzda qo'shilgan biror voqeja, biror obraz yoq. Boisi, "Agar asarda nimalardir tasvirlansa-yu, ular vositasida qandaydir fikr ifodalanmasa, aks ettirilgan voqeja-hodisalar kitobxon uchun ma'nosiz bo'lib qoladi. Aksincha, asarda yozuvchining o'y-fikrlari, mushohadalari mavjud bo'lsa-yu, muayyan hayotiy hodisalardan keltirib chiqarilmasa, ular kitobxon uchun mavhum, ishonilishi qiyin, quruq g 'oyalar bo'lib qoladi"<sup>4</sup>. Shu sabab romanda voqeja-hodisalar xalq hayoti va an'analarini bilan uyg'unlikda voqealar tizimi konkret tarzda izchillik bilan davom etadi. Roviylarning tilidan hayotiy hodisalar va voqealarga munosabat Beruniy yashagan tarixiy davr qiyofasining yanada tiniqroq namoyon bo'lismiga imkon yaratadi. Obraz yashagan muhit, davni o'zida aks ettirishi bilan hikoyatlarning ham estetik vazifasi yuksalib boraveradi. Asardagi bir qancha o'ziga xos bo'lgan, davning qiyofasini yoritishga yordam bergen fikrlarga diqqat qaratamiz:

Xizmatchi bolakay ichiga muz va rayhon barglari solingen ayron olib keldi.

Bu jahannam otashida muz qaydan kelaqolibdi? Kishilar Qiyotning qattiq qishida bo'lak- bo'lak muzlarni yerga chuqur ko'madilar. Bu usulni kim o'ylab topgan bo'lsa ham otasiga rahmat...

Qum otlarning ko'ziga kirib tiqilib qoladi. Tuyaning qovog'i esa ikkita bo'ladi:

biri barcha hayvonlarniki kabi teri, ikkinchisi esa shaffof qovoq. Qum -to'zonda shaffof qovog'ini yopib olib, bemalol yuraveradi.

Romanda bu kabi qiziqarli, hayotiy ma'lumotlarni ko'plab uchratish mumkin. Eng asosiysi, bu kabi ma'lumotlarning hech biri asarning syujet liniyasiga zo'rma-zo'raki olib kirilmagan. Muallif ayni shunday ma'lumotlar bilan asar

<sup>1</sup> Umurov H. O'zbek adabiyotida badiiylik mezonlari va ularning maromlari. T. Yangi asr avlod. 2011. B. 116.

<sup>2</sup> Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. B.98

<sup>3</sup> Umurov H. Adabiyot nazariyasi. T. B.34

<sup>4</sup> Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. T.Iqtisod-moliya. 2007. B.30

mavzusini yanada boyitib, sujetni yanada jonliroq bo'lishiga erishadi. Asarning bosh mavzusi Beruniy hayoti, uning ilmiy faoliyatni xususida bo'lsa-da, ammo roviylar tilidan aytilgan hikoyatlar bosh obraz faoliyatini yoritish barobarida o'zining qat'iy mavzusiga ega. Hikoyadagi kichik-kichik mavzular kelib asarning bosh g'oyasi, asosiy mavzusiga tutashadi va badiiylikning o'ziga xos ko'rinishini yuzaga keltiradi, o'ziga xos bo'lgan badiiy ijod hodisasi yuzaga keladi. "Ammo mavzuning bir o'ziga yozuvchi asarining va butun adabiyotning katta ijtimoiy rolini ta'min etolmaydi: har bir mavzu unga munosib badiiy saviyada ishlangandagina asar badiiy ijod hodisasi bo'lib, o'zining g'oyaviy-estetik vazifasini to'la bajaradi"<sup>1</sup>. Asarda roviylar hikoyatlari orqali nafaqat Beruniy qiyofasi, balki jamiyat qiyofasi ham ravshanlasha boraveradi. Jamiyat ilmga, olimlarga muhtojligi nafaqat Beruniy davrida, qolaversa, barcha davrlarda ham ahamiyatli ekanligini asar mazmunidan anglash, his qilish mumkin. Asarda Beruniy obraziga alohida yondashuv kuzatiladi. Muallif bu obrazni ham ijtimoiy, ham ruhiy tomonlama yoritib berishga intiladi. Har ikki holat ham badiiy asar uchun muhimligini e'tibordan chetda qoldirmaydi. Zero, obraz tasvirida ijtimoiylikning oshib ketishi uni sun'iylashtirsa, badiiylikni oshib ketishi asarning dolzarbigini yo'q qiladi. Biz yuqorida ijtimoiylikni yuzaga keltiruvchi holatlarni, vositalarni tahlil qigan bo'lsak, endi badiiylikni ta'minlovchi bir qancha vositalarga alohida e'tibor qaratmoqchimiz. Muallif bosh obrazning ichki olami, ruhiy holatini tasvirlash uchun o'xshatishlardan samarali foydalanadi. O'xshatishlar o'quvchinimg butun diqqatini o'ziga jalb qiladi. Aslida har bir badiiy-tasvir vositasi asarda kuchli ruhiy atmosferani hosil qiladi. Muallif ijodiy niyatining ochilishida ko'mak beradi. Eng mihami bu o'xshatishlar yangicha mazmunga ega ekanligi bilan kitobxon yodida qolib ketadi. Asarning ikkimchi qismida Abul A'lo Gurganjiy o'z so'zini: *Kun qaynoq harorat ufuradi. Issiq zo'ridan osmon tandirday oqarib qolganga o'xshaydi* kabi ifoda bilan boshlaydi. Juda ko'plab o'rinnlarda "*kun tandirday qizidi*" ifodasini eshitganmiz. "Beruniy" romanida esa, Isajon Sulton ayni an'anaviy xarakter kasb etgan o'xshatishni yanada boyitadi deyishimiz mumkin. Bilamizki, tandir olov yoqilganda dastaavval qorayib qiziydi. Ammo olov yonaverib maromiga yetib qizigan lahzadagina tandir oqaradi. Shundan so'nggina u non yopishga tayyor bo'lganini bilish mumkin. Yozuvchi ayni shu hayotiy holatni osmonning qizib oqarishi bilan uzviy bog'laydi va mahoratini namoyon etadi. Asar davomida bu kabi o'xshatishlarning har biri ma'lum bir funksiya bajaradi: qahramon ichki dunyosini ko'rsatadi, syujetning ma'lum izchilligiga xizmat qiladi, hattoki yozuvchining didaktik maqsadining yuzaga chiqishida muhim ahamiyat kasb etadi. Quyidagi matn tarkibida kelgan o'xshatish o'zida chuqur axloqiy ma'no ifodalay olishi bilan kitobxonni qiziqitiradi:

*Tangrining o'rgatishi men senga o'rgatganim kabi, birma-bir to'xtalib, ba'zilarini eslab, ba'zilarini unutib o'rgatmoq emas. Ya'ni o'zi xohlagan narsalarning xususiyatlarini, foydali yoki foydasiz jihatlarini bir lahzada, hali sen o'zingning nima ekanligingni bilmasingdan turib, ko'zaga suv quygan kabi quyib qo'yadi, desam, ishon.*

Ushbu matn tarkibida kelgan ilmni ko'zaga suv quygan kabi inson vujudiga quyish o'tasida ham shakliy, ham mazmuniy o'xshashlik mavjudki, yozuvchining badiiy topilmasi hech kimning e'tibordan chetda qolmaydi. Inson chindan ham bir ko'za misoli. Ilm uni to'ldiruvchi, butun qilguvchi manba. Olloh ayni shu ko'zaning yaratuvchisi. Istasa bir lahzada shu ko'zani to'ldirmoqqa qodir. Ammo vujud insonga berilgan ekan, uni to'ldirmoq uchun intilish, uni boyitish, unga ma'naviy ozuqa berish insonning burchidir. Kimdir buni anglab yetadi, kimdir esa yo'q. Ammo yozuvchi buni yaxshi ilg'aydi va o'quvchiga o'ziga xos tarzda yetkazib beradi. Qolaversa, bu kabi vositalar yordamida hikoyachilarning nutqini sayqallaydi, asarning badiiyatini boyitadi, mahoratini namoyish etadi. Bu kabi vositalarning barchasi obrazlarning hayotiyligini, jonliligini ta'minlaydi. Zero, "Badiiy mahoratning kaliti ham tasvirlangan obrazlarga jon kirita bilishda, hayot bag'ishlay olishdadir. Shu kalitni topmagan odam, yosh bo'lsin, keksa bo'lsin, ming xil usullarni bilsin, baribir, mahorat eshigini ocha olmaydi"<sup>2</sup>.

Isajon Sultonning oxirgi yillarda yaratgan badiiy asarlari, jumladan tarixiy romanlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, u mahorat eshigini ocha olgan ijodkordir. Ayniqsa, "Beruniy" romanida uning yozuvchi sifatidagi mahorati ancha oshganligi, tarixni yaratishdek mushkul vazifaga sidqidildan yondashgani ko'rindi.

"Abu Rayhon Beruniy" romanida hikoyatlarning o'ziga xos kompozitsiyaga ega ekanligi syujetning izchilligini, asarning o'ziga xosligini ta'minlash barobarida, bosh obraz qiyofasining ochilishida ham muhim estetik vazifa bajaradi. Bu estetik vazifani esa *monolog, diolog, o'xshatishlar, tarixiy ma'lumotlar, asarning o'ziga xos tili* kabi vositalar hosil qiladi.

#### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Тимофеев. Основы теории литературы, М., 1971, стр. 62—63
2. Umurov H. O'zbek adabiyotida badiiylik mezonlari va ularning maromlari. T. Yangi asr avlod. 2011. 236.bet
3. Umurov H. O'zbek adabiyotida badiiylik mezonlari va ularning maromlari. T. Yangi asr avlod. 2011. 116 bet.
4. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish.98 bet
5. Qodirov P. Adabiy o'ylar. Badiiy ijod haqida. T. Toshkent badiiy adabiyot nashriyoti,1965. 97 bet

<sup>1</sup> Qodirov P. Adabiy o'ylar. Badiiy ijod haqida. T. Toshkent badiiy adabiyot nashriyoti,1965. B.97

<sup>2</sup> Qodirov P. Adabiy o'ylar. Badiiy ijod haqida. T. Toshkent badiiy adabiyot nashriyoti,1965. B.269

## KASBIY MALAKAGA ME'YORIY TALABLAR

Ta'lrim jarayoniga oid ilmiy izlanishlarni mohiyatan oddiylashtirib, avvalo, barcha ilmiy-tadqiqot usullari: **kuzatish** – xulosa olib kelish, **suhbat** – ishonch hosil qilish, **hujjatlashtirish** – ma'lum bir kasbiy malakalar shakllanishiga yo'naltiruvchi harakatlar (manfaatlar) bilan uyg'unlashish, amaliy innovatsion g'oyalari – kasbiy malakalar – **modul** bilan yakunlanadi.

Shaxsda dunyoqarash, fikr-g'oya va manfaatli munosabatlар shakllanishi o'ta muhim ahamiyatga egaligi sir emas. Shaxs shakllanishi doimo eng avvalo, o'zida o'z o'rniga ega bo'lganligini tahlildan o'tkazib olish juda o'rinni holat. Tahllilar asosida ilmiy jihatdan e'tibor qaratilsa, yaqin o'tgan davrlarda teatr, san'at, adabiyot va musiqa shaxs shakllanishida muhim o'rinda turgan, jismoniy tarbiya va sportning o'rnini alohida aytish mumkin, oqibatda esa, jami intilishlar kitobni sevib o'qish bilan natijalarga erishish faraz (gipoteza)larini oshirgan. Bugungi takomilashgan axborot texnologiyalari va Internet tizimi o'zgacha ta'sir va tartibot bilan barpo bo'lmoqda.

Pedagogik ta'lim sohasiga oid ilmiy izlanishlarda ishlatalidigan ayrim atamalar, ba'zi fikr-mulohoza, xulosalarga qisqacha tushuntirish va izoh berishni dolzarb masala, deb hisoblaymiz. Sababi, atamalar mohiyatini pedagogik ta'lim sohasida, qolaversa, kasb-hunar ta'limida ilmiy (anglab yetgan) asosda tushunmaslik holatiga guvoh bo'lish mumkin (**izoh**: ilmiylik–anglash, anglanmagan tushuncha har qancha ilmiy bo'lsa ham shaxs tushunmaydi va qiziqmaydi, har bir tushunchani ta'lim oluvchi tushunishi zarur va shunda "ilmiylik" degan tushuncha oydinlashadi).

Aytish mumkinki, fan tarmog'i sifatida pedagogika – "bola yetaklash" ma'nosini beradi. Slavyanchada "shkola" so'zi "dam olish maskani" ma'nosini bergani uchun bolalar maktabgacha yoki boshlang'ich ta'limga "dam olish" uchun kelishini ta'minlab beradigan pedagogika fani tarmoqqa aylanishi shart.

Shu o'rinda aytish mumkinki, **bilim** – tabiat, jamiyat haqida shaxslar to'plangan haqqoniylar, **ko'nikma** – shaxsning amaliy vositalar (kitob, tarbiyachi) yordamidagi faoliyati, **malaka** – shaxsning avtomatlashgan zamonaviy faoliyati hisoblanadi. Bu tushunchalar o'z-o'zidan "**fan tili**" – kasbiy malakalar shakllanishini keltirib chiqaradi (**BKM** deb yuritiladi).

Shuningdek, ko'pincha ta'lim tashkilotlarida qo'llaniladigan "ta'lim mazmuni" tushunchasi va uning tarkibiy qismi: **o'quv fani, reja, dastur, adabiyotlardan** iborat. Zero, pedagogika fani tarmog'i mazmunini ishlab chiqishda shaxslarning yosh davrlarini maktabgacha va boshlang'ich ta'limda jiddiy mas'uliyat bilan e'tiborga olish zarur. Bunda o'quv predmetlari – "**fan tili – BKM**"ni shaxs ta'lim olishidagi "maktabgacha" va "boshlang'ich" bosqichlariga ajratish hamda o'zaro uzviyliqi, shuningdek, urf-odat, an'ana, qadriyat, boshlang'ich matematik (ilm-u fan) va filologik (donishmandlik) tushunchalarini o'rganish, o'qish va tanishishdan iborat bo'ladi.

Pedagogika fani tarmog'i jihatdan qaralganda, shaxsning maktabgacha yosh davri ochilmagan qo'riq, shu o'rinda bunga bitta dalil: shaxs 3 (uch) yoshida biologik nuqtayi nazardan "xotira"ga ega bo'ladi (biologik "til"da "xotira" so'zi boshqacha nomlanishi mumkin). Shu davrdan boshlab bolalarning asosiy vaqt o'tadigan bog'chalar ularni jiddiy kuzatishi, xulosalashi, hujjatlashtirishi va modulga intiltirishi juda zarur bo'ladi. Buning uchun ta'lim mazmuni va ularning ta'sir doirasi imkoniyatlarini Qonun va qonun osti normativ-huquqiy hujjatlarda mukammallashtirish lozim bo'lmoqda, desak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shu o'rinda, kasbiy malakalarda qo'llaniladigan atamalar, tartibot va mazmuniga yangi qarash bilan beriladigan xulosalarni keltirib o'tsak.

Xususan, **o'quv fani** – shaxsning yosh davri (ta'lim bosqichi)ga nisbatan ajratilgan vaqt (muddat) va hajm (chuqurlik)da **fan tili – BKM** shakllanishini ta'minlaydigan fan tarmoqlari nomlanishiga bog'langan amaliy va ilmiy atamalar yoki tushunchalar majmuasi bo'lsa;

– **o'quv reja** – shaxsning yosh davri (ta'lim bosqichi)da fan tili – BKM paydo bo'ladigan vaqt (dars, mashg'ulot) ni moliyaviy ta'minlaydigan me'yoriy hujjat sifatida kafolatlangan holda tasdiqlansa;

– **o'quv dasturi** – shaxsning yosh davri (ta'lim bosqichi)ga nisbatan ajratilgan vaqtida **fan tili – BKM** paydo bo'ladigan hajmini belgilaydigan me'yoriy hujjat sifatida tasdiqlansa;

– **o'quv adabiyoti** (darslik) – shaxsning yosh davri (ta'lim bosqichi)ga ajratilgan vaqt va hajmda **fan tili – BKM** paydo bo'lishini jamlagan yozma yoki elektron manbalar bo'lsa, uzlusiz ta'lim jozibadorligi yanada oshadi.

Shu nuqtayi nazarlarni qo'pol va sodda savollar bilan aniqlashtirsak-da, bugun qaysi maktab direktori yoki rahbari, shuningdek, bog'cha rahbarlari ta'lim oladigan bolalarni axtarib, ta'lim muassasasining kafolatlangan ta'lim mazmuni (o'quv reja, dastur, predmet)ni tatbiq qilish uchun ota-onalarga kafolat berish bilan qonuniy kuchga ega shartnomalar tuzishmoqda. Bugungi uzlusiz ta'lim jarayoni tushunchalari, mohiyati, tartiboti va mazmuni aniqlikdan umumiyligka, bir butun holda kasbiy malakalar shakllanganligini ta'minlab beradigan ta'sirga ega bo'lsagina shaxs shakllanishini mukammal ta'minlaydigan haqiqiy ta'lim bo'ladi.

Zotan, maktabgacha va boshlang'ich ta'limga o'qitishni tashkil etish va shu sohaga kadr tayyorlash tizimini tubdan yangilash, amalda oddiy ko'ringan ta'limga poydevorini yanada aniqlashtirish kelajakda muhim natija bo'ladi. Ta'limga jarayoni ishtirokchilari tomonidan tashkil etilgan mazmun avvalo, ta'limga jarayoni – dars tashkil etuvchining o'ziga kerak bo'la boradi.

Darvoqe, pedagogik ta'limga shaxs yosh davri (ta'limga bosqichi)ga mos ta'limga mazmunini shakllantirish bugungi kunda o'ta dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi. Shaxs "tajriba – sinov (eksprement) obyekti" degan soxta ilmiy qarashlarni to'xtatish va ta'limga mazmunidagi muammolar (**o'quv adabiyotlari** – darslik)ga oid ilmiy izlanishlar yuzaga kelishi va uzlusiz ta'limga tavsiya etilgan o'quv adabiyotlari, eng muhimi ularni yozish hamda nashr etishga nisbatan javobgarlik paydo qilish tartibini mukammal joriy etish o'ta dolzarb bo'lib turibdi.

Mazkur masalalarni yanada aniq hamda tiniq tushunishga oid ta'limga mazmuni (o'quv reja, dastur, fan)ni yaqinidan bilish uchun ayrim to'ldiruvchi tavsiyalar ilgari surilmoqda:

1. Davlat ta'limga standarti, darslik (adabiyot), dissertatsiyani o'qishga intilayotgan yoki ta'limga mazmunini yangilash, o'zgartirish uchun fikr-g'oyalarni ilgari surayotgan pedagog yoki ilmiy izlanuvchilar tarkibini aniqlash.

2. Pedagogik sohaga oid ilmiy izlanishlar natijasida ta'limga mazmuni (**o'quv fani, rejasi, dasturi va adabiyoti**) masalasi yoki kamchiligi hamda ularni bartaraf etish haqida oddiy va tushunarli takliflar, yechimlar berishni yuzaga keltirish zaruriyatini belgilash.

Xullas, uzlusiz ta'limga shaxslarni ushlab turish emas, maqsadli malakalar majmuasi (moduli)ga oid bilim va ko'nikma asosida yo'naltirish, shunga mos kafolat beradigan ta'limga mazmuni (o'quv predmeti, reja, dastur va adabiyotlar – bugungi kunda zamonaviy xalqaro atama sifatida – modul, platforma) tayyorlash ham farz, ham qarz hisoblanadi.

**Dilnoza Istamova,**  
Navoiy davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

## **PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA CHET TILINI MUTAXASSISLIK FAN SIFATIDA O'QITISH METODLARINI TAKOMILLSHTIRISH**

**Annotasiya:** Ushbu maqola chet tillarini o'qitishda mutaxassislik fan sifatida tilni idrok etish usullaridan foydalanish, tahvililay yondashuv, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga bag'ishlangan. Maqolada chet tilini o'qitishda loyiha texnologiyasi usulidan foydalanishning maqsadga muvofiqligi asoslanadi, talabalarning ushbu o'qitish metodologiyasini qo'llashga bo'lgan qiziqishi oshadi. Ta'limga loyihamalarini amalga oshirish orqali talabalar keyinchalik amaliy mashg'ulotlarda duch keladigan mavzularga o'xshash muammolarni hal qilishni o'rganadilar. Bu ularning chet tilini o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi.

**Kalit so'zlar:** takomillashtirish, o'qitish, o'qitish usullari, tajriba, pedagogik masalalar, texnologiyalar

**Аннотация:** Данная статья посвящена использованию методов языкового восприятия, аналитического подхода, развитию критического мышления как специальности при обучении иностранным языкам. В статье обосновывается целесообразность использования метода технологии проектов при обучении иностранному языку, а также повышается интерес учащихся к использованию данной методики обучения. Выполняя образовательные проекты, студенты учатся решать задачи, аналогичные темам, с которыми они столкнутся позже на практике. Это повышает их мотивацию к изучению иностранного языка.

**Ключевые слова:** совершенствование, обучение, методы обучения, опыт, педагогические вопросы, технологии.

**Abstract:** This article is devoted to the use of methods of language perception, analytical approach, development of critical thinking as a specialty in teaching foreign languages. The article substantiates the expediency of using the project technology method in teaching a foreign language, and increases the interest of students in using this teaching methodology. By carrying out educational projects, students learn to solve problems similar to the topics they will encounter later in practical training. This increases their motivation to learn a foreign language.

**Keywords:** improvement, teaching, teaching methods, experience, pedagogical issues, technologies

**Kirish:** Dunyoda ta'limga olish sezilarli darajada yaxshilandi, ammo pedagogik loyiha asoslangan texnologiyalar orqali o'rganish hali ham muammo bo'lib qolmoqda. Muayyan texnologiyalar va o'qitishda qo'llaniladigan pedagogik usullardan foydalanish bo'yicha oqilonalar o'quv dasturlarini inventarizatsiya qilish, o'rganish va amaliyot orqali takomillashtirish mumkin, biroq yangi va samaraliroq texnologiyalar paydo bo'lishi bilan bunday resurslar va tajribalar tez-tez ishlatalmaydi.

Binobarin, nufuzli olimlarning o'qitish metodikasining kognitiv tajribasi o'quv jarayoniga yaxshiroq ta'sir qiladi. Bundan tashqari, axborotlashtirish inson hayotining barcha jabhalariga kirib, har bir shaxsning individual

qobiliyatlarini oshirish uchun ko'proq imkoniyatlar yaratadi. Yangi ko'nikma va bilimlarni egallash tezligi muammosi juda muhim, chunki ular tezda eskiradi. Shu sababli ham zamonaviy ta'lif jarayonida o'quvchini o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishish va turli muammolarni hal qilish uchun mustaqil ravishda axborot to'plash va qo'llashga o'rgatish juda muhimdir. Bu o'rganishga vakolatli yondashuvning muhim tarkibiy qismidir.

Ushbu maqolada to'plangan ma'lumotlar T.Robbins, R.Anton Uilson kabi ko'plab taniqli va muvaffaqiyatlari pedagoglarning tajribasi va bilimlariga asoslangan bo'lib, tilni his-tuyg'ular va analitik idrok orqali idrok etishga qaratilgan. Hech kimga sir emaski, til bilish va bilmaslik ko'pchiligi o'qituvchilar yoki hatto metodika tufayli emas, balki idrokning emotsiyonal holati psixologiyasi tufayli muvaffaqiyatsizlikka uchragan.

**Metodologiya.** Pedagogik loyiha usuli - oliv ta'lif muassasasidagi tashkiliy va tarkibiy faoliyat bo'lib, u o'quvchilarning kelajakdagi faoliyatini modellashtirish va ta'limga shaxsiy yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirishdan iborat. Loyerha usuli talabalarning bilim qobiliyatini rivojlantirishga, axborot makonida mustaqil harakat qilish, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatiga asoslangan. Pedagogik loyiha usuli boshqa nazariy yoki amaliy ahamiyatga ega bo'lgan muammoni hal qilish natijasida erishish mumkin bo'lgan natijaga erishish uchun pragmatik istak g'oyasiga asoslanadi. Bu natija odatda kuzatilishi va amalda qo'llanilishi mumkin. Pedagogik loyiha usuli har doim talabalarning - guruh yoki individual mustaqil faoliyatni o'z ichiga oladi, ular ma'lum vaqt oralig'ida bajaradilar, u har doim qandaydir muammoni hal qilishni o'z ichiga oladi.

**Asosiy.** Pedagogik loyiha metodologiyasining mazmuni shundaki, talaba o'z shaxsiy ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda o'rganish maqsadini va ularni qanday olish kerakligini mustaqil ravishda belgilaydi. Bizning fikrimizcha, ta'limgagi loyiha metodologiyasining asosi bo'lgan talabaga yo'naltirilgan ta'lif o'qituvchi va talaba o'rtafigi an'anaviy "obyekt-sub'ekt" o'zaro ta'siri sxemasini "sub'ekt-sub'ekt" sxemasiga o'zgartirishni o'z ichiga olishi kerak. Chet tilini o'rgatishda asosiy maqsad nutqiy faoliyatdir bo'lib boradi.

Turli fanlarni o'qitish jarayonida loyiha metodidan foydalanish tahlili asosida chet tilini o'qitishda undan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Biz tanqidiy fikrlash psixologiyasidan foydalanishimiz, tanangiz va his-tuyg'ularingizdan foydalanishimiz, ongsizligingizdan foydalanishimiz kerak.

Tabiiyki, siz ushbu usullarning ikkalasini ham darsdan oldin va dars davomida birlashtirishingiz kerak. Siz bir necha daqiqa chuqur nafas olasiz, nafasingizni 2-4 soniya ushlab turasiz, keyin nafas olasiz. Shu bilan birga, tanangizning holatini, qanday harakat qilayotganingizni, qanday o'tirganingizni unutmang. Hatto bu ikki oddiy usul ham tezroq o'rganishga imkon beradi, chunki mashqlar paytida miyangiz hushyor bo'ladi. Zerikkaningizda, charchaganingizni his qilganingizda, miyangiz yarim uyquga ketadi va siz samarali o'qimaysiz. Chuqur nafas olayotganingizda, tanangiz to'g'ri bo'lса, siz o'zingizni ajoyib his qilasiz va tezroq o'rganasiz. Axir, agar siz o'zingizni boshqacha his qilsangiz, siz boshqacha o'rganasiz. Yuzingiz haqida unutmang, chunki u nafaqat his-tuyg'ularni ifodalashi, balki ularni yaratishi mumkin. O'qitilayotgan har qanday o'rgatilganligi o'rtafigi muvozanat butun guruh uchun o'rganishni qiziqarli va qiziqarli qiladi. Bundan tashqari, ko'pchilik o'qituvchini talaba muvaffaqiyatining kaliti deb hisoblaydi, ammo o'qituvchi tegishli tayyorgarlikdan o'tishi va o'qitish strategiyalari ko'lamini kengaytirish uchun tez-tez malaka oshirish seminarlarida qatnashishi kerak. Shunday qilib, talabalar o'qitishga har tomonlama yondashgan va shunchaki turish va gaplashish yoki bitta tuzilmada o'qitish emas, balki talabalar muhokamasi orqali o'rganishga ochiq bo'lgan o'qituvchilarga yaxshi munosabatda bo'lishadi. Rag'batlantiruvchi dars o'tkazish - bu hammasining boshlanishi. Sizningcha, talabalar muloqoti talabalarning shaxsiy tajribalari bilan bog'liq vaziyatlarga tegishli bo'lishi kerakmi? Bu esa o'quv jarayoniga o'quvchilarga ko'proq yondashish imkonini beradi. Dizayn metodologiyasidan foydalanganda nafaqat og'zaki aloqa vositalaridan, balki chizmalar, jadvallar, grafiklar, diagrammalar va boshqalardan ham foydalanish mumkin. Fonogrammalarda fonogrammalar va tovushni takrorlash vositalaridan foydalanish mumkin. Shunday qilib, muloqot ko'nikmalarini takomillashtirish muayyan ma'lumotlarni uzatishning turli xil vositalari bilan to'ldiriladi. Buning yordamida grammatic tuzilmalar va leksik vositalarni beixiyor yodlash sodir bo'ladi, tasavvur va ijodiy fikrlash rivojlanadi. Fikrlarni erkin ifodalash va idrok etilayotgan narsani chuqur anglash uchun sharoitlar yaratiladi.

Ma'noni etkazish usullarining xilma-xilligi o'quvchilarni minimal til materiali bilan ham erkin ijod qilishga undaydi. Loyihani amalga oshirish jarayonida o'rganilayotgan til talabaning axborot, o'quv va ijodiy amaliy faoliyati vositasiga aylanadi va shu bilan birga til uni qo'llashning turli jihatlarida o'rganiladi. Loyihani amalga oshirish jarayonida olingan natijalarni tekshirish va baholash, shuningdek, yangi muammolarni aniqlash. Ushbu tadqiqot doirasida Dnepr milliy universitetining tayyorgarlik bo'limi talabalariga ukrain tilini o'rgatishda loyiha usullari qo'llanildi. Ushbu universitetda barcha fakultetlarda ta'lif ukrain tilida olib boriladi. Universitetda o'qishni istagan chet ellik talabalar dastlab yil davomida ukrain tilini o'rganadigan tayyorgarlik bo'limida o'qiydilar. O'qish boshlanishidan oldin talabalar so'rovi o'tkazildi. Ulardan ukrain tilini o'rganishda qanday qiyinchiliklar paydo bo'lishi so'ralgan. Respondentlarning 45 foizi ilmiy atamalarni o'zlashtirish qiyinligini, bu atamalarni bilmay turib, o'z mutaxassisligi bo'yicha adabiyotlarni o'qish qiyinligini ta'kidlagan. Shu bilan birga, talabalar kelajakda qaysi fakultetda o'qishni xohlashlaridan qat'i nazar, tayyorgarlik bo'limida tahsil oldi. Ushbu muammoni hal qilish uchun loyihaga asoslangan ta'lifdan foydalanish taklif qilindi.

**Xulosa.** Loyihalarni amalga oshirish muammoni hal qilish va real hayotdan olingen mahsulotni yaratish jarayonida o'z-o'zini o'rganish va o'zini o'zi anglash orqali talabaning o'qituvchiga qaramligini bartaraf etishga imkon beradi. Mening fikrimcha, loyiha asosida o'qitishning asosiyligi qiymati allaqachon olingen bilim, ko'nikma va ko'nikmalarni yangilash, shuningdek, yangilarini o'zlashtirish deb hisoblanishi mumkin. Har bir loyiha uchun talabalar o'z harakatlarini boshqalarning sa'y-harakatlari bilan muvofiqlashtira olishlari kerak. Loyihani amalga oshirish turli bilim sohalaridagi bilimlardan foydalanishni talab qilsa, uni optimal deb hisoblaymiz. Chet tilini o'rganish jarayonida loyiha usulidan foydalanishning afzalligi shundaki, ular tadqiqot mavzusini ustida ishlash orqali o'zlarining so'z boyligini yaxshilaydilar va chet tilida muloqot qilishni mashq qiladilar. An'anaviy o'quv dasturlari ko'pincha ta'limga oid ma'lumotlar bilan to'la bo'ladi va bu nazariya va amaliyot o'rtasidagi tafovutga olib kelishi mumkin, chunki amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish qiyin. Loyihaviy ta'larning afzalligi shundaki, o'quv loyihasini amalga oshirish jarayonida talaba amaliy muammolarni hal qilishda bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi. Loyiha usuli bizga ma'lum bir o'quvchi yoki talabalar guruhining olgan bilimlarini amalda qo'llash qobiliyatini, shuningdek, o'z-o'zini tarbiyalash qobiliyatini aniqlash imkonini beradi.

#### Foydalilanigan adabiyotlar

1. D.S.Istamova Technology of development of socio-cultural competences in students in preparation for pedagogical activity 2021// Philadelphia
2. D.S. Istamova Technology of Development of Pragmatic Competence of Future Teachers (On the Example of Scamper Technology)
3. Лутфиллаев, М. Х., & Абдуллаева, Ш. А. (2019). Вопросы разработки и внедрения программного обеспечения педагогической диагностики (на примере высших учебных заведений республики Узбекистан). *Образовательные ресурсы и технологии*, (3) (28).
4. Рузметова, С. Т., & Абдуллаева, Ш. А. (2021). Использование цифровых технологий в образовании. *Проблемы современной науки и образования*, (3) (160)).
5. Ш.А.Абдуллаева, (2018). Совершенствование механизмов профилактической и реабилитационной работы снижения роста правонарушений среди несовершеннолетних. *Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития*(pp. 459-464).
6. Ш.А.Абдуллаева, & М.А.Зайнитдинова, (2018). Совершенствование качества образования в системе переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров. *Научный результат. Педагогика и психология образования*, 4(3).

Umida Mamurjanovna,

O'zbek va chet tillar kafedrasi dotsenti  
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalari universiteti

## OLIY TA'LIM MUASSASALARI XORIJIY TIL DARSLARI JARAYONIDA ZAMONAVIY JAMIYATNING MA'NAVIY -AXLOQIY TAMOYILLARI VA QADRIYATLARI

**Annotasiya:** Ushbu ilmiy maqolada texnika oliy ta'lif muassasalarida zamonaviy jamiyatning ma'naviy -axloqiy tamoyillari va qadriyatlar ochib berilgan. Umumiyligi oliy ta'lif makoniga kirgan shaxs talaba butun xalq millatlararo muloqot tili va turli vositalariga ega bo'lishi kerak.

**Kalit so'zlar:** ma'naviy -axloqiy tamoyillar, qatriyatlar, talaba, muloqot tili, yondashuv, tarbiya

**Abstract:** This scientific article reveals the spiritual and moral principles and values of modern society in technical higher education institutions. A person entering a general cultural higher education space, a student must have the language and various means of international communication.

**Key words:** spiritual and moral principles, values, student, language of communication, approach, education

**Аннотация:** В данной научной статье раскрываются духовно-нравственные принципы и ценности современного общества в технических вузах. Человек, вступающий в общекультурное пространство высшего образования, студент должен владеть языком и различными средствами международного общения.

**Ключевые слова:** духовно-нравственные принципы, ценности, студент, язык общения, подход, образование.

Bugungi kunda ma'naviy -axloqiy tarbiya uning metodologik asoslarini nazariy tushunishga, ularga yaxlit yondashuvni ishlab chiqishga muhtoj. Jamiyat va shaxsiyat mentalitetining o'zgarishi, yosh avlodning qadriyat yo'naliishlarining o'zgarishi bilan bog'liq jamiyat rivojlanishining yangi bosqichi boshlandi. Faqat iste'mol qila olmaydigan, yaratishga qodir, ma'naviy boy, yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash zarurati tobora keskin sezilmoqda.

Talabalarning ma'naviy va axloqiy rivojlanishi - jamiyatning jadal rivojlanishi sharoitida shaxsni ijtimoiylashtirishning eng muhim jihat, ijtimoiy faoliyat va jamiyat hayotining turli sohalariga bosqichma -bosqich va ongli ravishda qo'shilish omili.

Ma'naviy -axloqiy tarbiya muammolari V.A.Belyaeva, Blonskiy, S.N. Bulgakov, V.P. Vaxterov, K.N. Ventzel, Z.V. Vidjakova, V.V. Zenkovskiy, P.F. Kapterev, P.F. Lesgaft, V.M. Menshikov, A.N. Ostrogorskiy, V.P.Ostrogorskiy, N.I. Pirogov, M.M. Rubinshteyn, K. D. Ushinskiy kabi o'qituvchilar, psixologlar, faylasuflar va boshqalarning tadqiqotlarida ko'rib chiqiladi.

Ko'rinib turibdiki, global madaniy jarayonning to'liq ishtirokchisi bo'lism uchun zamonaviy oly ta'lim o'quvchilari insoniyat tarixida asrlar davomida to'plagan ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni o'zlashtirishi kerak. Umumiy madaniy makonga kirgan shaxs va butun xalq millatlararo muloqotning turli vositalariga ega bo'lishi kerak. Shu nuqtai nazardan, hech bo'limganda bitta chet tilini bilish katta rol o'ynaydi.

Til - bu etnos madaniyatining ombori, u odamlarning butun kognitiv tajribasini, uning axloqiy -axloqiy, ijtimoiy-madaniy, badiiy va estetik, tarbiyaviy ideallarini qamrab oladi. Zamonaviy oliy ta'lim talabalarini chet tillarini o'qitish jarayoni yosh avlodning ma'naviy, axloqiy, mafkuraviy, siyosiy, estetik, mehnat tarbiyasining noyob pedagogik salohiyatini o'z ichiga oladi.

Agar biz o'qituvchilarning taniqli mutafakkirlari tajribasiga murojaat qilsak, unda har bir kishi o'z madaniyatini va boshqa birovning tili orqali ma'naviyatga katta ahamiyat beradi. «Til - insoning ma'naviy madaniyatining hodisasi, ijtimoiy ong shakllaridan birdir» - N. Mechkovskaya tilning o'ziga xos xususiyatlardan birini alohida ajratib ko'rsatdi. O'z davrining eng o'qimishli o'qituvchilardan biri V. A. Suxomlinskiy: «Til - xalqning ma'naviy boyligi», «Qancha til bilsa, shuncha el bilar», deb yozgan. Xuddi shunday, S. V. Gordeeva «chet tili» fanidan foydalanishni insoniyatning ma'naviy va axloqiy qadriyatlariga e'tiborni qaratishga yordam beradigan noyob usullardan biri deb hisoblaydi.

Demak, ma'naviyat tarbiyasini faqat chet tili darslarida ijobiy deb hisoblash mumkin. Zero, chet tilini o'rganishda maqsadlardan biri, E.I.Passovning fikricha, nafaqat pragmatik bilim, ko'nikma va malakalar, balki ta'lim ham bo'lishi kerak. Bunda mazmun - bu madaniyat, bu shaxsning faoliyatda shaxsan o'zlashtirgan ma'naviy qadriyatları, shaxsning shakllanishi jarayoni sodir bo'ladijan makon sifatida tushuniladi.

Tadqiqot muammosi - ingliz tilini o'qitish jarayonida o'smirlarning ma'naviy -axloqiy tarbiyasi uchun pedagogik sharoit yaratish. Bu muammoni hal qilish uchun o'qituvchi nafaqat o'qitish metodikasini bilishi, balki fransuz tilini o'qitish jarayonida o'z faoliyatini ma'naviy va axloqiy tarbiyaga yo'naltirish qobiliyatini ham talab qiladi.

Ishning maqsadi frantsuz tili darslarida maktab o'quvchilarining ma'naviy -axloqiy tarbiyasini amalga oshirishning pedagogik shartlarini nazariy asoslash va sinab ko'rishdir.

Muammoni o'rganishda, maqsad, tadqiqot ob'ekti va predmetiga muvofiq quyidagi vazifalar qo'yigan:

1. Talabalarning ma'naviy -axloqiy tarbiyasi bo'yicha pedagogik adabiyotlarni o'rganish.
2. Chet tilini o'qitish jarayonida talaba yoshlarning axloqiy fazilatlarini o'rganishning metodologik asosini tanlash.
3. Chet tili o'qituvchilari tomonidan qo'llaniladigan talabalarni axloqiy tarbiyalashning eng samarali usullari va usullarini aniqlash.

Talaba yoshlarning ma'naviy va axloqiy tarbiyasi muvaffaqiyatli amalga oshiriladi:

- darsda o'quv materialining mazmuni bo'yicha ta'lim imkoniyatlarini amalga oshirishda;
- o'qituvchi axloqiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradigan usullarni, vositalarni qo'llaganda.

Tadqiqot mantig'i shundaki, muammoning nazariy tushunchasi, uni hal qilishning uslubiy yondashuvlari; empirik material to'plash, maktab o'quvchilarini chet tili yordamida ma'naviy -axloqiy tarbiyalashning pedagogik tajribasini tahlil qilish va umumlashtirish.

Yaqinda yoshlar hayotida barcha jahbalarining ma'naviy va axloqiy sohada o'zgarishida ta'sir ko'rsatdi. Insonparvarlik insoniyat borligining eng chuqur savollarini kelajak avlodlar uchun hayotining ma'nosini ochib berdi. Pedagogika yoshlarga konstruktiv ta'sir ko'rsatadigan tarbiya usullari va usullarini belgilab, zamon talablariga javob berishga chaqirildi.

Ta'limganing ma'naviy yo'naltirilgan paradigmasini asoslash zarurati, ma'naviyat muammolarini hal qilishning dolzarbliyi yangi O'zbekistonda qiyomat-semantik vaziyat bilan bog'liq.

Davlat va ta'lim tizimining ma'naviy -axloqiy tarbiya g'oyasiga zamonaviy jamiyatida va insonni qayta tiklanishining asosiy sharti sifatida murojaat qilishi tasodifiy emas. Ma'naviy tanazzul bu- pragmatizm, hayot ma'nosining yo'qolishi. O'smirlarning giyohvandlik va ichkilikbozlik - bu jamiyatning ma'naviy inqirozi va jamiyatning ma'naviy inqirozidan dalolat beruvchi zamonaviy jamiyat va odam holatining xususiyatlari va shaxsning ruhiy salomatligidir. Ma'naviy -axloqiy tarbiyaning mohiyati nimada? Avvalo, ma'naviyat va axloq nima ekanligini, ma'naviy tarbiya har doim axloqiy bo'lishi mumkinmi, axloqiy tarbiya - ma'naviyimi, buni aniqlash kerak.

Xulosa qilib shuni aytamizki, ma'naviyat, odamning ongi va o'zini anglashingning sifat xarakteristikasi bo'lib, uning ichki dunyosining yaxlitligi va uyg'unligini, o'z chegarasidan chiqib ketish va atrofidagi dunyo bilan munosabatlarini

uyg'unlashtirish qobiliyatini aks ettiradi. Bu ta'lim, madaniy ehtiyojlar va qiziqishlarning kengligi va chuqurligi bilan emas, balki ruhning doimiy va tinimsiz ishlashini, bu dunyoda dunyoni va o'zini anglashni, o'zini takomillashtirishga, o'z ichki makonini o'zgartirishga intilishni nazarda tutadi. dunyo, o'z ongini kengaytirish. Bu, shuningdek, shaxsning o'ziga xos hissiy tuzilishi bo'lib, u ruhning nozik harakatlarida, odamni o'rabi turgan hamma narsani yuqori idrok etishda, yuksak ma'naviy holatga ega bo'lish qobiliyatida va odamlar o'tasida nozik ruhiy aloqalarni o'rnatishda namoyon bo'ladi. odamga nisbatan sezgir munosabat, uning ma'naviy o'sishi va farovonligi haqida sayg'urish.

#### Foydananilgan adabiyotlar

1. Bazarova U.M. The Role of Spiritual and Moral Education of Students of Technical University in the Lessons of Foreign Languages // Philadelphia, USA-2019.-614-616s.
2. Bazarova U.M. The state of the problem of moral and aesthetic education of students by means of a foreign language at the present stage // International scientific journal "Scientific Horizons" No. 1 / Moscow 2019
5. U.M.Bazarova Improvement of mechanisms of moral and aesthetic education of students in foreign language lessons of a technical university//Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities 11(11), 2021
6. Bazarova, U. (2022). Spiritual and moral education of students in the use of technology in the preparation of future professionals for innovative activities in foreign language classes. *Архив научных исследований*, 2(1). извлечено от <http://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/1812>

**Palzada Bakhieva,**

*A trainee teacher of Nukus State Pedagogical Institute*

## THE ROLE OF LANGUAGE AWARENESS IN METHODOLOGY

**Annotatsiya:** Til xabardorligi - bu tilni samarali o'rganish, o'qitish va tildan foydalanishga asoslangan zamонави tushuncha. Tilni o'zlashtirishda o'quvchilarining til xabardorligini oshirish muhim rol o'ynaydi va bu maqola chet tilini o'rgatish va o'rganishda til xabardorligining mohiyati aks etgan.

**Kalit so'zlar.** Til xabardorligi, yondashuv, metodologiya, kognitiv, aniq, o'rganish, o'qitish

**Annotation:** Language Awareness is a modern concept which is based on effective language learning, teaching and language use. Raising learners' language awareness plays an important role in acquiring the language and this work justifies the essence of Language Awareness in teaching and learning Foreign Language.

**Key words.** Language Awareness, approach, methodology, cognitive, explicit, learning, teaching

**Аннотация:** Языковая осведомленность – это современная концепция, основанная на эффективном изучении, преподавании и использовании языка. Повышение языковой осведомленности учащихся и учителей играет важную роль в овладении языком, и эта работа обосновывает суть языковой осведомленности при преподавании и изучении иностранного языка.

**Ключевые слова:** Языковая осведомленность, подход, методология, когнитивные, явные, обучение, преподавание

Language Awareness, defined as explicit knowledge about language, and conscious perception and sensitivity in language learning, language teaching and language use, fits with this holistic view on language teaching and learning. Language awareness aims to complement language learning by learning about language, it promotes linguistic reflection and it stimulates the use of higher-order and creative thinking skills.

Language Awareness as a methodology has been advanced by Wright and Bolitho, Borg, focusing on Language awareness in language teacher education. Wright and Bolitho [5: 299-300] view Language Awareness as a methodology with which to explore language and language use, and its connections with and implications for classroom practice. Their methodological framework of Language Awareness activities, targeted at ELT teachers and teacher trainers, is built on the fundamental knowledge about language (KAL) of the teaching profession, which is crucial yet often underdeveloped. Language Awareness work sensitizes teachers to linguistic phenomena and inspires their inquiry into language, by exploring language, by reflecting on discoveries and previous knowledge, by seeing language in different ways. With the conviction that only a linguistically-aware teacher can enhance language learning, Wright and Bolitho promote Language Awareness with a top-down approach: first experimenting possibilities of Language Awareness activities and demonstrating them for teachers, then inducing principles of their design, and eventually equipping teachers with the necessary expertise and an expanded and enriched knowledge base to apply Language Awareness work in their language classrooms.

Borg [2:62] looks into the principles underlying Language Awareness as methodology in foreign language teaching. Different from the general understanding of Language Awareness as a concept, his view gives insights into the characteristics of both Language Awareness methodology and Language Awareness -oriented teacher

training. His central claim is again the importance of exploration of the ever-changing language, stating that learning about language- is the on-going investigation of a dynamic phenomenon. He depicts how discovery-oriented tasks which are both affectively and cognitively motivating' can foster learners explicit understanding of language and an awareness of their own learning.

The main features of his Language Awareness methodology include:

- 1) learning about language as an on-going investigation of a dynamic phenomenon;
- 2) taking about the language as the indispensable means of learning a language;
- 3) learner-centred exploration and discovery' as the most effective process;
- 4) learners' affective and cognitive engagement for effective awareness-raising;
- 5) development of learners' knowledge about language and skills for continuous autonomous learning.

The investigation of the work is based on teaching grammar and the participants of the research are students. These students are all in the first year of high school. Ninety students have taken part in the research by doing an activity. In order to identify students' language awareness we have designed an activity based on grammar and vocabulary. Students have done the task via telegram group which is convenient to do and check. A grammar activity is designed taking into account the level of the students and also it helps to increase and assess learners' language awareness including form, function and meaning of the language.

### Grammar Activity

Find participles from the given paragraph and identify the function of these participles in sequenced order.

Jack is an intelligent and optimistic student. He often visits fascinating exhibitions. Swimming is his favorite sport. He enjoys playing the piano.

This activity is not just grammar activity but awareness-raising activity and the following steps justify the reasons why it raises learners' language awareness:

- Reflect on the form of participles;
- Notice them in the sentence;
- Revise the functions of the participles
- Identify the types of participles;
- Differentiate the usage of participles
- Analyze each sentence
- Find the types of participles.
- Put in sequenced order

Following these steps learner raises language awareness as it gives opportunity to revise the form, function and meaning of the participles that makes the students aware of the ways in which a certain participle can be used. Furthermore, it makes the students compare the uses of participles, this makes students aware of the different usage of participles and gives opportunity to see the difference of participles in terms of function and use.

The task has been taken from 90 students via telegram through quiz test in the format of multiple choice. From the participants 71 students (80%) have the correct answer adjectival, nominal, verbal, other 20 percent students have the other wrong two answers: 11 students have the answer verbal, adjectival nominal and 9 students have chosen the answer nominal, verbal, adjectival.

Figure 1 The Survey Result of Grammar Activity

The task has been taken from 90 students via telegram through quiz test in the format of multiple choice. From the participants 71 students (80%) have the correct answer adjectival, nominal, verbal, other 20 percent students have the other wrong two answers: 11 students have the answer verbal, adjectival nominal and 9 students have chosen the answer nominal, verbal, adjectival. From the results of the quiz, it is clear that most students are language aware but it needs to improve students language awareness as the question is based on grammar which they have been learnt grammar in order to pass entrance exams and they have the course grammar in context during their first year. It proves that even they have been teaching language system particularly grammar, students' language awareness should be raised. Mainly the results of the quiz test justify that language awareness is required to have for all learners despite their language level. The exemplification of our proof is the results of

the quiz as 71 from 90 students get the correct answer and it needs to raise their language awareness especially grammar awareness as they have the course grammar in context in their first year.

Teacher should take into consideration that the aim of the grammar exercises is not only check and consolidate the topic but also raise learners' grammar awareness, develop the ability of noticing, understanding, and producing the language effectively and accurately. The main focus of language awareness is individual exploration of language. Language awareness is created when learners are guided to focusing on a certain aspect of language and when they are encouraged to explore for themselves how language works, that is why learners should be given time for personal reflection and opinion forming, which helps increase their motivation to explore different aspects of language.

#### Reference:

1. Andrews, L. (1998). *Language Exploration and Awareness: A Resource Book for Teachers*. Mahwah, NJ.: L. Erlbaum Associates.
2. Borg, S. (1994). Language awareness as methodology: Implications for teachers and teaching training. *Language Awareness*, 3,2,61-73.
3. Cambridge ESOL (2012). Cambridge ESOL teaching qualification centres. Retrieved on 25 June 2012 from [www.cambridgeesolcentres.org/centres/teaching/index.do](http://www.cambridgeesolcentres.org/centres/teaching/index.do).
4. Hawkins, E. (1992). Awareness of language / Knowledge about language in the curriculum of England and Wales: An historical note on twenty years of curricular debate. *Language Awareness*, 1, 1, 5-17.
5. Wright, T. & Bolitho, R. (1993). Language awareness: a missing link in language teacher education? *ELT Journal*, 47, 4, 292-304.

Zarina Suyunova,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti  
I-bosqich tayanch doktoranti*

## “O’TKAN KUNLAR” ROMANIDA XIX ASR DAVLAT BOSHQARUVINING YORITILISHI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada muallif yurtning tanazzulga yuz tutishiga sabab sifatida noittifoqchilik, birikmaganlikda ko'radi. Yurt boshqaruv shakli qanday bo'lishi kerakligio haqidagi o'z shaxsiy fikrlarini qahramonlar tilidan bayon etilishini olib berish ko'zda tutilgan.

**Kalit so'zlar:** Otabek, Yusufbek hoji, Azizbek, ittifoqsizlik, bee'tiborlik, Musulmonobod, azon chaqirig'i.

Abdulla Qodiriying “O’tkan kunlar” romani hayotning turli jahbalarini qamrab oladi. Unda turli xil insonlarning turfa taqdir chiziqlarini, ijtimoiy-siyosiy vaziyatlarni, xalqning turmush tarzidan tortib urf-odat-u an'analarigacha uchratishimiz mumkin. Bu asarda qalamga olingan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy,-axloqiy, madaniy va ma'naviy, oilaviy-ishqiy muammolar o'zini namoyon etadi. O'sha davrda yurni boshqaruvchi zolim xonlar istibdodi xalqda ozodlik, farovon turmush tarziga bo'lgan qadriyati tobora ildiz otib borayotgani yuqorida sanab o'tilgan muammolar orasida eng muhimmlaridan hisoblanadi. Yurting kattalaridan biri bo'lgan Yusufbek hoji hamda uning komilllikda kamol topgan yagona farzandi Otabek yurt mustaqilligi yo'lida harakat qilib, jonini ham ayamagan bosh qahramonlar sirasiga kiradi. Yusufbek hoji Toshkentni yetmish kunlik qamalda ham taslim bo'lmay himoya qilgan xalqining begi bosqinchilar kelgan yurtlari tomon qaytgach, Azizbek o'zini Toshkent xoqoni hisoblab Yusufbek hojini oldiga chaqirtiradi. Azizbek “javohir qadalgan tojlar, oltin taxtlar, nozanin parivashlar, dongdor mahramlar” haqidagina o'ylab turgan vaqtida Yusufbek hoji Azizbekning chaqirig'i sababini “fuqaroning tinchligi, rayosatning rohati, hukumatning barqaror turmog'i” dan deb o'ylab fikrini izhor etadi, fikri orqali Azizbekni o'ylashga majbur qiladi. Hamma o'zidan kelib chiqib o'ylaydi deganlari rost gap. Xalqning sho'rini quritib, o'z cho'ntagining to'lishigina, o'zining aysh-ishratini yaxshilashnigina o'laydigan Azizbek kabi yurt boshliqlari xalqning qiyngalgan jonini yanada battar qiyaydi. Hoji o'z nomi bilan hojidir. Yusufbek hoji esa faqat xalqning turmush tarzi yaxshilanishini, farovon va baxtli yashashi tarafdiridir. Uning quyidagi xayollari ham so'zimizga isbot bo'la oladi: “o'ttiz ekki tangadan soliq yig', emish... Bir haftadan keyinga qolmasin emish... Soliq yig'ishda qarshilik qilganni darraga yotqizish, muvofiq ko'rilganda ostirish haqqi ham menga berilgan emish... Go'yo Yusufbek ham o'zidek bir qonxo'rga, bir zolimga aylansin, emish... Men qonxo'rlik uchun Xudoning farz qilgan hajini ado qilmadim, oldimda o'g'lim bor, menda boshqalarning o'g'lini darraga yotqizish chog'ida ko'ndalang keladigan vijdon bor, din bor, diyonat bor. Bizning

*xalq Azizbekning tulkiligiga uchdi-da, uning kechagi zulmlarini unutdi, yetmish kunlar bir zamondan jon berib-jon olib, nihoyat xizmat haqi uchun o'ttiz ikki tanga mukofot, eng keyingi burda noningni ber!".* Yusufbek hoji birovga ziyon yetkazish oldida vijdona azobini o'laydi, ozor bermaydi.

Xonliklar davrida "musulmonobod" davr deya ta'birlar qilgan xalq taqiqlangan ishlari bilan ham shug'ullanganligining guvohi bo'lamiz. Chunki biror tayin kasb-kori bo'Imagan oddiy xalq vakillarini yil sayin ortib borayotgan xonlik va amirlik o'rtaasidagi o'zaro nizolar, buning natijasida kelib chiqayotgan iqtisodiy tanglik va uy-joy hamda maishiy binolarni qaytadan qurish, hukumat kattari tomonidan chiqarilayotgan adoqsiz soliqlar, yashashning asosiy quvvati bo'lgan rozg'or tashvishlari tang ahvolda qolishiga sabab bo'ladi. Qodiriylar shunday holatni "xon musulmon, bek musulmon xalq musulmon, buning ustiga yurish-turish ham musulmoncha edi. O'g'rilik qilgan uchun qo'il kesiladir va yo dorga osiladir. Zoni bilan zoniyalar ham peshtoqdan tashlanadirlar, ichkilik ichgan uchun qirq darra uriladir. Rais afandi mulozimlariga darra ko'tartirib, nomozsizlarni tekshirar, farzi aynni bilmaganlarni urdirar edi. Ish shunchalik nozik bo'la turib ham o'g'rililar o'z tirikliklari orqasidan qolmaydilar. Esh aka bilan Toshakanining uylari orqasidan teshilib mollari o'g'irlana beradir", - deya ta'riflar ekan, zamonaning og'irligini ilmsizlik, kasb-korga yo'naltirilmaganlikda ko'radi. "Musulmonobod" davr deya xalq ta'biri bilan aytilayotgan xonliklar davrida ham butum umri davomida sajdaga bosh qo'yamanlar ham ko'pligini, rais va mulozimlari ko'targan darradan qo'rqib yotlangan farzi aynning dastlabki to'rt-besh qatori musulmonobod davlat deya berilgan ta'rifga mos tushmaydi.

XIX asrning oxiri XX asrning dastlabki choragida xonlik tuzumlarining holati, davlat boshqaruvi shakli mutlaq monarxiya shaklida bo'lib davlat boshqaruvi ajdoddan avlodga meros qilib qoldirilgan. Noibliklarga tayin etilgan hokimlar ham davlat boshlig'i tomonidan ta'sis etilgan. Qodiriylar o'zi yashagan davrda mustamlakachilarning yuritgan siyosiy boshqaruvlari haqidagi fikr-mulohazalari, qarashlarini asar qahramonlari tilidan aytib o'tadi. Ziyo shohichi tilidan aytilgan "bizning bu holga tushushimizga o'z fe'l xuyimizdan" iborasi o'zbek xalqining halim, yumshoq ko'ngil, samimiy hislatlari, shuningdek, birozgina beparvoligini ham nazarda tutilgan. O'rta asrlar adibi Al-Johiz o'zining "Fazoyili atrok" ya'ni "Turkiylarning fazilatlari" asarida ajdodlarimiz or-nomusli, toza yurakli, yovuz o'y va fikrdan yiroq bo'lgan insonlar bo'lganini, na jangda, na tinch payti hiyla bilmaganini, fursatdan foydalanmaganligini, o'zi ham so'zi kabi to'g'ri ekanligini, birovning moliga xiyonat qilish nima ekanligini bilmaganligini, ikkiyuzlamachilik, kibr-u havo, kattalarga humatsizlik ko'rsatish ularning tasavvuriga ham sig'maganini<sup>1</sup> ta'kidlaydi. Oddiyigina Azizbek qilgan ikkiyuzlamachiliklaridan tortib xalq boshiga solgan og'ir kunlariga qaramasdan, Toshkent xalqi begi himoyasiga oshiqadi. Otabek bu holatga millatini – xalqini – musulmonini qo'rqinch jar, tengsiz jahannam yoqasida, yiqilish oldida topardi. Xalqini bir zolim yo'lida jonini qurban qilishini indamay tomosha qila olmagan, haqiqiy mard yigit millatini aqlli xon qo'lida yashashini istaydi. Otabek Marg'ilonda Ziyo shohichi uyidagi yig'inda Shamay xotiralari bilan bo'lishadi. Shamaya savdo-sotiq yuzasidan bormasidan ilgari hamma joyda davlat ishlari huddi xonliklardagidek deya o'ylab yurishini, ammo idora ishlari Shamay yerlarida boshqacha ekanligini, yurtiga qaytganda idora ishlarida ruslarning davlat bosharuvini dasturilamal etishka oshiqadi. Otabek shu kabi xayollarga borib yurtiga qaytishga oshiqadi, ammo bu yerdagi holat uning oshiqishlariga ters tushadi. Otabek tilidan aytilgan Julqunboy topilmasi "mozoristonda "hayyya alalfalah" xitobini kim ham eshitar edi" iborasidir. Darhaqiqat, musulmonlarni g'aflatdan uyg'otuvchi, Alloh taolo farz qilib qo'yan nomozni ado etishga chorlavchi "hayyya alalfalah", ya'ni "qutqarilishga shoshilinglar, najotga kelinglar" iborasi bilan boshlanuvchi azon ovozi tuproq ostida jonsiz yotgan tanalarga aslo ta'sir etmaydi. Abdulla Qodiriylar achchiq kinoya bilan "mozoristonda "hayya alalfalah" xitobini kim ham eshitar edi", - deydi. Xalqi mozoristonda yotganlar bilan bir xil ahvolda ekanligidan afsuslanadi. Asarimiz qahramoni Otabek tilidan xalqni azon nomozga chorlagandek, ozodlikka, davlat idorasini adolat bilan tizimli tarzda olib borishga undaydi. Abdulla Qodiriylar 1924-yilda Moskvaga borishi munsabati bilan "Mushtum" jurnaliga yuborgan xatlari orqali ham ruslarning idora uslubini Turkiston diyoriga tatbiq etish kerakligi haqidagi fikrini bilib olish mumkin. Otabek Ziyo shohichi uyida bo'lib o'tgan majlisda bildirgan fikrlari bilan "istiqbol qayg'usi tushiga ham kirmagan" Turkistonning otalariga ham ta'sir etdi. Otabekning keyingi aytganlari: o'rusning bizdan yuqoridaq o'zingittifoqida bo'lsa kerak... Modomiki, o'zg'arazi yo'lida istibdad orqali el ustiga hukmron bo'lg'uchilar yo'qotilmas ekanlar, bizga najot yo'qdir, magar shunday g'arazchilarni ular kim bo'lsalar ham ish boshidan quvlash va ularning o'rniga xolis odamlarni o'tquzish najotimizning yagona yo'lidir" Mirzakarim qutidordek, Ziyo shohichi-yu Akram hojidek hududining baobro' kishilarining chuvalgan o'ylari uchini topib bergandek bo'ladi. Mana shunday mulohazalari bilan kishilar ko'nglidan joy olgan Otabek Akram hojining "Agarda xon ko'tarish manim qo'llimda bo'lsa edi, xon qilib Otabekni ko'tarar edim", - deya aytgan maqtovlariga sazovor bo'ladi. Asarda yana bir holat davlat boshqaruvi haqida xaql kishilaridan Yunus Muhammad oxundining "hamma fasod ululamirda, agar ululamir durust odam bo'lsa, uch-to'rtta muttahamning yomonlig'i hech qayerg'a bormas va buncha gunohsiz bechoraning qoni o'rinsiz to'kilmas edi..." Bas, bizning korlarimiz ham ko'p fursatlardan beri noahl odamlarning qo'liga qolib va har zamondan ul nobakorlar bizlarning boshimizg'a anvo'i kulfatlarni soladirlar. Ilohi kori badlari o'z boshlari birlan daf" bo'lg'ay"<sup>2</sup>fikridan ham norozligini namoyon etadi.

<sup>1</sup> Al-Johiz. Fazoyili atrok. T.: "O'zbekiston" 1993

<sup>2</sup> Abdulla Qodiri. Tanlangan asarlar. T.: "Sharq" nashriyoti. Toshkent-2018. B253.

Abdulla Qodiriy donishmand yozuvchi. Hech bir detalni behuda ishlatmaydi. Asar “1269-inchi hijriya, dalv oyining 17-inchisi, qish kunlarining biri, quyosh botqan, tevarakdan shom azoni eshitiladir” jumlalari bilan boshlanadi. E’tiborli jihat shundaki asarda savdogarlarning hujrasi tasviri berilib, azon eshitilsa-da, “nomoz o’qildi” jumlesi keltirilmaydi. Savdogarlar o’z ishlari bilan mashg’ul, ularga din ishlari emas, dunyo tashvishlari muhimroq. Mana shu birgina tasvir bilan ham yurt kishilarining noahlli ochib berilgan. O’zbek onalari timsoli bo’lgan O’zbek oyim asar so’nggida qora kiygani tasvirlanadi. Yurtni xavfdan ogoh etgan azon chaqirig’iga bee’tibor bo’lgan yurt hidoyatdan chekindi, oqibatda qora kiyib, azaochishga majbur bo’ldi. Yorug’ kunlarini dalv oyining uzun qorong’u kechasiga almashdi.

#### Foydalilanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Abdulla Qodiriy.O’tkan kunlar.-T.: Yangi asr avlod, 2011
2. Jabborov N. O’tkan kunnalarda milliy ruhiyat talqini.-T.: Sharq, 2019
3. Jo’raquloov U. Qodiriy va roman tafakkuri.- T.: Nurafshon business, 2020
4. Karimov B. Qodiriy germinetikasi. –T.: G’afur G’ulom nashriyoti, 2017
5. Mirzayev T. Va boshqalar. O’zbek xalq maqollar.- T.: Sharq, 2005
6. Qosimov B. Quyosh borligiday oydin haqiqat /Uyg’ongan millat ma’rifati. – T.: Ma’naviyat, 2011.
7. Qo’shjonov M. O’zbekning o’zligi/Tanlangan asarlar. – T.: Sharq, 2018.
8. Suyunova Z. Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” romanida milliy ruhiyat talqini/ magistrlik dissertatsiyasi. – T.: Toshkent. 2022.

**Sevara Xudoyqulova,**  
SamDCHTI o’qituvchi

## IKKINCHI DARAJALI BO’LAK ILOVALI ELEMENT SIFATIDA

**Annotatsiya.** Mavzuning dolzarbligini va uning o’rganilish darajasini aniqlash - bu o’z navbatida shu sohaga bag’ishlangan ilmiy - tadqiqot asarlarni ma’lum darajada o’rganishni va ular to’g’risida tegishlicha xulosalarga ega bo’lishni bildiradi. To’g’ridan-to’g’ri dativ kelishigida ifodalanib keluvchi ilovali elementlar ham xuddi akkuzativ kelishigida ifodalanib keluvchi ilovali elementlardek o’zining mazmuni, mantiqiy urg’usi, ohangi va to’xtamiga ega bo’ladi. Ilovali elementning ohangi oddiy gap bo’laklarning ohangiga o’xshamaydi, ilovali element alohida pasaygan (ba’zan ko’tarilgan) ohang bilan talaffuz etiladi. Odatda, ilovali elementdan oldin kelgan izohlanayotgan so’z va so’z birikmalarida ohang ko’tariladi, ilovali elementda pasayadi, chunki u postpozisiya holatida turadi. Ilovali element o’ziga xos semantik funksiyani bajaradi.

**Kalit so’zlar:** ikkinchi darajali bo’lak, ilovali element, ajratilgan gap bo’laklari, kelishiklar, bog’lovchilar, leksik birliklar, leksik grammatik vositalar, sintaktik aloqa.

Bu funksiya shundan iboratki, ajratish orqali ma’lum bo’lakning ma’nosini bo’rttirib ko’rsatiladi. Ilovali elementning ma’no xususiyati bu bilan cheklanmaydi, ilovali element orqali, boshqa qo’shimcha ma’nolar ham ifodalanadi. Ilovali elementlar tomonidan bildirilayotgan qo’shimcha ma’nolar o’z navbatida ma’noviy nozikliklarni ham ifodalarydi. Demak, ajratish hodisasi tufayli ilovali elementlarga xos bo’lgan eng muhim xususiyat, bu ular tomonidan ifodalanayotgan qo’shimcha ma’nodir. Ilovali elementlar bilan ma’lum bo’laklar o’rtasida sintaktik aloqalar ham mavjud.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Endi ajratilgan gap bo’laklariga xos bo’lgan bunday xususiyatlarning ifodalanish usullarini dativ kelishigida ifodalanib keluvchi ilovali elementlar namunalarida kuzatib boramiz. Fikrimizning isboti sifatida quyidagi misollarni bu yerda ko’rsatib o’tamiz.

1. Besonders übel spielte er dem Stadtrat Reitberger mit, einer populären Persönlichkeit.
2. Der alte Schnellhammer hatte die Werke seinen Kindern hinterlassen, zwei Söhnen und einer Tochter.
3. Nur zwei Menschen misstraute er nicht, seiner Pflegemutter und seinem Lehrer.
4. Er sollte der Gemeinschaft gehören, den Klubs, den Perteien, dem Sport (8, 93).
5. Das verdankte sie der schwedischen Luft, dem Sport und dem ständigen Frieden.

Endi 1,2,3,4,5-raqamli misollarda ko’rsatib o’tilgan dativ kelishigida ifodalanib keluvchi ilovali elementlarga xos bo’lgan xususiyatlarni izohlab berishga o’taylik. Ularga xos bo’lgan xususiyatlardan biri bu ilovali elementlarning yolg’iz holda emas, balki kengaytirilgan holda kelishidir. Ularning strukturaviy kengayishi ham bir xil emas. Masalan, 1-raqamli misoldagini ilovali element aniqlovchi yordamida kengaytirilgan bo’lsa, qolgan raqamli misollarda ko’rsatib o’tilgan ilovali elementlarning kengayishi gapning uyushiq bo’laklari hisobidan kengaytirilgan.

2,3-raqamli misollarda bayon etilgan ilovali elementlar o'zlariga xos ba'zi bir xususiyatlari bilan boshqa raqamli misollarda keltirilgan xuddi shunday ilovali elementlardan farq qiladi, bu farq ilovali elementlarni tashkil etuvchi komponentlarning bir-birlari bilan und bog'lovchisi bilan bog'langanligidir. Ilovali elementlarni tashkil qiluvchi komponentlar orasida und bog'lovchisining kelishi, har bir komponentning o'zi ham alohida ilovali element funksiyasida kela olishligini ta'kidlamoqda. Xuddi shunday xususiyatga 4,5-raqamli misollarda kelgan ilovali elementlarning komponentlari ham ega, chunki ularning har biri o'z to'xtamiga va shu bilan birga ohangiga ega. Bunday xususiyatlar ularga ham alohida ajratilgan gap bo'lagi funksiyasida kelishlari uchun imkoniyat yaratadi. Ularga xos bo'lgan yana bir xususiyatga to'xtalamiz. Ularga xos bo'lgan bunday xususiyatni quyidagicha izohlash mumkin. 1-raqamli misoldagi ilovali element ma'lum bo'lakka nisbatan ma'lum darajada nisbiy mustaqillikka ega bo'lsa, 2,3,4,5-raqamli misollarda namoyish etilgan ilovali elementlarga xos bo'lgan bunday mustaqillik yana ham boshqacharoq tabiatga ega, u ham bo'lsa ilovali elementlar o'zlarini bevosita bog'liq bo'lgan komponentga nisbatan nisbiy mustaqillikka ega bo'lsa, ana shu ilovali elementlarning tashkil etuvchi komponentlari ham bir-birlariga nisbatan nisbiy mustaqillikka ega bo'lishadi, shuning uchun ham ular alohida-alohida ilovali element funksiyasida kela olishlari mumkin. Bu yerda keltirilgan ilovali elementlarga xos bo'lgan xususiyatlardan yana biri-bu ilovali elementlarning ma'lum bo'laklarga nisbatan yonma-yon (1,2,4,5) va ma'lum masofada (3) turishi. Ma'lum bo'laklar bilan ilovali elementlar o'tasidagi sintaktik aloqa kesimning umumiyligi bilan ifodalanadi. Ilovali elementlarning mazmuni orqali ma'lum bo'laklarning mazmuni konkretlashtiriladi, to'ldiriladi, izohlanadi va aniqlanadi. Biroq 4-raqamli misolda keltirilgan ilovali elementning mazmuni orqali ma'lum bo'lakning mazmuni umumiylashtiriladi. Ilovali elementlarga xos bo'lgan bunday xususiyatlar quyidagi misollar tahvilida yanada to'ldirilishi mumkin:

6. Unter seinem Blick dankte eine Frau im stillen ihrem Schneider für den guten Sitzt ihres Kleides, dem Friseur für den natürlichen Fall ihres Haars und der Kosmetikerin für den Tip eines dezenten Make-up.

7. Die Bank gehört nicht uns, sondern der kleine Talk.

8. Sie gehören der Reedefirma Brookley, der Art Reederei von der Stange.

9. Dem größeren, einem stämmigen Burschen mit dunkeln Kinnbart, wäre Herbert am liebsten gefolgt.

10. Corinna ging, ähnlich dem Vater, von Auge und Hand aus.

11. Sie tragen nur den Vornamen, gleich dem König.

1,2,3,4,5-raqamli misollardagi ilovali elementlarga xos bo'lgan xususiyatlarni bu yerda takrorlamasdan, ularni to'ldirish maqsadida 6,7,8,9,10,11-raqamli misollarda namoyish etilgan ilovali elementlarga xos xususiyatlarni izohlashga o'taylik. O'z-o'zidan ma'lum bo'lishicha, ushbu ajratilgan gap bo'laklari xuddi shunday ajratilgan gap bo'laklariga xos bo'lgan xususiyatlardan tashqari boshqacharoq xususiyatlarga ham ega. Biz ana shu xususiyatlarni alohida ta'kidlab o'tamiz. Bu xususiyatlar quyidagicha: masalan, 6-raqamli misoldagi ilovali element o'zi bevosita bog'liq bo'lgan komponentsiz yuzaga kelgan, uning mazmuni alohida olingen komponentning mazmunini emas, aksincha, butun gapning mazmunini to'ldirib, konkretlashtirib kelayapti; ushbu ilovali element 7,8,9,10,11-raqamli misollarda bayon qilingan xuddi shunday ilovali elementlardan strukturasining kengayishi jihatidan ham keskin farq qiladi, sababi uning tarkibida bir-biri und bog'lovchisi bilan bog'lanib kelgan ikkita mustaqil ajratilgan komponent mavjud; 10,11-raqamli misollarda keltirilgan ajratilgan komponentlar bir jihatdan 6-raqamli misoldagi ajratilgan komponentga yaqin tursa, qolgan xususiyatlari bilan undan va qolgan ilovali elementlardan keskin farq qiladi. Ularning yaqinligi butun gapning mazmunini ifodalash bilan amalga oshsa, farqi esa ilovali elementlar fe'l-kesim bilan emas, balki leksik birliklar bilan boshqariladi. To'g'ridan-to'g'ri dativ kelishigida ifodalananib keluvchi ilovali elementlarga xos bo'lgan bunday xususiyatlar to'g'ridan-to'g'ri genitiv kelishigida ifodalananib keluvchi ilovali elementlar tarkibida kengaytirilishi va to'ldirilishi mumkin.

**To'g'ridan-to'g'ri genitiv kelishigida ifodalananib keluvchi ilovali elementlar:** To'g'ridan-to'g'ri genitiv kelishigida ifodalananib keluvchi ilovali elementlar akkuzativ va dativ kelishiklarida ifodalananib keluvchi ilovali elementlarga nisbatan biz o'rgangan matnlar doirasida kamdan-kam uchraydi. Lekin ularga xos bo'lgan xususiyatlarni alohida ta'kidlash maqsadida, biz ularni alohida strukturaviy guruh tarkibida izohlab berishni lozim topdik. Endi ana shu genitiv kelishigi shaklida ifodalananib keluvchi ilovali elementlarga xos bo'lgan xususiyatlarni misollar namunasida izohlashga o'tamiz.

1. Nicolas hatte für sie in Plessis das Haus eines Bekannten gemietet, eines Sieur Bessat.
2. Kurz vor den Semesterferien erhielt Anna einen Brief von Frau Winter, der Mutter von Claus.
3. Sie wurden gestört durch einen Telefonanruf von Christine Golling, der Schuldirektorin aus Mahldorf.
4. Er hörte in seinem Rücken die Heimkehr der Männer, Vater Enders und Schwiegersohn Willi Steiner.
5. Auf seinen Kolben bei Tafel steckte ein buntsteckiger, buckliger Hofnurr den vertraulichen Brief des Habusburges, des Ersten Obersten Treuesten Fürsten des Reichs.

1,2,3,4,5-raqamli misollarda namoyish etilgan ajratilgan komponentlarning izohlanish jarayoni qolgan xuddi shunday ilovali elementlarning izohlanish jarayonidan keskin farq qiladi. Bunga sabab shuki, ularning ajratish hodisasiiga uchrashi juda ham murakkab, chunki aniqlovchilar bilan aniqlanmish o'tasida mavjud bo'lgan sintaktik aloqalar, to'ldiruvchi yoki hollarga xos bo'lgan xuddi shunday aloqa vositalariga nisbatan mustahkamroq, zichroq

bo'ladi. Aniqlovchi va aniqlanmish o'rtasidagi aloqaga nisbatan V.G. Admoni ham o'z munosabatini qo'yidagicha ifodalaydi: «Besonders fest und "eng" sind die attributiven Beziehungen, ziemlich frei die adverbialen Beziehungen, die sich durch große Beweglichkeit der abhängigen Glieder ausziehen. Die Objektivenbeziehungen nehmen in dieser Hinsicht eine Mittelstellung ein». Demak, aniqlovchi bilan aniqlanmish o'rtasidagi sintaktik aloqa vositasi hol va uning birikmali, to'ldiruvchi va uning birikmali o'rtasidagi sintaktik aloqalarga nisbatan mustahkamroq, «zichroq», shuning uchun aniqlovchilar to'ldiruvchi yoki holga nisbatan kamroq darajada ilovali elementlar funksiyasida ifodalanib keladi. Biroq aniqlovchi bilan aniqlanmish o'rtasidagi sintaktik aloqa vositasiga ta'sir qiluvchi omillar ham mavjud, u ham bo'lsa yozuvchining individual uslubidir. Yozuvchi uchun ba'zi vaqtarda ob'yeqt emas, balki ana shu ob'yeqtning kimga tegishli bo'lishligi muhimroq bo'ladi. Demak, aynan ana shu holat genitiv kelishigida keluvchi moslashmaydigan aniqlovchilarning ilovali elementlar funksiyasida kelishi uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Demak, ayrim komponentlarning, aniqrog'i, u yoki bu gap bo'lagining ilovali elementlar funksiyasida kelish-kelmasligi, yuqorida ta'kidlaganimizdek, doimo sintaktik yo'llar bilan emas, balki stilistik vositalar bilan ham hal bo'lishi mumkin ekan. Stilik vosita deganda ko'z oldimizda muntazam ravishda u yoki bu yozuvchining individual uslubi namoyon bo'ladi. Genitiv kelishigida ifodalanib keluvchi ilovali elementlar ham xuddi boshqa ajratilgan komponentlardek, o'zining ma'lum bo'laklardan ajratuvchi mantiqiy urg'usi, o'ziga xos ohangi, semantik funksiyasi, boshqa gaplardan ajratuvchi to'xtamga ega bo'ladi. Genitiv shaklida ifodalanib keluvchi ilovali elementlarning ma'no xususiyati ajratilgan aniqlovchilarning ma'no xususiyatlaridan farq qiladi. Chunki genitiv shaklida ifodalanib keluvchi ajratilgan komponentlarning asosiy semantik funksiyasi ma'lum komponent funksiyasida keluvchi aniqlanmishlarning ma'no xususiyatlarini konkretlashtirishga qaratilmaydi, aksincha, xuddi shunday genitiv shaklida keluvchi aniqlovchilarning ma'no xususiyatlarini to'ldirishga, aniqlashga, konkretlashtirishga qaratiladi. Shuning uchun ham genitiv kelishigida ifodalanib keluvchi ajratilgan komponentlar o'zlariga xos bo'lgan bunday xususiyatlari bilan alohida ta'kidlanish huquqiga ega bo'ladi.

#### **Dativ -kelishigini talab qiluvchi ko'makchilar yordamida hosil bo'lgan ilovali elementlar:**

Dativ kelishigini talab qiluvchi ko'makchilardan -an, -aus, -bei, -in, -mit, -nach, -neben, -von, -vor, -zu, -zwischen- kabi ilovali elementlarning hosil bo'lishida ishtirok etadi. Biroq bu ko'makchilar yordamida hosil bo'lgan ajratilgan birikmalar, bizning olib borgan kuzatishlarimizning natijasi bo'yicha, matnlar doirasida bir tekis yoyilmagan. Jumladan, matnlar doirasida boshqalariga nisbatan eng keng yoyilgan ajratilgan komponentlardan bu -mit ko'makchisi yordamida ifodalanib kelgan ajratilgan komponentlardir. Ular matn doirasida 92 ta birlikni tashkil etadi. Qolgan ko'makchilar yordamida ifodalanib kelgan ajratilgan birikmalarning soni 31 tadan 4 tagacha boradi. Endi biz dativ kelishigini talab qiluvchi ko'makchilar, ya'ni -mit, von, zu-lar yordamida kelgan ilovali elementlarga ko'proq urg'u berib, qolganlarini misollar namunasida ko'rsatib o'tishga harakat qilamiz.

#### **Tahlil va natijalar muhokamasi. I. -Mit- ko'makchisi yordamida hosil bo'lgan ilovali elementlar:**

1. *Er ist mit einem Flieger gekommen, mit dem Fieseler Storch.*
- 2 *Helga wartete bereits, mit zwei Gästen, mit Riedl und mit Rentmair. Jean - Jacques hatte sich von jener am wohlsten gefühlt im Verkehr mit Menschen aus dem Volk, mit Bauern und kleinen Bürgern.*
3. *Für sie ist es besonders schlimm, mit dem Kind.*
4. *Wirklich fuhr wenige Tage später die Königin am Portal von Ermenonville vor, mit kleinem Gefolge.*

Mit-ko'makchisi bilan ifodalanib keluvchi ilovali elementlar tuzilishlari, ma'no hamda vazifalariga ko'ra birlariga bir tomondan o'xshasa ham, ikkinchi tomondan bir-birlaridan farq qiladi. Ularning o'xshashlik tomonlari quyidagicha: ilovali elementlar ma'lum gap bo'lagining xususiyatini ajratib ko'rsatadi, shu bilan birga unga qo'shimcha izoh beradi, asosiy mantiqiy urg'u ilovali elementlarda bo'ladi. Ilovali elementlar o'ziga xos ohanga ega bo'lib, ular ma'lum gaplardan to'xtam bilan ajralib turadi. To'xtam funksiyasida vergul ishlataladi, vergul ulardan oldin qo'yiladi. Ilovali elementlar uchun xos bo'lgan bunday xususiyatlari 1,2,3,4-raqamli misollarda namoyish qilingan va -mit- ko'makchisi bilan ifodalanib keluvchi ilovali elementlar tarkibida birdek yoyilmagan, bu holat ularning bir-birlaridan farq qilishiga olib keladi. Ularga xos bo'lgan bunday farqlar 4-raqamli misollarda keluvchi ilovali elementlar uchun ma'lum bo'laklarning bo'imasligi bilan ifodalanadi. Natijada ular ma'lum bo'laklarning emas, balki butun gap mazmunining xususiyatini ajratib ko'rsatadi. 1,2,3-raqamli misollarda keltirilgan ilovali elementlar esa o'zlarini bevosita bog'liq bo'lgan ma'lum bo'laklarga qo'shimcha izoh berib, ularning mazmunini konkretlashtirib, to'ldirib, aniqlab keladi. Ularga xos bo'lgan sintaktik aloqa ham ular o'rtasida mavjud bo'lgan mazmun munosabatlari bilan ifodalanadi. Ko'pincha gap bo'laklarining ajratilishi uchun ularning o'ziga xos so'zlar bilan kengayib kelishi zarur bo'ladi. Bu esa gap bo'lagiga nisbiy mustaqillik berib, uning boshqa gaplardan ajralishiga olib keladi.

#### **Masalan:**

5. *Er war mit allerart Menschen zusammengekommen, mit Politikern und Geistlichen, mit Malern und Stierkämpfern, mit Töpfern und Bauern.*
6. *Für den Garten der Beethovenstraße hatte Cläre sie seinerzeit mit allerlei Seltenheiten versorgt: mit Zwiebeln des Siebenschläfers, Ablegern der Laternenblume und Samen des Silbertalers.*

*7. Die kleine Prinzessin saß in einer Rossänfte mit ihrer Hofmeisterin, einer Frau von Lodrone, und ihrem Kammerfräulein Hildegrad von Rottenburg, einem dürren, unansehnlichen, ungeheuer dienstwilligen Geschöpf.*

5,6,7-raqamli misollarda namoyish qilingan -mit-ko'makchisi bilan ifodalanib keluvchi ilovali elementlarning strukturaviy tuzilishi turli xil leksik grammatik vositalar bilan kengaytirilgan. Masalan, 5,6-raqamli misollardagi ilovali elementlar uyushiq bo'lakli xarakterga ega bo'lgan ilovali elementlar yordamida, 7-raqamli misoldagi ilovali element ham uyushiq bo'laklar xarakteriga ega bo'lgan xuddi shunday ilovali elementlar yordamida hamda aniqlovchilar funksiyasidagi uyushiq gaplar ishtirokida.

Demak, yuqorida ta'kidlaganimizdek, ilovali elementlar o'zlariga oid so'zlar bilan qancha kengaysa, ularning nisbiy mustaqilligi shuncha kuchli bo'ladi. Agarda biz ularni shu sodda gap tarkibidan chiqarib tashlasak, u holda ushbu sodda gaplarning umumiyligi ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

*8. Er war mit allerart Menschen zusammengekommen.*

*9. Für den Garten der Beethovenstraße hatte Cläre sie seinerzeit mit allerlei Seltenheiten versorgt.*

*10. Die kleine Prinzessin sass in einer Rossänfte mit ihrer Hofmeisterin.*

Demak, ushbu sodda gaplarni o'z holiga qaytarib, ularning strukturasining murakkablashtirilishida bevosita ishtirok etuvchi ilovali elementlarning sintaktik, semantik va stilistik ahamiyatlari qanchalik muhim ekanligini bilib olamiz. Eng qizig'i shundan iboratki, ajratilgan gap bo'laklari bir vaqtning o'zida ikki xil funksiya bajarib keladi: bir tomonidan, sodda gaplarning strukturaviy tuzilishini murakkablashtirsa; ikkinchi tomonidan, ellipsis tufayli ularning strukturaviy tuzilishi soddallashtiradi.

Ushbu holatni quyidagi misollar tarkibida yana bir bor kuzatish mumkin:

*11. Markgraf Ludwig sass zusammen mit seinem Freund, dem Herzog Konrad von Teck, über Rechnungen und Belegen.*

*12. Sie fand sich zugedeckt mit ihren Sachen, dem Nicki, den Shorts.*

*13. Mistress Singh spielte mit ihrer langen Kette, dem Zeichen der verheirateten Frau.*

**Xulosa.** 1,2,3,4,5,6-raqamli misollarda keltirilgan ajratilgan birikmalar quyidagi xususiyatlarga ega: birinchidan, o'ziga xos ma'noviy vazifasiga ega. Bu vazifa shundan iboratki, ajratish orqali butun gapning ma'nosi bo'rttirib ko'rsatiladi. Ilovali elementlarning ma'no xususiyati bu bilan cheklanmaydi, ilovali elementlar orqali qo'shimcha ma'nolar ham ifodalangan. Ana shu qo'shimcha ma'nolar orqali butun gapning mazmuni konkretlashtiriladi, to'ldiriladi, aniqlanadi va qo'shimcha ma'no bu yerda sabab nozikliklariga ega, demak, sodir bo'layotgan voqeа va hodisalarning sababini izohlab keladi; ikkinchidan, ilovali elementlar ikki xil pozisiyalarda keladi: gapning oxirida va o'rtaida. Ilovali elementlar bilan gaplar orasidagi sintaktik aloqalar ularning mazmuniy munosabatlari va bir-birlariga nisbatan joylashish o'rinnari bilan, ya'ni so'z tartibi orqali ifodalanadi; uchinchidan, ular ham o'zlarining ohangiga, to'xtamiga va mantiqiy urg'usiga ega. Ularning xuddi shunday ilovali elementlardan farqi - bu ular alohida olingen ma'lum bo'laklarning mazmunini emas, aksincha, butun gap mazmunini izohlab kelishidadir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lida. –Toshkent: «O'zbekiston», 1995. -260 b.
2. Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi. Toshkent: «O'qituvchi», 1996. -247 b.
3. Admoni V. G. Cintaksis sovremennoj nemeskogo yazыka. L., 1973. -S. 366
4. Admoni V. G. Puti razvitiya grammaticheskogo stroya v nemeskom yazыke. M., 1973. -S. 171
5. Alimardonov R. Gapni aktual bo'laklarga ajratishda intonatsiyaning o'rnii. Lingvisticheskaya interpretatsiya spesialnogo teksta i aktivizatsiya obucheniya inoyazychnomu obshcheniyu. Materialy mejdunarodnoy teoreticheskoy konferensii (Samarkand: 23-30-sentyabrya 1998 goda). – Samarkand: SamGU. 1998. -S. 20- 23.

Yodgoroy Madaminova,  
tadqiqotchi

## COMPARATIVE ANALYSIS OF LINGUISTIC UNITS WITH NATIONAL AND CULTURAL CONTENT IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida insonning ma'naviy holatini ifodalovchi leksik birliklarning tavsifiga lingvistik yondashuv bo'yicha tadqiqotlar keltirilgan.

**Аннотация:** В данной статье представлено исследование лингвистического подхода к описанию лексических единиц, выражающих духовное состояние человека, в английском и узбекском языках.

**Annotation:** This article presents research on linguistic approach to the description of lexical units expressing human spiritual state in the English and Uzbek languages

**Keywords:** ethno cultural features, lexical, phraseological, paremiological and textual, linguistic essence, national-cultural features of the linguocultural content of the concepts of the inner world of man.

**Kalit so'zlar:** etnomadaniy xususiyatlar, leksik, frazeologik, paremiologik matn va lingvistik mohiyat, shaxs ichki dunyosi tushunchalarining lingvistik-madaniy mazmunining milliy-madaniy xususiyatlari.

**Ключевые слова:** этнокультурные особенности, лексическая, фразеологическая, паремиологическая текстовая и языковая сущность, национально-культурные особенности лингвокультурного содержания концептов внутреннего мира человека.

**Keywords:** ethno cultural features, lexical, phraseological, paremiological and textual, linguistic essence, national-cultural features of the linguocultural content of the concepts of the inner world of man

### Introduction

Priorities include the identification of ethno cultural elements of linguistic expression in human connections, analysis of the national spirit of peoples reflected in world languages, and linguistic approach to the study of linguistic units of national and cultural significance in world linguistics. It should be highlighted that the main emphasis is on the functional aspects of language, including its psycholinguistic, linguocognitive, lingvoculturological, and sociolinguistic aspects, in the lives of various peoples.

The scientific importance of the research findings is the resolution of conceptual and linguistic concept problems, and the potential application of the findings using the methods chosen for the scientific interpretation of linguistic material to further develop in other languages, linguocultural, and cognitive is explained by the fact that its ethical-semantic aspects have been thoroughly studied based on non-sister language materials.

The research has practical value in that it has led to the development of textbooks and manuals on lexicology, phraseology, sociolinguistics, translation theory and practice in higher education, comparison of the English and Uzbek languages, teaching specialized courses in linguocultural studies, text analysis, dissertations, master's theses, and the fact that the English and Uzbek languages can help future specialists to advance their theoretical and practical knowledge.

The meaning of the concept of "family" in the development of language and culture is defined, and the content of the conceptual sphere of relations in English and Uzbek is taken into consideration. Linguistic interpretations of the concept of linguocultural features of human concepts in English and Uzbek are also discussed.

Language is a part of human nature and is essential for the growth of a person's cognitive abilities and the establishment of their worldview. Language's social and human nature is that it establishes the parameters for all cultural existence. Research should be done in a variety of approaches because the ratio of events in the "ethnos-culture-language" triangle is diverse and distinguished by the interdependence of the relationships expressed.

Language's social and human nature is that it establishes the parameters for all cultural existence. Research should be done in a variety of approaches because the ratio of events in the "ethnos-culture-language" triangle is diverse and distinguished by the interdependence of the relationships expressed. The research should first concentrate on the types and forms of speech actions that are unique to a given civilization, before concentrating on the study of their nature and purposes.

As it represents knowledge of the language, society, and culture, a concept is a unit in the fields of linguistics and culture in modern linguistics. Language-based concepts portray a culture and influence how people perceive the outside world. A unit of operational content, a unit of structured knowledge, or a quantum, is conceptual thinking. Concepts are ideal, impersonal units of meaning that one utilizes when thinking. In the form of specific units, or "quanta," they represent the information included in the learned knowledge, experience, and outcomes of human perception of real existence.

**Method and analysis.** The notions of the inner world of man in the English and Uzbek languages are very different, as are the linguistic and cultural elements of the family roles. Consider how a bride in an Uzbek family compares to a daughter-in-law or bride in an English household. There are numerous rituals and traditions

Buxoro amirligi davrida tashqi iqtisodiy aloqalar faol rivojlangan. XVIII asr 40-yillariga kelganda Buxoro xonligida siyosi va iqtisodiy inqiroz kuchaygan edi. Ashtarkoniylarning so'nggi vakili Abulfayzxon (1711–1747) ning kaltabinlarcha yuritgan siyosati natijasida xalqning moddiy ahvoli og'irlashgan, Buxoro xonligi tarkibidan Farg'ona vodiysi ajralib chiqib, mustaqil Qo'qon xonligiga asos solingan, mamlakatning bekliklarga bo'linish xavfi kuchaygan edi. Buning ustiga, Eron shohi Nodirshoh (1736–1747)ning Buxoroga hujumi, mamlakatning asosiy shaharlari bo'lgan Buxoro va Samarcandning ular tomonidan egallanishi va talanishi oqibatida siyosi vaziyat yanada murakkablashgandi. Turkiston taqdiri hal qilinayotgan ana shunday qaltis va nozik bir fursatda tarix sahnasiga yangi siyosi kuch – mang'itlar sulolasi kirib keldi

Tadqiqot manbashunosligi va tarixshunosligi tahlili shuni ko'rsatadiki, Buxoro va Rossiya imperiyasi o'rtaasida olib borilgan siyosat nafaqat daxldor kishilar va tashkilotlar, manfaatdor shaxslar va amaldorlarning, balki mahalliy tarixchilar diqqatini ham o'ziga tortgan. Chor Rossiyasining O'rta Osiyoda olib borgan bosqinchilik siyosati doirasida bayon qiladilar. Ba'zi asarlarda esa zamondosh mualliflar o'zlari ko'rgan va eshitgan voqealarni o'z mamalakatlari tarixi doirasida berib, Rossiya imperiyasi bilan aloqador bo'lgan voqealarni yozganlar.

Maqolani yozish davomida ilmiy, adabiyotlar tahlili, qiyoslash, analiz, umumlashtirish, tarixiylik metodlaridan foydalанинди.

XVIII asrda O'rta Osiyoning qo'shni Sharq davlatlari bilanaloqalarini o'rganishda rus manbalari alohida ahamiyatga ega. Chunki rus manbalarida iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni tahlil qilish, savdo yo'llarini o'rganish uchun qilingan harakatlar, hamda qaysi mamlakatdan qanday mollar qancha mikdorda keltirilganligi haqidagi ma'lumotlar batafsil berilgan. Rus manbalari deganda, biz rus elchi va elchiliklarining hisobotlari, Buxoro, Xiva va Hind elchilarini hamda savdogarlarining so'rov ma'lumotlarini tushunamiz. Shu bilan birga shoh va podsholar hamda xonlarning bir-birlariga tortqlari, sovg'a- lari ham muhim dalil hisoblanadi. Chunki shular orqali O'rta Osiyoning Hindiston bilan Rossiya o'rtaasidagi savdodagi tutgan o'rnini belgilash mumkin. Shuning uchun XVIII asrda rus diplomatlari, savdogarlari va O'rta Osiyoda bulgan rus Erketiolimlarining faoliyatları muhimdir[1]. 1714 yili Petr I Sibir gubernatori knyaz Gagarindan shaxrida (ya'ni Yorkend) oltin qumlar borligi xususida xabar topadi. Erketi bu davrda Jung'or xonligiga bo'ysunganligi pitiladi. Gagarin Petr 1 ga bu shaharni bosib olib, Yorkend cho'lidagi Yammshev ko'li buyida qal'a qurishni tavsiya qilgan'. Nvgraf Kaydalov kundaliklarida ham bu haqsa ma'lumotlar berilgan[2]. Rus manbalarining bergen ma'lumotlariga ko'ra, uzoq vaqt- lardan buyon davom etib kelayotgan bahs XVI- XVII asrlarda Urta Osyo Rossiya uchun - Hindistonga kirib borish yo'lida bir vajmi, yoki rus xukumatining manfaatlariga xizmat qiladigan Sharqning deganmuxdm mintaqasi - yirik savdo markazimi, savolni tug'dirdi[3]. V.Bunakov, P.P.Ivanov, D.M.Lebedevlar qo'llab quvvatlaganlar. Ularning nfikricha, Hindistonga kirib borish russlar uchun natija bermagan taqdirda ham, O'rta Osiyoga boradigan yo'l ma'lum bir ma'noda na faqat topildi, balki uzlapggirildi ham.[4]. Fikrimizcha, ikkinchi qarash haqiqatga yaqin ko'rindi. Masalan: O'rta Osiyoga Rossiyaning munosabati masalasi tarixchi N.B.Baykova asarida o'z aksini topgan. Muallif inqilobgacha bo'lgan tarixchilar va yuqorida nomlari tilga olingan olimlarni to'g'ri tanqid qilgan. N.B.Baykovning fikricha, O'rta Osyo xonliklariga boradigan savdo yo'llari XVI asrdayoq Rossiyaga ma'lum bo'lgan. Uning ta'kidlashicha, Rus davlati Hindistonga boradigan yo'lni qidirib O'rta Osiyoga boradigan yulni ochgan va o'zlashtirgan. Aslida esa O'rta Osiyodagi Xiva va

Buxoro bozorlarida rus savdogarları hind savdogarları bilan uchrashganlar, rus hukumatiga qulayroq yo'lnı, ya'nı hindlar uchun odati bo'lган Astraxan, Kaspiy dengizi va Eron orqali boradigan yo'lnı ko'rsatganlar[5]. 1717 yil Petr I Amudaryo orqali Hindistonga boradigan yo'lnı topish maqsadida Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasini O'rta Osiyoga yuboradi. Rus podshosi ekspeditsiyaga bergan ko'rsatmasida, "Xiva xonidan kema olib Kojina degan savdogarni Lmudaryo orqali Hindistonga jo'natish va kema borishi mumkin bo'lган joyga qadar suzib borish, so'ng yo'lnı davom ettirib daryolar, ko'llar, suv va quruqlik yo'li, ayniqsa, suv yo'lini yozib borish, va Hindistondan shu yo'l bilan ortga qaytish, agarda Hindistondan Kaspiy dengiziga boradigan undan ham yaxshi yo'lnı eshitsa, o'sha yo'l bilan kelish va uni ham yozib borish", topshirilgan edi[6]. 1735 yil Kirilovning so'roviga binoan Astraxandan Ufaga hind savdogari Maravgi Barayev taklif qilingan. Savdogar Hindistondan O'rta Osiyo xonliklari orqali Astraxanga boradigan yo'l haqida ma'lumot bergen. Uning aytishicha, yaqin vaqtlargacha Eron va Buxoro orqali Rossiyaga 200 savdogar kelib savdo qilishar edi. Biroq keyingi paytlardagi Erondagi qaltis vaziyat va Buxoro yo'lida savdo karvonlarining talanishi oqibatida savdogarlar soni 80 taga qisqarib ketgan. Barayev, agarda yo'llarda xavf-xatar bulmaganda edi, Hindistondan Buxoro orqali Rossiyaga keluvchi savdogarlarning soni 600 kishiga yetgan bo'lishi mumkin edi, deb taxmin qilgan[6]. 1736 yili I.K. Kirilov Rossiya imperatori Anna Ioannovnaga yozgan takdimotida, Buxoro bilan Xujand urtasidagi siyosiy vaziyatning og'irlashganligi sababli taxminan 300 kishidan iborat bo'lган hind savdo kompaniyasi vakillarining aksariyati Buxoroni tashlab vaqtincha Kobulga ketib qolganligini ma'lum qilgan. Imperator Anna Ioannovna Kirilovga yozgan javob maktubida Maravgi Barayevni Hindistonga Buxorodan ketib qolgan savdogarlarga murojaat qilib, ularni o'z faoliyatini davom ettirish uchun Buxoroga yoki Orenburgga taklif qilishni, topshirgan edi. Barayev o'z navbatida yurdoshlarini yangi Orenburg yo'nalishida savdo qilishga ko'ndirishni o'z zimmasiga olgan ed [7]. Mashhur rus geografi P.I.Rshkov Buxoroning Hindiston bilan savdo aloqasida Orenburgning ahamiyatini alohida ta'kidlab o'tadi. U, butun Sharqiy Hindistonda yashayotgan xalqlar rus va boshqa g'arb tovarlarini faqat Orenburg va Buxoro orqaligina to'g'ridan-to'g'ri va arzon narxda bu qadar ko'p mikdorda va arzon narxda sotib olishi mumkin, deb ta'kidlagan edi[8]. Rossiyaning O'rta Osiyo bilan savdo aloqalarini rivojlantirishida Orenburg gubernatori I.I.Neplyuevning xizmati katta. U 1742 yilda Orenburg ekspeditsiyasining komandiri etib tayinlanganidan boshlab Orenburg shahrini mustahkamladi, Qirg'iziston orqali Xiva va Buxoroga boradigan yulning xavfsizligini ta'minlash choralarini kurdi. V.N.Vitevskiy o'z asarida Neplyuevning Orenburgni Rossiyaning sanoat markaziga aylantirish, Buxoro yerlarini nazoratda ushlab turish, rus tovarlari uchun Buxoro, Badaxshon, Balx va Xdatsistonga boradigan yullarni qidirib topishga o'z e'tiborini qaratganligini ta'kidlagan. I.I.Neplyuevning Orenburgdagagi faoliyati natijasida hind savdogarlar Buxoro va Balxga kelib Orenburgdan keltirilgan rus tovarlarini jadal sotib ola boshlagan. Hattoki, savdoning bu qadar jadallahganini ko'rgan Neplyuevda karvon savdo yo'lnı Rossiyadan to Hindistongacha uzaytirish fikri tug'ilgan[9]. I.I.Neplyuevning faoliyati Rus davlatining O'rta Osiyoning qushni Sharq davlatlari bilan tashqi aloqalari to'g'risidagi ma'lumotlarni bilishga intilishidan dalolat beradi[10]. Xush asr o'rtalarida Buxoroning qo'shni Sharq davlatlari bilan aloqalari haqidagi muhim ma'lumotlar yirik russharqshunos olimi V.V. Velyaminov-Zernovning "Istoricheskiye izvestiya o Kirgiz-kaysakax i snosheniyax Rossii so Sredneyu Aziyeyu so vremeni konchinni Abul-Xayr xana (1748-1765 yillard.)" nomli asarida ham o'z aksini topgan[11]. XVIII asrning ikkinchi yarmida Rossiyada O'rta Osiyo xonliklari, jumladan, Buxoro xonligi haqida ko'p ma'lumotlar to'plana boshlagan. Rus soldati F.Efremov "Devyatiletnye stranstvovaniye" nomli kitobida o'zining to'qqiz yil sayohat qilib, Buxoro, Eron, Xorazm, Farg'ona, Qarshi, Tibet va Hindistonda bo'lib, Afrika janubini aylanib Angliyaga va undan Rossiyaga borganligi haqida yozadi. Yefremov Buxoro xonligida paxta yetishtirish masalasi bilan qiziqadi. U xonlik xujaligining qorako'l terisi eksporti bilan bog'liq bo'lган qo'ychilik sohasini kengroq yoritishga ahamiyat bergen. "Ma'lumki, - deb yozadi Yefremov, Buxoro qorakultsri eksporti orqasidan shuhrat topgan va xon xazinasiga katta daromad keltirgan". [12] Chulkov boshqa mualliflar kabi Orenburg qurilganidan so'ng u srga tillo va kumush tangalar oqib kela boshlagan, ularning pksariyati hind, eron va buxoro tanga pullari bulgan edi, deb seadi. O'rta Osiyodan ip matolar, ipak parcha matolari, pardal va kapop surp, buxoroning kulrang va qora rangli qorako'l, lyapislachur va boshqa qimmatbaho toshlar olib kelina boshlagan[13]. Chulkov ma'lumotlariga ko'ra, Buxoro, Xiva va Turkmanistondan Rossiyaga tillo, kumush, hind va boshqamamlakat mollari, lazurit toshi (ko'r rangli qimmatbaho tosh), buxoro va sheroz qorako'l, parcha, har xil bo'z, toshlar, olmos, yoqut, lal, zumrad, darmana urug'i va boshqa tovarlar keltirilgan[14]. Burnshevning ma'lumotlariga ko'ra, Buxoro Hindiston va Erondan tillo, kumush va hind malmali olgan. Buxoro Eronga qorako'l terisi va boshqa tovarlar eksport qilgan[15]. Burnshev Buxoroga keltiriladigan chet el tovarlaridan qirqdan bir miqdorida boj solig'i olinishini eslatib o'tadi. Rus savdogarlar esa o'z mablag'idan yigirmadan bir miqsorida soliqto'lagan [16]

**Xulosa.** Buxoro amirligida qo'shni davlatlar va xalqlar bilan savdo aloqalarini rivojlantirishga ham katta e'tibor berilgan. Buxoro o'z qo'shnilar bo'lган Xiva xonligi, Qo'qon xonligi hamda Afg'oniston bilan hamda o'ziga yaqin bo'lган davlatlar Eron, Qashqar, Hindiston bilan va yirik shaharlar hisoblangan Hirot, Mashhad va Kashmir bilan juda katta va doimiy savdo ishlarini olib borishgan.

### Foydalaniłgan adabiyotlar

1. Афганистан (переведено из британской энциклопедии. 1878г. Л-Гв. 1 артилле-рнийской бригады 1 поручиком Г ипиусом) //Сборник географических, топографических и статистических материалов по Азии. Выш. 15. СПб, 1885. - С . 224.
2. Кайдалов Е. Караван-записки, во время похода в Бухарию Российского каравана, под воинским прикрытием, в 1824 и 1825 годах; веденными начальником оного Каравана над купечеством, Евграфом Кайдаловьш. В трех частях. - М., 1827-1828.
3. Веселовский Н.И. Прием в России и отпуск среднеазиатских послов в XVII и XVIII столетиях //Журнал Министерства народного просвещения. — СПб., 1884.Кн.: 7; Уляницкий В.А. Ўша асар.; Бартольд В.В. История изучения Востока в Европе и России
4. Лебедев Д.М. География в России XVII века: (Допетровский период). - М.-Л.;Изд-во АН СССР. 1949 .-С .106 .
5. Байкова Н.Б. Ўша асар. - С. 10.
6. Соловьев О.Ф. Из истории русско-индийских связей. М.: Соцэкиз.1958. С.31.
7. Русско-индийские отношения в XVIII веке.С, 129.; Матвиевский П.Е. О роли Оренбурга в русско-индийской торговле в XVIII в. //История СССР. 1969. № 3. -С.106.
- 8.И.К.Кирилову о расширении в Оренбурге торговли со среднеазиатскими ханствами и Индией //Русско-индийские отношения в XVIII веке. - С. 139-141.
9. Рычков П.И. Топография Оренбургской губернии. - Оренбург, 1887. - С . 138
- 10.Матвиевский П.Е. Ўша асар. 109 б.; Вельяминов-Зернов В.В. Исторические известия о киргиз-кайсаках и сношениях России с Среднею Азию со времени кончины! Абул-Хайр хана (1748-1765 гг.). - Т.: Уфа, 1853. - С.69-70.
- 11.Виггевский В.Н., И.И.Неплюев и Оренбургский край в прежнем его составе до 1758 г. Выш. 4. -К азанъ: 1895. - С . 826.
12. Вельяминов-Зернов В.В. Исторические известия о киргиз-кайсаках и сношениях России со Среднею Азию со времени кончины Абул-Хайр хана (1748-1765). Т. 1 -2 .-Уфа : 1853-1855.
- 13.Ефремов Ф. Девятилетнее странствование. - М.: Гос изд-во геогр.лит., 1950. -С. 26, 30
14. Чулков М. Историческое описание Российской коммерции при всех портах и границах от древних времен до нынешнего настоящего и при всех преимущественных узаконений по оной государя Императора Петра Великого и нынешне благополучно царствующей Государьши Императрицы Екатерины Великии. Т.2. Кн.: 3. ~ М.:1785.-С .2 15. Чулков М. Ўшаасар. Т.2. Кн.:2. -М ., 1785. - С . 357
16. Бурнашев Т.С. Путешествие от Сибирской линии до города Бухары в 1794 и обратно в 1795 году //Сибирский вестник. - СПб., 1818. Ч. III. - С.120.

Zulayho Muhammadiyeva,

ShDPI Ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix yo'nalishi talabasi

## QO'QON XONI XUDOVORXON DAVRIDA XONLIK VA ROSSIYA IMPERIYASI O'RTASIDAGI SIYOSIY-IQTISODIY ALOQALAR

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Qo'qon xonligining qariyb 3 yil davomida Rossiya imperiyasi bilan savdo va diplomatik aloqlari yoritib berilgan. Qo'qon xonligining Rossiya bilan davlatlararo aloqalari Buxoro va Xiva bilan solishtirganda, qisman uning imperiyadan anche uzoqda joylashganligi, eng muhim, qozoq qabilalari o'tasida siyosiy ta'sir o'tkazishi tufayli kamroq rivojlandi. Qo'qon xonligining Rossiya bilan savdo aloqalari tufayli xonlikka Yevropa madaniyati kirib keldi.

**Kalit so'zlar:** Qozoq, Xudovorxon, Qo'qon xonligi, Rossiya imperiyasi, diplomatik aloqalar, elchilar almashinuv, Kaufman, savdo bitimi, G'arbiy Sibir, Okmachit, general gubernator, sulu.

Аннотация. В этой статье освещаются торговые и дипломатические отношения Кокандского ханства с Российской империей на протяжении почти 30 лет. Межгосударственные связи Кокандского ханства с Россией были менее развиты по сравнению с Бухарой и Хивой, отчасти из-за его значительного удаленности от империи, а главное, политического влияния среди казахских племен. Благодаря торговым связям Кокандского ханства с Россией в ханство проникла европейская культура.

Ключевые слова: Казахстан, Худояр-хан, Кокандского ханство, Российская империя, дипломатические отношения, обмен послами, Кауфман, торговая сделка, Западная Сибирь, Акмачит, генерал-губернатор, перемирие.

**Annotation.** In this article, about 30 years of the Kokand Khanate Trade and diplomatic relations with the Russian Empire were covered. Kokan the Khanate's interstate relations with Russia are with Bukhara and Khiva in comparison, in part because of its location far from the Empire, the most importantly, less due to political influence among Kazakh tribes developed. Due to the Kokand Khanate's trade relations with Russia, the Khanate was governed by European culture entered.

**Key words:** Kazakh, Khudoyorkhan, Kokan Khanate, Russian Empire, diplomatic relations, exchange of ambassadors, Kaufman, trade agreement, Western Siberia, Okmakhit, governor general, peace

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Tarixan Hozirgi O'zbekistonning hududi shunday joy bo'lganki, bu yerda ko'hna savdo yo'llari (mashhur Buyuk Ipak yo'li) tutashgan, jo'shqin tashqi aloqalarva turli madaniyatlarning bir-birini o'zaro boyitishi jarayoni kechgan hudud hisoblangan". [1] Ana shunday aloqalar natijasi o'laroq, XVI-XX asr boshlarida O'rta Osiyo xonliklarining qo'shni davlatlar bilan aloqalari taraqqiy

qilib borgan. Ma'lumki, XVI asrdan boshlab O'rta Osiyo hududida Buxoro va Xiva xonliklari XVIII asr boshlarida esa Qo'qon xonligi vujudga kelgan. XVI-XX asr boshlarida O'rta Osiyo xonliklari Sharq davlatlari jumladan Xitoy, Hindiston, Eron, Afg'oniston va Rossiya bilan savdo-iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarni amalga oshirgan. Ko'p sonli mambalar, sayyohlarning yozganlari, elchilik hujjatlari, elchilarning hisobotlari, statistik hisobotlar va ilmiy adabiyotlar xonlikning tashqi munosabatlari haqida ma'lumot beradi.

**Manbaga oid adabiyotlar tahlili.** Tadqiqot manbashunosligi va tarixshunosligi tahlili shuni ko'rsatadiki, Qo'qon va Rossiya imperiyasi o'tasida olib borilgan siyosat nafaqat daxldor kishilar va tashkilotlar, manfaatdor shaxslar va amaldorlarning, balki mahalliy tarixchilar diqqatini ham o'ziga tortgan. Mahalliy mualliflardan Muhammad Yunusjon shig'ovulgina Qo'qon xonligining Chor Rossiyasi bilan olib borilgan aloqalariga bir kichkina bob ajratgan. Boshqa asarlarda mualliflarning Chor Rossiyasi bilan munosabatlar tafsilotlarini Chor Rossiyasining O'rta Osiyoda olib borgan bosqinchilik siyosati doirasida bayon qiladilar. Ba'zi asarlarda esa zamondosh mualliflar o'zlar ko'rgan va eshitgan voqealarni o'z mamalakatlari tarixi doirasida berib, Rossiya imperiyasi bilan aloqador bo'lgan voqealarni yozganlar. Muhammad Hakimxon, Abu Ubaydulloh Toshkandi, Avaz Muhammad Attor, Mirzo Rahim Toshkandiyning asarlarida Chor Rossiyasi bosqini bilan bog'liq voqealar keng bayon qilinadi. O'tgan yillar mobaynida tarixchi olimlar tomonidan yaratilgan asarlarda O'rta Osiyo davlatlaridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, iqtisodiy hayot, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari va mahalliy hayot bo'yicha turkum materiallar to'plangan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolani yozish davomida ilmiy, adabiyotlar tahlili, qiyoslash, analiz, umumlashtirish, tarixiylik metodlaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Qo'qon xonligining Rossiya imperiyasi bilan munosabatlari boshqa xonliklarga nisbatan kechroq rivojlandi. Qo'qonning o'n birinchi xoni Xudoyorxon 30 yil davomida ya'ni 1852-1882 yillarda hukmronlik qilgan. 3 marta taxtdan tushgan va har safar yana qayta g'alaba qozongan. Xudoyorxon hukmronligi boshlanishi bilan qipchoqlar bilan qo'zg'olon boshlanib, ularni mag'lubiyatga uchratadi. 1853-yilda Qo'qon xonligining shimoliy chegara hududlarida vaziyat keskinlashdi, bu yerda rus harbiy otryadlari ko'proq paydo bo'lib, qal'alar qurila boshlandi. Ilgari chor hokimiyyati xonliklarda o'z ta'sirini savdo yoki diplomatik usullar bilan o'rnatishga erishmoqchi bo'lgan bo'lsa, endilikda xonlikdagi beqaror vaziyatdan foydalanib, faol talonchilik harakatlariga o'tdi.[1] Qo'qon xonligi va Rossiya imperiyasi o'tasida bir necha bor savdo va diplomatik elchilar almashinuv ro'y berdi. Qo'qon xoni chor davlati bilan urushmaslik, tinchlik munosabatlarini o'rnatish, uning barcha talablarini bajarishni lozim topgan va hatto xonlik taxtiga o'tirishda unga amaliy yordam bergan Buxoro amiri Muzaffarga imperiya qo'shinlariga qarshi kurashda yordam bermaslikka qaror qilgan. R.Nabiyevning yozishicha, Xudoyorxon Turkiston general gubernatori P.Kaufman bilan tuzilgan savdo bitimi haqida umumiyl fikr bildiradi va bu bitim taxminan 1867-yilda imzolangan deb faraz qiladi [2] ammo shu munosabat bilan kechgan diplomatik aloqalar jarayoni haqida hech narsa yozilmagan. Xonlik bilan chor Rossiyasining olib borgan munosabatlari bu davrda harbiy mohiyat kasb etadi. Xudoyorxon tomonidan 1853- yilda Rossiyaga jo'natilgan elchilarga Yo'Idoshboy Mirzajonov ismli shaxs boshchilik qilgan. Bu paytga kelib Rossiyaning O'rta Osiyoga nisbatan tashqi siyosati yetarli darjada aniq edi. Qo'qonlik elchilarning harakatlariga qaramasdan, ular Omskdan ortga qaytarilgan. Har ikkala davlatning o'zaro elchilik aloqalari tahlili shuni ko'rsatadiki, Rossiya Qo'qon xonligi bilan yaxshi niyatli, teng huquqli diplomatik munosabatda bo'limgan. Rossiyaning asl maqsadi Qo'qon xonligini bosib olish edi. Rus sayyohlari, amaldorlari qoldirgan hujjatlardan shuni bilish mumkinki, Rossiya Qo'qon xonligini o'z tovarlari uchun qulay bozor deb hisoblagan. V.V.Zernov 1854-yili Qo'qon sanoatsiz mamlakat, uning atrofidagi xalqlar ham shu yoki past darajada rivojlanganligini, xonlik qo'shnilarini orasida eng rivojlangan davlat Rossiya ekanligi va bu Rossiya uchun savdoda qulaylik tug'dirishini ta'kidlagan edi. Chernyayev ham 1865-yil 23-aprelda O'rta Osiyo davlatlari bilan Rossiyaning savdo aloqalari savdogarlar uchun qulay va xatarsiz bo'lishi kerakligini ta'kidlagan. [3] Chor hukumati Qo'qon xonligi bilan rasman do'stona aloqada ekanligini so'zda tan olsa ham, amalda mahalliy xalqlar o'tasidagi do'stlik munosabatlarining o'rnatilishiga qarshi edi. Bunga yaqqol misol qilib, Sibir korpusining general-infanteri G.Gosfordning 1856-yil 18-oktabrda yozgan xatini keltirishimiz mumkin. "... birinchi navbatda Oloyorti o'lkasidagi qozoqlarni bo'ysundirib, yovvoyi, toshbag'ir qirg'izlarni o'zimizga bog'lab, ularning qo'qonliklarga bo'lgan qarshilagini qo'llab-quvvatlashimiz kerak." [4] Rossiya imperiyasi hukumatining polkovnik Ignatyev boshchiligidagi Buxoroga yuborgan elchilikka topshirgan yo'riqnomalarida ham Chor Rossiyasining O'rta Osiyo xonliklariga nisbatan asl munosabati mohiyatini ko'rishimiz mumkin. Unda ta'kidlanishicha, agarda Buxoro amiri chor hukumatidan Qo'qonga qarshi kurashda yordam so'rasa, Ignatyev javobdan o'zini olib qochishi kerak. Chunki amir Qo'qonni bosib olsa, Rossiya chegarasi atrofida Buxoro amirligi kuchli va xavfli davlatga aylanib qolishi mumkin. [5] Rossiya imperiyasi Qo'qon xonligining hududlarini bosib olish oldidan uning tabiiy boyliklarini bilib olish maqsadida o'z olimlarini jalb qildi. Masalan, "N.A.Seversov" nomli hujjatlar to'plamida rus olimi N.A.Seversovning Turkiston bekligi tabiatini ilmiy o'rganish maqsadida kelganligi va u qo'qonliklardan ruxsat olmasdan 8 ta rus kazaki bilan Qo'qon xonligi chegarasidan o'tganligi uchun asirga olinganligi haqida arxiv ma'lumotlari bor. Bu esa Rossiya-Qo'qon chegarasida ma'lum darajada diplomatik munosabatlarning buzilishiga olib kelgan. N.A.Seversovning asirga olinganligi to'g'risida chor hukumatiga xabar

berishgan. Chor Rossiyasi qo'mondoni general-major Danzas esa diplomatik yo'l bilan mazkur masalani hal qilish o'rniga quroq ishlatalish bilan do'q-po'pisa qiladi. O'z so'zlarini isbotlash uchun u 1858-yil 10-may kuni fort Perovskiy (sobiq Oqmachit qal'asidan) 300 ta qurollangan oqliq askar va ikki to'p bilan Qo'qon xonligiga qarashli Jo'lak qal'a tomon yurish qiladi. Shu paytda Turkiston beki unga xat yo'llab, rus olimi K.A. Seversovni ozod qilishi haqida xabar beradi. General-major Danzes "hovuridan tushib", fort Perovskiyga qaytib ketadi, bir necha kundan keyin esa rus olimi ozod etiladi. [6] Qo'qon xonligi Chor Rossiyasi bilan elchilik munosabatlari Turkiston general-gubernatori (yarim poshsho) orqali amalgalashiradi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, Qo'qon xonligining chor Rossiyasi bilan olib borgan aloqlari siyosiy, iqtisodiy, madaniy, harbiy sohalarda bo'lib, uning birinchi bosqichi savdo-sotiqa va elchilik munosabatlaridan iborat bo'lgan. Qo'qon xonligi bilan Rossiya imperiyasi o'rtaisdagi munosabatlar ijobjiy yoki salbiy bo'lmasin, oxir-oqibatda natijasi bir mamlakatning barham topishi bilan yakunlandi. Ikki davlat o'rtaisdagi elchilik munosabatlarida ikkiyuzlamachilik yaqqol ko'zga tashlanadi. Rossiya imperiyasi Qo'qon xonligini bosib olishga harakat qilib, bir necha bor o'z elchilarini yuboradi, harbiy istehkomlar quradi. XIX asr o'rtalarida Rossiya hozirgi Qozog'istonning shimolidagi yerlarni bosib olgach, xonlikka tobe bo'lgan istehkom va qal'alarga yaqinlashdi. Xonlik bilan chor Rossiyasining olib borgan munosabatlari bu davrda harbiy mohiyat kasb etadi. Qo'qon xonligi Chor Rossiyasi bilan elchilik munosabatlarini Turkiston general gubernatorli (yarim poshsho) orqali amalgalashiradi. Shunda Qo'qon davlatining ko'pgina talab, e'tiroz va iltimoslari Chor Rossiyasi davlatining mas'ul amaldorlari diqqatiga yetib bormasdi. Chor Rossiyasining O'rta Osiyo xalqlari bilan olib borgan siyosati va amalgalashiragan imperialistik g'oyalari bu xalqlarni uzoq muddat birga yashashga, ko'p sinov va qiyinchiliklarni birga ko'rishga mahkum etgan edi. Chor Rossiyasi tajovuzi davridan keyin sho'rolar davrida ham mazkur xalqlar taqdiri yagona tarixiy jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.A.Karimov O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lli. 1-jild. –T. "O'zbekiston", 1996. 42-b
2. Гуломов Х. Дипломатические отношения государств Средней Азии с Российской в XVIII – первой половине XIX века. –Т 2005, 290 б
3. Набиев Р.Н. Из истории Кокандского ханства. –Т 1973, 49-50 б
4. Kuzikulov.I. Qo'qon xonligi tarixi. –Namangan 2014, 53 b
5. Topildiyev. N. Qo'qon xonligining Rossiya bilan diplomatik aloqlari tarixidan. –T 2007, 55 b
6. Akbarov.R.X. Qo'qon xonligi tarixi. –Farg'ona 2015, 126-127 b
7. Topildiyev. N. Qo'qon xonligining Rossiya bilan diplomatik aloqlari tarixidan. –T 2007, 56-57 b

Gulmira Mirzayeva.

Qarshi Davlat Universiteti  
Texnologik ta'lim kafedrasи erkin izlanuvchisi

## HALQ HUNARMANDCHILIGIDA KASHTADO'ZLIK SAN`ATI MAVZUSINI O'QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH

**Annotasiya.** Mazkur maqolada xalq hunarmandchiligi faniga oid o'quv materiallarini o'rgatishda o'quvchilarga milliy iftixor tuyg'usini shakkantirish va milliy tarbiya berish masalalari haqida to'xtalib o'tilgan. Buning uchun milliy kashtado'zlik mahsulot turlari haqida ma'lumot berilgan va oliy ta'lim tizimida "Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash" fanini o'qitish jarayonida hamda umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya darslarida o'qitish metodikasi ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'z va iboralar:** kashtado'zlik, so'zana, zardevor, joynomoz, choyshab, do'ppi, araqchin, kuloh.

**Annotation.** This article focuses on the issues of forming a sense of national pride and providing national education to students when teaching educational materials related to the science of folk crafts. For this purpose, information was given about the types of national embroidery products and the teaching methodology of "Folk Crafts and Artistic Design" in the higher education system and in technology classes in general secondary schools was shown. "raised.

**Key words and phrases:** embroidery, sozana, zardevor, joynomoz, sheet, cap, arkachin, hat.

**Annotasiya.** В данной статье основное внимание уделяется вопросам формирования чувства национальной гордости и обеспечения национального воспитания учащихся при преподавании учебных материалов, связанных с наукой о народных ремеслах. С этой целью были даны сведения о видах национальных вышивальных изделий, показана методика преподавания «Народных промыслов и художественного проектирования» в системе высшего образования и на уроках технологии в общеобразовательных школах.

**Ключевые слова и фразы:** вышивка, созана, зардевор, джойномоз, постельное белье, тюбетейка, аракчин, кулох.

O'zbekiston xalq hunarmandchiligi hunarmandlarning o'ziga xos va betakror ijodining va o'z mahoratini avloddan avlodga o'tkazib kelayotgan soha hisoblanadi. Oliy ta'lif tizimida talabalarga ushbu sohaga oid o'quv materiallarini tushuntirishda ixtisoslikka oid kompetensiyalarni shakkantirish maqsadga mufovq. Ayniqsa, hunarmand ustalar tomonidan yaratilgan har bir buyumga o'z qalbining bir bo'lagini qo'yib yaratilishi, ular asrlar davomida noyob mahsulotlar sifatida ardoqlanib kelinayotganini va u uy anjomlari yoki uy bezaklari bo'ladimi, bayramona libos uchun noyob mato yoki maxsus taomlar yaratilishini tushuntirishda milliy tarbiya masalalarini ham berish mumkin.

Xalq hunarmandchiligini rivojlantirish bo'yicha hamdo'slik mamlakatlarida olib borilgan tadqiqotlar ayrim hududlarda amaliy san'atning o'ziga xos xususiyatlari keltirib o'tilgan. Masalan: M.S.Belovning ilmiy tadqiqot ishlarida Ivanovo viloyati xalq badiiy hunarmandchiligining holati va rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilib bergen, G.K. Gamzatovaning ilmiy-tadqiqot ishida Xalq hunarmandchiligidagi mujassam bo'lgan badiiy ijod asoslarini rivojlantirishda ijodiy qobiliyatlarini shakkantirishning pedagogik shartlari o'rganib chiqilgan; xalq badiiy hunarmandchiligini o'rganish muammolari san'atshunoslarning asarlarida hisobga olingan: A. B. Bakushinskiy, V. M. Vasilenko, B. C. Voronov, M. A. Nekrasova, A. B. Saltikov va boshqalar.

Xalq dekorativ-amaliy san'ati vositasida o'quvchilarni estetik va mehnat tarbiyasi muammosi so'nggi yillarda pedagogik tadqiqotlarda keng yoritilgan va A. A. Andreyeva, I. I. Zaretskaya, A. Y. Markutskaya, G. V. Poxolkin, A. D. Soldatenkov, D. K. Skilskiy, L. Y. Suprun, va boshqalarning ishlarida o'rganilgan. Ozbek olimlaridan M.X.Shomirzayev, P.O.Paxratdinovaning ilmiy –tadqiqot ishlarini halq hunarmandchiligining o'qitish muammolariga bag'ishlangan.

Mamlakatimiz milliy hunarmandchiligini rivojlantirish, zamonaviy yo'nalishlarini yaratish va ta'lif jarayonida o'qitish, o'rganishga xos soha hisoblanadi.

Ma'lumki, O'zbekistonnig Farg'on'a, Samarqand, Buxoro, Xiva va boshqa shaharlari ustalari tomonidan yaratilgan asarlar, yasalagan buyumlar qadimdan Vatan chegaralaridan tashqarida ham mashhur bo'lib kelgan va butun dunyodan go'zallik ixlosmandlarining qiziqishini uyg'otishda davom etmoqda. Milliy hunarmandchilik tarmoqlaridan biri kashtachilik bo'lsa, ikkinchisi zardo'zlik hisoblanadi. Bu ikki tarmoq bir-biriga yaqin bo'lib avval kashtachilik hunarini egallah, keyunroq esa uncha katta tayyorgarliksiz zardo'zlik hunarini egallah mumkin. Xalq hunarmandchilik maktablarining xilma-xilligi, har xil turdag'i mahsulotlar do'ppi, har bir taom tayyorlashda ishlataladigan turli xildagi milliy pichoqlar, ipak va jun gilamlar, ipak gazlamalar ishlab chiqarish, zargarlik mahsulotlari: bezak tangalar, xar xil taqinchoqlar - ko'p asrlar davomida mahalliy usta va hunarmandlarning qo'llari bilan yaratilgan ajoyib asarlar O'zbekistonning o'ziga xos ekzotizmini tashkil etadi.

O'zbekiston hududida asrlar davomida o'ziga xos xalq amaliy san'ati markazlari va maktablari shakkilanib kelgan. Har bir mintaqaning o'z yo'nalishi bor. Namangan, Chust do'ppi va pichoqlari, Faro'na Rishton sopol idishlari, qadimgi Marg'ilon - Kamalak atlasi, Muqaddas Buxoro - oltin kashtalari bilan mashhur.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarda xalq hunarmandchiligini rivojlantirish bo'yicha ko'pgina ishlar qilinmoqda, Jumladan, Oliy ta'lif muassasalarida milliy hunarmandchilikka oid kompetensiyalar texnologiya yo'nalishi talabalarida "Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash" fanini o'qitish jarayonida, umumiy o'rta ta'lif muassasalarida texnologiya fanini o'rgatish jarayonida dastlabki bilimlar, ko'nikmalar shakkantirilmoqda. Davlatimiz rahbarining ma'ruzalarida xalq hunarmandchiligini rivojlantirishning assosiy yonalishlari ko'rsatib o'tildi. Shunday yo'nalishlardan biri kashtado'zlik san'ati hisoblanadi. Oliy ta'lif tizimida texnologiya yo'nalishi talabalarini kashtado'zlik tarixi, uning rivojlanish bosqichlari, hozirgi ahvoli va imkoniyatlari, kashtachilik maktablari va ustalari, kashtachilik mahsulotlari turlari va uni tayyorlashda ishlataladigan jihoz va moslamalar, kashta tikishda ish o'rnnini tashkil etish, kashtachilikda qo'llaniladigan choklarning turlari haqida ma'lumotlar beriladi.

Kashtachilik – O'zbekiston amaliy-bezak san'ati turlari orasida eng qadimiysi hisoblanadi. O'zbek kashtalari noyobligi, go'zalligi, bezak-naqshlari va texnik usullarining ko'pligi bilan ajralib turadi. O'zbek milliy kashtachiligi halq hunarmandchiligining qadimiy turlaridan bo'lib, u xalqning o'z turmushini go'zal qilish istagi natijasida paydo bo'lib, kashtachilik san'ati nafaqat mamlakatimizda, balki chet ellarda ham shuhrat qozongan. O'zbek xalq ustalari tomonidan tikilgan kirpech, so'zana, zardevor, gulko'rpa, choyshab kabi buyumlar Germaniya Federativ Respublikasi, Belgiya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Hindiston, Afg'oniston kabi xorijiy, shuningdek, mamlakatimizning barcha viloyatlarida faqat xonardonlarda emas, balki muzeylarda doimiy eksponatga aylanib qolgan.

Kashtachilik asosan savdo-hunarmandchilik shaharlarida va yirik qishloqlarda hamda O'zbekistonning qadimiy dehqonchilik madaniyati markazlarida (Xorazmdan tashqari) keng tarqalib kelgan. XIX asrda Buxoro, Samarqand, Toshkent, Nurota, Shahrisabz, Farg'on'a kabi katta-katta kashtachilik markazlari bo'lgan. Mazkur kashtachilik maktabida liboslarga tikilgan kashtalar alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, ushbu maktablarda o'ziga xos uslub va ranglar mutanosibligi mavjud bo'lib, mamlakatimiz hududida mavjud kashtachilik maktablari juda boy tarixiy-jitmoi, falsafiy-ramziy hamda amaliy san'atning rang-barang ko'rinishi bilan alohida o'r'in tutadi.

Piru badavlat momolarimizdan bizga meros bo'lib kelayotgan amaliy bezak turlarining eng qadimiy va keng tarqalgan turi kashtachilikdir. Har bir qatim ipakka jon baxshida etib, dil tuyg'ularini go'yo bejirim gullar jilosiga ulab, ko'z-ko'z etayotgan qiz-juvonlarning nozik barmoqlari chindan-da mo'jiza yaratmoqda. Ha, xalqning hayoti

va urf-odatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan bu san'at turi qo'li gul chevarlar tomonidan asrlar osha yanada sayqallanib kelinmoqda.

Xalq kashtachilagini o'ziga xos san'at, hunar sifatida o'rganish esa hozirgi zamon talabalaridan biridir. O'rta Osiyoda kashtachilik juda keng tarqalgan bo'lib, oilada har bir ayol kashta tikishni bilishi kerak bo'lgan, shuning uchun har bir oila o'zi uchun kirpech, so'zana, dorpech, oynaxalta, choyxalta va boshqalarni o'zi tayyorlagan. Kashtachilik mahsulotlarining turi juda ko'p masalan, so'zana, kirpech, choyshab, oynaxalta, choyxalta, zardevor, palak, gulko'rpa, dorpech, parda, belbog', takyapo'sh (yostiq ustiga yopiladigan), do'ppi, ko'ylik, dastro'mol, hamyon, joynamoz, sumka, nimcha, maxsikavush, xaltacha va boshqalar badiiy did bilan bezatilgan. O'tmishda bu kashtalar oq va malla matolarga tikilgan. Keyinchalik satin, shoyi baxmalga tikiladigan bo'ldi. Kashtachilik mahsulotlari turlari bilan tanishib chiqamiz.

Kashtachilik san'ati mahsulotlari turlariga quyidagilar kiradi: So'zana - forscha so'zdan olingan bo'lib, igna bilan tikilgan degan ma'noni bildiradi. Palak - devorga osiladigan bezak buyumi bo'lib, naqshlari oy ko'rinishida aylanasiomon bo'ladi. Zardevor - uyning tepa qismiga osiladigan kashta buyumi bo'lib, balandligi 60 sm, uzunligi uyning o'Ichamiga mos qilib olinadi. Choyshab - forscha so'z bo'lib, tun chodiri degan ma'noni bildiradi. Joynamoz - bir tomoniga mehrob shakli kashtada tikilgan bo'ladi. Yostiqqosh - eni 30 sm, uzunligi 60 sm gazlamaga naqsh tushurilib tikiladigan bezak buyumi. Qiyiqcha - belbog' erkaklar beliga bog'lanadigan ro'mol.

Do'ppi - O'zbekistonda keng tarqalgan engil bosh kiyim. Do'ppi kiyish dastlab Eronda va Turkiy xalqlari o'rtasida, Rossiyada esa XIII asrda rasm bo'lgan. Asrlar davomida do'ppining turli xillari vujudga kelgan. Baxmalga, satinka, sidirg'a shoyiga ip, ipak va zar bilan do'ppi gullari tikilgan. O'zbekistonda, Toshkent, Chust, Buxoro, Samarkand, Boysun, Shahrisabz do'ppilar mashhur bo'lib, ular o'ziga xosdir. Respublikamizning barcha tumanlarida do'ppi tikiladi, uning iroqi, chust do'ppi, gilam do'ppi, chakma to'r, qizil gul, piltado'zi, zardo'ppi, to'ldirma deb nomlanadigan milliy do'ppilar bor, har bir do'ppi yaratilish uslubiga ega bo'lib, ular birbiridan farq qiladi. O'zbekistonda ommaviy bosh kiyimi asosan uch xil shaklga ega bo'ladi, quloh, araqchin, tus do'ppi. Do'ppilarning xilma-xilligi - qubbasimon, to'rburchak, dumaloq, gumbazsimon shakllari, ularga tikilgan kashtalarning bezaklari boyligi ba'zan to'rsimon, ba'zan yirik relefli, ba'zan gilamga o'xshash tus olishi, matoning oq-qoradan tortib kamalaksimon jilolanishigacha ranglarning anvoyi tovlanishi - o'zbek bosh kiyimining xilma - xilligini ko'rsatadi. Do'ppilarning ustki qismi va jiyagi guldor geometrik naqshlar bilan yaxlit tagdo'ziga gohida to'garaklar, gohida gul shoxlari shaklida tikiladi. XIX asr va XX asrдан boshlab do'ppilar har xil mahalliy xususiyatlari shu qadar aniq beriladiki, uni kiygan kishining asli qaerdanligini aniqlash oson bo'lgan.

Kuloh - konussimon bosh kiyim. U asosan darveshlar qalpog'i, uning matohi toq uchburchak parchalaridan bichilib yonlamasiga tikiladi. Kuloh (erkaklar bosh kiyimi) hozir juda kam uchraydi. Araqchin - sharsimon do'ppi, uni asosan keksalar kiyadi. Toshkentda sharsimon do'ppilar kanda xayol, bosma, chakmato'r, iroqi chok usullarida tikiladi. Tus do'ppi - keng tarqalgan yassi yuzali do'ppi. Ko'pincha tus do'ppi chust do'ppi deb yuritiladi. Tus do'ppilarning birgina klassik variantining o'zida sakkizta yuvelir chok uslubi qo'llaniladi. Masalan, zanjira, to'g'ri chok, chita, kungura, etalatma, taroq, ova, pildiroq. Chust do'ppisining tepasiga gizakdan kvadrat shaklida bo'rtib chiqib, yarim shar ko'rinishida bo'ladi. Toshkent do'ppisi - sidirg'a baxmaldan (gulsiz) tikilgan bo'ladi. Buxoro do'ppilar - sidirg'a yoki gulli baxmaldan jiyakli qilib tikiladi, jiyagi turli xil ipaklardan rangdor naqshli yo'rma usulida tikilgan bo'ladi.

Oliy ta'lim tizimida mazkur mavzuni o'qitishda rolli o'yin, klaster, bahs-munozara, muammolli ta'lim metodlari asosida olib borilsa darsning samarasi yanada yaxshi bo'ladi. Talabalar dizayner-texnolog rolida bo'lib har birlari o'zlarining loyihalarini taklif qilishlari mumkin bo'ladi. Taklif qilingan har bir loyiha taqdomot qilinadi, bahs-munozara asosida qabul qilinadi. Bunda o'qituvchi talabalarga zamonaviy dizayn asosida kashta bilan bezatilgan mahsulotlarni tayyorlashni topshiradi, masalan: do'ppi, so'mka, choynakpo'shni kashta bilan bezash, bolalar kiyimlarini kashta bilan bezash va h.k ishlar topshiriq sifatida berilishi mumkin.

Shunday qilib, o'zbek xalq hunarmandchiligi qadimiy va boy tarixga ega soha hisoblanadi. Mazkur madaniy merosimizni rivojlantirish va "Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash" fanini o'qitish jarayonida, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida texnologiya fanini o'rgatish jarayonida milliy tarbiya berishda ham o'rinal foydalanish imkoniyati mavjud.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шоёкубов Ш.К. Ўзбек халқ амалий – безак санъати. -Т., 2009.
2. Булатов С Ўзбек халқ Амалий безак санъати. Тошкент. Мехнат1991йил.
3. Муратов X.X., Жаббаров Р.Р. "Амалий ва бадиий безак санъати" фанидан ўкув кўлланмана Чирчик-2020й. 166 б.
4. Р.О.Paxratdinova Умумтаълим мактаблари ўқувчиликнинг миллий хунармандчиликка оид ижодкорлик фаолиятини лойиҳалаштириш. PhD. dissertatsiyasi. Termiz-2022 у.
5. Ishmurodova G.M., O'rroqov K.X., Mirzayev G.M. Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash . Qarshi 2021 " Fan va ta'lim " -370 bet
6. Ishmurodova G.M., Mirzayev G.M., Mirzayev E.M. Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash . Qarshi 2021 " Nasaf NMU " -344 bet

Shahnoza Izmurodova  
Qarshi shahar 1- umumiy o'rta ta'lif maktabi o'qituvchisi

## HUDHUD OBRAZINING KELIB CHIQISH MANBALARI VA TIMSOLDA AKS ETGAN NABAVIY TAJALLI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Hudhud obrazining genezisi yoritilib, Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" asarida tutgan o'rni va etimologik asoslari talqin etiladi.

**Kalit so'zlar:** obraz, timsol, etimologiya, ornitologiya, halqa, "Qissasi Rabg'uziy", "Lison ut-tayr".

Musulmon dunyosi adabiyotida ramziylik an'anasi Qur'oni Karimga borib taqaladi. Hudhud qushining obraz darajasidan timsol maqomigacha chiqib, qo'llanishi haqida ham xuddi shu fikrlarni aytish mumkin. U o'zi qanday qush? Hudhud - bizning tilda popishak deyiladi. Bu so'zning kelib chiqishi etimologik jihatdan hidoyat so'ziga, hidoyat so'zining kelib chiqishi esa "Asma ul-husna" tarkibidagi Alloh taolonning to'qson to'qqiz go'zal ismlaridan biri Hodiy ismiga borib taqaladi. Hidoyat ( arabcha-to'g'ri yo'l)- haqiqiy e'tiqod yo'lidan yurish. U Yaratguvchi o'z bandalari uchun ko'rsatgan eng to'g'ri yo'l hisoblanadi.<sup>1</sup>

Qur'onning hidoyat to'g'risidagi oyatlarda ta'kidlanishicha, Tangri taolo hidoyat yo'liga hammani ham boshlamaydi, balki o'zi xohlagan, tanlagan kishilarinigina bu ne'matga musharrarf etadi. Hidoyatga boshlovchi zot Hodiydir. Hodiy so'zining yana to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi, to'g'ri yo'lga boshlovchi; yetakchi, yo'lboshchi; pir, rahnamo, murshid kabi ma'nolari mavjud. Bu nom Alloh taolonning va Muhammad (sollallohu alayhi vasallam) ning sifatlaridan biridir. Hudhudning ko'pchilikka ma'lum va mashhur qissalaridan biri Sulaymon alayhissalom bilan bo'lib o'tgan voqealarga asoslanadi. Qissadan uning zakovati, omonatdorligi, ma'lumotni yetkazishdagi farosati, tavhidga harisligi ma'lum bo'ladi.

Qur'oni Karimning 27-surasi bo'lmish Naml Makkii suralardan biri bo'lib, unda Sulaymon alayhissalom Alloh taolonning payg'ambari bo'lishi bilan birga yana jamiyki ins-u jin parranda-yu darranda olamiga podshoh qilinganligi hatto, unga shamolningda bo'ysundirilganligi to'g'risida hikoya qilinadi hamda u zot bilan Saba' mamlakatinining malikasi Bilqis o'rtasida bo'lib o'tgan voqealar ham tasvirlanadi. Avvalo u yuqorida aytganimizdek, Qur'onda ismi zikr qilingan qushlardan. Ammo borliqda mavjud bo'lgan reallikning obraz darajasidan timsol darajasigacha ko'tarilishi uchun u ma'lum bir bosqichlardan o'tishi kerak bo'ladi.

Hudhud haqida ham xuddi shu fikrlarni aytishimiz mumkin. Adib va yozuvchilarni o'ziga tortgan jihat qushning sadoqat ramzi sifatida ham e'tirof etilishidadir. Sulaymonga sadoqat bilan xizmat qilgan bu qush vafodor qush sanalib, umri davomida faqat bitta qush bilangina juftlashadi.

Xalq tilida popishak deb ataluvchi bu ot asli etiomologik jihatdan "qush toji" ma'nosini anglatuvchi for-tojikcha "po'pu" otiga -sh va -ak qo'shimchlari qo'shilishi natijasida hosil bo'lgan degan tahminlar mavjud.<sup>2</sup>

Ushbu timsolni ornitologik jihatdan tadqiq etadigan bo'lsak, Hudhud vafodor qushki, biror joyda ovqat yoki suv topsa urg'ochisini chaqiradi. Ovqatni bir o'zi yemay, jufti bilan yeydi. Agar juftini topa olmasa, sayraganicha uni qidirib yuradi. Agar jufti vafot etsa har gal uni eslaganda sayrab, xotirlaydi. Jufti bilan uchgan makonlariga boradi. Boshqa urg'ochi bilan juftlashmay, umrining oxirigacha sayrab yuradi.

Hudhudda boshqa qushlarda uchramaydigan bir xususiyat bor: yer ostidagi suv bor joylarni sezish. Hudhudning zamонави nomlaridan biri – "suv muhandisi" dir. Hudhud tozaliksevar qush bo'lib, u ko'proq pokiza hududlarda yashashni yoqtiradi. Shuningdek u tez uchadigan qushlardandir. Alloh taolo uni o'tkir ko'rish quvvati bilan jihozlagan. U suvni uzoqdan ko'radi. Arablar ko'zi o'tkir odamlarni "Uning ko'zi hudhudnikidan ham o'tkir" deb aytadilar.

Bu qush haqida keyingi o'rganishlarda ma'lum bo'lishicha, Hudhud pochtachilik xizmatini mahoratlari bajarib, maktubni kerakli manzilga yetkazishda kabutarlarga qaraganda aniq va tezkorroq ekan. Demak, Hudhud obrazining ramz darajasigacha ko'tarilishi bejizga emas ekan. U vafodor, u sezgir, pokiza va tezkor, ko'rish quvvati ham ancha baland. Demak Sulaymon alayhissalom bejizga qo'mondan sifatida hudhudni tanlamadi. Bu aqli qushchaning sadoqat bilan qilgan amallari sabab "Qur'oni Karim" kabi kitobda nomi zikr etilishi ham shundandir balki.

Sharq xalqlari adabiyotida Qur'ondan ilhomlanib bu qushcha haqida bir qancha afsona va rivoyatlar ham yaratildi. Folklorning bunday ajoyib namunalari esa hozirgacha xalqlar orasida tillardan tillarga o'tib kelyapti. Hudhud qushi borasidagi izlanishlarimiz natijasida Amerikaning "Santa-Monika bay Audubon jamiyatiblogi" [Santa Monica bay Audubon Society blog] tomonidan nashr etilgan "The wise hoope: Sunday morning Quran bird study 7" (Dono hudhud: Yakshanba tongi Qur'on qushini o'rganish 7" nomli maqola e'tiborimizni tortdi.<sup>3</sup>

Maqolada muallif tomonidan aytildiki, Hoopoe (hudhud) - bu xalq og'zaki ijodida yaratilgan bir inson obrazi. Shuningdek, Sulaymon alayhissalom va Hudhud bilan bog'liq voqealarning barchasi haqiqatda sodir bo'lmagan.

<sup>1</sup> Uz.m.wikipedia.or

<sup>2</sup> Uz.m.wiktionary.org

<sup>3</sup> <http://smbasblog.com> santa monica by Audubon socie

Islom dini va muqaddas kitobimiz “Qur’oni Karim” haqida tushunchaga ega bo’limgan o’zga din vakili uchun bunday gumonli to’xtamga kelish tabiiy hol, albatta. Chunki har qanday haqiqatni anglash uchun har bir kishidan o’sha haqiqatga aloqador ilm va oydinlik talab etiladi. Bu o’rinda qalbda mavjud bo’ladigan hidoyatning o’rni ham beqiyos,albatta.

Va yana maqlada hoopoe (hudhud) qushining qadimiylarida qo’llanishi jihatidan shunday deyiladi: Muqaddas kitob (Biblya)da aytilishicha, u inson tomonidan yeyilishi halol bo’limgan jonzotlar ro’yxatiga kirgazilgan.

Muso alayhissalom ham uni ovqatga yaroqsiz deb hisoblanganining eng katta sabablardan biri uning odatlari edi. Buning yana bir sababi shundaki, Hudhud Misrning muqaddas qushlaridan biri edi. U yerda bu qush haqida suvni aniqlay oladi va quduq qazish kerakligini ko’rsatadi degan e’tiqod keng tarqalgan edi. U sirlarni eshitib, kasalliklarni davolay oladi deb ishonishardi. Uning boshi judugarlar tomonidan ishlatalidigan jozibalarning bir qismi edi. Hudhud ajoyib shifobaxsh kuchga ega ekanligiga ishonishgan va uni arablar “tabib qush” deb atashgan. Uning o’lchami aylana o’lchamiga yaqin bo’lganligi sababli Bibliyaning dastlabki tarjimalarida “halqa” so’zi bilan tilga olingan. Demak, Misr va Bobilda muqaddas sanalgan qush bejizga muqaddas kitoblarda ham qayd etilmagan ekan.

Naml surasining hurmatidan Hudhud qushi forsiy va turkiy adabiyotlarda Navoiydan oldin ham keyin ham eng faol qushlar obrazi darajasida bo’lgan.<sup>1</sup> Jumladan, fors adabiyotida Fariduddin Attor, Jaloliddin Rumiy, turkiy adabiyotda Nosiruddin Burhoniddin Rabg’uziy turk adibi Gulshahriy asarlaridagi turfa xil o’rinlarda ahamiyatli obraz sifatida bo’y ko’rsatgan.

Turkiy adabiyot tarixida Nosiruddin Burhoniddin Rabg’uziyning “Qisasi Rabg’uziy” asarida qushlar obraziga keng o’rin berilgan. Asarda keltirilgan hikoyaga ko’ra, hudhudlar Sulaymon alayhissalom boshiga issiqdan soya soladilar, shuningdek, Sulaymon xabarini vodiylar osha malika Bilqisga yetkazishda ham jonbozlik ko’rsatadi.<sup>2</sup>

Shuningdek, Odam alayhissalom bilan bog’liq voqealar hikoya qilinadigan sahifalarida ham popishak nomi tilga olinib, payg’ambар alayhissalom tilidan shunday deyiladi: “Olti jonzotni o’ldirmang, biri ko’k qarg’a-Odamga yo’lboshlovchi bo’lgani uchun, ikkinchisi chumoli - Sulaymon alayhissalomga o’git bergani uchun, uchinchisi qaldirg’och - “Xashr” surasining oxirini o’qigani uchun va yana ba’zilarning aytishicha, “Bayt ul-Muqaddas” mag’lub bo’lishida qismatiga yig’lagani uchun, to’rtinchi hudhud - Sulaymon alayhissalomga elchi bo’lgani uchun, beshinchisi suv baqasi – Namrud o’tiga suv keltirgani uchun , oltinchi asalari - undan odamzotga shifo bo’lgan asal uchun.

Rabg’uziyidan keyingi ijodkorlar asarlarida ham Hudhud yetakchi obraz sifatida qatnashadi.

Qushlar obrazi orqali yuksak badiiyat namunasini yaratgan ijodkor fors shoiri va mutafakkiri Shayx Fariduddin Attor Nishopuriydir. Nemis olimi Helmut Ritter, chex sharqshunosi Yan Ripka , Eron olimi Badi’uzzamon Firuzonfar va boshqalarning tadqiqotlarida Attor o’zining “Mantiq ut-tayr” dostonini G’azzoliyning “Risolat ut-tayr” asaridan ilhomlanib yozganligi qayd etiladi.

Attor o’z asarini badiiy jhatdan rivojlantiradi va doston darajasiga ko’taradi. Qushlar bosib o’tadigan vodiylarga nom beradi (Talab, Ishq, Ma’rifat, Istig’no,Tavhid, Hayrat va Faqr-u fano)...Attor qushlarni vodiylardan olib o’tishda boshliq tanlaydi va unga Hudhudni munosib ko’radi. Asarda Hudhud tilidan aytilgan gaplar solikning tariqat yo’lidagi nafsni yengish borasidagi tasavvufona qarashlari hisoblanadi.

Oradan bir qancha yillar o’tgandan so’ng Attor asariga javoban Navoiyning “Lison ut-tayr” asari dunyoga keldi.<sup>3</sup> Har ikkala asar yagona syujet asosida yaratilgan bo’lsada, Navoiyning “Qush tili”si Qur’on, hadis, folklor, ayniqsa, Rumiy asarlaridagi hikoyatlarni qo’shib qayta ishlaganligi bilan tahsinga sazovordir.

Xususan, Navoiy bu obrazga bir qator o’zgarishlar kiritdi. Navoiy hazratlarining basmala bilan boshlanguvchi har bir asarlarida zul Jala’li val Ikrom bo’lgan Alloh taologa bo’lgan hamd, Payg’ambарimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamga bo’lgan na’tning va ustozlariga bo’lgan hurmat va izzatning o’rni beqiyosdir. Jumladan, “Lison-ut tayr” asari ham shunday asarlar sirasiga kiradi.

Ushbu falsafiy doston Navoiy hazratlarining hijriy hisobda oltmish yoshga qadam qo’ygan yillari yozilgan bo’lib, bu haqda shoirning o’zi dostonning ikki bobida alohida to’xtalgan:

Oltmishga umr qo’yg’onda qadam,  
Qush tili sharh etgali yo’ndum qalam.  
Yil to’qiz yuz o’tmish erdi dog’i to’rt,  
Kim ulusning ko’ngliga soldi bu o’rt.  
Ixtimomiga dog’l bo’ldi vuqu’.

Shoirning bolalik kezlaridan fikr-u shuurini batamom egallab, o’ziga maftun etgan “Mantiq ut-tayr” kabi asarga javob yozish uchun Navoiy hazratlari butun umr tayyorgarlik ko’rdilar desak mubolag’a bo’lmaydi.

<sup>1</sup> Qur’oni Karim- Mushafi Sharif.-T.:”Hilol”,2022.

<sup>2</sup> Nosiruddin Burhoniddin Rabg’uziy.Qisasi Rabg’uziy. 1, 2- kitob – T,1990

<sup>3</sup> Alisher Navoiy. “Lison ut-tayr”.nashrga tayyorlovchi vahob Rahmon.T.:1991.

Bizga ma'lumki, arab tili flektiv tillar oиласига кириб, о'зак таркебидан янадан янги со'злар hosil qilish mumkin. Xossatan, Alloh taoloning 99 go'zal ismlaridan biri bo'lmish Hodiy sifatini eslash orqali hidoyat so'zini hosil qilsak, hidoyat so'zidan esa Hudhud istelosi unib chiqqusidir. Hidoyat arabcha "to'g'ri yo'l" demakdir. Demak, hudhud so'zining ma'nosi hidoyatga, hidoyat esa o'z navbatida Hodiy so'ziga borib taqalar ekan.

Hudhud so'zining ma'nosini sharhlash jihatidan nimalardir anglagan bo'lsak, bu nom bilan obraz o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rib chiqishimiz mumkin. Bir so'z bilan aytganda, Hudhud hidoyatga boshlovchi ekan, Navoiy "Qush tili" sidagi Hudhud ham adashgan gumroh to'dani to'g'ri yo'lga boshlovchidir.

Asarning 14-bobida qushlar o'zlariga odil shoh topa olmay, zor-u mahzun bo'lib, afsus chekmoqqa kirishadilar. Bu holatni Navoiy hazratlari quyidagicha tasvirlaydilar:

Har guruuh erdi o'ziga chun aziz,  
 Istadi borcha shahi sohibtamiz.  
 Yo'qlig'idin zor-u mahzun bo'ldilar,  
 Har biri o'z holig'a mag'bun bo'dilar.  
 Ya's (umidsizlik,motam) ohangin tuzub tartib navid  
 Bo'ldilar shahdin sarosar noumid.  
 Bu taabdin har biri ko'nglida tob,  
 Nim bismil qushdek aylab iztirob.

Ya'ni, qushlar o'zlariga adolatli shoh topa olmay noumid bo'ldilar. Ulardan ya's-umidsizlik, motam ovozlari eshitila boshladidi. Bu hodisa ular qalbida og'ir iz qoldirdi. Ular chala so'yilgan qush kabi iztirob cheka boshladilar. Shu onda aql nurlari bilan tovlanib, rahbarlik tojini sarbaland tutgan holda, qushlarga to'g'ri yo'l ko'rsatish maqsadida davraga Hudhud kirib keladi. U Arsh oldida parvoz qilgan va Jabroil alayhissalom kabi unga ham yuz xil sirlar ayon bo'lib turadigan qush edi.

Ana shu joyda Islom dinimizning muqaddas kitobi bo'lmish "Qur'oni Karim" ning "Tavba" surasida keltirilgan 128-oyatga e'tiborimizni qaratsak: "Batahqiq, sizlarga o'zingizdan bo'lgan, mashaqqat chekkaningiz uning uchun og'ir bo'lgan, siz (ning saodatga yetishishingiz) ga tashna, mo'minlarga mushfiq, mehribon Rasul keldi".

Olamlarga rahmat bo'lgan, oxir zamon payg'ambarining insonlar orasidan chiqishi butun insoniyat uchun katta faxrdir. Muhammad alayhissalom insoniyatning mashaqqat chekishi, qiyinchilikda qolishini aslo istamaydigan, og'ir ishlarinida yengil qilgan, yaxshiliklar bashoratini olib kelgan payg'ambardir.

Shu o'rinda Hudhud timsolida ham nabaviy tajallini his qilishimiz mumkin. Navoiy ramzlar pardasiga o'rab aytmoqchi bo'lgan fikr ham, nazdimizda, xuddi shunday. Insoniyat yaralishi jihatidan nimagadir e'tiqod qiladi. Musulmon ahlining e'tiqodi Alloh taologa qaratilgan bo'lsa, boshqa din vakillarining ham o'zlaricha haq bo'lgan e'tiqodlari mavjud. Kimdir suvg'a, kimdir olovga yana kimdir esa turfa xil but-sanamlarga. Umuman olganda, insoniyatning ruhi kimgadir yoki nimagadir talpinadi, unga ishonishni xohlaydi. Butun borliq va koinot o'zini boshqaruvchi bir Shohga hamisha muhtoj. Chunki, jamiyki mahluqotning va ayniqsa, insoniyatning yaralishi shunaqa.

Rasuli akram sollalohu alayhi vasallam ham insoniyat ayni johillika yuz tutib, insoniy fazilatlar tanazzulga yuz tutayotgan bir paytda dunyo yuzini ko'rdilar. Bu tug'ilish va tashrif Alloh taolonning o'z bandalariga yuborgan rahmatining bir ko'rinishi edi. Asl e'tiqodning qiymati pasayib, kishilar haqiqat yo'lidan adashgan bir paytda Muhammad (s.a.v.) Islom nuri ila kufr va zalolatni, zulmatni ravshan yoritib, qalblarga Alloh sevgisini muhrlashga harakat qiladilar. Imon shabbodalari, e'tiqod bobida ham, amal bobida ham turli ajoyibotlarni amalga oshiradi. Allohnинг quli va Uning payg'ambari Muhammad sollalohu alayhi vasallam haq yo'llini topib, islom dinini qabul qilmoqqa, arab diyorida insonlarni da'vat etib, Allohdan o'zga Tangri yo'qligiga, undan o'zgaga ibodat qilmaslikka va boshqa narsani unga sherik qilmaslikni uqdirib, Islom dinini targ'ib etadi.

Yana "Lison ut-tayr" dagi Hudhudimizaq qaytsak. Bu asarning XIV bobida ham qushlar osmonga parvoz qilmoqchi bo'ladilar. Insonlar orasida johillik avj olib, johiliya davri hukm surganidek qushlar orasida ham tojdar qushlar o'mini tojsiz behunarlar egallagan edi. "Tavba" surasida "o'zingizdan bo'lgan" deb na'biy (s.a.v.)ga ishora qilinganidek, qushlar orasidan ham "o'zlaridan bo'lgan" tog'ri yo'lga boshlovchi chiqadi. U maqsad shami vasfini kuylash uchun parvonadek yonib, bu yig'in ichiga devonavor holda kirib keladi va olamdag'i barcha qushlarga shoh, hollaridan ogoh Simurg'ha qida xabar beradi: Ul Simurg'ki, har parida yuz minglab ajoyib ranglar jilva qiladi. Har bir rangining o'zida yana ming xil naqshlar bor. Uning bu naqsh va ranglaridan aql xabardor emas, tafakkur uni mushohada etishga ojizdir. Chunki, u aql bilan idrok etishdan ustun bo'lib, shu bois aql uni idrok etishga yo'l topa olmaydi.

Har parida yuz tuman rangi ajib,  
 Lek har rangida yuz naqshi g'arib.  
 Naqsh-u rangidin xirad ogoh yo'q.  
 G'ofil erkanga xirad ikroh yo'q.

Kim xirad idrokidin afzundir ul,  
Mundin idrokiga topmas aql yo'l.  
Ham nishiman Qofi istig'no ango,  
Ham laqab ul Qof uza Anqo ango.  
Shuhrati Simurg' ila ofoq aro,  
Zoti mamlu charxi oliy toq aro.  
Siz tushub ul shohdin behad baid,  
Ul yoqinroq sizga min hablul varid.  
Har kishi bo'lsa tirik ondin yiroq,  
Ul tiriklikdin o'lum ko'b yaxshiroq.

Xuddiki, na'biy o'z ummatiga Yaratguvchining birligini, borligini anglatishga uringanidek, Hudhud ham o'z qavmidan bo'lgan qushlarga Simurg' haqida mujdalar beradi.

Aql nuridan bahramand bu qushning Simurg' haqidagi mujdalari asarning "Qushlar diqqat bilan so'rg'onondin so'ngra, Hudhud Simurg'din nishonalar aytqoni" deb nomlanuvchi XVII bobda o'z ifodasini topgan. Tojdar qush nafasidan shakar sochib, iztiroblı qushlarga shunday javob berdi: Uning ahvoldidan bilganimni, ko'nglimga sirlaridan kelganini aytayin. Ammo afsona aytish bilan ish bitmaydi, el quruq so'z bilan visol xazinasini topmaydi. Chunki oldimizda turgan ish nihoyatda ulug'dir, shoh ulug'dir, uning dargohi ulug'dir. Yo'l esa mashaqqatli, vodiylar uzun, dil xohishlari ulug'dir.

Buki, dersiz, shah so'zidin sur kalom,  
Gar oni ming yil desam bo'lmash tamom.  
Kimsa idrok etmamishdur zotini,  
Lek shart uldur tutarg'a otini.  
Kim yubon hayvon suyi birla og'iz,  
Yo'q o'n-u yuz qatlakim, andozasiz  
Til bila og'izni aylab bo'ylapok,  
Tutqay el otin va lekin havlnok.

Ma'nosi: albatta, siz shoh haqida so'zlagin dersiz, ammo men uni ming yil aytsam ham tamom bo'lmaydi. Hech bir kishi uning zotini idrok eta olmagan, ammo doim uning otini tutish shartdir. Buning uchun avval og'izni tiriklik suvi bilan yuvish kerak; o'n marta, balki yuz marta, balki cheksiz marta tozalash zarur. Til va og'izni shu tarzda pok etgach, o'ta ehtiyyotkorlik bilan uning nomini tutish mumkin.

Professor Y.Bertelsning fikriga ko'ra, "Navoiy qushlarni o'zlarining sirli podshosi haqida qiziqishga ikki hissa ko'proq majbur qiladi".

Navoiy "Qush tili" sining bosh sahifalariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, III bob "Bu nomag'a saidul mursalin na'ti bila tug'ri tuzmak va shofe ul-muznabin madhi bila ziynat ko'rguzmak (Bu dostonha baxtiyorlar payg'ambari vasfi bilan sarlavha qo'ymoq va gunohkorlar homiysi madhi bilan ziynat bermoq) deb nomlanadi va shunday misralar keltiriladi:

Anbiyo sarxayli sultoni rusul,  
Kim erur oning tufayli juzvu kul.  
Ulki Odamdin burun ul bor edi  
Ham nabi, ham sohibi asror edi.  
Nuri mavjud ofarinishdin burun  
Kim edi xalqig'a muddat olti kun.  
Qoysi nur, ulkim topib yuz izzu noz,  
Ul kelib ma'shuq-u, Xoliq-ishqboz.  
Benihoyat il topib Haqdin nazar,  
Toki Haq mavjud qildi Bulbashar  
Bulbashar ruxsori chun tutti jamol  
Kavkabi ul nurdin topti kamol.  
Chunki ul Havvoga bo'ldi muntaqil,  
Jabhasidin mehr erdi munfail.

Yuqorida misralardan shunday ma'no chiqib keladiki, U (Muhammad s.a.v) nabilar sultoni va payg'ambarlar sultoni bo'lib, borliqdagi jamiyki ulug' va mayda narsalar u tufayli yaratilgandir. U hazrati Odam Atodan ham ilgari mavjud bo'lib, ham nabiy, ham sirlar ogohi edi. Olti kunda yaratilgan olamdan avval ham Nur holida bor edi. Bu shundayin Nurki, u yuz izzat va sharaf egasidir. U - ma'shuq, Yaratuvchi - ishqivoz edi. Alloh taolo insoniyat olamini

yaratgunga qadar, bu nur uzoq yillar Haq nazaridan bahramand edi. Bulbasar vujudi yaratilganda uning yuzi bu "Baxt yulduzi" (kavkab) nuridan kamol topdi. Bu nur ilk Onamiz Havvoga o'tganida, uning peshonasi porloqligidan quyosh ham xijolat chekardi. Yana ham takrorlab aytamizki, Nuri Muhammad Haq nazarining izzatidin komillik maqomiga yetgan bo'lsa, ne ajab.

Fikrimizni shu yerda to'xtatib turib, "Lison ut-tayr" ning 84-bobiga e'tibor qaratsak. Qura tashlanib, oxir-oqibat Hudhud peshvolikni qabul qilgach, rahbarlik jig'asi sarbaland qush, safardagi yo'ldoshlariga dedi: "Kimda qanday mushkul bo'lsa, so'rasin". Shunda bir savol berguvchi qush shunday dedi:

– Ey qushlar ichra aziz bo'lgan! Sen va biz barchamiz bir jinsdanmiz. Hammamizning qanot-u patimiz bir-birimiznikiga tengdir. Ammo, ayt-chi, sen nima uchun yashirin sirlardan xabardorsan, biz esa bexabar qolganmiz? O'rtamizdagi bu tafovutni boshdan – oyoq sharh qilib ber. Buning sababi nimadan iborat ekanligini bizga tushuntir.

Shu asnoda 85-bob boshlanib, Hudhud o'z qarshisida turganlarga javob qiladi:

– Chunki menga Sulaymonning ko'zi tushgan. Haq taolo unga nazar solib, uni ham payg'ambar, ham toj egasi etgan, unga lutf ko'rsatib, olamdag'i barcha jinlar, insonlar, yovvoyi hayvonlar va qushlarga shoh etib tayinlagan edi. Shunchalik davlat sohibi va taxt egasining iltifotiga men kabi bir haqir-u faqir sazovor bo'lgan edim. Mendagi bu qadar yuksak izzat, boshim ustidagi baland martabalik toji ana shu tufaylidir. Zeroki, pok yurakli kishilar kimgakim nazar tashlar ekan, bu nazar tuproqni kimyo (oltin) ga aylantiradi.

Ana endi 3-bob va 84- boblarda keltirilgan misralardagi bog'liqliknii tahlil etishga kirishsak; Olamlar Robbisi Alloh taoloning pok nazari tufayli Nuri Muhammad(s.a.v), butun yaralmishlar ichra sarvar bo'lib, borliqning gultoji bo'lmish insonlarning a'losi-komil inson darajasiga, maqomiga erishdilar. O'n sakkiz ming olam ichra eng aziz va laziz bo'ldilar.

Xuddi shu singari, Hudhudga ham Haq taolo nazar solgan Shoh Sulaymonning ko'zi tushgan bo'lib, undagi bu qadar yuksak izzat va martabalik toji ana shu tufaylidir.

Gar hammasini umulashtiradigan bo'lsak, Na'biy sollallohu alayhi vasallamga ulug' Zotning pok nazari tushib, bu kishida butun koinot ibrat olsa bo'ladijan komillik sifatlari bo'y ko'rsatgan bo'lsa, nafasi shirin Hudhudda ham Ulug' Alloh nazari qilgan Sulaymon alayhissalomning ko'zlari tushib, uning zotida ham nabiylargaga xos kamolotdan ma'lum bir sifatlar jilva qila boshladi. Shu tariqa Hudhud aql nuridan bahramand va rahbarlik jig'asi sarbaland bo'lgan bir qushga aylandi.

Hatto butun borliq, o'n sakkiz ming olam yaralishidan ilgari ham yuz ming sharaf va izzat egasi bo'lmish Nuri Muhammad (s.a.v) ga komillik sifatlarining inishiga Alloh taoloning nazari sabab bo'lganidek, "Qur'on Karim" ning "Naml" surasida Sulaymon alayhissalom vositasida tilga olinib, so'ng esa ana shu oyatlar hurmatidan Hudhudning komillik darajasida yuksalishiga ham Robbimiz Alloh taoloning nazari sabab bo'lgan bo'lsa ne ajab. Va bu qushchaga mir Alisher Navoiy hazratlari o'z "Qush tili" sida komil inson xususiyatlarini singdirishi ham bejizga emas,albatta.

Komil inson tushunchasini ilk marta muomalaga kiritgan, Shayxi Kabir nomi bilan mashhur bo'lgan Ibral Arabiyning fikricha, komil insonning yerdagi timsoli hazrati Payg'ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vasallamadir. Ul zot vujudida aqliy, ruhiy kamolot, dunyoviy va ilohiy bilimlar jamuljam edi. Payg'ambarimiz xalq va haq muqobilida turardilar va orada vosita edilar. Shunday bo'lgach, hamma odamlarni ham va hatto anbiyo va avliyolarni, donishmandlarni komil inson deb atash joiz emas. Va agar Payg'ambardon o'zga zotlarga nisbatan bu sifat aytilar ekan, buni shartli ta'rif yoinki shu ulug' martabaga hurmat-ehtirom belgisi sifatida qabul qilish kerak.<sup>1</sup>

Yetuk tasavvufshunos olim Ibral Arabiy qarashlariga hamohang holda, Navoiy "Qush tili" sidagi Hudhud timsolini butunlay ideallashtirmoqchi emasmiz. Hudhud timsolidagi komillik sifatlarini bu o'rinda, shartli ta'rif yoinki Rasulimiz salollohu alayhi vasallam zotlaridagi ulug' martabaga hurmat-ehtirom belgisi sifatida qabul qilmoqchimiz,xolos.

Zero, Na'biy (s.a.v) xilqatlardagi komillikni ta'bir joiz bo'lsa, falsafiy atama bo'lmish "zot" tushunchasiga mengzaydigan bo'lsak, komillik ramziga ishora qilguvchi Hudhud obraziga singdirilgan barkamollik alomatlarini, ana shu zotning "tajalliy" si o'rnida e'tirof etamiz.

Na'biy xilqatidagi komillik bir dengiz bo'lsa, komil inson timsolini tarannum etuvchi har qanday obraz, jumladan, Hudhud obrazi ham ana shu degizdan bir qatradir!

#### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Навоий, Алишер. Тўла асарлар тўплами. Лисон ут-тайр. 10 жилдлик. – Тошкент, 2011.– 804 б.
2. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-кулуб. МАТ, 14-жилд. – Т.: Фан, 1998. – 212 б.
3. Алишер Навоий. Таъланган асарлар. 3 томлик. Т.1. – Тошкент, ЎзбекистонДавлатнашиёти, 1948. 200 бет.
4. Alisher Navoiy. "Lison ut-tayr" nasriy bayoni. T.: – G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984.
5. Fariduddin Attor. "Mantiq ut-tayr" nasriy bayoni. T.: – G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2006.
6. Rabg'uziy Nosiruddin Burxoniddin. "Qissasi Rabg'uziy". Birinchi kitob. –T.: G'.G'ulom nashriyoti, 1990.
7. Alisher Navoiy. "Lison ut-tayr". Nashrga tayyorlovchi Vahob Rahmon.T.:1991.
8. W.W.W. ziyo uz. com
9. W.W.W. xurshid davron-kutubxonasi
10. W.W.W. kitob.uz

<sup>1</sup> Komilov Najmiddin. Tasvvuf.1-kitob. T."Yozuvchi".B.145.

Xurshida Jalilova,  
Ozbekiston Milliy universiteti, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

## BADIY TARJIMA VA O'ZBEK JADID ADIBLAR IJODI

**Annotatsiya.** Badiy tarjima o'zbek jadid adiblarining ijodidining bir qismi bo'lgan. XX asr boshi o'zbek shoir va yozuvchilarning shakllanishida jahon adabiyotining yutuqlari katta rol o'ynagan. Ma'lumki, badiy tarjima adabiyotlararo aloqa va tasir jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Jadid adabiyotining shakllanish davrida ilg'or fikrlaydigan yangi avlod shoir va yozuvchilar adabiyot sahniga kirib keladilar. Jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cholpon o'zlarining yangi shakl va mazmundagi asarlari bilan o'bek adabiyotining yangi sahifasini ochib berdilar.

**Kalit so'zlar:** adabiy jarayon; jadid adabiyoti; badiy tarjima; adabiy ta'sr va adabiy aloqalar; ma'rifatchilik; janr; roman; drama; lirika;

**Abstract.** Literary translation was part of the work of Uzbek Jadid writers. An important role in the formation of Uzbek poets and writers of the early XX century was played by the achievements of world literature. As you know, literary translation becomes important in the process of interliterary communication and mutual influence. In the era of the formation of Jadid literature, a new generation of progressive-minded poets and writers enters the literary scene. In particular, Mahmudkhoja Behbudi, Abdulla Avloni, Abdurauf Fitrat, Abdulla Kadiri, Abdulhamid Chulpan opened a new page in Uzbek literature with their works, new both in form and content.

**Keywords:** literary process; Jadid literature; literary translation; literary connections and influences; enlightenment; genre; novel; drama; lyrics;

**Аннотация.** Художественный перевод был частью творчества узбекских джадидских писателей. Большую роль в становлении узбекских поэтов и писателей начала XX века сыграли достижения мировой литературы. Как известно, художественный перевод приобретает важное значение в процессе межлитературного общения и взаимовлияния. В эпоху становления джадидской литературы на литературную сцену выходит новое поколение прогрессивно мыслящих поэтов и писателей. В частности, Махмудходжа Бехбуди, Абдулла Авлони, Абдурауф Фитрат, Абдулла Кадыри, Абдулхамид Чулпан открыли новую страницу в узбекской литературе своими произведениями, новыми как по форме, так и по содержанию.

**Ключевые слова:** литературный процесс; джадидская литература; художественный перевод; литературные связи и влияния; просвещение; жанр; роман; драма; лирика;

O'zbek jadid adabiyotining shakllanishida jahon adabiyotining yutuqlari muhim rol o'ynagan. Aynan mana shu burilish davrida yangi adabiyotlararo aloqalar o'rnatilishi sharoitida o'z ijodi bilan o'zbek adabiyoti tarixida yangi bosqichni boshlagan shoir va yozuvchilarning yangi avlodi shakllandi. Ushbu davrda o'zbek adabiyoti, birinchi navbatda, yirik mintaqasi adabiyotining badiy yutuqlarini o'zida mujassam etgan va sintez qilgan Turkiston adabiyotlararo hamjamatiyatining bir qismi bo'lgan. 19-asr oxiri – 20-asr boshlarida ushbu hududga kirib kelgan va keng tarqalgan jadidchilik harakati yangi ijtimoiy-siyosiy fikrning shakllanishi orqali milliy uyg'onishga yo'naltirilgan edi. Jadidchilik harakati namoyondalari ijtimoiy-siyosiy, adabiy-badiy faoliyatning barcha turlari bilan bevosita shug'ullanganlar, ayniqsa ta'limgarbiya, matbuot, teatr, badiy ijod, shu jumladan, tarjimonlik sohasida ham tub burilishlar bo'ldi, desak mubolag'a qilmagan bo'lamic. "Turkiston xalqlarini yanada kengroq iqtisodiy va madaniy sohaga jalb qilish tarixiy jarayonida adabiyotlarning o'zaro qarshi harakati ham boshlanadi – Yevropa va Sharq, rus va o'zbek va h.k. Turkiston xalqlarini adabiyotlarining bu qarama-qarshi harakati yillar davomida jadallahib, "maxsus" adabiyotlararo umumiylilikning shakllanishiga, sharq adabiyotlari tuzilishining ham ijobjiy o'zgarishiga olib keladi" [1, 56]. Darhaqiqat, ushbu davr o'zbek adabiyoti o'zining ma'rifatparvarlik jihatni bilan ajralib turishi ham bejiz emas.

Ma'lumki, badiy tarjima adabiyotlararo aloqalarda muhim o'rinni egallaydi. Badiy tarjima adabiy aloqalarning asosiy tarmoqlaridan biridir. Ushbu yo'nalihsining rivojlanishi turli xalqlar madaniyatlarining o'zaro kirib borishi va o'zaro ta'sir natijasida uning har tomonlama boyishiga hissa qo'shadigan xalqaro aloqalarning rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir. Yigirmanchi asrning boshlarida badiy tarjima asta-sekin o'zbek adabiyotida muhim o'rinni egalladi, chunki jahon adabiyoti bilan tanishish birinchi navbatda tarjimalar orqali amalga oshirildi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida G'arb adabiyoti namunalardan tarjima qilingan asarlarning aksariyat qismi rus adabiyoti namunalaridan iborat edi. Yigirmanchi yillarga kelib rus adabiyotining tarjima qilingan badiy asarlari soni ancha oshdi. Yevropa va Amerika yozuvchilarining asarlari o'zbek tiliga asliyatdan emas, balki aksariyat hollarda rus tili orqali bilvosita o'zbek tiliga o'girilgan. Bundan tashqari jadidlar fors, ozarbayjon, tatar, turk tillari orqali badiy asarlarni bevosita o'zbek tiliga tarjima qilishgan. Shunday qilib, tarjima G'arb va Sharq adabiyotlari o'rtasida o'ziga xos "ko'prik" vazifasini bajargan.

Sharqda tarjima bilan qadimdan shug'ullanib kelinganligiga qaramay, yangi o'zbek tarjima maktabi XX asrning birinchi o'n yilliklarida shakllangan. "Usuli jadid" yangi usuldag'i maktablarining asoschilari o'zlarining yangi darsliklarida mumtoz Sharq adabiyoti namunalari bilan bir qatorda G'arb, jumladan rus adabiyotining axloqiy va tarbiyaviy mavzulardagi didaktik ahamiyatga ega asarlarini kiritganlar. Saidahmad Siddiqiy rus yozuvchilarining

asarlarini gazeta va jurnallarda nashr etib kelgan. Ismatulla Rahmatullazoda o'z tarjimalarini asosan tarbiyaviy maqsadni ko'zlagan holda darsliklari uchun amalga oshirgan [2, 44]. Abdulla Avloniying "Alifboden so'ng o'qitmak uchun", "Ikkinchi muallim" darsliklari "yangi milliy o'zbek pedagogikasining tug'ilishi va tarqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Axloqiy hikoyalar, adabiy she'rlar ila ziynatlangan mazkur to'plamda Abdulla Avloniying tarjimonlik iqtidori va mahoratiga dalolat bo'luvchi namunalar uchraydi" [3].

Yigirmanchi asning boshlarida O'zbekistonda asosan kichik janrdagi asarlar yoki romanlarning parchalari tarjima qilingan. N. Gogol, A. Pushkin kabi rus yozuvchilari va shoirlarining asarlari, ayniqsa I. Krilovning masallari o'zbek tiliga eng ko'p o'girilgan. Ushbu tarjimalarda mutarjimlar rus masallarini adekvat tarjima qilishga emas, balki ularni o'zbek o'quvchilarining hayotdagi voqealarga bo'lgan qarashlarini hisobga olgan holda qayta yaratdilar.

Ushbu davrda qilingan tarjimalar, asosan erkin tarjimalar edi. Shunday tarjimalardan ingliz ma'rifatparvar adibi Daniel Defoning mashhur "Robinzon Kruzo" romanidir. "1911 yilda Muhammad Fozilbek Otobek o'g'li tomonidan original syujeti qisqartirilib, mazmuni o'zbek tiliga o'giriladi. Toshkentda G'ulom Hasan Orifjonov bosmaxonasida nashr etiladi. Kitob muqovasida quyidagi ma'lumotlar yozilgan: "Ro'binzo'n. In kitob hikoyai ajoyibu g'aroyib musammi ba ro'mon. Baihitmomi shirokati Mulla Muhammad Qosim qori maxzum va mullo Sultonxon maxzum. Mutarjim Fozilbek Atobek o'g'illari". (Bu kitob ajoyib va g'aroyib hikoyalar romani deb nomlangan)" [4]. Mazkur roman tarjimasi matnni hozirgi o'zbek tiliga moslab adabiyotshunos olim Bahodir Karimov 2013 yilda nashrga tayyorlab, unga ikkinchi umrni bag'ishlaydi. Quyidagi nashr so'zboshida "Robinzon Kruzo" romanining bir necha marta nashr qilinganlari, kitobxonlar tomonidan sevib o'qilgan Yo'ldosh Shamsharov tarjimasi va o'sha davrlarda Yevropa va Sharq tillarida mavjud bo'lgan variantlari muqoyasa qilinadi. "E'tibor berilsa, tarjima nashrlarining hajmi, ichki qurilishi, boshlanishi, ba'zi ma'lumotlari va hatto, ayrim joy nomlariga ko'ra o'zar farq qiladi. Ammo ulardagi "erkinlik"dan qat'i nazar asosiy syujet chizig'ida Robinzon Kruzonning boshidan kechirgan voqealar silsilasi yotadi. Fozilbek Otobek o'g'li romanning qaysi tildagi nusxasidan foydalanganini ochiq yozgan emas. Fozilbek Otobek o'g'li Rusiyada o'qigan, rus tilini yaxshi bilgan. "Muqaddima"da romanning "barcha farang tillari"ga o'girilganini ta'kidlaydi, lekin ruscha tarjimasini tilga olmaydi. Garchand yuqoridaq taqqos va ma'lumotlar tayanilgan asos nusxa borasida aniq bir yechim-xulosaga imkon bermayotgan bo'lsa ham, Fozilbek Otobek o'g'li yuqorida sanalgan turkiy tarjimalardan (birgina ozarbayjonchaga tayangani tugal isbotini topgan emas), shuningdek, o'z vaqtida L.Tolstoy nashrga tayyorlab bostirgan rus tilidagi nusxasidan foydalangan bo'lishi ham mumkin" [4].

Mazkur asar tarjimasi mavjud davr sharoitlariga, shuningdek, o'zbek kitobxonlariga moslashtirilgan holda amalga oshirilgan. Jumladan, romanda o'zbek adabiy tiliga xos realiyalar, musulmon sharq odamining dunyoqarashi, tili matnda, bayon usulida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ingliz ma'rifatchilik adabiyotidagi ilk tarbiyaviy romanning o'sha davrda o'zbek tiliga o'girilishi muhim bir tarixiy voqealiga bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Jadid adiblarining ham o'z faoliyatları, ijodlari aynan tarbiya, axloq masalalariga qaratilganligi va ushbu romanning aynan shu davrda tarjima qilinishi ayni muddao bo'lgan. Mahmudxo'ja Behbudiyning "**Padarkush** yoxud o'qimagan bolaning holi" nomli birinchi o'zbek dramasi ham 1911 yilda yaratildi. Behbudiy dramasida o'qimagan, nodon va johil bola va faqat mol-dunyo yig'ib, farzand tarbiyasi va bilimiga e'tibor bermagan otaning fojeasini tasvirlasa, Defo romanida Robinzonning o'z ota-onasining o'gitlariga kirmay, ularning roziligidini olmay, o'z uyidan xatarli safarga ketishi bilan noma'lum oroldagi xayoti bayon etiladi. Defo ma'rifatchilarining inson aql bilan ish ko'rishi, iymonli va e'tiqodli bo'lishi kerak, degan aqidasini Robinzon misolida tasdiqlaydi. Behbudiy shu bilan birga ta'lif va tarbiyanining nechog'lik muhimligi, "o'qimagan bolaning holi" ayanchli oqibatlarga olib keishini o'z qahramonlari tili orqali bayon etib, ma'rifatni ulug'laydi.

Umuman olganda, jadid adabiyotida ko'tarilgan muammolar va mavzularni o'rganib, ular bilan XVIII asr G'arbiy Yevropa ma'rifatchilik adabiyoti o'rtaisdagi mushtarakliklarni kuzatish mumkin. Bu adabiyotlar o'rtaisdagi o'xshashliklar xalq orasida ong, bilim, ma'naviyat va ma'rifatni targ'ib qilishda ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. XVIII asr ma'rifatchilarini inson o'z baxtini o'zi yaratadi, degan g'oyani ilgari surdilar, xuddi shuningdek chor Rossiyanining XIX asr oxiri – XX asr boshida Turkistonda olib borgan siyosatidan norozi o'zbek adiblari xalqni jaholat girdobidan qutqarib, ilm, ma'rifat va milliy ruhni singdirishga harakat qildilar. Badiiy tarjima Yevropa ma'rifatchilarining asarlari Turkiston xududida keng tarqalishiga yana-da imkon yaratdi. Jadidlar ingliz, fransuz ma'rifatchilarining asarlari rus, turk va doshqa tillarda ham mutolaa qilib, ulardan ozuqa olganlar, natijada o'z asarlарini yangi mazmun va shakl bilan boyitganlar.

Tadqiqotchilar XX asr boshlarida Turkiston o'lkasidagi jarayonlar va jadidchilik harakati bilan XVIII asrda G'arbiy Yevropa tarixiy shart-sharoiti va ma'rifatchilik harakati o'rtaida o'xshashlikni qayd etganlar. Jumladan, "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti" darsligining mualliflari ta'kidlashicha, "o'lkamizda 1905 yildan keyin yaqqol ko'zga tashlangan fikriy uyg'onish va madaniy ko'tarilish o'z mohiyati bilan XVIII asr fransuz ma'rifatchiligidagi ko'p jihatdan o'xshash edi". [5, 77].

Adabiyotshunos olim D.Quronov: "Jadidchilik harakati o'zining ko'p jihatlari bilan XVIII asr Yevropada keng quloch

yoygan ma'rifatchilik harakatiga o'xshab ketadi" [6.166], - deb ta'kidlasa, U.Saidov "J.Lokk, Gelvetsiy, Monteskye, D.Didro, Volter, J.J.Russo, D.Defo, G.E.Lessing, I.G.Gerder, F.Shiller, I.V.Gyote kabi G'arb ma'rifatchiligining dunyoqarashi, falsafasi, inson borasidagi fikrlari bilan M.Behbudiy, A.Avloniy, A.Fitrat, A.Cho'pon, Munavvar Qori, Xoji Mo'in, Xamza kabi o'zbek jadidlarining dunyoqarashi, komil inson borasidagi qarashlari o'tasida mushtarak jixatlarni kuzatish mumkin" [7, 6], deb hisoblaydi.

Fitratning "Hindistonda bir farangi ila buxoroli mudarrisning jadid maktablari xususinda qilg'an munozaras" 1909 yilda yozib tugallangan va ilk bor 1911 yilda Istanbulda nashr etilgan, 1912 yili Istanbulda "Abd ar-Rau" imzosi bilan "Bayonoti sayyohi hindi" nomi ostida fors-tojik tilida chop etilgan "Hind sayyohining bayonoti" ham Istanbulda nashr etilgan [8, 235]. Fitratshunos olim Hamidulla Boltaboyev ushbu asar haqida shunday yozadi: "Ulug' yunon faylasufi Aflatun asarlari uslubida, ya'ni suhbat-bahs tarzida yozilgan "Munozara"da, nafaqat ahli Buxoro, balki butun Turkiston yoki jummai sharq o'lkalaridagi ta'limga masalalari borasida fikr yuritiladi. Qissa negizida asos qilib olingen ziddiyatlarning ildizi faqatgina ta'limga ning arxaik usuli doirasida qolib ketmaydi, balki Buxoro ziyorolarining shunday jaholat botqog'iga botib qolishiga va xalqning nochor va qashshoq turmush kechirishiga sabab bo'lgan illatlar Farangi va Mudarris bahsi vositasita ochib berilgan" [9, 40]. D.Quronov haqli ravishda ta'kidlaganidek, "Yevropadagi ma'rifatchilik adabiyoti bilan jadid adabiyotining o'xhashlik jihatlari badiiy shakl bobidagi izlanishlarda ham ko'zga tashlanadi". [10, 19] Fitrat mazkur asarlarida Yevropa ma'rifatchilik adabiyotiga xos badiiy-kompozitsion usulga murojaat etadi, ya'ni Turkiston voqeligini begona kishilar nigohi orqali baholaydi.

Shubhasiz, badiiy tarjima jahon adabiyotining yutuqlarini o'zida mujassam etgan va umumlashtirgan yangi o'zbek ma'rifatparvar adabiyotining shakllanishiga turtki bo'ldi. Jahon adabiyoti ta'siri ostida yangi o'zbek adabiyotida yangi janrlar, syujet-kompozitsion tuzilmalar vujudga keldi. Yigirmanchi asrning boshlarida adabiyotda realistik nasr va dramaturgiya alohida o'rinn egalladi. Ushbu davrda ilg'or shoir va yozuvchilarining yangi avlodining adabiyotga kirib kelishi ham beziz emas. "Aynan ularning klassik rus va jahon adabiyoti asarlarining tarjimalari nafaqat tarjima tafakkurining harakatini, balki o'zbek adabiy janrlarining rivojlanishini ham belgilab berdi. So'z san'atining ist'e-dodli musavvirlari tomonidan yaratilgan tarjimalar zaminida yangi o'zbek tarjima maktabi ilk avlodining noyob badiiy mahorati va shu bilan birga o'zbek adabiyotining betakror milliy an'analari yotadi" [11]. Ular orasida Abdulhamid Cho'ponning ijodi alohida o'ringa ega. Andijondagi rus-tuzem mакtabida tahsil olish davrida yosh Abdulhamid jahon adabiyoti bilan tanishdi, unga mehr qo'yadi, natijada bo'lajak adibning badiiy dunyosi mumtoz sharq adabiyoti an'analari bilan bir qatorda jahon adabiyoti ta'siri ostida rivojlanadi. Sharq she'riyatidan ozuqa olgan, uning zaminida ijodkor sifatida shakllangan Cho'pon G'arbnинг ham o'zi uchun yangi she'riy dunyosini kashf etadi. Yosh Cho'pon an'anaviy sharqiy sheriylarning yangi zamon talablariga, yangi mazmunni ifoda etishga etarlicha javob bermasligini anglab, Yevropa adabiyotiga murojaat qiladi va yangi shakllarni izlaydi. "Cho'ponning ijodiga rus simvolizmi asoschisi A. Blokning she'riyati ham ta'sir ko'rsatdi" [12, 21]. Yigirmanchi yillarda rus she'riyatiga mehri tushgan Cho'pon Blokning she'rlarini tarjima qiladi. Keyinchalik, Cho'pon she'rining shakl va mazmunida Blok poeziyasiga xos hamohanglik sezi'ladi" [13, 35]. Shubhasiz, shuni ta'kidlash mumkinki, adibning Yevropa adabiyoti namunalardan amalga oshigan badiiy tarjimalari uning ijodida o'chmas iz qoldardi.

Taniqli adabiyotshunos olim N. V. Vladimirova o'zbek kichik nasri va badiiy tarjima muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlarida yozuvchi-tarjimonlarning o'zbek o'quvchilarini rus va Yevropa klassik adabiy merosi bilan tanishtirish jarayonida "obraz yaratish va tarjima qilingan matnning aniq manzarasini gavdalantirish mahoratini o'rganganlar" [14, 196]. Olimaning bu so'zlari, shubhasiz, Cho'ponga tegishli. Shuni ta'kidlash kerakki, Cholpon o'zbek tiliga tarjima qilgan rus klassiklarining asarlari, masalan A. S. Pushkin, N. V. Gogol, I. S. Turgenev, A. P. Chekhov, , I. Krilov eng yaxshi tarjimalar deb tan olingen. "Shubhasiz, Cho'pon-tarjimonning mahorati O'zbekistonda badiiy tarjimaning rivojlanishiga, keyingi davrdagi tarjima g'oyalariga, tarjima ijodiga katta ta'sir ko'rsatdi... Cho'pon ajoyib tarjimonlik qobiliyatiga ega edi. U tarjima jarayonida o'zining ijodiy qiyofasini saqlab qoladi" [14].

Abdulhamid Cho'ponning qalamiga G'arb va Sharq dunyosining ko'plab taniqli adiblari asarlarining tarjimalari ham mansub. Ular orasida Shekspirning "Hamlet", Karlo Gotsining "Malikai Turandot", Molyerning "Xasis", H. Hayne, T. Shevchenko, A. Lohutiy, R. Tagor va ko'pgina turk adiblarining she'rlari tarjimalari mavjud. Ushbu tarjimalarda Cho'ponga xos uslub va ohang ufurib turadi. "Shunday murakkab tug'ilish va shakllanish yo'llini bosib o'tgan o'zbek tarjimachiligi 1935 yilda "Hamlet" tragediyasini buyuk mahorat bilan tarjima qilgan Cho'pon tufayli muhtasham badiiy mакtab maqomini olishga muvaffaq bo'ldi – deb yozadi akademik N. Karimov - Shekspir "Hamlet"ining o'zbek sahnasida ilk bor sahnalashtirilishi madaniy hayotimizda qanday katta madaniy voqeа bo'lgan bo'lsa, Cho'ponning oltin qalamidan chiqqan "Hamlet" tarjimasi ham o'zbek tarjima adabiyoti tarixida shunday ulug' va unutilmas adabiy voqeadir" [15].

Adabiyotshunos olim, O'zbekiston qahramoni O. Sharafiddinov Cho'ponning tarjima faoliyatini tadqiq qilib, 20-yillarda adibning bir qator ilmiy maqolalar, masalan, "Tarjima to'g'risida andak", "Shohnoma"ning turk tiliga tarjimasini" haqidagi bir qator maqolalar e'lon qilganini ta'kidlab, "Ehtimolki, bu maqolalarni ham o'zbek tarjimashunosligning ilk namunalari, deb hisoblash mumkindir. Har holda, ularda Cho'ponning tarjimaga qarashli,

o'z faoliyatida qanday nuqtai nazarlarga amal qilgani yaqqol ko'rindi. Cho'lpion tarjima qilinayotgan asarning ma'nosinigina emas, ruhini ham, milliy ranglarini, uslub jilolarini ham to'laligicha saqlab qolish tarafdori bo'lgan" [16].

O'zbek milliy romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriy tarjima maktabining rivojiga salmoqli xissa qo'shgan adibdir. Turkiston chor Rossiyasining mustamlaka o'lkalaridan biri bo'lgan davrda Qodiriyga ham "ular chekiga fors va arab tillarini mukammal o'rganish, shu tillarda ijod qilgan adiblarning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish emas, balki rus tilini o'rganish va rus yozuvchilarasi asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish vazifasi tushdi" [17]. Adib rus adiblari bilan bir qatorda Bokkachcho, Deni Didro, Alfons Dode, Emil Zolya, Mark Tven kabi jahon adabiyotining mashur yozuvchilarasi asarlaridan parchalarni o'zbek tiliga o'girgan. "Sovet davlati din va ruhoniylarga qarshi kurash avj olgan 20-30-yillarda shunday asarlar orqali xalqning Xudodan, aziz-avliyolar, diniy hikmatlar va ajabtovur voqealardan yuz o'girishiga erishmoqchi bo'lgan". [18]. Abdulla Qodiriy ham o'sha tuzum buyurtmalari asosida tarjima qilishga majbur bo'lgan. Biroq bu ham adib ijodida besamar ketmadi. "Jorji Zaydon – Abdulla Qodiriy" maqolasidagi "A.Qodiriy ro'monni yozishdan ilgari Ovro'po texnikasida usta yozilg'an ro'monlarni o'qimasdan yozgani yo'q. Butun asosiy priyomlarni o'zi o'ylab chiqarg'an emas" [19, 385] degan xulosalar yodimizga tushadi. Hurmatli olimimiz Naim Karimov haqli ravishda aytganlaridek, har bir milliy adabiyotning jahon adabiyotining tarkibiy qismi degan sharafga erishish uchun bu adabiyot shakllanish va rivojlanish yo'lini bosib o'tgan, boshqa milliy adabiyotlar bilan ijodiy aloqada harakat etayotgan bo'lishi lozim. Jadid adiblari o'z ijodlari va badiiy tarjimalari bilan o'zbek adabiyotini yangi bosqichga ko'tarib, jahon adabiyotida munosib o'ringa erishdilar.

#### Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Каримов Э. // Особые межлитературные общности-5. Т., Фан, 1993.
2. Фаттоев М. Атоқли педагогаримиз. Т., Ўқитувчи, 1965.
3. Ризаев Ш. Янги давр таржимачилигимиз кашшофи. / Жаҳон адабиёти, 2013, 7. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/shuhrat-rizaev-yangi-davr-tarjimachiligidiz-kashshofi/>
4. Каримов Б. Асар таржимаси ҳақида. / Д. Дефо. Робинзон ҳикояси. Т., Мухаррир, 2013. [http://library.navoiyuni.uz/files/35\\_daniel\\_defo\\_robinzon\\_kruzoning.pdf](http://library.navoiyuni.uz/files/35_daniel_defo_robinzon_kruzoning.pdf)
5. Миллый уйғониш даври ўзбек адабиёти / Б.Қосимов, Ш.Юсупов, У.Долимов... Т.: Маънавият, 2004.
6. Куронов Д. Жаҳон адабиётига йўл // Жаҳон адабиёти. 1997. № 6.
7. Сайдов У.А.Миллый уйғониш даври ўзбек адабиётида комил инсон масаласи (Европа маърифатчилик адабиёти билан қиёсий ўрганиш тажрибасидан). Филол.фанлари ном.дис...автор. Т., 2002.
8. Фитрат, Абдурауф. Танланган асарлар. 2 жилдик, 1-жилд, Т., Маънавият, 2000.
9. Болтабоев Х. Фитрат ва жадидчилик. Т., Алишер Навои номидаги Ўзбекистон Миллый кутубхонаси нашриёти, 2007.
10. Куронов Д. Чўлпон поэтикаси (насрый асарлари асосида). Фил. фан. докт.. дис. Т., 1998.
11. Владимирова Н. Пушкин Чўлпон таржимасида // Жаҳон адабиёти, 2008, 7. / <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/ninel-vladimirova-pushkin-chulpon-tarjimasida/>
12. Рўзимуҳаммад Б. Чўлпон тонг ўлдузи демак. Т., Ўқитувчи, 1997.
13. Джалилова Х.М. Блок и Чулпан. Слова как звезды. Материалы Республиканской научно-практической конференции, посвященной 125-й годовщине со дня рождения Александра Блока. 23 ноября, Т., 2005.
14. Владимирова Н.В. Развитие узбекской прозы XX века и вопросы художественного перевода. Т., Фан, 2011.
15. Каримов Н. Таржима санъати ва жаҳон адабиёти / <https://jahonadabiyoti.uz/2018/02/01>
16. Шарафиддинов О. Чўлпон - таржимон. <https://ziyouz.uz/matbuot/qayta-qurish-davri-matbuoti/ozod-sharafiddin-ov-cholpon-tarjimon-1990/>
17. Каримов Н. XX аср ўзбек адабиёти жаҳон адабиёти контекстида / <https://jahonadabiyoti.uz/2019/01/17>
18. Каримов Н.. Абдулла Қодирий – таржимон / <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/naim-karimov-abdulla-qodiriylar-jimon/>
19. Қодирий А. Диёри бакр. III жилд. Т., Info Capital Group, 2017, 385.

Bo'ritosh Nurbadalova,  
O'zbekiston Milliy universiteti magistranti

## "BOBURNOMA"DA KELTIRILGAN TURKIY G'AZALLARDA QOFIYA VA MAZMUN MUNOSABATI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning memuar asari "Boburnoma"da keltirilgan turkiy g'azallarida qo'llanilgan qofiyalarning o'zak tarkibiga va tuzilishiga ko'ra turlari, qofiya va mazmun munosabati hamda vazn xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Maqolada qofiyaning farqlanuvchi turlari umumiyligi va badiiy jihatdan tahlil qilingan, g'azallarning aynan qaysi vaznda bitilgani aniqlangan va g'azallardan namuna sifatida baytlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Bobur, Boburnoma, qofiya, vazn, mazmun, murdaf, mutlaq

**Абстрактный.** В данной статье приведены сведения о типах рифм, используемых в турецких газелях мемуаров шаха и поэта Захириддина Мухаммада Бабура «Бобурнома», по их основному составу и структуре, соотношению рифмы и содержания, а также характеристикам веса. с общей и художественной точки зрения определены точные веса газелей и в качестве примеров приведены стихи из газелей.

**Ключевые слова:** Бабур, Бабурнома, рифма, вес, содержание, мурдаф, мутлак.

**Abstract.** This article provides information on the types of rhymes used in the turkish ghazals of the Shah and poet Zahiriddin Muhammad Babur's memoir "Boburnoma" according to their core composition and structure, the relationship between rhyme and content, and the characteristics of weight. types are analyzed from a general and artistic point of view, the exact weights of the ghazals are determined, and verses from the ghazals are given as examples.

**Key words:** Babur, Baburname, rhyme, weight, content, murdaf, mutlaq

Buyuk shoh va olim Zahiriddin Muhammad Bobur boburiylar sulolasining asoschisi, buyuk podshoh bo'lish bilan birga shoir, yirik adabiyotshunos va tarixchi olim ham bo'lgan.

Bobur devonidagi she'rlarning asosiy qismini g'azal va ruboiy tashkil qiladi. Bobur yashab ijod qilgan davrda g'azal va ruboiy nafaqat o'zbek balki, Sharq adabiyotida yetakchi janrga aylangan edi. G'azalning tasvir imkoniyatlari nihoyatda boy bo'lib, unda har qanday his-tuyg'u, mushohada fikri ifodalash qulay edi.

Ma'lumki, qofiya badiiyatning asosiy qirralaridan biri sanalib kelgan. Ijodkorning salohiyati she'rlarida qo'llanilgan qofiyalarning g'oyalar mohiyatini timsollar qiyofasini ochishdagi ahamiyati qofiya uchun tanlangan so'zlarning ma'naviy teranligi, ohangdorligi jilo va jozibasi bilan ham belgilangan. Bobur g'azallarida adabiyotshunos va badiiy ijodkor sifatida qofiyadan mahorat bilan foydalangan. Biz ushbu maqolamizda Boburning memuar asari - "Boburnoma"da yaratilishi bilan bog'liq ma'lumotlar keltirilgan g'azallarida qofiya, vazn va mazmun munosabatlarini ko'rib chiqamiz.

Yaratilishi haqida ma'lumot keltirilgan Boburning dastlabki "**Yaxshiliq**" radifli g'azali 906-yil voqealari bayon qilinganda tilga olinadi. Fon hukmdorining karam-u saxovat odamiylikda mashhur va taniqli ekani ammo "...Men ga kelganda bir nochorroq ot yuborib, o'zi kelmadni. Saxovat bilan mashhur bo'lgan el bizga kelganda xasis bo'ldi"<sup>1</sup> deya ularga kelganda navkarlaricha ko'zga ilmaganidan yozg'iradi.

*Kim ko'ribtur, ey ko'ngul ahli jahondin yaxshiliq  
Kimki andin yaxshi yo'q, ko'z tutma ondin yaxshiliq.*

Ushbu g'azal Boburning to'plamdag'i eng so'nggi 119-g'azali bo'lib, aruzning turkiy she'riyatda eng ko'p uchraydigan **ramali musammani mahzuf** vaznida bitilgan. Baytda qofiyani "**jahondin**", "**ondin**" so'zlarini yuzaga keltirgan. Raviy esa "**n**" undoshi. Qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra **murdaf**, tuzilishiga ko'ra **mutlaq** turiga mansub.

Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma"da ikkinchi tilga olingan turkiy g'azali "**Ortuqsen**" radifli g'azalidir.

Ushbu g'azalning yaratilishi 907-yil voqealarida tog'li Mascho o'lkasi bilan bevosita bog'liq. Muallif bu maskanada toshga o'yib bayt va narsalar bitish odat ekanligini, shoir mullo Hajriy Hisor tomonidan kelib mulozamat qilgani va shundan so'ng ushbu matla' bitilganini "Boburnoma"da keltirib o'tadi.

*Takalluuif har necha suratta bo'lsa, ondin ortuqsen  
Seni jon derlar, ammo betakalluf jondin ortuqsen.*

Ushbu g'azal aruzning **hazaji musammani maqbizi solim** vaznida bitilgan bo'lib, baytda "**jondin**" va "**ondin**" so'zlarini yuzaga keltirgan. Bu g'azalda ham raviy "**n**" undoshi. O'zak tarkibiga ko'ra **murdaf**, tuzilishi-

<sup>1</sup> Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. –T.: O'qituvchi, 2017

ga ko'ra **mutlaq** qofiyaga mansub.

Keyingi keltirib o'tilgan turkiy g'azal ko'pchilikka tanish, el orasida shuhrat qozongan "**Topmadim**" radifli g'azalidir. Bu g'azalning yaratilishi haqida Bobur Somsiyrak tumanida davra olib ovga chiqqanlarini kelib Turok chor-bog'ida ushbu g'azalni tugatganligini yozadi.

*Jonimdin o'zga yori vafodor topmadim  
Ko'nglumdin o'zga mahrami asror topmadim*

"Topmadim" radifli g 'azali aruzning **muzoreyi musammani axrabi makfufi mahzuf** vaznida bitilgan. Taqte'si quyidagicha:

- - V / - V - V / V / V - V -

Baytda "**vafodor**" "**asror**" so'zları qofiyani yuzaga keltirgan. Raviy esa "r" undoshi. O'zak tarkibiga ko'ra **murdaf** qofiyadir. Murdaf qofiyalar g'azalning ohangdorligini, o'ynoqiligini ta'minlab berishi bilan ahamiyatlidir. Shu jihatdan ham Bobur g'azallarida yetakchi o'rinni egallaydi. Devondagi 119 g'azaldan 59 tasi murdaf qofiyaga mansub.

Yaratilishi haqida ma'lumot "Boburnoma"da keltirib o'tilgan keyingi g'azal Boburning "**Bayramlar**" radifli g'azalidir.

*Yangi oy yor yuzu birla ko'rub el shod bayramlar  
Manga yuz-u qoshingdin ayru bayram oyida g'amilar  
Yuzi navro'zi vasli iydini Bobur g'animat tut,  
Ki mundin yaxshi bo'limas bo'lsa yuz navro'z-u bayramlar.*

"...lyd namozini Go'mal soyining bo'yida o'tadik. Navro'z shu iydga yaqin kelib erdi. Tafovuti bir-ikki kun edi. Shu munosabat bilan bu g'azalni aytib edim..."<sup>1</sup>

Bu g'azal ramali musammani mahzufu musabbag' vaznida bitilgan.

- V -- / - V -- / - V -- / - V -- / -

Qofiyasi o'zak tarkibiga ko'ra -**mujarrad**, tuzilishiga ko'ra-**mutlaq** turga mansub. Mujarrad qofiyalar ham Boburda yetakchi o'rinni egallaydi. 119 g'azalning 58tasi shu turga mansub.

*Charxning men ko'rmanan javru jafosi qoldimu?  
Xasta ko'nglim chekmagan dard-u balosi qoldimu?*

912-yil voqealaarida Bobur Kobulga qaysi tog' yo'li bilan borishni uzoq kengashganlarini, Qosimbekning harakati bilan yo'lni yo'qotib qo'yib, qorda ko'p mashaqqatlar chekkan paytda ushbu g'azal yaratilganini yozadi. Bu g'azal aruzning **ramali musammani mahzuf** vaznida bitilgan. Bu vazn turkiy she'riyatda eng ko'p uchraydigan vaznlardan hisoblanadi. Alisher Navoiy ham "Xazoyin ul-maoniy"da bu vaznga ko'p murojaat qilgan.

Qofiyasi o'zak tarkibiga ko'ra-**mujarrad**, tuzilishiga ko'ra-**mutlaq** turga mansub.

Xulosa qilib aytganda, Bobur g'azallarida qo'llanilgan qofiyalar o'zaro mutanosib va olimning yuksak did, so'z tanlash qobiliyati hamda iste'dodini ko'rsatib bergen. Bobur mumtoz she'riyatga tarjimayı hollik xususiyatini olib kirgan. Ijodiga nazar tashlasak, vatanparvarlik va avtobiografik ruh yetakchilik qiladi. Aynan bu xususiyat, ayniqsa, "Boburnoma"da keltirilgan g'azallarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Bobur ijodidagi xalqchil, tushunarli, sodda va ravon uslub tufayli xalqimiz orasida Bobur siyomisi asrlar osha yashab kelmoqda .

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. –T.: O'qituvchi, 2017.
2. Bobur Zahiriddin. Devon. – T.: Sharq, 1996.
3. Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. – T.: Sharq, 1998.
4. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – T.: Sharq, 1999.
5. Sirojiddinov Sh., Yusupova D. Navoiyshunoslik. – T.: Tamaddun, 2018.
6. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – T: Ta'lim-mediya, 2019.

<sup>1</sup> Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. –T.: O'qituvchi, 2017

Nargiza Xusenova,  
Buxoro viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi  
o'quvchilarda zamonaviy ko'nikmalarini shakllantirish sho'basi bosh metodisti

## **UMUMTA'LIM MAKTABALARIDA FANLARNI O'QITISHDA O'QUVCHILARDA SHAKLLANTIRILISHI LOZIM BO'LGAN HAYOTIY KO'NIKMALAR (adabiyot fani misolida)**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada umumta'lim maktabalarida fanlarni o'qitishda o'quvchilarda shakllantirilishi lozim bo'lgan hayotiy ko'nikmalar, ya'ni "4K" modeli bo'yicha fikr yuritiladi hamda ushbu ko'nikmalar adabiyot fani misolida to'liqroq ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** ko'nikma, kollaboratsiya, kommunikativlik, kreativlik, kritik fikrash, hamkorlik, muloqot, ijodkorlik.

**Annotation.** This article reflects on the life skills that should be formed in students during the teaching of subjects in general education schools, i.e., the "4K" model, and these skills are more fully revealed on the example of the subject of literature.

**Keywords:** skills, collaboration, communication, creativity, critical thinking, cooperation.

**Аннотация.** В данной статье размышляется о жизненных навыках, которые должны формироваться у учащихся в ходе преподавания предметов в общеобразовательных школах, т. е. модели «4К», и более полно эти умения раскрываются на примере предмета Литература.

**Ключевые слова:** навыки, коллаборация, коммуникация, творчество, критическое мышление, сотрудничество, общение, креатив.

**Kirish.** Bugungi kunda barcha ta'limga dargohlarida o'quvchi shaxsini fanlarga qiziqtirish va shu orqali uning hayotda o'z o'rnni topishiga erishish muhim masalaga aylanib bormoqda. Albatta, bu jarayonda zamonaviy o'qitish metodikalari va axborot texnologiyalaridan o'rinni foydalanish juda muhim sanaladi. Ma'lumki, hozirgi davr pedagoglardan faqatgina qolipga solingan turli ma'ruzalar bilan cheklanib qolmasdan, mustaqil ta'limg, elektron resurs va texnologiyalaridan foydalangan holda samarali dars o'tish metodikalarini amaliyatga joriy etish talab qilinmoqda. Buning natijasida o'quvchilar faqat nazariy bilimlarga ega bo'lib qolmay, ularni amaliyatda qo'llash ko'nikmasiga ega bo'ladilar. Ta'limg jarayonida o'quvchilardan tahliliy, tanqidiy, mustaqil fikrga ega bo'lishi, o'z fikrini boshqalarga erkin bayon qila olishi, tengdoshlari bilan sog'lom hamkorlik qila olishi va to'g'ri muloqotga kirisha olishi, ijodkorlik sifatlariga ega bo'lishi talab etiladi. Ushbu jarayonda "4K" modelidan foydalanish samarali hisoblanadi. "4K" modeli nima?

**Masalaning qo'yilishi.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydag'i 79-son farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2022-yil 5-dekabrdagi 372-sonli buyrug'iiga ko'ra ta'limg jarayonida o'quvchilarda quyidagi to'rtta hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish kerakligi belgilab qo'yildi.

**1. Kollaboratsiya.** Bu atama inglizcha ("collaboration") bo'lib, "**hamkorlik**" degan ma'noni bildiradi. Ya'ni ikki yoki undan ortiq taraflar birgalikda biron ishni amalga oshirishi - kollaboratsiya (hamkorlik) deb ataladi. Hamkorlikda o'qitish g'oyasi didaktikada 1970-yillarda paydo bo'lgan. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi Buyuk Britaniya, Kanada, Germaniya, Avstraliya, Niderlandiya, Yaponiya, Isroiil mamlakatlari ta'limg muassasalarida keng qo'llanila boshlagan.

Hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasi – o'quv topshiriqlarini nafaqat birgalikda bajarish, balki hamkorlikda o'qish va o'rganishdir.

Hamkorlikka asoslangan darslarda har bir o'quvchini kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, shaxs sifatida onglilik, mustaqillikni tarbiyalash, har bir o'quvchida shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda mas'uliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi. Hamkorlikda ishlash ko'nikmasiga ega bo'lgan o'quvchilar kelajak hayotida o'zgalar bilan bo'lgan munosabatlarda qiyalmaydilar, moslashuvchan, kelishuvchan sifatlarini o'zida shakllantirgan bo'ladilar.

**2. Kommunikativlik.** Bu muloqot qilish qobiliyati bo'lib, ijtimoiy vaziyatlarda ona tili hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olish, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, ijtimoiy moslashuvchanlik, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish ko'nikmasi hisoblanadi.

**3. Kreativlik.** Kreativ lot., ing. "create" - yaratish, "creative" - yaratuv-chi, ijodkor ma'nolarini anglatadi. Bugungi kunda jahonda ta'limga kreativ yondashuv asosida bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, pedagog kadrlarning kreativ sifatlarini rivojlantirish orqali ijodiy ta'limg jarayonini loyihalashtirishning zamonaviy metodik ta'minotini yaratish, o'quvchilarda kasbiy faoliyat sohalariga yo'naltirilgan kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek, oliy ta'limning ta'limg sifatini ta'minlash jarayonidagi ijtimoiy rolini oshirish masalalari dolzarb

yo'nalishlardan biri sifatida tadqiq etilmoqda. So'nggi yillarda yetakchi xorijiy mamlakatlarning ta'lrim tizimida o'quvchi va talabalarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Patti Drapeau nuqtayi nazariga ko'ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. Har tomonlama fikrlash o'quvchilardan o'quv topshirig'i, masalasi va vazifalarini bajarishda ko'plab g'oyalarga tayanishni talab etadi. Bundan farqli ravishda bir tomonlama fikrlash esa birgina to'g'ri g'oyaga asoslanishni ifodalaydi. Mushohada yuritishda masala yuzasidan bir va ko'p tomonlama fikrlashdan birini inkor etib bo'lmaydi. Binobarin, bir va har tomonlama fikrlash kreativlikni shakllantirishda birdek ahamiyat kasb etadi.

**4. Kritik fikrlash.** Tanqid (kritika lot.- hukm qilish mahorati) – inson faoliyatining biror sohasiga aloqador hodisani baholash, analiz qilish. Kritik fikrlash – o'z mustaqil fikriga ega bo'lish va uni ifoda etish, masalaga tanqidiy yondashish. Tanqidiy fikrlash deganda, ko'pchilik asosan negativ munosabat bildirishni, birovning fikrini shubha ostiga olish, tanqid qilishni tushunadi. Aslida-chi? Aslida *tanqidiy fikrlash da'veoning to'g'riligini aniqlashda aqni oqilona qo'llashdir. Soddarroq qilib aytganda, nima qilish yoki nimaga ishonish kerakligi haqida aniq va oqilona o'yash qobiliyatidir.*


Tanqidiy fikrlash bu – XXI asr talablarini muvaffaqiyatli ro'yobga chiqarishimizga imkoniyat yaratuvchi, o'rganayotgan va bajarayotgan ishimizni yanada chuqurroq anglashimizga yordam beruvchi ijobji ko'nikmadir. Tanqidiy fikrlashga o'rgatish Kadrlar tayyorlash milliy dasturida bayon etilgan yuqori kasbiy madaniyatli, ijodiy va ijtimoiy faol hayotda o'z o'rmini topa oladigan malakali kadrlarni shakllantirish vazifasini hal qilishga ham mos keladi.

**Tavsiya.** Umumta'lum maktablarining 7-sinf adabiyot darsligida berilgan Anton Chexovning "Xameleon" asarini o'tish mobaynida yuqorida hayotiy ko'nikmalarni o'quvchilarda shakllantirish va ularni rivojlantirish maqsadida dars vaqtida foydalanish uchun bir nechta metodlarni tavsiya qilamiz.

#### "Aqliy hujum" metodi

Ma'lumki, o'quvchilar orasida shaxsiy fikrga ega, mustaqil o'ylay oladigan o'quvchilar bo'ladi. Ular berilgan jarayondagi muammoni aniq ko'ra oladilar va, ko'pincha, ularning bildirgan faktlari faktlarga asoslanadi. Bu metod orqali o'quvchilarning **kritik**, ya'ni **tanqidiy fikrlash** ko'nikmasi rivojlanadi.

1-vazifa: Nima deb o'ylaysiz, "Xameleon" asaridagi muammo nima? Har bir o'quvchi asardagi muammoni topib, izohlaydilar.



2-vazifa: Asardagi qahramonlarning xatti-harakatlarini raqamlar orqali baholash. Bunda 5 ballik shkala asos qilib olinadi. Ushbu vazifa o'quvchilarning bir yoqlama fikrlash emas, balki har tomonlama o'ylab, to'g'ri qaror chiqarishiga ko'mak beradi.

| <b>Qahramonlar</b>     | <b>Ijobiy</b> | <b>Izoh</b> | <b>Salbiy</b> | <b>Izoh</b> |
|------------------------|---------------|-------------|---------------|-------------|
| <b>Ochumelov</b>       | <b>0</b>      |             | <b>5</b>      |             |
| <b>Xryukin</b>         |               |             |               |             |
| <b>General Jigalov</b> |               |             |               |             |
| <b>Gorodovoy</b>       |               |             |               |             |
| <b>Oshpaz Proxor</b>   |               |             |               |             |
| <b>Kuchuk</b>          |               |             |               |             |

**"Munozara" metodi.**

1. Bunda sınıf o'quvchilari 2 guruhga yoki 3 guruhga bo'linadi.
2. Quyidagi mavzularda loyiha tayyorlaydilar:

### 1-guruh: Ochumelovni oqlayman

### 2-guruh: Ochumelovni qoralayman

3. Guruhlar yuqoridaq mavzular bo'yicha munozaraga kirishadilar. Har bir guruh a'zolari o'z fikrlarining to'g'rilingini dalillashga harakat qiladilar. Bu **kollaboratsiya** ko'nikmasini rivojlantirishga yordam beradi. Chunki guruh a'zolari tayyorgarlik jarayonida bir-birining fikrlarini eshitadi, mustaqil fikr bildiriladi va umumiyl xulosaga kelinadi. Ya'ni birgalikda qaror qabul qilishni, murosaga kelishni o'rganadilar.

**"Musiqiy zakovat" metodi** orgqli o'quvchilarning **creativ fikrlash** darajasi rivojlanadi. Bu metodda quyidagi vazifalar beriladi:

- Asar ruhiga mos musiqa yarating.
- Rejissorga tavsiyalar bering.
- Asar asosida she'r yarating va unga musiqa bastalang. Ushbu topshiriqlarni bajarish jarayonida o'quvchilarning birinchi navbatda, fanga qiziqishi ortadi hamda asar qahramonlarining ruhiyati bilan yaqindan tanishadi, voqealarni bevosita tahlil qiladi.

**"Qayta hikoya qilish" metodi.**

Vazifa: Sizningcha, "Xameleon" hikoyasidagi qaysi epizod sizga ma'qul emas? Muallifga e'tirozingiz bormi? Siz o'sha epizod o'rniga nimani kiritish mumkin deb o'ylaysiz? Bu topshiriqlar o'quvchilarda ixtirochilik, yaratuvchanlik sifatlarining shakllanishiga xizmat qiladi. Uning fikri ham muhim ekanligini va o'zining nimalarnadir yarata olishi mumkinligiga ishonch hosil qilishiga erishiladi.

**"Men jurnalistman" metodi.**

1. Sinf o'quvchilari orasidan jurnalist o'quvchilar tanlab olinadi.
2. Yosh jurnalistlar o'zlari xohlagan hikoya qahramonlaridan intervyu olishlari kerak bo'ladi.
3. Intervyu uchun savollar matni tayyorlanadi.
4. Sinf o'quvchilari orasidan hikoya qahramonlari aniqlanadi.
5. Intervyu jarayoni amalga oshiriladi.
6. Bunda savollarning to'g'rilingiga, muomala madaniyatiga, javoblarning mantiqiyligiga e'tibor qaratiladi.



Bu metod orqali o'quvchilarning **kommunikativ** ko'nikmasi rivojlanadi. Ya'ni u muloqot madaniyatini, hozirjavoblikni, o'zini tutishni o'rganadi.

**Xulosa.** Har bir darsda o'quvchilarda yuqoridagi to'rtta ko'nikmani shakllantirishga qaratilgan metodlardan foydalanib dars o'tilsa, albatta, samarali bo'ladi. Chunki bu ko'nikmalar o'quvchilarni katta hayotda qoqlimay o'z o'rnni topishining kafolati demakdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Uzvylashtirilgan Davlat ta'lif standarti va o'quv dasturi: Ona tili va adabiyot. – T.: Ma'rifat-Press, 2010.
2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2022-yil 5-dekabrdagi 372-sonli buyrug'i.
3. Gulyamova N., Boshlang'ich ta'limda tanqidiy fikrlash bo'yicha o'qituvchilarning tasavvurlari// Science and innovation international scientific journal volume 1 ISSUE 8.–UIF, 2022. – B.844.
4. Husanboyeva Q., Niyoziyeva R. Adabiyot o'qitish metodikasi.–T.: Barkamol fayz media, 2018.–B.117.
5. Omonov H.T., Xo'jayev N.X. va boshqalar, Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Iqtisod-moliya, 2009.–B.149.
6. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

**Nafisa Karimova**

*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 2 -bosqich tayanch doktoranti*

## SHE'RIYAT ILMINING SHOIRONA TALQINI

**Annotatsiya:** maqolada O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning "Shoiru, she'ru, shuur" nomli kitobi tahlil etilgan. She'riyatga doir qarashlar shoir tomonidan aytigani ijod laboratoriysi tadtiqi uchun manba sifatida xizmat qildi. Shoirona kuzatuvalar, nazariy munosabatlar maqolaning asosiy mazmunini tashkil etadi. Ayrim o'rnlarda shoir ijodidan namunalar keltirish orqali mazmun ochiqlandi.

**Kalit so'zlar:** shoir, she'r, tahlil, ilhom, so'z san'ati, iste'dod

**Abstract:** the article analyzes the book «Shoiru, she'ru, shuur» by the national poet of Uzbekistan Erkin Vahidov. Opinions on poetry expressed by the poet served as a source for the research of the laboratory of creativity. Poetic observations, theoretical relations constitute the main content of the article. In some places, the content was clarified by giving examples of the poet's work.

**Keywords:** poet, poetry, analysis, inspiration, word art, talent

Badiiy ijod - ko'ngil munavvarligi. Ilmiy ijod esa fikr charxpalagidir. Qalb orom olishni istagan pallalarda, ijodga yo'g'riladi. Fikrat olamni anglashga intilganda, ilm orqali harakatga tushadi. Adabiyotga odam va olam bobidagi yondashuvlar bilan qarab kelingan. Ilm ahli ahli ijodni tahlili tekshiruvlardan o'tkazadi. Bunga har birimiz juda ko'p martalab guvoh bo'lganmiz, badiiy tahlil jarayonlarining ishtiroychisiga aylanganmiz. Badiiy asarning mazmun mohiyati qay yo'sinda ochib berilishini yaxshi tushunamiz, albatta. Nazariy tamoyillar yozuvchi yoki shoirni qayta kashf etishda muayyan bir ahamiyat kasb etishi hech birimizga yangilik emas, biroq ijodkorlarning o'zlarini o'zlarini tahlil etishini, adabiyot ilmiga doir mulohazalarini ham shu kompleks tarkibiga kiritishimiz ayni muddaodir. Sevimli shoirimiz Erkin Vohidovning "Shoiru, she'ru, shuur" nomli kitobi ayni biz nazarda tutgan masalaga oydinlik kirit-adigan adabiyotlardan biridir. Kitobda Erkin Vohidovning maqolalari, suhbatlari, adabiy o'ylari jam bo'lgan. Shoir dastlab o'zini tekshiradi: "Bunday qaraganda, bitta shoir qilishi kerak mumkin bo'lgan ishni qilib qo'ygandekman. Lekin hech qachon o'z qilgan ishimdan ko'nglim to'lgan emas. Hamisha yozganidan yozadiganim muhimroq va azizroq tuyuladi"[1, 8 -bet ]. Hayoldagi jamiki narsa oliy darajada turadi. Xuddi orzular kabi. Tafakkur qog'ozda iz qoldira boshlagach, oliylik darajasi pasaygandek tuyuladi. Ana shu ma'noda, shoirimiz bu jarayonni hammadan ko'ra, yaxshiroq va teranroq his etishiga iqror bo'lgan.

Ijod laboratoriyasiga taalluqli unsurlardan biri -mavzu tanlash. Ba'zida nasrda mavzuning tanlanishi alohida ahamiyatga ega, nazmda esa shoirona kayfiyat va ilhomga bog'liq, degan biryoqlama fikrlar aytilgan. Erkin Vohidov esa insonning ichki olamini tavsiflovchi mavzular nazm yo nars yo'nalishini tanlamasligini, insonni madh etuvchi mavzular abadiy hisoblanishini aytadi. "She'riyatning mavzulari, ohanglari, ifoda uslublari har davrda o'ziga xos o'zgacha bo'ladi. Lekin bir narsa hamisha ustuvor: she'riyat inson qalbining holati ekani, uning quvonchi, muhabbati, nafrati, sog'inchi ifodasi ekani – abadiy"[1, 15 -bet]. Shoirona ta'rif nazariy ta'rifdan, mazmuni bilan emas, ifoda yo'sini bilan farqlanishini ko'rish mumkin.

Shoir bo'lib, qalam tutishga undovchilayotqat tug'yonlari iste'dod, deb ataladi.

"Barcha iste'dodlar kabi shoirlig iste'dodi ham tug'ma bo'ladi va bolalikdan o'zini namoyon etadi. Bu kunduzdek ravshan, haqiqatning o'zidek ayon. Tug'ma iste'dod egasi bo'lmagan, she'riyatga havas tufayli adabiyotga kirib

qolganlar – umr bo‘yi havaskor bo‘lib qoladilar” [1, 15-bet], deb yozadi shoir o‘z kitobida. Lekin nazarimizda, shoir havaskorlarning adabiyot maydonida qisqa muddat qolishini hisobga olmagandek. Iste’dodning bolalikdan namoyon bo‘la boshlashi, shoirlikka bo‘lgan layoqat tug‘ma ekani shak-shubhasizdir. Biroq iste’dodlarga ergashib she‘r yozishga harakat qilgan havaskor, har doim ham ergashib yuravermaydi. Yozganlari talab darajasida emasligini tushungach, o‘z-o‘zidan chekinadi. Yosh shoirlarni o‘z vaqtida aniqlab, ijodkor sifatida tarbiyalash uchun ta‘lim muassasalarini va ijodiy uyushmlarda to‘garaklar tashkil etilgan. Shoirlar havaskorlardan shu jarayonlarni o‘zida ham saralanadi. Fikrimizni dalillash uchun “XX asr o‘zbek she’riyati antologiyasi”ni keltirishimiz mumkin. Bunda shoirlar havaskorlardan professionallik nuqtayi nazaridan saralangan. Albatta, har qanday ijodkorning har qanday mavzu yuzasidan shaxsiy mulohazasi bo‘ladi, ijodkorning individualligi ham ana shunda.

Kitobda “Qo’shiqning joni kuy bo‘lsa, vujudi she’rdir. So‘z va kuy, jismu jon kabi bir butun bo‘lgan joyda haqiqiy qo’shiq paydo bo‘ladi va bunday qo’shiqning umri boqiy bo‘ladi”[1, 37 -bet], deb san‘at va adabiyotga doir mulohazalar berilgan. E.Vohidovning yuqorida, she’rda insonning ichki holati to‘la ochib berilishi asarni abadiylashtiradi, degan gapini ko‘rib chiqqan edik. Shoirning fikricha, mazkur ijodiy sifat san‘at, jumladan, musiqa bilan ham bog‘lanib ketadi. Shu kabi kuzatishlardan olingan xulosalarni o‘qib, har qanday ijodkor Erkin Vohidov kabi shoir bo‘lishni istashdan oldin, u kabi adabiyot va hayotni atroflicha kuzatishni o‘rganishi lozim ekan, degan to‘xtamga kelamiz.

Kishilarning ma’naviy ehtiyojlarini to‘ldiruvchi qadriyatlar tipi ham mavjudki, ular kishini estetik zavq va yorug‘likka yetaklaydi. Erkin Vohidov she‘r haqida so‘z yuritar ekan, she‘rni oliy qadriyat maqomiga olib chiquvchi xususiyatini ham aytib o‘tadi. “She’riyat inson qalbining ko‘zgusi va malhami, unga qanot beruvchi omil ekan, shoirning birinchi vazifasi kishilar ko‘ngliga taskin va nur olib kirish, dardiga hamdard bo‘lish, unga kuch va madad berishdir” [1, 86-bet]. Biz nega kitobni kishilarning do’sti deb bilamiz? Turmush tashvishlarining charchog‘ini chiqaradigan, qalb jabr ko‘rganda hamdard bo‘ladigan adabiyot bor. Agar she’riyat (kitoblari) E.Vohidov aytgan ma’naviy vazifani bajarmas ekan, uning insonga do’st deb bilishimizning ahamiyati qolmaydi. Mavzuning tanlanish yo tanlanmasligi ham, abadiy tipga kirishi ham, ijodkor iste’dodining ahamiyati ham mana shunday sahifalarda bo‘y ko‘rsatadi. Erkin Vohidov shoir sifatida ham, chin insoniylik ma’nosida ham nega she‘r yozayotganini, kim uchun she‘r yozayotganini to‘la idrok eta olgan ijodkordir. U she‘r va shoir qadriga munosib baho bergan : “Shoirni minglar va millionlar o‘qishi shart emas. Shoirlar bo‘ladiki, ularni bir kishi yolg‘iz o‘zi kechasi o‘qiydi. Kitobi yostig‘ining tagida turadi. Bu -shoir uchun baxt”[1, 160 -bet], deydi. Chunki millionlarning ko‘ngliga ko‘zgu tutib, umumiylikka berilish ijodiy maqsadni marradan uzoqlashtiradi. Millionlar ichidan taskin istovchi izlanmaydi. Ma’sunning o‘zi she‘rdan o‘ziga yupanch topa oladi. Yozilgan she’rlar kimgadir shunday yupanch bo‘la olsa, shoirning ijodiy maqsadi hosil bo‘lgan bo‘ladi. She‘r o‘z vazifasini bajargan hisoblanadi.

Biz Erkin Vohidovni yaxshi shaxmat o‘yinchisi sifatida ham bilamiz. U she’riyatni shaxmatga qiyoslagan. Umuman olib qarasak, mushtarak jihatlar bir qanchani tashkil etar ekan. Adabiyot ham shaxmat ham oq va qora yo‘llarni bosib o‘tadi. Shaxmat donalari “shoh”ni himoyalash uchun ikki qatorдан tizilib turishsa, episodlar buni aksini bajaradi: bosh qahramonning bor bo‘yini ko‘rsatish uchun adiblar ularni “atay” asarga kiritadilar. Har ne bo‘lganda ham, episodlar ham, donachalar ham yaxlitlikni hosil qilishga xizmat qiladi. Erkin Vohidovning “She‘r va shaxmat” she‘ridan parcha:

*Shaxmat abadiydir,  
She‘r ham abadiy.  
Yurish tugamas-u, so‘z ham bo‘lmas tamom.  
Shaxmat taxtasida,  
She‘r maydonida  
G‘oyalar kurashi etadi davom. [2, 63]*

Misralarda shoirning ham nazariy, ham amaliy qarashlarini ko‘rish mumkin. She‘r bilan shaxmat o‘yini hech qachon o‘z ijrosini to‘xtatmaydi. She‘r yozilaveradi, shaxmat o‘ynalaveradi. She‘rga yangi bandlarni qo’shib boraverish mumkin. Shaxmat o‘yinida esa “shoh”ni “mot” qilish uchun ancha bosh qotiriladi. “Shoh”ni mag‘lub bo‘lmasligi uchun turli o‘yin usullaridan foydalilaniveradi. Bu ikki jarayon go‘yo g‘oyalar kurashidek. “Shaxmat taxtasida, She‘r maydonida, G‘oyalar kurashi etadi davom”, degan misralarni aqliy va ijodiy mehnatni mushtaraklashtirgan eng yaxshi ta‘rif, deb baholashimiz mumkin.

Erkin Vohidovning “Shoiru, she’ru, shuur” kitobidagi adabiy o‘ylar bilan tanishib chiqar ekanmiz. Har bir shoir, uning yozgan she’ri va shuuri o‘zaro bir insoniy va ijodiy maqsadga qaratilganiga va bu hayotiy tajribalar bilan asoslanganligiga guvoh bo‘lamiz. Shoir E.Vohidov o‘z shuuridagi o‘ylarini kitobxoni bilan o‘rtoqlashgan. Mazkru risola adabiy -estetik tafakkurni ijodkorona ruhda tushuntiruvchi dasturamaldir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Erkin Vohidov. Shoiru, she’ru, shuur. “Yosh gvardiya”, T.: 1987 -yil
2. Erkin Vohidov. Tanlangan asarlar. “SHARQ” NMAK. T.: 2016 -yil.
3. Hotam Umurov. Adabiyotshunoslikka kirish.A.Qodiriy NMU, 2004 -yil.

Mukaddas Xakimova,  
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi  
I-kurs tayanch doktoranti

## SHAXS DINIY ETIQODINING STRESS HOLATDAN CHIQISHDAGI IJOBIY TA'SIRI

**Annotatsiya:** Hayotda shunday vaziyat yuzaga keladiki, o'zingizni umidsiz vaziyatga duch kelasiz. Masalan, siz odam bilan mojaroga duch keldingiz yoki siz kutmagan biron bir hodisa yuz berdi. Keyin stressning birinchi belgilari paydo bo'ladi. Ushbu maqolada shaxs diniy etiqodining stress holatdan chiqishdagi ijobiy ta'siri haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** o'zbek xalqi madaniyati, shaxs diniy etiqodi, milliy urf-odat, an'ana va marosimlar.

**Abstract:** There will be such a situation in life that you will find yourself in a hopeless situation. For example, you had a conflict with a person or something happened that you did not expect. Then the first signs of stress appear. This article talks about the positive effect of a person's religious beliefs on getting out of a stressful situation.

**Key words:** culture of the Uzbek people, personal religious beliefs, national customs, traditions and rituals.

**Аннотация:** В жизни произойдет такая ситуация, что вы окажетесь в безвыходном положении. Например, у вас произошел конфликт с человеком или произошло что-то такое, чего вы не ожидали. Тогда и появляются первые признаки стресса. В данной статье говорится о положительном влиянии религиозных убеждений человека на выход из стрессовой ситуации.

**Ключевые слова:** культура узбекского народа, личные религиозные убеждения, национальные обычаи, традиции и обряды.

Ma'lumki, Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyati juda qadimiy bo'lib, uning tarixi bir necha ming yillarni o'z ichiga oladi. Xalqimiz madaniyati ham jahon madaniyati bilan yonma-yon yuzaga kelgan va rivojlangandir. Birorta xalq madaniyati o'z mamlakati doirasidagina, tor milliy birlikda emas, balki boshqa xalqlar madaniyati bilan o'zaro chambarcharslikda, o'zaro bog'liqlikda, o'zaro ta'sir va aks ta'sir etish asosida rivojlanadi. Tarixdan ma'lumki, o'zbek xalqi madaniyati faqat milliy asosda emas, shu bilan birga umuminsoniy qadriyatlar ta'siri ostida ham o'sdi, rivojlandi. Unga Xitoy, Yunon, Rim, Arab madaniyati, urf-odatlari, jahondagi boshqa madaniyatlar o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. O'z navbatida Markaziy Osiyo xalqlari ham boshqa xalqlar madaniyatining yuksalishiga, umumjahon madaniyati va urf-odatlari taraqqiyotiga o'zining faol ta'sirini ko'rsatdi. Diniy urf-odat va marosimlar bir jihatdan jamiyatda yangicha g'oya hamda tafakkurni vujudga keltirsa, boshqa bir jihatdan esa, to'plangan qadiryatlarni mustahkamlaydi.

Har bir inson uchun uzoq muddatli stressli vaziyatlar zarur, chunki ular uning hayotidagi ijobiy o'zgarishlarda muhim rol o'yinaydi. Gap shundaki, inson qonidagi stressli vaziyatda adrenalin paydo bo'ladi, shuningdek, boshqa biokimiyoviy reaksiyalar, bu shaxsni muayyan muammolarni hal qilishga undaydi. Ya'ni, taraqqiyot dvigateli sifatida ham stress amalga oshirilmoqda.

Ammo agar u boshqaruv darajadan chiqib ketsa, jismoniy sog'liqning holati yomonlashadi. Inson tanasidagi hamma narsa o'zaro bog'liq bo'lib, hissiy holatlarga ta'sir qiladi, aksincha, nafas olish tizimi va boshqalarga ta'sir ko'rsatishi mumkin, bu esa hissiy holatlarga ta'sir qiladigan salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Diniy madaniyatning shakllanishida milliy urf-odat, an'ana va marosimlarning ham o'rni katta. Har bir xalq o'ziga xos urf-odat, an'analari bilan birgalikda shakllanadi. Ularning eng xalqchil, yashovchan ko'rinishlari har qanday siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, diniy evrilishlarga ham bardosh berib yashashda davom etadi. Shu xalq, millat bor ekan ular ham mavjuddir. Eng asosiysi, ular shu millat e'tiqod qiladigan diniy madaniyat bilan uyg'unlashib, yaxlit milliy diniy madaniyatni shakllantiradi. Diniy urf-odatlarning shaxs dunyoqarashi va tafakkuriga ta'siri. Din voqelikni o'ziga xos aks ettiruvchi ijtimoiy hodisadir. Din insonga to'g'ri, haqiqiy hayot yo'lini ko'rsatadigan va o'rgatadigan ilohiy qudratga ishonchni ifoda etadigan ta'lilotdir.

Dinning mohiyati turlicha izohlansada, uning asosida ishonch, e'tiqod tuyg'usi yotadi. Zero bunday tuyg'udan mahrum xalq, odam yo'q. Hech bir xalq dinsiz, e'tiqodsiz, biron-bir narsaga ishonchsiz yashay olmaydi. Har bir din turlicha urf-odat, marosim va bayramlar orqali o'z qavmidagi odamlar turmushini tartibga solish, nazorat qilish, insonlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirish, tafakkurini yuksaltirishga harakat qiladi. Milliy va diniy madaniyatlar uyg'unligini ilm-fan, adabiyot va san'at, hunarmandchilik va me'morchilik ravnaqida ham ko'rish mumkin. Ayniqsa islom dini kirib kelishi bilan ko'plab masjid, madrasa va maqbaralar ham milliy, ham diniy madaniyatimizning bebaho namunalardir. Moddiy va ma'naviy hayot tamoyillari bir-birini inkor etmaydi, aksincha, o'zaro bog'lanib, bir-birini to'ldiradi. Xuddi shuningdek milliy va umuminsoniy madaniyatlar ham birbirlini boyitib boradi. Yuksak taraqqiyotga erishishni orzu qiladigan har bir inson va jamiyat o'z hayotini aynan ana shunday dialektik va uzviy bog'liqlik asosida qurban va rivojlantirgan taqdirdagina ijobiy natijalarga erisha oladi. Ana shu haqiqatdan kelib chiqqan holda, yurtimizda iqtisodiy o'nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanish jarayonlarining ma'naviy poklanish, ma'naviy yuksalish harakatlari bilan tamomila uyg'un ravishda rivojlanib borishini asosiy maqsad qilib belgiladi. Har qanday jamiyatda din ma'lum ijtimoiy, ma'naviy va ruhiy vazifalarni bajaradi. Uning ijtimoiy hayotga ta'siri kuchlidir.

Avvalo shuni ta'kidlash lozimki, kundalik turmushda urf-odat va marosim tushunchalari birbiri bilan aynan bir tushunchalardek tuyulsada, lekin ular o'tasidagi hayotiy farqlar mavjud hamda asosiy tafovut shundaki urf-odat hayotiy voqealarga to'laligicha singib ketgan. Ushbu holatlar, bir tomonidan, xalq ongiga singib ketgan urf-odatlarning qanchalik darajada yashovchanligini ko'rsatsa, boshqa tomondan, ushbu urf-odat va marosimlarning xalq ma'naviyati, madaniyati hamda shaxs dunyoqarashi va tafakkuriga hamon ijobiy ta'sir ko'rsatib kelayotganligi uchun ulardan voz kechishni hohlamayotganligidan dalolat beradi. Istiqlol milliy va diniy qadriyatlarimiz tiklanishiga keng imkoniyatlar yaratdi. Din milliy ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiluvchi mezonlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Islom diniy marosimlari asosan ikki guruhga bo'linadi:

1. Hursandchilik ko'rinishidagi marosimlar.
2. G'amginlik ko'rinishidagi marosimlar.

Avvalo shuni ta'kidlash lozimki, kundalik turmushda urf-odat va marosim tushunchalari bir-biri bilan aynan bir tushunchalardek tuyulsada, lekin ular o'tasidagi hayotiy farqlar mavjud hamda asosiy tafovut shundaki urf-odat hayotiy voqealarga to'laligicha singib ketgan. Masalan: salom berish, kun tartibiga aylangan. Marosim esa ma'lum bir voqeа tarzida nishonlanadi. Masalan: To'ylarda yor-yor aytish kabi. Marosim ham turli dinlarda har xil bo'ladi. U tarixiy davrga xosdir.

Islom dinidagi marosimlar orasida ham sof diniy, umuminsoniy va ibtidoi marosimlar bor. Oila – jamiyatning eng kichik yachevkasi bo'lib, jamiyat ana shu yacheykaldan tashkil topadi. Oila murakkab tuzilmaga ega bo'lib, tabiiy-biologik (jinsiy munosabatlar, nasl qoldirish), iqtisodiy (mulkiy munosabatlar, uy-ro'zg'orni boshqarish), manaviy (er-xotin, ota-onha va bolalar o'tasidagi mehr-muhabbat tuyg'usi va bosh.) munosabatlarga asoslanadi. Oila xayotning, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarni saqlaydigan, kelajak avlodlar inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'idir. Oila poklikka va soflikka, ikki tomonlarma muhabbatga, sadoqat va vafodorlikka asoslanishi, farzandlar tarbiyasi uchun muxim omil xisoblanadi.

Islom dini va musulmonchilik degan tushuncha bizning mintaqamiz uchun faqat o'tmish yoki bugunning tajribasigina bo'lib qolmasdan, u kelajak voqeligi hamdir. Islomning jamiyat hayotidagi roli tom ma'nodagi hurfikrlilik qaror topayotgan mustaqillik davrida o'zini yanada yaqqolroq namoyon etayotgani ham shunday xulosa chiqarishga asos bo'ladi.

Ko'pgina tadqiqotlarda diniy marosimlarga tashrif buyurish sog'liq va o'limning ko'plab xavf omillarining past darajasi, kasallik va o'limning tarqalishi va tarqalishining pastligi bilan bog'liqligi aniqlandi. Masalan, yaqinda g'arbda o'tkazilgan besh mingdan ziyod amerikaliklar o'tasida o'tkazilgan keyingi tadqiqot hisobotida, haftalikdan ko'proq qatnashuvchilar bir nechta o'zgaruvchiga moslashgandan keyin hech qachon qatnashmaydiganlarning o'limining yarmi borligi aniqlandi.[\[18\]](#)

Dalillar shuni ko'rsatadiki, dindorlik ruhiy salomatlik va ruhiy buzuqlikka yo'l bo'lishi mumkin. Masalan, [dindorlik](#) haddan tashqari o'z-o'zini nazorat qilishni o'z ichiga olgan ruhiy kasalliklar bilan ijobiy bog'liq va o'zini tuta olmaydigan psixik kasalliklar bilan salbiy bog'liq.[\[26\]](#) Boshqa tadqiqotlar diniy va dunyoviy orasida ruhiy salomatlik ko'rsatkichlarini topdi. Masalan, Vilchinskiy va Kravetz yahudiy talabalarining diniy va dunyoviy kichik guruhlari o'tasida psixologik bezovtalik bilan salbiy bog'liqliklarni aniqladilar.

Islom dini va ruhiy salomatlik o'tasidagi bog'liqlik uning shaxslarga ko'rsatadigan rahbarlik doirasi yoki ijtimoiy yordami bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ushbu yo'nalishlar bo'yicha islom dini hayotda xavfsizlik va ahamiyatga ega bo'lish, shuningdek, insonlarning qimmatli munosabatlari, ruhiy salomatlikni mustahkamlash imkoniyatiga ega. Ba'zi nazariyotchilar din va dindorlikning afzalliklari diniy guruhga a'zolikning ijtimoiy ko'magi bilan bog'liq.

Xulosa qilib aytganda, islom dini urf-odatlari, marosimlarda eng avvalo, mehroqibat, saxovat, rahm-shafqat, insof-dyonat, adolat g'oyalari ustuvorlik qilgan.

Odamlarni yaqinlarini e'zozlashga, ularni asrab avaylashga o'zgalarni hurmat mehr ko'rsatishga bo'lgan xarakatlari tafsinga loyiqidir. Islom dini va musulmonchilik degan tushuncha bizning mintaqamiz urf-odatlаримиз uchun faqat o'tmish yoki bugunning tajribasigina bo'lib qolmasdan, u kelajak voqeligi hamdir. Islomning jamiyat hayotidagi roli tom ma'nodagi hurfikrlilik qaror topayotgan mustaqillik davrida o'zini yanada yaqqolroq namoyon etayotgani ham shunday xulosa chiqarishga asos bo'ladi.

Din, shuningdek, stressni boshdan kechiruvchi ko'nikmalarni yoki qiyinlashtiradigan talablarni yengishga yordam beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akar Baltas va Zuhail Baltas, Stres ve Basa Cikma Yolları (Stress vauni boshqarish yo'llari), 15-nashri, 162.
2. Dag Ummon & Karl E. Tresen (2005), «Din va ma'naviyat sog'likka ta'sir qiladimi?» In:Paloutzian, Raymond F.; Park, Crystal L. (nashr.) (2005). Din va ma'naviyat psixologiyasining qo'llanmasi (1-nashr). Nyu-York: Guilford Press. 435-459 betlar. ISBN 978-1572309227.
3. Emmons RA, Paloutzian RF (2003). «Din psixologiyasi». Psixologiyaning yillik sharhi. 54 (1): 377–402. doi:10.1146/annurev.psych.54.101601.145024. PMID 12171998.
4. Graham, J. (Fevral 2010). «E'tiqoddan tashqari: dinlar odamlarni axloqiy jamoalarga majbur qiladi». Shaxsiyat va ijtimoiy psixologiya sharhi. 14 (1): 140–50. doi:10.1177/1088868309353415. PMID 20089848.

Gulruxbegim Ravshanova,  
QarshiDU, dotsentfilologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

## HAJVIY ASARLARDA BADIY XRONOTOP VA HAJVIY-PARODIK USUL TALQINI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yangi o'zbek she'riyatidagi hajviy asarlarda badiy xronotop va hajviy-parodik usul talqini, hajviy asarlarida inson ma'naviyati va axloq muammolari tadqiq etilgan. Shu jihatdan Abdulla Oripov, Erkin Vohidov hajvlari tahlili shuni ko'rsatadiki, ularda ko'pincha satirik kulgi va uning shakllari uchrashini ko'ramiz. Ijodkorlar hajvlarida kulgi niqoblari bir-biriga uyg'unlashadigan kinoya, zaharxanda, sarkazm, piching, fosh qiluvchi kulgi asosiy o'rinni egallashi ko'rsatib beriladi va hajviy asarning qimmatini oshiruvchi quroli bo'lmish kulgini hosil qiluvchi vositalar o'rganilgan.

**Kalit so'zlar.** Hajviya, san'at, ma'naviyat, axloq muammolari, kulgi, humor, mubolag'a, sarkazm, drama, an'ana, satirik kulgi, masxara qiluvchi kulgi, fiziologik kulgi.

**Abstract.** In this article, the tradition of researching comic works in new Uzbek poetry, the comic skills of creators, forms of sharp laughter in comics, human spirituality and moral problems in comic works are researched. In this regard, the analysis of the comics of Abdulla Oripov, Erkin Vahidov and Anvar Obidjon shows that satirical laughter and its forms often meet in them. It is shown that sarcasm, poison, sarcasm, sarcasm, sarcasm, and exposing laughter occupy the main place in comics of creators, and the means of creating laughter, which is a weapon that increases the value of a comic work, are studied.

**Keywords.** humor, art, spirituality, moral issues, laughter, humor, exaggeration, sarcasm, drama, tradition, satirical laughter, mocking laughter, physiological laughter.

Ma'lumki, "bir qarashda makon va zamon ("topoxronos" ham) kategoriyasi mavjudlikning umumiyligi belgisi sifatida har qanday asarning badiyligini ta'minlaydi, deyish mumkin. Ammo atamalarni chuqurroq tahlil etilsa, makon (topos) va zamon (xronos) mustaqil leksik ma'noga ega ekanligi ko'rindi. Chunki borliq mutloq mavjudlik sifatida e'tirof etiladi, ammo unga inson nigohi, e'tibori bilan qaralsa vaqt, zamon harakati seziladi. Demak, topoxronos inson omiliga borliq. (Shu yerda mental olam va undagi topoxronos, mental olam va real borliq munosabatlari, bu ikki mavjudlikning yaxlitligini ta'minlovchi topoxronos qanday, qay usulda namoyon bo'lishi hamda topoxronoslar tipologiyasi, topoxronos va badiy matn strukturasi, badiy anglam, topoxronos va konsept kabi masalalarni tadqiq etish kerakligi ko'rindi.) Topos va xronos mustaqil leksemalar sifatida qo'llanadi"

. Ko'rindiki, har qanday topoxronos tabiatida muhim ichki belgilar mavjud: unda qaysi davrning kayfiyati aks etishi bilan ham o'chanadi. Erkin Vohidovning aksariyat she'rlarida makoni kengliklar zamonning nashidasini surib yashayotgan obrazlarni tartiblashtiradi. U hajviy yo'sinda bo'ladimi, falsafiy-estetik jiddiy she'riyat tarzidami har birida o'z **makoni** va **zamonni** tadrijiy talqini namoyish qilinadi. yetakchi tendensiylar ayni shu masalalarni o'z ichiga qamrab olishi bilan belgilanadi.

Shoirning "No'noq shoirlar" she'ri o'sha zamon, o'sha makonda istiqomat qilayotgan davrning "ursang o'laman" deb, yoqa "mushtlab" yurganlariga bag'ishlangan bo'lsa ne ajab:

Biz bir zamon muharrir bo'ldik,  
Qismat ekan, bo'ldik noshirlar.  
O'lsak yomon she'rlardan o'ldik,  
Ado qildi no'noq shoirlar.

Qo'lyozmalar o'qirdik dil g'ash,  
Ko'rgilikdan ohlar urardik.  
So'zi chalkash,  
O'zi janjalkash  
She'rbozlardan qochib yurardik<sup>2</sup>.

Shoir "bir zamon muharrir bo'lganini" yengil mutoyiba, ichki iztirob bilan eslarkan, o'sha paytlari "janjalkash", "she'rboz"lardan rosa muzlam bo'lganini sog'inch bilan eslaydi. Kinoya qilinayotgan "no'noq shoirlar" Erkin Vohidovga katta saboq bo'lgani, ulardan ba'zi jihatlarni "yaxshi ma'no"da o'zlashtirganini, insoniy qiyofadosh bo'lgan zamondoshini eslaydi. Zamon – teskari aylanib, o'sha "no'noqlar" davraning to'riga chiqib olganini yana istehzo bilan kinoyalaydi. Chunki ulardan o'sha ittifoq davrida qochib yurgan. 80-yillarda "Yoshlik" jurnaliga asos soladi. Atrofiga kuchli shoirlarni, muharrirlarni to'plagan Erkin Vohidov adabiyot uchun katta ishlarni amalga oshiradi. She'r dan she'rning farqi bo'lganidek, so'zdan – so'zning farqini ajratishni o'zidan kichkina zamondoshlariga "nimtabassum"

<sup>1</sup> Йўлчиев К. ҳозирги ўзбек шеъриятида макон ва замон категорияси. Филол.фун.док.дисс. –Фарғона. 2021. –Б.128

<sup>2</sup> Вохидов Э. Табассум. –Т.: Алишер Навоий номид Ўзбекистон Миллий кутубхонаси. 2010. -Б.273.

bilan tushuntirmoqchi bo'ladi. Eslang: davr kimniki edi? U paytlar kim sobiq ittifoq davrini maqtal, qator va qator ash'orlar bitsa, o'shaniki bo'lgan. Erkin Vohidov "No'noqlar"dan istiqlolga kelib ham qutula olmaganligini chuqr kinoyaga, yumorga o'rabi tasvirlaydi. She'rnii o'qigan odam, agar u tirik bo'lsa, gap kim haqida ekanini darrov fahmlashi tabiiy. Negaki, she'nda biror kimsani nomi zikr qilinmaydi. Shoir umumiyl pafos bilan yondoshadi. Demak, "no'noqlar"dan ehtiyoj bo'lish ham farz, ham qarzligini zamondosh ijodkorga, unda haqiqiy talan, tajriba va iste'dod bo'lsa tushuntiradi:

Baxtni uyg'oq tunlardan so'ra,  
Bo'Ima kinu hasadga jo'ra.  
Yumaloq xat yozgandan ko'ra,  
She'r yoza ber, yozganing yaxshi.

Dunyo no'noq she'rga to'lsa ham,  
Munaqqidlar xunob bo'lsa ham,  
Didi nozik o'qib o'lsa ham,  
She'r yoza ber, yozganing yaxshi.

Zinhor-zinhor bu ishdan to'yma,  
Ishqibozlik umrning naqshi.  
Bizga o'xshab yozmasdan qo'yma,  
She'r yoza ber, yozganing yaxshi<sup>1</sup>.

She'rnинг keyingi bandlaridagi uchta bandda syujet shunday o'xshatishlar bilan yakunlangan. Aslida, davrning o'tishi bilan yangi-yangi ijodkorlar kirib kelishini alohida ta'kidlarkan, shoirni chuqr izzitirobga soladi. Istiqlol yillarda bu achchiq haqiqatni aytadi: "Bizga o'xshab yozmasdan qo'yma// She'r yozaber, yozganing yaxshi". Shoir sobiq ittifoq davridagi zamonasoz shoirlarni nazarda tutarkan, o'sha paytda qanchadan-qancha iste'dod sizlar minglab, millionlab she'r yozgan. Haqiqiy iste'dodlar esa o'sha paytda ham yashashi oson kechmagan. Mazkur she'rnii 2009 yilda yozgani va unda 60-70 yillar avlodida aralashib yurgan "no'noqlar" nazarda kinoyaga olinadi. "**Biz bir zamonlar...**" deb boshlangai she'rida o'sha kayfiyatni keltirib chiqarmoqda. Dunyoda so'zga, ilhomga, iqtidorga tayanib so'z aytish hammaning ham ilkidan, qurbi-idrokidan keladigan ish emas. Chunki zamon o'sha "so'zni sevadiganlarga", so'z qadrini biladiganlargagina omad tuhfa etishini sinovli yillar tegrasidan o'tgan ijodkorgina yaxshi fahmlaydi. Hajv o'z-o'zidan qilinmaydi. Undan ijtimoiy-falsafiy maqsad ham, ma'no ham qo'ylishi kerak. Shundagina shoir o'z ijodiy konsepsiyasini amalga oshirgan bo'ladi.

Turkiyalik olim **Veli Savas Yelok** "Erkin Vohidov she'rlarida til va uslubiy xususiyatlari" nomli doktorlik dissertatsiyasi tadqiqotini olib boradi. Ish Anqarada 2007 yil tadqiq qilingan. Veli Savash yelo'q tadqiqotning xulosa qismida quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratganligi fikrimiz yorqin dalilidir: Izlanuvchining tadqiqot oxirida chiqargan ushbu xulosasi e'tiborni tortdi: "Erkin Vohidovning hayoti yashagan davri kabi turli hodisotlarning ta'siri ostida qolgan. Ikkinci jahon urushining mashaqatli kunlari, Sovet hukumatining istibdodiy boshqaruv tushunchasi, qayta qurish va oshkoraliq davri va bu davrdan keyin mustaqil O'zbekiston davlatining tashkil topishi davrini shaxsan boshdan o'tkazgan Erkin Vohidovning so'z boyligi dunyosi mana shu davrlardagi ijtimoiy va siyosiy hodisalarni aks ettiriradi. Shu bois haqiqiy qiymatlari matnnning ichida ekani bilan birga dramatik va tragik o'xshashliklar bilan falokat va umidsizlik atmosferasining nishonasi mohiyatida bo'lgan so'zlarning ko'tarinkilik darajasi e'tiborni jalb etadi. Qo'llagan so'zlari bilan shaxs sifatida dramatik idrokni namoyon etgan shoir falsafiy qarashlari bilan lirikani bir-biriga ularsga intiladi. Erkin Vohidovni qanchalik ishq va muhabbat shoiri deyish mumkin bo'lsa, shunchalik fikr va qarash, huriyat va xayolot shoiri ham deyish mumkin"<sup>2</sup>. Ko'rindaniki, fikr va qarash, xayolot bilan bir paytning o'zida dunyoga qalbidagi ezgu shuuri – muhabbatini ham qo'shib izhor qilish bilan hajviy yo'sinda borligni bildirgan ijodkorning tutumlari baland edi. Chunki u borliqqa ana shu balandlikdan turib yondoshardi. Zamonning og'riqlarni goh mahzun qabul qilsa, goh quvnoq tarzda ifodalar, undan hamisha zavqlanardi. Mana shu jihatlari bilan Erkin Vohidov she'rlarida hajviyaning, yumorning ikki davr oralig'ida shakllangan, ayniqsa, 70-80-yillardagi "haybarakallachilik" "kommunizmga bir qadam" tarzidagi hayqiriqlar orasida o'z "men"ini qayta kashf qilib ulgurbaniga tassanno aytish lozim. Axir, ozmi-ko'pmi o'sha davrning – yolg'onlari tagida kechgan umr, sobiq sho'ro siyosatining iroda va ruhga, e'tiqod va denga qaratilgan g'ayritabbiy urinishlarini ich-ichidan his qilgan va mudomi yaxshilikni kuylagan.

**Dramatik dostonda badiiy xronotop va hajviy-parodik usul talqini.** Abdulla Oripov she'rlarida **zamon va makon** talqini haqida gap ketganda ham shunday munozarali o'rnlarga duch kelamiz. "Asar majoz usulida yozilgan.

<sup>1</sup> Вохидов Э. Табассум. –Т.: Алишер Навоий номил Ўзбекистон Milliy kutubxonasi. 2010. -Б.274.

<sup>2</sup> Эркин Вохидов хаёти ва ижоди замондошлари хотирасида. –Т.: "Ўзбекистон". 2018. –Б215.

“Hasharot” jurnali, “Ranjkom” tashkiloti, Rais, Birinchi a’zo, Ikkinci a’zo, Farrosh ayol, Savdoysi olim, G’oz ko’targan chol – bularning barchasi o’tkir istehzo bilan yo’g’rilgan. Syujetda epik voqyealar silsilasi yetakchilik qilmaydi. Shoir ezop tilidan foydalanib, jamiyatda hasharotdek parazitlik bilan kun kechirib yurgan zararkunandalarning basharalarini olib tashlaydi<sup>1</sup>. Darhaqiqat, mazkur doston epik vaqt zamona ozslikka moslashib olganlarning ham asl yuziga parda tortib olib, aysh-ishratda kun kechiradigan odamlarni talqin qildi.

“Ranjkom” dramasida sarkazm va kuchli ironiya yorqin ranglarda namoyon bo’ladi. Abdulla Oripov hajviy she’rlarining aksariyatida ironiya, sarkazm, zaharxanda kuchli ekanini ko’ramiz. Bu xususiyat qahramon nutqi orqali fosh etish ruhi ustuvorligida namoyon bo’ladi. Bu esa shoir uslubining yetakchi xususiyatlaridan biri ekanligini ko’rsatadi. “Ranjkom” dramasida shoir o’zini ko’rsatmaydi, so’zni qahramonning o’ziga berib qo’yadi. Bu usulning ham bir qator afzalliklari bor: hajviy qahramon o’z nutqi bilan o’zini fosh etadi va o’quvchining kulgisiga sabab bo’ladi ammo, kulgiga qolganini sezmaydi; so’z tejalib, ixchamlik yuzaga keladi; shoir o’zining ijtimoiy hayotga, davr illatlariga qarshi sub’ektiv fikrlarini yashiradi, ularga qahramon ko’zi bilan qarab baho berish imkoniyatiga ega bo’ladi. Dramada qayta qurish va oshkoraliq okoplari kirib olib, o’z manfaatlari yo’llida baqirib-chaqirib yuruvchi amaldorlar, sharoitga moslashuvchi xudbinliklar qoralanadi. Unda hayotimizdagagi barcha manfiy hodisalar olib tashlanadi.

Doston chop qilinganida mustaqillik ostonasida turgandi Vatanimiz. O’zi haqli ravishda ta’kidlaganidek, o’zbek xalqining bo’linib yashashlaridan juda to’ygandim, shu ma’noda doston yozishga kirishdim va buni uddaladim deydi<sup>2</sup>. Dostonning har xil hashorotlar nomi bilan atalishi yuksak mahorat belgisidan nishona. Dramatik dostonda yengil humor va istehzoli kulgi o’quvchi diqqatini o’ziga tortadi. Dramatik doston voqyealari o’tgan zamonalarda bo’lgandek taassurot uyg’otsa-da, unda shoirning ichki bir kuyinishlari shunodq sezilib turadi. Zamon va makon “sirl” pardalar bilan o’ralgan. Asarda 6 ta qahramon ishtirok etadi. Raisning o’zlarini qolganlar ma’qullab, “xo’pxo’p” deb turadi. Buni hyech inkor qilib bo’lmas darajada, tashkilot a’zolari bir-biriga bog’lanib ketadiki, ularning har bir gapi bir yerdan chiqishi o’quvchini asar syujetiga maftun qilib qo’yadi. Tashkilot Raisiga shu qadar boshqa a’zolar savol beradiki, Rais juda katta aql biran o’ylab javob beradi. Bola haqidagi ikkinchi a’zoning fikrlarini tahlil qilganda masala mohiyati yanada oydinlashadi:

Ikkini a’zo

G’oyat teran fikrlarni aytdingiz ammo,  
Menda jindek sarosima uyg’ondi, taqsir.  
Yosh bolani ranjitmoqchi bo’lsak mabodo,  
Ne qilaylik? Uray desak, u go’dak axir.  
  
Rais  
Tashvishlanmang, o’ylaganmiz bu muammoni,  
Yosh bolalar masalasi ancha jo’n, oson.  
Ko’cha-ko’yda bir jujuqni uchratgan oni,  
Boshginasin silab qo’ying, bo’ling mehribon.  
Otasining kimligini so’rang, albatta.  
Shirinlikda novvot bilan asaldan qayting.  
Gap so’nggida baqrayingu, bolaga shartta:  
Sening otang tamom boshqa odam, deb ayting.  
Ana endi tomoshaning zo’ri chiqadi,  
Uyga borgach, eshitganin aytadi bola.  
Har qandayin erakni ham shubha yiqadi,  
Qolgan gaplar ko’rib sizki, sudga havola<sup>3</sup>.

Tashkilot Raisi va Ikkinci a’zo orasida bo’lib o’tgan qisqa muloqot, dostonning poetik mohiyatini oydinlashtiradi. Dramatik doston qahramonlari hammani ranjitib “kun ko’rish” asl shiori ekanligi namoyon bo’ladi. Oddiy bolani ranjitib ham butun bir oilani parokanda qilib yuborish, g’iybat va hasad esa insonni ma’nan jarlikka olib kelishi talqin qilingan. Raisning aql berishicha, oilani bo’lib yuborish uchun bolaga “Otang boshqa odam” deb aytishning o’zi yetarli ekanligida qabarib ko’rinadi. Abdulla Oripov dostonda rajama-daraja ko’chish matritsasini qo’llaydi. Bemorni ham – rak bo’ling deyish bilan uni o’ldirib yuborish, tirik murdaga aylantirish mumkin degan g’oyani o’z qahramonlari tilidan bayon qiladi. Bu millatning xarakteriga aylanib ketishi yomon odat, voz kechishimiz zarur bo’lgan illat deb biladi shoir. Uydan chiqayotganda deydi rais: “Ranjitmoq uchun niyatlanib chiq” deydi. Ana shunday falsafiy-parodik usul, doston arxitektonikasini belgilab beradi. Dunyoda razil odamlar ko’p nihoyatda. Ulardan yiroq yurish

<sup>1</sup> Фаниев И., Афоқова Н. Озод рух фалсафаси. – Тошкент: Фан , 2006. – Б.121.

<sup>2</sup> Абдулла Орипов. Ранжком. Шарқ юлдузи. №1. 1989. 2 бет.

<sup>3</sup> Орипов А. Танланган асарлар. –Т.: “F.Фулом номидаги нашириёт ижодий матбаа уй”. 2001. –Б.348.

muhimligi dostonning tarbiyaviy ahamiyatini namoyish qiladi. Zamon kengliklarida makoniy kategoriya “Ranjkom” kompozitsiyasida alohida bo‘g‘inni tartiblashtiradi.

Abdulla Oripovning “Ranjkom” dramatik dostonida satirk satirk ruh XX asr boshlaridagi Cho‘lpon, Behbudiy, Hamza, Fitrat, Qodiriy kabi dramaturglarning an‘analari ruhida yozilgan bo‘lishiga qaramay shoirning baquvvat uslubi o‘ziga xoslik kasb etgan. “Demak, zamonaviy o‘zbek dramasining maydonga kelishi, bir tomonidan jahon dramaturgiyasida kechgan ijtimoiy-madaniy, badiiy-estetik jarayonlar bilan, ikkinchi tomonidan XX asr boshida Turkiston (O‘rta Osiyo) xalqlari hayotida ro‘y bergan ijtimoiy-siyosiy evrilishlar oqibatida tug‘ilgan ma’naviy, badiiy va g‘oyaviy ehtiyojlar bilan bog‘liq. Binobarin, drama janri tarixi haqida so‘z yuritilganda, asosan, yevropa dramaturgiyasiga murojaat qilishimizning sababi ham hozirgi o‘zbek dramasining ildizlari ayni manbalarga borib bog‘lanishini ko‘rsatishdir”<sup>1</sup>. Darhaqiqat, dramatik dostonlarda ham davrning “qaltis” vaziyatlari hajviy-parodik, kinoya, sarkazm bilan inkishof qilingan. Erkin Vohidov, Abdulla Oripov dramatik dostonlarida hajviy obrazlar bugungi kunda ham o‘quvchilar e’tiboridan, kitobxonlar markazida bo‘lib kelmoqda. “Ranjkom” dagi kulgilii o‘rinlarni shoir o‘zining yashab turgan muhitida boshidan o‘tkazgan. Bir-birini sotishlar, xiyonat, mehr-shafqatning yo‘qligi deb idroklamoqda.

Shoirning satirk mazmundagi she’rlari mustaqillikdan keyingi yillarda ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlarni, o‘zgarishlar jarayonida insonlar xarakterida shakllangan illatlarni ko‘rsatib, ularni bartaraf qilishga qaratilgan bo‘lsa, uning yumoristik she’rlarida esa hayotdagi birorta nuqsonli holatdan yengil kulish bilan unga ishora qilinib, undan ozod bo‘lishga undaladi. Bu unsurlar shoirning mustaqillikdan keyingi ijodida ham o‘ziga xos bo‘y ko‘rsatadi.

Shoir butun ijodi davomida kuchli satirk asarlar bilan qatorda shoir o‘z ta‘biri bilan aytganda, 30 ga yaqin “hazil”lar ham yaratgan Abdulla Oripov hajviyotida turli adabiy janrlar (ballada, rivoyat, qissa, to‘rtlik), voqeaband hazillar, hazil she’rlar ko‘plab uchraydi. Shoir ba‘zan jiddiy she’rlarida ham kulgi chiqaruvchi unsurlarga e’tibor qaratib, satiraning kuchiga urg‘u beradi. Barcha janrlar va shakllar shoir hajviy tafakkurining turli darajada, turli bo‘yoqlarda namoyon bo‘lishini ta‘minlashga xizmat qilgan.

Umuman, XX asr o‘zbek she’riyatining atoqli shoirlaridan Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, O.Matchon, Anvar Obidjon lirkasidagi hajviy she’r modifikatsiyasi yangi davr adabiyotidagi o‘ziga xos halqani qamraganligi bilan xarakterlidir. Millat dardu tashvishlari, eng muhimmi istiqlolga tashn bo‘lgan damlaridagi iztiroblar sistembutunlik kasb etib, yangi-yangi syujetlarda, shakllarda namoyon bo‘ldi. Insonki bor, hamisha og‘riqlar, iztiroblar qurshovida umr kechiradi. Hamisha bir maromda kechadigan umr emas bu. Shunday ekan, insoniylikning eng muhim fazilati yuqoridagi nomlari zikr qilingan ijodkorlar asarlarida yanada yaqqol ifoda qilinishi ayni haqiqatdir. Erkin Vohidov va Abdulla Oripov she’riyatidagi zamon va makon ifodasi hajv qilinayotgan motivlarni aniqlashda, ularning mohiyati aks etgan ma’noni idroklashga yo‘naltirilgan. Mazkur birliklar sistemasi badiiy xronotop qiymatini dalolatlaydi. Eng asosiysi, insoniy munosabatlar tig‘iziligi, dard va og‘irqlarni yengib o‘tishga yo‘l ochadi. Kulgi zamiridagi ziddiyat esa davr nafasini teran fahmlashga yo‘naltiriladi.

#### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Yo‘lchiev Q. hozirgi o‘zbek she’riyatida makon va zamon kategoriysi. Filol.fan.dok.diss. –Farg‘ona. 2021. –B.128
2. Jo‘raqulov U. Nazariy poetika masalalari. –T.: “G‘.G’ulom nomidagi nashriyot ijodiy-matbaa uyi”. 2015. –B.43.
3. Yo‘ldoshev Q. So‘z yolqini. –T., “G‘.G’ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti”. 2019. –B.31.
4. Quronov D., Rahmonov B. G‘arb adabiy-tanqidiy tafakkuri ocherki. –T., “FAN”. 2008. -B.55.
5. Nazar Eshonqul. Mendan “men”gacha. –T., “Akademnashr”. 2014. –B.185.
6. Obidjon A. Gulmat Shoshiyning yovvoyi devoni. –T., “Sharq”. 2003. -B.12.
7. Quronov D. va bosh. Adabiyotshunoslik lug‘ati.–T., “Akademnashr”. 2010. –B. 139-140.
8. Homidiy H., Abdullaeva Sh., Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1970. – B.308.
9. Yo‘ldoshev Q. So‘z yolqini. T., “G‘.G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”. 2018. –B.258.

<sup>1</sup> Жўракулов У. Назарий поэтика масалалари. –Т.: “F.Фулом номидаги нашриёт ижодий-матбаа уйи”. 2015. –Б.43.

## “HASHT BEHISHT” VA “MAJOLIS UN-NAFOIS” TAZKIRALARINING QIYOSIGA DOIR

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o’zbek va turk adabiyotida keng tarqalgan tazkira janri va tazkirachilik an’anasi xususida fikr yuritiladi. Xususan, tazkirachilik an’anasi salmoqli o’ringa ega bo’lgan Mir Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” hamda Saxiy Beyning “Hasht behisht” (“Sakkiz jannat”) asarlariga diqqat qaratamiz. Har ikkala asarning o’ziga xosliklari va tafovutlarini tahlilga tortamiz.

**Kalit so’zlar:** tazkira, tazkirachilik an’anasi, shoirlar, anjuman, behisht, majlis, qiyos, tahlil, tafovut.

Tazkira milliy va o’zaro yaqin adabiyotlar tarixini yaratishda, muayyan davr adabiy muhitini o’rganishda, alohida adabiy siymolar, tarixiy shaxslar va ularning asarlarni tadqiq etishda adabiyotshunoslikning benazir janri sifatida xizmat qiladi.

Alisher Navoiy temuriylar davridagi madaniy hayotni muntazam kuzatib borgan, fan, adabiyot va san’atni rivojlantirishga bel bog’lagan buyuk mutafakkir sifatida o’z davridagi ijod ahli bilan bog’liq ma’lumotlarni bir majmuuga birlashtirish, ularning xotirasini abadiylashtirish maqsadida 1490-1491 yillarda o’zbek tilida «Majolis un-nafois» tazkirasini yaratishga kirishadi. Asarning qo’lyozma nusxalaridagi turli tafovutlar mualif 1498 yilgacha undagi ma’lumotlarni o’zgartirib borgani, ayrim o’rnlarni qayta to’ldirganini ko’rsatadi. Shu ma’noda Navoiy ushbu asarini 1491 – 1498-yillar davomida yaratgan deyish to’g’riqoq bo’ladi.

Tazkiranada XV asrda yashab faoliyat yuritgan 459 shoir haqida ma’lumot keltiriladi. Alisher Navoiy tazkiraning muqaddimasida asarning tarkibiy qismi va nomlanishi haqida shunday yozadi: «....chun bu maqsudg’a yetildi, oni sekkiz qism etildi, har qismi bir majlisg’ा mavsum bo’ldi va majmuig’ा «Majolis un-nafois» ot qo’yildi».

Navoiy tazkiranadagi majislarga shoirlarni taqsimlashda xronologik, geografik va sulolaviy tamoyil (printsip)larga tayanadi. Masalan, birinchi majisdagi shoirlarning tazkira tuzilayotgan vaqtida hayot bo’limganliklari, ikkinchi majlisda keltirilgan shoirlarning faoliyati mualifining ko’proq bolalik paytiga to’g’ri kelishi, uchinchi majlisning asosan zamondosh shoirlar haqidagi ma’lumotlarni o’z ichiga olishi, beshinchi majlisda Xuroson, oltinchisida Samarqand, Xorazm, Qarshi, Badaxshon va boshqa shaharlardan chiqqan qalam ahllari haqida so’z ketishi, yettinchi va sakkinzinchi majislarning asosan temuriylar sulolasiga mansub ijod ahliga bag’ishlanganligi fikrimizni dalillaydi. Shundan kelib chiqib, tazkiranadagi shoirlar majlis, ya’ni qismlarga quyidagicha taqsimlangan: 1-majlisda 46 ta, 2-majlisda 91 ta, 3-majlisda 175 ta, 4-majlisda 72 ta, 5-majlisda 21 ta, 6-majlisda 31 ta, 7-majlisda 22 ta va 8-majlisda Husayn Boyqaro bilan bog’liq ma’lumotlar keltirilgan.

«Majolis un-nafois» Navoiyning hayoti va faoliyatini o’rganishda ham muhim avtobiografik manba hisoblanadi. Tazkira orqali shoirning qaysi hududlarda bo’lgani, kimlar bilan uchrashgani, ustozlari, do’slari, yaqin kishilari, hamsuhbatlari, qarindoshlari, farzandi o’rnidagi shaxslar va h.k. haqida ma’lumot olish mumkin.

Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” asarining ta’siri haqida professor Mustafo Eson shunday yozadi: “Hazrat Alisher Navoiy boshqa ko’plab tazkiralarga namuna bo’larlik asar yaratgani bilan ahamiyatlidir... Muhimi, tazkiralarning Onado’lida paydo bo’lishiga ta’siri, ya’ni bu tazkiralarga andozalik vazifasini bajarishidir.

Ushbu e’tirofdan kelib chiqib mavzuga yondoshilganda Onado’lida yaratilgan ilk tazkiralarni sifatida Saxiy Bey (1548)ning “Hasht behisht” (“Sakkiz jannat”, 1538) asariga diqqat qaratamiz.

“Tazkirayi Saxiy” nomi bilan ham tanilgan “Hasht Behisht” ham sakkiz majlsidan iboratdir. “Hasht Behisht”ning har bir majlisining boshida kirish izohi mavjud va oxirida “tavsif” qismi mavjud. Arab adabiyotidagi an’ananing davomi bo’lgan ushbu tizimda majislars forsiy raqamlar bilan nomlangan. Asardagi sakkiz majlisning tarkibi quyidagicha: 1-qavat Sulaymon Buyuk uchun ajratilgan. Ikkinci qatlama Sulaymon podshohga qadar she’r yozgan sulton va shahzodalar tasvirlangan. Ularning umumiy soni oltita.

3-qavatda vazir, xazinachi, otishmachi, bek kabi davlat arboblari orasidan she’r yozadiganlar bor. Bu qatlamdagagi shoirlar soni asarning ma’lum bo’lgan o’n sakkiz nusxasida yigirma oltidan yigirma sakkiztagacha o’zgarib turadi.

4-qavat ulamolar tabaqasidagi shoirlar uchun ajratilgan. Saxiy Bey, ulamolarning yuqori martabalari tufayli ularni alohida qatlama ko’rib chiqish kerakligini va bu borada Hz. U payg’ambarning “Ummatimning ulamolari Bani Isroil payg’ambarlariga o’xshaydilar” hadislariga asoslanadi. Bu qatlamdagagi shoirlar soni qo’lyozmalarda o’n yettidan o’n sakkizgacha bo’ladi.

5-qavatda esa Saxiy Bey tarjimai holini yozganda hayotda bo’limgan o’ttiz uchta shoir tasvirlangan. 6-qavat tazkiraning eng keng qismidir. Bu qatlamdagagi shoirlarning bir nechasi bilan shaxsan uchrashdi, ularning soni turli nusxalarga ko’ra ellik oltidan oltmishgacha o’zgarib turadi.

Mualif 7-qatlamni ko’pchiligi shaxsan o’zi tanigan zamondoshlari uchun ajratgan va “Zikrü’n-niso” sarlavhasi

ostida Zaynab Xotun va Mihriy Xotun ismli ikki shoir ayolni ham kiritgan. Bu qatlamdagи shoirlar soni nusxalarda o'ttiz yettidan o'ttiz to'qqizgacha o'zgarib turadi. 8-tabaqa esa ismlari endigina eshitila boshlagan va Saxiy Bey iste'dodli deb topadigan yosh shoirlardan iborat. Bu bo'limdagi shoirlar soni nusxalariga qarab qirq uchdan qirq to'qqiztagacha bo'ladi.

Hesht Bihisht'da avval shoirning ismi, agar otasi taniqli shaxs bo'lsa, otasining ismi, ayrim hollarda kimning shogirdi bo'lganligi, qaysi mazhabga mansubligi, ma'lumoti va kasbi aytildi, so'ngra uning shaxsi va she'rlari ko'rsatiladi. baholanadi, ba'zan asarlarining nomi ham beriladi. Shoirlarning tug'ilgan va vafot etgan sanalari qayd etilmagan, faqat ba'zilarining yosh yoki qarilik chog'ida vafot etgani aytilib, so'ngra har bir shoirning she'rlaridan bir necha misralar keltirildi.

Ruhoniying shoirlar haqidagi ma'lumotlari odatda qisqa va ko'pincha to'liq emas. Ba'zan sahifada to'rt yoki beshta shoirning hayotini uchratish mumkin. Ijodkorning shoirlar haqida bergan ma'lumotlari odatda qisqa va ko'pincha to'liq emas. Ba'zan bir sahifada to'rt-besh shoirning hayotini uchratish mumkin. Bu, asosan, sakkizinchи qismidagi shoirlarga tegishli. Muallif o'z davrining ba'zi shoirlarini o'z xotiralariga kiritmagan bo'lsa, ikkinchi tomonidan, o'zining zamondoshi bo'lmagan, lekin yoshi kattalardan ma'lumot olgan shoirlar haqida muhim ma'lumotlar bergan.

Xulosa o'rнida shuni ta'kidlash joizki, Mir Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" va Saxiy Beyning "Hasht bihisht" ("Sakkiz jannat") tazkiralari o'sha davrdagi adabiy muhit, ijtimoiy-siyosiy vaziyat hamda ko'pgina ijodkorlar, ularning ijodlari haqida qimmatli ma'lumotlarni beradi. Bu tazkiralar nafaqat oldingi davr, balki bugungi kun uchun ham ahamiyatlidir

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oybek. Navoiynig "Majolisun nafois" asari hakida. –Toshkent, 1979. – 215 b.
2. Rustamov A. Navoiyning badiй maxorati, –Toshkent, 1979. – 215 b
3. Xayitmetov A. "Majolisun nafois" haqida ba'zi mulohazalar. // O'zbek tili va adabiyoti masalalari. –Toshkent, 1958. №1.
4. G'aniyeva C. "Majolis un-nafois" asariga tayyorlagan ilmiy-tanqidiy matn. –Toshkent: Fan, 1966. – 176 b.
5. G'aniyeva S. "Majolis unnafois"ga izoh va tarjimalar. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. 13 tom. – Toshkent: Fan, 1997. – 242 b.
6. G'aniyeva S. "Majolis un-nafois" haqida yangi ma'lumot. // Buyuk va muqaddassan, mustaqil vatan (to'plam). T-2011. – 215 b.
8. Isen M. Tezkireden Biyografiye. – Istanbul:Kapi Yayınları, 2010. S.51-52.9.
9. Hast-Behist. Haz. Gunay Kut. — Harvard,1978. S. 77.

**Shahnoza Yuldasheva,**  
teacher of school No, 20, Ishtikhan district  
**Fakhritdin Yakubov,**  
teacher of Kattakurgan branch of  
Samarkand State University

## THE ROLE OF NON-VERBAL COMMUNICATION IN “EFL” (ENGLISH AS A FOREIGN LANGUAGE) CLASSES

**Annotatsiya.** Maqolada EFL darslarida o'qitish samaradorligini oshirish uchun og'zaki bo'lmagan muloqot usullaridan foydalanish yo'llari haqida fikr yuritilgan. Bu masala yuzasidan g'arb olimlarining fikrlari o'rganilgan va og'zaki bo'lmagan muloqotni dars jarayionida qo'llashning foydalı tomonlari haqida xulosalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** og'zaki bo'lmagan muloqot, dars, masofa, yuz ifodasi, ishoralar, hissiyot.

**Abstract.** The article reflects on ways to use nonverbal communication techniques to improve the effectiveness of teaching in EFL classes. The opinions of Western scholars have been studied on this issue, and conclusions have been made about the benefits of using non-verbal communication in the course process.

**Keywords:** non-verbal communication, lesson, distance, facial expression, gestures, emotion.

**Аннотация.** В статье рассматриваются способы использования методов невербальной коммуникации для повышения эффективности преподавания на занятиях EFL. Были изучены мнения западных ученых по этому вопросу, и были сделаны выводы о преимуществах использования невербальной коммуникации в процессе обучения.

**Ключевые слова:** невербальная коммуникация, урок, дистанция, выражение лица, жесты, эмоции.

Non-verbal communication—which significantly increases the influence of oral speech - is the language of emotions, a product of the social development of a person, non-verbal language (gestures) covers not only oral characteristics (voice, timbre, tempo of speech). It also includes movement style, restraint, dress style, including hairstyles, looks, and clothing. It helps to mutually understand the gesture of non - verbal speech-reading language, interlocutor.

Learning a foreign language, namely English, as a second language during primary school is beneficial for students, as these young students have a great opportunity to learn and understand new knowledge. Elementary school students are able to easily process clear, meaningful, visual information due to their vitality and activity. It is inappropriate to lecture in elementary school classes, because young students have the ability to imitate, and they love acting. Therefore, it is permissible for English teachers of the primary class to take into account the cognitive and physiological characteristics of their students and apply an effective teaching strategy, that is, non-verbal speech. Nonverbal communication is the process by which a communicator, using his natural properties, conveys information to another communicator and instinctively gives a specific meaning [3]. It is of great importance in the EFL (English as a foreign language) class of primary school. For example, it can contribute to the reader's understanding and memory of vocabulary, sentences, and dialogues. There are 3 branches of non-verbal communication: 1) parallel language 2) proxemics and 3) kinesthetics.

According to Brown and Easterhold, parallel language is associated with the use of such devices as pitch, pitch and speed of voice during speech [11]. This can clearly demonstrate our feelings. For example, when we want to say "*I don't get furious*", "*Men achchig'lanmayman*" change our loudness, or draw the word — "No", it can convey a variety of emotional messages. Proxemics, this is a means of correct remote use when communicating with others, and we divide it into 4:

(a) the intimate distance between touch and 18 inches, often used among close family members or closest friends;

- b) personal friendship, from 18 inches to 4 pounds, often used among ordinary friends or teachers and students;
- (c) social distance from 4 to 12 pounds is often used in jobs;

(d) Public distance, more than 12 pounds, and this is used in formal ceremonies, such as lecture halls. The distance between the teacher and the students is often a personal distance. If the teacher approaches the student closely from the distance in the classroom, it means that often the teacher wants to convey something, for example, to focus the student's attention on reading. The third type of non - verbal communication is kinesthetics. Kinesthetics is a science that studies body movement and includes gestures, posture, mimicry, and eye contact. According to Neil, the use of sign language is an important element in the learning process, which is the expression of meaning through position, facial expression and gestures between students and teachers [7]. Photography, facial expressions and gestures can be called kinesthetics. It is an important type of nonverbal communication and plays an important role in teaching and learning English. Language learning using non-verbal communication in EFL (where English is learned as a foreign language) classes is of critical importance to the development of a foreign language by young learners. This will help students better understand and remember new knowledge. In addition, it encourages students to better understand teachers' instructions and opinions. Through this, it is possible to improve the effectiveness of learning and teaching [5].

Many teachers ignore the importance of non-verbal communication and the lack of intensive reading. In addition, some teachers even misuse body parts when using this communication. For example, when one teacher said to students - "listen" - he raised his index finger in front of his lips, instead of referring only to his ear. Raising the index finger up, as a rule, in Uzbek-means "one", which can confuse students. Therefore, it is necessary that we attach great importance to this situation and understand how to properly use sign language in EFL ( where English is studied as a foreign language) classes.

Many teachers ignore the importance of non-verbal communication and the lack of intensive reading. In addition, some teachers even misuse body parts when using this communication. For example, when one teacher said to students - "listen" - he raised his index finger in front of his lips, instead of referring only to his ear. Raising the index finger up, as a rule, in Uzbek-means "one", which can confuse students. Therefore, it is necessary that we attach great importance to this situation and understand how to properly use sign language in EFL ( where English is studied as a foreign language) classes.

As we noted above, elementary school students are able to easily process clear, meaningful, visual information because of their vitality and activity, and it is inappropriate to lecture in these classes [10]. Therefore, English teachers of the primary class should take into account the cognitive and physiological characteristics of their students and use an effective teaching strategy, that is, non-verbal speech.

Nonverbal speech has functions of communication substitution, emphasis, complement, and regulation. It also

plays an important role in the EFL (English as a foreign language) classes of primary schools.

First, it can help elementary students to better understand and acquire new knowledge. For example, when teachers teach first-stage students vocabulary terms about body parts, they determine the pronunciation of words and point out the corresponding parts of their own bodies instead of telling the meaning of words in other words. It is also very effective to teach verb and verb phrases to students in nonverbal communication.

Total Physical Response (TPR) is an effective teaching method in EFL (English as a foreign language) classes of primary schools. The TPR (general physical response) proposed by James Eysher is a form of training based on language and physical movement coordination [1]. In TPR (general physical response), teachers instruct their students in the target language and students must perform the appropriate action. By repeating words and related actions, children can establish interdependence in their minds. For example, when teachers teach their students – the meaning of the phrase “lock the door” - appropriate actions can be performed with a key in the classroom. This is more accurate and effective than oral explanation. Then students can repeat the phrase “lock the door” and perform appropriate actions.

Second, sign language helps students better understand teachers' instructions and opinions. According to Golden-Midov and Singer, it is often easier for listeners to understand the message conveyed in the speaker's words when the message is conveyed by gesture [4]. Bayva Mekhrabian proposed that non-verbal speech is a replacement for one of the 6 functions of communication [2], [6]. Sometimes, from nonverbal behavior, people can understand what others want to say. For example, when a student is thinking about how to answer a question, other students may also want to share what they know, and this situation can distort students ' opinions. At this time, the teacher can put his index finger on his lips to tell other students that they need to be silent. This is better than verbal instruction, since the words of the teacher can interfere with the student's thinking.

Thirdly, nonverbal communication will assist teachers in regulating the classroom environment. For example, teachers can promote a positive classroom environment with smiles, quick speech, and exaggerated actions, and encourage students. When students are introverted, shy, or afraid to answer questions, teachers can encourage them by smiling, nodding, looking at concentration, and leaning forward to alleviate their fears and show interest in their ideas. Touch is also a way to alleviate students ' problems.

In conclusion, nonverbal communication can help teachers teach knowledge and manage classes. The effectiveness of learning and teaching can be improved if teachers are able to properly use nonverbal communication in their classrooms. Teachers often lack the awareness of using nonverbal speech media and do not use guidelines that support the meaning of their language. They may also use an inappropriate tempo or use nonverbal cues with excessive [8]. This means that teachers, especially novice teachers, do not have the knowledge and training necessary to incorporate non-verbal communication into their course process.

#### Bibliography

1. Eysher James. TPR (general physical response) method in second language acquisition. - Journal of modern language, 1969.- 53, 3-17b.
2. Mr. Zhivan. Intercultural non-verbal communication. Beijing, China: Foreign Language Teaching and propaganda press., 1999.
3. Ekmen Paul. Emotion in human form. New York, NY: Cambridge University Press. ,1982.
4. Golden-Midov S., & M.A.Singer. From children's hands to adults ' ears: developmental psychology in sign teaching and learning, 2003.-39, 509-520.
5. Guan, Yangxiang. Non-verbal communication and teaching English at the college. Jing Ji Shi, 2004.-02, 90-91.
6. Mekhrabian, Albert. Nonverbal speech. Chicago, IL: Aldine-Atherton. , 1972.
7. Neil S.R. Non-verbal in the classroom. New York, NY: Routledge.1991.
8. Stamatis P.J. Nonverbal communication in classroom interactions: pedagogical perspectives on retention. Journal of electronic research in educational psychology, 2011.- 9 (3), 1427-1442.
9. Water Dew. Majud situational studies on the non - verbal behavior of an English teacher in elementary school. Sichuan University, 2015. <http://cdmd.cnki.com.cn/Article/CDMD-10636-1015373341.htm> derived from
10. Zhou Kwian. Initial study of embodied strategies for teaching elementary school English. Jiangnan University, 2013. <http://cdmd.cnki.com.cn/Article/CDMD-10295-1013242186.htm> taken from 11.
11. Brown Stephen and Jodie Eysherehold. Topics in the language and culture for teachers. University of Michigan Press, [c] 2004 .-211 p.

**Surayyo Tursunova,  
Farzona Mirzayeva,**  
*Shahrisabz davlat pedagogika instituti  
Ijtimoiy fanlar fakulteti  
Jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalari*

## MILLIY O'YINLAR – MILLATNI ULUG'LAYDI

**Annotatsiya:** Ushbu maqola milliy harakatli o'yinlarning qay tariqa vujudga kelgani va rivojlanganligini qisqacha ko'rsatib beradi. Mustaqillik sharofati tufayli jismoniy tarbiya va sport sohasida keng istiqbollar ochilmoqda, bu ayniqsa, xalq milliy o'yinlari va mashqlari, sport turlari bo'yicha o'tkaziladigan jismoniy tarbiya darslaridir. Ularni o'quvchilarga doimiy va muntazam qo'llash yaxshi natija bermoqda, yoshlarni sog'lom, baquvvat, chaqqon kuchli qilib tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qilib keladi. Ushbu jarayonda tariximizdan meros bo'lib qolgan o'zbek xalq harakatli o'yinlarini hayotga tatbiq etishga kengroq yo'il ochib berilishi, uni ommaviy tus oldirilishi, oilada, maktabgacha tarbiya va bayramlarda uni tashkillashtirishi, o'sib kelayotgan yoshlar tarbiyasiga ijobji ta'sir ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Xalq o'yinlari, ot choptirsh, Algomish, Chillak, qadimgi davr, qilichbozlik, nayzabozlik.

**Abstract:** This article briefly shows how national action games were created and developed. Thanks to independence, wide prospects are opening up in the field of physical education and sports, especially the national games and exercises of the people, and physical education classes held in sports. Their constant and regular application to students gives good results, it serves as an important factor in raising young people to be healthy, energetic, agile and strong. opening a wider way to its implementation, publicizing it, organizing it in the family, preschool education and holidays, has a positive effect on the education of the growing youth.

**Keywords:** Folk games, horse racing, Algomish, Chillak, ancient times, fencing, javelin.

**Аннотация:** В данной статье кратко показано, как создавались и развивались национальные экшн-игры. Благодаря независимости широкие перспективы открываются в области физического воспитания и спорта, особенно национальных игр и упражнений народа, занятий физкультурой, проводимых в спорте. Их постоянное и регулярное применение к учащимся дает хорошие результаты, служит важным фактором воспитания молодежи здоровыми, энергичными, ловкими и сильными, открывает более широкий путь ее реализации, пропаганде, организации в семье, дошкольном воспитании. и каникул, положительно влияет на образование подрастающей молодежи.

**Ключевые слова:** Народные игры, скачки, Алломыш, Чиллак, древность, фехтование, копье.

Har qanday etnik guruhning, katta yoki kichik xalqning rivojlanish tarixi, eng avvalo, xalq tarbiyasi an'analarining mohiyatini bilishni nazarda tutadi. Shimol xalqlari qadimdan mazmuni, shakllari va usullari jihatidan o'ziga xos bo'lgan xalq pedagogikasi tizimini shakllantirgan. Milliy konsepsiyaning qabul qilinishi bilan o'quvchini har tomonlama kamol toptirishga milliy sport turlari, mashqlar, o'yinlar yordamida erishish mumkinligi hisobga olingan. Zamonaviy jamiyatda milliy sport turlari, milliy jismoniy mashqlar va Saxalin xalqlarining o'yinlari jismoniy tarbiya va sportning umumiyligi tizimida alohida yo'nalish sifatida yanada rivojlandi. Ko'p millatli mintaqamiz xalq an'analarini jadal rivojlantirish va takomillashtirish namunasiga aylanmoqda. Milliy sport turlari va xalq o'yinlari xalqimiz umumiy madaniyatining ajralmas qismidir.

Xalqimizning nodir durdonalari bo'lgan milliy xalq harakatli o'yinlari va sanoq termalarini topish, jamlash va uni amaliyotga tadbiq qilish qadiriyatlarimiz va ma'naviyatimizni tiklashdagi zarur vazifalardan biridir. Xalq milliy harakatli o'yinlari aynan o'z holicha bolalarga zavq-shavq beribgina qolmay ma'naviy boyliklarimizga hurmat bilan qarashni, ularni e'zozlashni va saqlab kelishni o'rgatadi. Milliy xalq harakatli o'yinlari qadim-qadim zamondan boshlab xalq marosimlarida urf-odatlarida mustaqil bir soha sifatida musobaqalarida bahislarda keng qo'llanilgan. Jismoniy tarbiya xalqning urf-odatlarida, udum va rasm-rusumlarida shakllanib ming yillar davomida rivojlanib, takomillashtib kelgan. Xalq milliy o'yinlari ming yillar davomida bizgacha yetib kelgan. O'zbek milliy xalq o'yinlari "Otta chopish", "Qiz quv lash", "Uloq", "Kamondan o'q otish", "Chillak", "Oq suyak", "Soqqa" "Besh tosh" kabi va boshqa o'yinlar orqali botirlik, epchillik, tezkorlik, muvozanatni saqlash sifatlarini rivojlantrishda hamda qaddiqomatni shakllantirish, axloq-odob, ong, xotira, diqqat kabi xislatlarni sayqal toptirishida va albatta sog'lioni mustahkamlashda eng samarali vosita bo'lib kelgan.

Milliy sport turlari, o'yinlar, mashqlar boshqa sport turlari bilan shug'ullanish uchun amaliy sport turi sifatida ishlataladi. Tezlik, kuch, epchillik va chidamlilik uchun turli xil o'yinlar har doim xalqlar orasida mashhur bo'lgan. Oliy ta'limda jismoniy tarbiya o'quv dasturida milliy sport turlari, menimcha, majburiy bo'lishi kerak. Ular juda katta ta'lim, sog'lioni saqlash va umumiyligi tarbiyaviy ahamiyatga ega. Milliy sport turlari, mashq va o'yinlarning tarbiyaviy ahamiyati juda katta. Bu turlarni ixtiro qilgan odamlar doimo o'zlarining kamtarligi, yaxshi xulq-atvori va mehmondo'stligi bilan ajralib turishgan.

Milliy sport turlari axloqiy va irodaviy fazilatlarni tarbiyalaydi. Milliy sport turlari, mashqlar va o'yinlar tezlik-kuch sifatlarini, tezlikka chidamlilikni rivojlantridi.

Har qanday etnik guruhning, katta yoki kichik xalqning rivojlanish tarixi, eng avvalo, xalq tarbiyasi an'analarining mohiyatini bilishni nazarda tutadi. Turli xalqlar mavjudlik va mustaqillik uchun kurash sharoitida jismoniy tarbiyaning

o'ziga xos tizimlarini ishlab chiqdilar. Ular milliy sport turlari va ochiq o'yinlarga asoslangan bo'lib, ular harakatga bo'lgan ehtiyojni to'ldirish vositasi sifatida ishlatilgan. Jismoniy faoliytni oshirish zamonaviy bolalarning biologik ehtiyoji bo'lib, ular to'liq o'sishi va jismoniy rivojlanishi uchun zarurdir.

Ma'lumki, mamlakatimizning turli hududlarida yashovchi aholi jismoniy holati, jismoniy tayyorgarligi darajasi va jismoniy ko'ssatkichlari bilan farqlanadi. Jismoniy tarbiya darslari, milliy ochiq o'yinlarni o'z ichiga olganligi sababli, tabiatan rang-barang bo'lib, bu bolalarning individual xususiyatlарini hisobga olgan holda o'rganilgan va rivojlangan vosita ko'nikmalari va qobiliyatlarining kengayishi bilan bog`liq. Bularning barchasi zamonaviy usullar standartlari va turli xalqlarning an'analari o'rtasida "oltin o'rtacha" topish imkonini beradi. Ajodolarimiz bizni nafaqat har tomonlama jismonan kamol topib, balki ma'naviy jihatdan barqaror, axloqiy va estetik jihatdan boyitishimizga yordam beradigan noodatiy, rang-barang sport turlarini, shuningdek, jismoniy mashqlarni yaratgan.

Pirovardida, milliy ochiq havo o'yinlarini jismoniy tarbiya darslariga kiritish nafaqat etnopedagogikaning bir qismi, balki bolaning har tomonlama jismoniy rivojlanishini, uning nafaqat o'z xalqi, balki turli mamlakatlar xalqlari madaniyati bilan yaqindan tanishishini ham ta'minlaydi.

#### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Milliy va harakatli o'yinlar . ( T.S. Usmonxodjayev, Sh.X. Isroilov, A.A.Pulatov, Sh.A. Pulatov) TOSHKENT "IQTISODIYOT-MOLIYA" 2015
2. Milliy va harakatli o'yinlar tarixi.

Marg'uba Abdullayeva  
filologiya fanlari doktori, dotsent

## ADABIY TA'LIMDA ILMIY BILISH USULLARI

**Annotatsiya.** Mazkur maqlolada adabiyot o'qitishda qo'llaniladigan ilmiy bilish usullari haqida tahliliy ma'lumotlar berilgan. Sharhлаshing turlari o'rganilgan. Ilmiy-tadqiqot metodlarining badiiy asarlar tahlilidagi o'mni yoritilgan. Sharqona "sharh", "sharhla o'qitish"ning o'ziga xos jihatlari ilmiy tahlil qilinadi. "Ilmiy faraz", "Tasviriy gipoteza", "Izohlovchi gipoteza" ilmiy yondashuv usullari sifatida talqin etilgan.

**Kalit so'zlar:** *adabiy ta'lif, ilmiy bilish, sharh turlari, sharhлаsh, sharhla o'qitish, badiiy asar, izohlash, tahlil, tadqiq qilish.*

**Аннотация.** В данной статье представлена аналитическая информация о методах научного познания, используемых при преподавании литературы. Изучены виды интерпретации. Подчеркнута роль исследовательских методов в анализе художественных произведений. Научно анализируются уникальные аспекты восточного «толкования» и «интерпретации учения». «Научная гипотеза», «Описательная гипотеза», «Объясняющая гипотеза» трактуются как методы научного подхода.

**Ключевые слова:** литературное образование, научные знания, виды интерпретации, интерпретация, обучение переводу, художественное произведение, интерпретация, анализ, исследование.

**Annotation.** This article provides analytical information about the methods of scientific knowledge used in teaching literature. Types of interpretation have been studied. The role of research methods in the analysis of works of art is emphasized. The unique aspects of the Eastern "interpretation" and "interpretation of teaching" are scientifically analyzed. "Scientific hypothesis", "Descriptive hypothesis", "Explanatory hypothesis" are interpreted as methods of a scientific approach.

**Keywords:** literary education, scientific knowledge, types of interpretation, interpretation, translation training, work of art, interpretation, analysis, research.

Badiiy asarlarni o'rganish va tahlil qilishda kuzatish, dalillash, umumlashtirish, baholash, akseologiya, shartlilik, komparativistika, qiyoslash, psixologik asoslanganlik, badiiy qimmatni tayin etish singari ilmiy-tadqiqot metodlaridan samarali foydalaniib kelinadi. Bu metodlardan tashqari ilmiy bilishga, tafakkur va aqliy zakovatga yo'naltirilgan "Sharhлаsh", "Aql xaritasi", "Ilmiy faraz" kabi metod va usullardan adabiyot o'qitishda foydalanish, bugungi kun ta'limi uchun muhimdir. Shu nuqtayi nazardan badiiy asarlarni o'qitishda sharqona usullardan biri hisoblangan "Sharhлаsh" metodining tarixi, metodik xususiyatlari va asar tahlilidagi ahamiyatini yoritishga harakat qilamiz.

Sharh (arabcha — izohlash, tushuntirish) — kitob sharhi — kitobning matniga izoh berish, unga ilmiy izoh, ma'lumot beruvchi qismi. Asarlarda, tarjima va hujjatlari nashrlarda matnning mazmun-mohiyatini tushuntirib berishda qo'llanadi. Sharh muallif, noshir, mutaxassis, tarjimon tomonidan tayyorlanib, ma'lum bir asar yoki matnning tarixi, uning boshqa voqeа-hodisalarga, fanlarga, shaxslarga, zamon va makonga bog'liqligi xususidagi ma'lumotlardan iborat bo'ladi<sup>1</sup>. Sharhda muallif ishora etgan ba'zi voqeа va faktlar, u yoki bu sabab bilan oshkora yozilmagan yoki yozilishi lozim topilmagan narsalar talqin qilinadi, ba'zi so'z, so'z birikmasi va iboralarning mohiyati ochib beriladi.

<sup>1</sup> Sharh izohi. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Sharh>

Sharh qisqa va foydalanishga qulay bo'lib, odatda, matndan keyin alohida maqola yoki ma'lumot tariqasida joylashtiriladi. Mumtoz asarlarga "sharh" alohida kitob shaklida berilishi ham mumkin.

Sharq adabiyotida o'zga tilda yozilgan asarlar, diniy kitoblar, ilmiy asarlar uchun maxsus sharhlar yozilgan. Jumladan, Aristotelning "Poetika" asariga Abu Nasr Farobi sharh yozgan. Mana shu sharh orqali biz, yunon adabiyotida ilk nazariy qarashlar shakllanganini, poetik ilmlar genezisi haqida tasavvurga ega bo'lamiz. Bundan tashqari Qur'on va hadislар ham olimlar tomonidan sharhlangan. Shu asosda diniy asarlarning tarjima, tafsir va izohlari yaratilgan. Sharq mutafakkirlari bilish metodlariga alohida e'tibor bilan qaragan. Qadim zamonlardan buyon ilmiy o'rghanishda keng qo'llanib kelingan usullardan biri sharhlab o'qitishdir. Navoyi asarlari lug'atida "sharh" – *izoh, kengroq tushuntirish; "sharh aylamak" – izohlamоq, kengroq tushuntirmоq* tarzida bayon etilgan<sup>1</sup>. Ba'zi manbalarda sharh tavsifga o'xshab ketishi, bu atama garchi sharh bilan ma'nodosh bo'lsa-da, lekin u kengroq mazmunni anglatishi qayd etiladi. Asarlarni sharhlashning quyidagi turlari mavjud.

**1. Lingivistik sharh.** Tushuniishi qiyin so'zlar, ma'nosi notanish va noaniq so'zlar izohi. Sharhning bu turini quyidagi so'zlar qamrab oladi: arxaik so'zlar, tarixiy so'zlar, dialektizm, arab-fors so'zlar izohi. So'zlarni shu tarzda izohlash uning qaysi tilga mansubligi haqida ham ma'lumot beradi.

**2. Tarixiy-milliy sharh.** Bu xil sharhda qadimiy milliy urf-odatlar, an'analar, udumlar bilan bog'liq bo'lgan an'analar izohlanadi.

**3. Tarixiy-adabiy sharh.** Bunda adabiy asarlardagi tarixiy davr bilan bog'liq an'analar izohlanadi. Bundan tashqari asarlarni sharhlashda yana quyidagi turkum so'zlar izohi bo'lishi mumkin: Geografik joy nomlari, badiiy asardagi tarixiy shaxslar, ular haqidagi qo'shimcha ma'lumotlar, xalq maqollari, iboralar va tasviriy vositalar, qahramonlarning ismi, tashqi qiyofasi, kiyim boshi, buyumlari. Son bilan ifodalangan so'z va iboralar va hakozolar<sup>2</sup>.

Mumtoz adabiy asarlar, ayniqsa, lirik janrga mansub bo'lgan asarlar matni ustida ishslashda ulardagi tasvir vositalari, til xususiyatlari ham diqqat markazida bo'lishi kerak. Alisher Navoiyning ko'pgina g'azallari adabiyotshunos olimlarimiz tomonidan sharhlab o'rganilgan. Jumladan, N. Komilov "Jon va jonon mojarosi", E.Vohidovning "Junun vodiysida", Muhammad Ali "El komin ravo ayla", Jamol Kamol "Qizil, Sorig', Yashil", Ibrohim Haqqulov "Parim bulsa uchub qochsam" nomli g'azallariga bag'ishlangan sharhlari mavjud. Masalan:

*Junun vodiysig'a moyil ko'rarmen joni zorimni,  
Tilarmen bir yo'li buzmoq buzulg'on ro'zg'orimni.*

"Bu g'azal dunyoning g'amu anduhidan zardob bo'lgan shoir qalbining afg'onidir. Inson yuragi va tafakkuri haddan ziyod sevinchni ham, g'amni ham qabul qilolmaslik xususiyatiga ega. Tuyg'ularning ofatli seli kishini telba qiladi. Shoir o'z jonini junun, ya'ni telbalik vodiysiga moyil ko'radi, buzulgan hayot-ro'zg'ori uni aqdan ozdirgani, endi telbalikni bo'yingga olib dashtu sahrolar kezishdan o'zga iloji qolmaganini va telbalik-buzish, vayron qilish ekan, demak, buzilgan hayotini bir yo'la vayron qilmoq tilagini faryod bilan ifsho qiladi"<sup>3</sup>, tarzida baytni sharhlab o'tadi. Sharhda ilmiy yondashuv asosida badiiy tafakkur mohiyati ochib beriladi. Bunda asar muallifining bilish va anglashga doir qarashlari aks etadi. Xullas, sharhlab o'qitish tahlildan farqlangan holda badiiy asarga nisbatan, izohni, tahliliy yondashuvni, ilmiy bilimlarni va keng mushohadani talab qiladi. Murakkab, tushuniishi qiyin bo'lgan so'zlarni ma'no va mohiyati jihatidan tushuntirishga xizmat qiladi. Yashirin, tagma'no qirralarini, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, tarixiy voqealar, tasviriy vositalar orqali ochadi.

Ilmiy bilishga asoslangan yana bir metodlardan biri "Aql xaritasi"dir. Aql xaritasi – g'oyalar, vazifalar, tushunchalar va boshqa har qanday ma'lumotlarni tartibga solish usulidir. Aql xaritalari murakkab narsalarni vizual tarzda tuzish, eslab qolish va tushuntirishga yordam beradi. Masalan, "Boburnoma" asarida berilgan joy nomlari bo'yicha xarita tuzish. Bunda asardagi ma'lumotlarga tayanib, eng yirik davlatlarni xaritaning asosiga joylashtiramiz va bu davlatlarga tegishli viloyat va tumanlarni aniqlab chiqamiz.


Barcha aqliy xaritalarning markazida asosiy g'oya mavjud. Asosiy fikrlar undan chiqib ketadi, siz barcha ma'lumotlarni tuzmaguningizcha ularni kichik bandlarga bo'lish mumkin. Shu orqali xarita shakllanib boradi. Bunda talaba ketma-ket kelgan joy nomlarini bir-biridan ajratib, eslab qoladi. Har bir hududning o'ziga xos geografik tuzilishi bilan birga, tabiat tasviri, urf-odatları, madaniyati bilan ham tanishib boradi. Aql xaritasini tuzish uchun o'quvchi asar matni bilan tanish bo'lishi zarur.

"Ilmiy faraz" bu – haqiqat qiymati noaniq bo'lgan ehtimolli bilim shakli, gipoteza deb ham ataladi. "Ilmiy faraz" ilmiy bilimlarni rivojlantirish usuli sifatida qaraladi, u qisman asoslangan taxminlar yoki taxminlarni taklif qilish va keyinchalik eksperimental tekshirishni o'z ichiga oladi va tizimli ilmiy nazariyaning elementi hisoblanadi. Oddiy ongda gipoteza (ilmiy faraz) ko'pincha muammoning faraziy yechimi yoki hodisaning ishonchli tushuntirishi sifatida tushuniladi. Umuman olganda, faraziy bilim mazmunli inson faoliyatining har qanday sohasida keng qo'llaniladi. Gipotezalar usuli fanda eng katta rivojlanishni ilmiy bilimlarni tashkil etish shakli, yangi bilimlar sari harakatni ta'minlaydi, uni mavjud bilimlar doirasidan tashqariga olib chiqadi va yangi bilimlarni amalga oshirishga hissa qo'shami.

<sup>1</sup> Navoyi asarlari lug'ati. Tuzuvchi: P.Shamsiyev va S.Ibrohimov. G.G'ulom. – Toshkent: –B. 692.

<sup>2</sup> M.Tursunova Adabiyot darslarida sharhlangan usuli. Til va adabiyot ta'limi. 1992. №3, 4. 23-bet.

<sup>3</sup> Alisher Navoiy g'azallariga sharhlari. E.Vohidov. Junun vodiysida. –B. 4.



Zamonaviy fan metodologiyasi talablari nuqtayi nazaridan faraz, agar u quyidagi talablarga javob bersa, ilmiy gipoteza maqomini olishi mumkin:

Taxmin mantiqiy jihatdan izchil bo'lishi kerak.

Taxmin gipoteza ilgari surilayotgan fanning fundamental qoidalariiga zid kelmasligi kerak (bu talabning ko'zdautilishi mutlaq emas, chunki ba'zi hollarda bu qoidalarning o'ziga shubha qilish foydalidir; agar fanning fundamental qoidalari taklif qilingan faraz zid bo'lisa, rad etib bo'lmaydi, faraz shubha ostiga olinadi).

Taxmin tubdan tasdiqlanishi kerak. Agar taxminni printsipli

jihatdan tekshirish mumkin bo'lmasa (asoslangan yoki rad etilgan), u gipoteza sifatida tan olinmaydi.

Taxmin ilgari o'rnatilgan faktlarga zid bo'lmasligi kerak, uni tushuntirish uchun mo'ljallanmagan (taklif etilayotgan gipotezaning predmeti bilan bog'liq emas).

Faraz hodisalarining mumkin bo'lgan eng keng doirasiga taalluqli bo'lishi kerak. Bu talab bir xil hodisalar doirasini tushuntiruvchi bir nechta farazlardan eng oddiyini tanlash imkonini beradi - shuning uchun u ko'pincha oddiylik printsipi deb ataladi.

Taxmin kognitiv yoki amaliy nuqtai nazardan samarali bo'lishi kerak (xususan, keyingi tadqiqotlar uchun dasturni ishlab chiqish yoki belgilash imkonini beradi).

Kognitiv jarayondagi funksiyalariga ko'ra tavsiflovchi va tushuntirish gipotezalari ajralib turadi:

**Tasviriy gipoteza** – o'rganilayotgan obyekt yoki hodisaga xos xususiyatlar haqidagi taxmin. Bunday farazlar odatda "Bu narsa yoki hodisa nima?", degan savolga javob beradi. Yoki "ushbu obyekt yoki hodisa qanday xususiyatlarga ega?" Ta'riflovchi gipotezalar orasida obyekt yoki hodisaning mavjudligi haqidagi farazlar alohida o'rin tutadi, ular ekzistensial gipotezalar deb ataladi. Jumladan, Farhod – komil inson timsoli. Bu qarash dostonidagi Farhod obradi xususiyatlaridan kelib chiqib, tasviriy gipoteza orqali o'rganilishi kerak. Buning uchun dastlab, komillikni belgilovchi mezonlar aniqlanadi. Bunda talaba asarga ilmiy yondashishi talab etiladi.

**Izohlovchi gipoteza** – tadqiqot obyektiining sabablari haqidagi taxmindir. Bunday farazlar odatda, savolga javob beradi: "Nega bu voqeа sodir bo'ldi?" yoki "ushbu obyekt yoki hodisaning paydo bo'lishining sabablari nima?" Shu kabi muammoli savollarga badiiy matn orqali o'quvchining taxminiy javoblari olinadi. Ulardan haqiqatga yaqini saralanadi. Voqeа-hodisaning sodir bo'lish sabablari aniqlanadi. Masalan, Navoiyning "Sab'ai sayyor" dostonida Bahrom uchun yetti qasrning barpo etilishi, yetti musofirning hikoyati muammoning yechimiga qay darajada xizmat qilgani talaba tomonidan izohlanishi talab etiladi.

**Interpretatsiya** - (lotincha interpretatio — vositachilik) talqin qilinadigan obyektning ya'ni badiiy obrazning tashqi ko'rinishlarini (uzvlari (yuzi, qoshi, xoli), belgilar, imo-ishoralar, tovushlar va boshqalar) o'rganish orqali obrazning ichki xarakteri, ruhiyati va mazmunini tushunishga qaratilgan ilmiy bilish usuli. Ayniqsa, badiiy asarlarda tasvirlangan qahramon tashqi ko'rinishi, obrazning xarakter-xususiyatlarini aniqlashda vositachi bo'ladi. Interpretatsiya analitikning asosiy, eng muhim vositasi bo'lib, tushlarni talqin qilishda ham foydalilanadi. Badiiy asarlardagi tush motivlarini talqin qilishga oid qarashlar tahlilida buni ko'rish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, adapbiy ta'lilda badiiy asarlarni ilmiy yondashuv metodlari orqali o'rganish – talabalarni ilmiy-ijodiy tafakkurini boyitadi, yangi kashfiyotlar qilishga, ilmiy fantaziyalarini shakllanishiga xizmat qiladi.

#### Foydalanikgan adabiyotlar

- M.Tursunova Adabiyot darslarida sharhlash usuli. Til va adabiyot ta'limi. 1992. №3, 4. 23-bet.
- Alisher Navoiy g'azallariga sharhlar. E.Vohidov. Junun vodisida. – 63 b.
- Sharh izohi. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Sharh>
- Navoiy asarlari lug'ati. Tuzuvchi: P.Shamsiyev va S.Ibrohimov. G'.G'ulom. – Toshkent: –B. 692.

Nodira Xolikova,  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent  
davlat o'zbek tili va adabiyoti  
universiteti doktoranti, f.f.n.

## CHO'LTON SHE'RIYATIDA ZAMONDOSH AYOLLAR TAQDIRI

**Annotatsiya.** XX asr boshida Turkiston o'lkasidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'rifiy hayot in'ikosi adabiyotda o'zining yorqin ifodasini topish bilan birga taraqqiyotga undovchi omillar targ'ibi masalasiga keng o'rin ajratdi. Bu paytda xotin-qizlarning jamiyatda tutgan o'rni va mavqeい birmuncha o'zgardi. O'zbek jadid she'riyatida xotin-qizlar obrazi juda keng istifoda etilib, bu mavzuda ko'plab ma'rifatparvar ijodkorlar singari Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'Iponning hissasi cheksiz bo'ldi. Maqolada ikki nafar tarixiy ayol obrazi haqida so'z yuritilib, ularning hayotiga doir ayrim ma'lumotlar muqoyasa qilingan va tahsilga tortilgan.

**Kalit so'zlar:** Lidiya Seyfullina, Ma'suma Qoriyeva, erk, ona-Vatan, ma'rifat, bilimli murabbiyalar

XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida ijtimoiy-siyosiy voqelik ta'siri natijasi o'laroq adabiyotdagি ko'p asrlik an'analar evrilishga yuz tutdi. Bu davrga kelib adabiyotda ijtimoiy pafos kuchaya boshladi. Erksiz xalq haqsizlik va mutelikka qarshi bosh ko'tardi – millat uyg'ona boshladi. Bu davr adabiyoti mazmun-mohiyati bilan chindan ham "milliy uyg'onish adabiyoti" edi. Zero, uning taraqqiyot yo'llari ham o'ziga xos va murakkab edi. Millatparvar shoiru adiblar eng og'ir damlarda xalq bilan yakdil bo'ldi. Asarlarida uning orzu va iztiroollarini bor ko'lami bilan ifodalashga intildi.

Bu hodisani xotin-qizlar bilan aloqador lirik matnlar misolida kuzatish mumkin bo'ladi. O'tgan asrning dastlabki choragida Abdulhamid Cho'Ipon bu mavzuga nisbatan ko'proq yondashgan va masalaning jiddiyatini tushungan holda millatga yuzlangan.

Kuch va matonatga, salohiyat va iqtidorga ega xotin-qizlar ko'p edi. Ular asta-asta o'zlarini ko'rsata boshlagandilar. O'sha nomlari tarixga muhrlangan o'zbek ayollari Cho'Ipon she'rlarida bor. Shoirning "Sharafli xizmat" she'ri ijodda, san'atda va ilmda peshqadam, "o'zbek sahnasining qimmatli san'atkori M.Sa'diya Tutashga" bag'ishlangan. M.Sa'diya-Tutash o'tgan asrning 20-40 yillarda mashhur bo'lgan o'zbek drama teatri artisti M.Qoriyeva<sup>1</sup> (1902-1946) edi [Cho'Ipon, 1:343]. Mazkur she'r 1922 yilda M.Qoriyevaning o'zbek sahna san'ati ravnaqi yo'lidagi o'n yillik xizmati sharafiga yasalgan benefis kuni o'qilgan.

O'zbek qizi o'z og'zi-la aytolmagan so'zini  
Sening o'tkir tiling bilan eshittirdi eliga.  
O'zbek qizi sil oqartgan, so'lg'in, g'amli yuzini  
Sen orqali ko'rsatdi-da qutultirish yo'liga.  
O'zbek qizi yana ko'p yil kishanlardan qutulmas,  
Ko'z yoshlari yana ko'p yil o'z yurtiga to'kilur...  
Ko'z yoshlari yana ko'p yil shodlik ko'rmas, ochilmas,  
Yana ko'p yil tovushlari qorong'ida yo'q bo'lur...  
Shuning uchun mendan senga eng samimiyo olqishlar,  
Ey yo'qsillar sahnasida eng qimmatli san'atkori... [Cho'Ipon, 1:113]

M.Qoriyeva haqida "Ma'suma" romanini yozgan nosir Isajon Sulton 2021 yil Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan G'alaba bog'ida yurtboshimiz ham eslab o'tgan qahramonini shunday tanishtiradi: "Prezident tilga olgan Ma'suma Qoriyeva – ana shunday fidoyi, o'zbek teatrining ilk qaldirg'ochlaridan biri. Uning hayoti nafaqat roman, balki spektakl, badiy film yoki serial uchun ibratli mavzu ekanini barcha ijodkorlarimiz e'tirof etishdi. Qatag'onga duchor bo'lgan yuzlab ma'rifatparvarlar, juvonmarg bo'lgan minglab oilalar qatorida xalqqa teatr vositasida ma'rifat ulashish qismatini bo'yniga olgan va oxir-oqibat, avlod-ajdodi bilan kuli ko'klarga sovurilganlar qismati kishini seskantiradi, fidoyi zotlarning qutlug' orzusi bo'lmish milliy davlatimizni ko'z qorachig'iday asrab-avaylashga undaydi" [I.Sulton 2]. Haqiqatan, Ma'suma xonim barcha zamondoshlariga ibrat bo'lgulik umr yo'lini bosib o'tgan edi. Sahnadagi ijrolari xalq mehrini qozongan Ma'suma Qoriyeva tom ma'nodagi ziyoli, ma'rifatparvar o'laroq "Yangi yo'l" jurnalida e'lon qilgan "Bilimlik murabbiyalar yetishtiraylik" nomli maqolasida ham barcha xotin-qizlarni

<sup>1</sup> <https://yuz.uz/news/--kulgan-boshqalardir-yiglagan-menman-> Prezident Sh.Mirziyoyevning 2021 yil 9 mayda G'alaba bog'ida so'zlagan nutqidan: "Yurtga yov bostirib kelgan og'ir kunlarda Ma'suma Qoriyeva o'z boshiga tushgan fojiani unutib, ikki farzandi – Shavkat va Botir Qoriyevlarni fashizmga qarshi jangga yuboradi. O'zi esa hozirgi O'zbek milliy teatrinda kasaba uyushmasiga rahbarlik qilib, g'oyat og'ir davrdaga xodimlarni moddiy ta'minlash uchun jonbozlik ko'rsatadi. Urush tugaydi, lekin Ma'suma ayaning farzandlaridan darak bo'lmaydi. Mushtipar ona ularning izlarini izlab Moskvaga boradi. U yerda ikkala o'g'li ham janglarda halok bo'lganini aniqlaydi. Ma'lum bo'lishicha, urushda ko'rsatgan jasorati uchun Shavkat Qoriyev "Qizil bayroq" ordeni, Botir Qoriev esa "Qizil yulduz" ordeni bilan taqdirlangan ekan. Ming afsuski, Ma'suma Qoriyeva u paytda bundan bexabar edi. Onaizor farzandlari dog'ini ko'tarolmasdan, 1946 yili Moskvada vafot etadi".

ilm olishga chorlagan. Unda xotin-qizlar savodxonligi va bolalar tarbiyasi masalasi ko'tarilgan. Qoriyevaning nazaricha, "Xotinlar ozodlig'i uchun, eng avvalo, ularning bolalari to'g'risida ko'ngillarini tinchitish zarur". [Qoriyeva, 3:12]. M.Qoriyeva maktab va bog'chalarga tayyorgarlik kurslarini tamomlagan bilimli murabbiyalarni olish kerakligini alohida ta'kidlaydi: "Maktabgacha tarbiya ishlarida ilgaridan tayyorlig'imiz yo'q, pedogugiya fani bilan oshnolig'imiz juda ozdir. Hozirda fan bilan qurollang'an, o'z ishini suyguchi murabbiyalar tayyorlash ishi eng zarur vazifamizdir" [Qoriyeva, 3:12].

Chindan ham, bu xil murabbiyalarni yetishtiradigan bilim yurtlari vaqt kelib paydo bo'ldi va ular kun sayin ko'payib bordi. Cho'lponning ham yonib-kuyishlari bejiz emasdi, chunki u bilardiki, o'zbek ayollarini orasida zehni o'tkir, zukko va iste'dodli, ilmu fasohatli ayollar talaygina. Shoir orzu qilgan kunlar ko'p o'tmay amalga oshdi. Xotin-qizlar uchun ochilgan savodxonlik kurslari va ta'llim muassasalari haqidagi "Irfon keladir!" she'ri o'zbek bilim yurtining ilk besh qaldirg'ochiga bag'ishlangan.

Cho'lponning zamondoshlariga bag'ishlangan asarlaridan yana biri – 1925 yil chop etilgan "Lolalar ko'nglini anglagan Lola..." she'ri Lola (Lidiya) Seyfullinaga atalgan. Bu xonim bilan Cho'lpon Moskvada tanishib, uning "Ichkari" – o'zbek xotin-qizlari hayotidan olingan sochma she'rlardan tashkil topgan kitobini tarjima qilgan va shu kitob debochasiga "Mutarjimdan" sarlavhasi ostida yuqorida nomi keltirilgan she'rni e'lon qilgan.

Lolalar ko'nglini anglagan Lola,  
Lolalar tilidan qilibsan nola.  
Lolalar nolasi achchiq bo'lsa ham,  
To qalbdan kelguvchi sanchiq bo'lsa ham,  
Tinglab kelgan edi karquloq devor,  
Erkakning o'zidek bir no'noq devor...

Lidiya Seyfullina 1889 yil 3 aprelda Orenburg guberniyasida tug'ilgan. Otasi tatar, onasi esa rus edi. U tabiatan mard va jasur, shijoatli va haqiqatparast, ushoq jussasiga qaramay hukumat rahbari(I.V.Stalin nazarda tutilmoxda) ga ham tik qarab turib, ijodkorlarga nisbatan adolatsizlik qilmaslikni aytal olgandi. U M.Gorkiy, M.Mayakovskiy, A.Fadeyev kabi ilg'or rus oydinlarining e'tirofini qzongan, hatto bulardan ayrimlarining ijod maydoniga kirib kelishiga turki bo'lgan. 7 yoshidanoq ijod olamiga kirgan Lidiya o'z hayotini ta'lim va tarbiya, kutubxonachilik, o'qituvchilik faoliyati bilan davom ettirgan. 1909-1911 yillarda teatrda faoliyat ko'rsatib, u yerda yosh bolalar va komik kampirlar rolini ijob etgan. Lidiya kasallanib qolgach, teatrga qaytmagan. Uning turmush o'rtog'i ham o'zi kabi ijodkor va adabiy tanqidchi – Valerian Pravduxin bo'lib, ular hamkorlikda ijod qilishgan.

1917 yildan boshlab Lidiya Orenburg matbuotida faoliyot ko'rsatgan. Kutubxonachilik qila turib, mahalliy rus va boshqird aholisining hayoti va turmush tarzini chuqur o'rganib chiqdi, hamqishloqlari, ayniqsa ayollar manfaatlarini tish tirnog'i bilan himoya qildi. 1924 yilda juda ko'p e'tiroflarga sabab bo'lgan "Virineya" asarini yaratadi. Bu asar dehqon ayoli taqdiriga bag'ishlangan. U Moskva, Leningrad, Praga kabi shaharlarda sahnalaشتirilgan va muvaffaqiyatlari ijob etilgan. A.V.Lunacharskiy asar haqida shunday deb yozgan edi: "inqilobdan keyingi teatr san'ati bizga bergen eng yorqin va ibratli obraz sifatida Vireneyani e'tirof etishga tayyorman". 1923 yilda Lidiya oilasi bilan Moskva shahriga ko'chib kelganida uning ikki xonali uyida kimlar mehmon bo'lmagan deysiz. Bular S.Yesenin, M.Sholoxov, M.Prishvinlar edi. Teatrda ishlab yurgan kezlarida ko'p joylarda gastrollarda bo'lgan, shular orasida Toshkent shahri ham bor edi. U ko'plab Yevropa mamlakatlari – Turkiya, Polsha, Chexoslovakija, Fransiyaga sayohat qiladi. Uning rang-barang va mashaqqatlarga to'la hayoti asarlarida o'z aksini topdi. Lidiya Seyfullinaning yozishchicha, uni hayotning o'zi yozuvchi qilgan edi. 1922 yilda yozilgan "Huquqbazarlar" ("Pravonarushitel") kitobi unga katta shuhrat keltirgan. Kitob Moskva va Novosibirskda katta tirajlarda chop etilib, boshqa tillarga tarjima qilingan. Asar Ural va Sibirdagi maktab dasturlariga kiritilib, barcha shahar-tumanlarga bezori bolalarni tarbiyalash instruksiyasiga qo'shib tarqatilgan. "Huquqbazarlar" yosh avlodni tarbiyalash yo'lidagi dasturilamal sifatida keng targ'ib etildi. Bu asar bolalar tarbiyasiga qaratilgan harakatda ilk qadam edi. Mashhur pedagog A.S.Makarenko Lidiya Seyfullinaning "Huquqbazarlar" qissasini yuqori baholagan. Hali bu paytda uning "Pedagogik poema"si dunyoga kelmagan edi.

1920-yillarda Rossiya uchun qarovsiz qolgan yetim bolalar haqiqiy falokat edi. Tabiiyki, bu mavzu o'sha yillarning ko'plab yozuvchilarini ham tashvishga solgan. Bu Anton Makarenko, Aleksandr Neverov, Leonid Panteleyev, Grigoriy Belik, Vyacheslav Shishkov va boshqalarning asarlarida aks etgan. Ammo Lidiya Seyfullina unga birinchilardan bo'lib murojaat qildi. Va yozuvchining o'zi bir vaqtlar ko'cha bolalari bilan ko'p ishlaganligi sababli (asarda tasvirlangan bolalar koloniysi va qahramonlarning prototiplari haqida hujjatli dalillar mavjud) bu muammoni ichkaridan bilar edi.

Turgoyak ko'li bo'yidagi Mehribonlik uyi 1920 yilda ko'cha huquqbazarlari uchun birinchi qishloq xo'jaligi koloniyasi sifatida ish boshlagan va 1924 yilgacha mavjud bo'lgan. Hozirda bu manzil eshitmaydigan va eshitish qobiliyati past bolalarga turar-joy vazifasini bajaradi.

1921 yil yozida Lidiya Nikolaevna va uning turmush o'rtog'i koloniya rahbari Mixaylovning taklifiga binoan bu yerga kelishadi. Koloniyadagi bolalar uni qo'rquv aralash tuyg'u bilan qabul qilishadi. Ammo tez orada ular uni hikoyachi sifatida qadrlay boshlashadi. Lidiya bolalar bilan birga tushlik qilar, qo'ziqorin va rezavor mevalarni yig'ish uchun qayiqda birga suzar edi. Bolalar ham jon qulog'i bilan uning ajoyib hikoyalarni, ertaklarini tinglar edi. Uning rahbarligida Turgoyak ko'li yaqinidagi Madaniyat uyida qishloq bolalari va aholisi uchun spektakllar namoyish etishardi. Afsuski achchiq qismat Lidiyani ham chetlab o'tmadni. Uning eri 1937 yilda hibsga olingan va qatl qilingan. Hayot zarbalari Lidiyaning qaddini buka olmadni. Urush davrida u harbiy muxbirlik qildi va komandirlar orasida "Gvardiya onaxonii" nomini oldi. U 1954 yilda vafot etdi.

Darhaqiqat, Cho'lpion ta'kid etganidek, Lidiya Seyfullina – Lolaning nolasini butun jahon tinglashga tuyassar bo'ldi. Uning asarlari hayotligidayoq xorijiy tillarga o'girildi, odamlarni ziyoga, adolat va to'g'rilikka da'vat etdi.

Endi bu nolangni jahon tinglasin!

Dillarda bor esa vijdon, tinglasin!

Cho'lpion Lolanning nolasini bejiz "vijdon tingla" shiga urg'u bermayapti. Ayolning qadr-qimmati va ma'rifati haqida Mahmudxo'ja Behbudiy shunday degan edi: "Ayol eng hurmatga sazovor insondir. Unga erkinlik berilishi, ma'lumot olish uchun imkoniyat yaratilishi, moddiy va ma'naviy ne'matlardan bahramand bo'lishi lozim. Shariat ayolning ma'lumot olishini ta'qilamaydi, aksincha buyuradi" [Behbudiy, 4].

Lidiya Seyfullina yoxud Ma'suma Qoriyevaga bag'ishlangan yuqoridagi she'rlar negiziga singdirilgan g'oya erk, ozodlik va ma'rifat edi. Zero, har bir shoirning estetik ideali – jamiyat ravnaqiga, insonlar tafakkurini o'stirishga va zamon talabiga javob beradigan barkamol avlodni yetishtirishga xizmat qilishi lozim. Shu bilan birga she'riyatdagi ijtimoiy pafos, zamon ruhi va kayfiyati o'ziga xos munosabat va tasvirni yaratgan.

Zamondosh ayollarga munosabat orqali shoirning estetik ideallari haqidagi tasavvuri namoyon bo'lganki, bular milliy adabiyotimizda realistik badiiy talqinning takomiliga xizmat qildi.

#### Foydalan ilgan adabiyotlar

1. Чўлпон. Асарлар. Тўрт жилдлик. I жилд. Шеърлар. Мансуралар. Шеърий хатлар. - Т.: Академнашр, 2016.
2. Кулган бошқалардир, йиғлаган мемман. Ўзбекистон Халқ ёзувчиси Исажон Султон билан сұхбат // Янги Ўзбекистон, 2022 йил, 23 август
3. Қориева М. Билимлик мураббиялар етиштирайлик // Янги йўл. – 1928. № 7. – Б. 12.
4. Жадидлар харакати//<http://jadid.my1.ru/publ/1-1-0-10>

**Maxsuda Karimova,**

*Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

## MILLIY FOLKLORISTIKAMIZNING FIDOY VAKILI

**Annotatsiya.** Maqolada o'zbek folklorshunosligi, xususan, Xorazm folklorshunoslik maktabining yaratilishi, taraqqiyotida folklorshunos olim, professor Safarboy Ro'zimboevning ilmiy tadqiqotlari, soha rivojiga qo'shgan hissasi haqida fikr yuritiladi. Folklor namunalarini noyob nomoddiy madaniy meros sifatida asrash lozimligini bayon qilgan.

**Kalit so'z va iboralar:** o'zbek folklorshunosligi, Xorazm folklorshunoslik maktabining yaratilishi, o'zbek xalq og'zaki ijodi, nomoddiy madaniy meros, xalq baxshilari.

**Annotation.** The article discusses the scientific research and contribution to the development of Uzbek folklore studies, especially the creation and development of the Khorezm School of Folklore Studies, by professor Safarboy Rozimboev, a folklorist scientist. He stated that folklore samples should be preserved as unique intangible cultural heritage.

**Key words and phrases:** Uzbek folklore, creation of the Khorezm School of Folklore, Uzbek folklore, intangible cultural heritage, folk gifts.

**Аннотация.** В статье рассматриваются научные исследования и вклад в развитие узбекского фольклора, в частности, создание и развитие Хорезмской школы фольклора, ученого-фольклора, профессора Сафарбоя Розимбоева. Он заявил, что образцы фольклора должны быть сохранены как уникальное нематериальное культурное наследие.

**Ключевые слова и фразы:** узбекский фольклор, создание Хорезмской школы фольклора, узбекский фольклор, нематериальное культурное наследие, народные дары.

Xalqimizda azaldan ma'naviy taraqqiyoga intilish ijodga oshufta insonlarni qo'llab-quvvatlash hamda yuksak iqtidor egalarining badiiy tafakkuri mahsuli va asrlar davomidagi izchil taraqqiyoti natijasida xilma-xil janrlardan iborat og'zaki ijodda noyob durdonalar yaratilganki, ularda insoniyat ijtimoiy hayatini tartibga soluvchi, insonni kamolotga undovchi chinakam odamiylik qoidalari badiiy talqin qilinadi. Jamiyat a'zolarining madaniy qarashlarini

yuksaltirish maqsadida bu badiiy tamoyillar aholiga ijro tariqasida yetkazilib asrlar osha sayqal topib, bir butun noyob badiiy xazina sifatida jamlangan. Binobarin, bu og'zaki ma'nnaviy xazinamizda bebaho milliy qadriyatlarimiz yashab kelmoqda. Folklorshunoslik fani asrlar davomida yaratilib, rivojlanib kelgan xalq og'zaki badiiy ijod namunalarni to'plash, arxivlashtirish, ularning eng yaxshi namunalarini nashr etish, ilmiy o'rganish va ommalashtrish bilan shug'ullanadi.

Xorazmda tarqalgan dostonlarning barchasini ham ozarbayjon va turkman folkloriga aloqador deb qarash ham to'g'ri emas[1]. Aloqadorlari ham o'zbek baxshilarining kattagina ijodiy qayta ishlashlari orqali ommalashgan. (baxshilarining ustoz-shogirdligi xususida) Shu bilan birga Xorazmning o'zida ham ko'plab epik asarlar yuzaga kelgan va ularning eng yaxshilari, o'z navbatida boshqa xalqlar folklori xazinasidan mustahkam o'rinn egallagan, jumladan, "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Asil va Karam" kabi dostonlar ozarbayjon, "Go'ro'g'li" turkumiga oid aksariyat dostonlar esa turkman versiyalariga juda yaqin. Ammo "Yusuf va Ahmad", "Miskin va Gulqand", "Oshiq G'arib va Hilola pari", "Malikayi Zavriyo" kabi dostonlarni Xorazmning o'zida yaratilgan deb aytish uchun yetarlicha dalillar keltirish mumkin[1]. Birinchidan, ushbu dostonlarning ekspozitsiyasi Xorazm bilan uzviy bog'liq, voqealar voha hududi doirasida bo'lib o'tadi. Ikkinchidan, bu dostonlar boshqa xalqlarda keng ommalashmagan. Uchinchidan, ular asosan yozma ravishda keng tarqalgan bo'lib, qo'lyozmalar ham xorazmlik kotiblarga tegishlidir.

Qo'lyozma usulida dostonlarning ommalashishi dostonlar syujetida o'zgarishlarning kamroq bo'lishi, o'zgarishlar bo'lsa-da, ijodiylikka o'zgargani, ya'ni baxshi va kotiblarning badiiylikka intilishi va bor mahoratini dostoniga singdirilishi bilan dostonni boyitgan degan xulosaga kelish o'rinni deb hisoblasa, bo'ladi. Xorazm dostonlari haqida so'z ketganda, mumtoz yozma eposning, xususan, "O'g'uznama" va "Kitobi dada Qo'rquq" kabi yozma eposning ta'sirini ham alohida ta'kidlashga to'g'ri keladi[1]. Negaki, vohada tarqalgan ko'plab dostonlarning ("Go'ro'g'li", "Yusuf va Ahmad", "Oshiq G'arib va Shohsanam") asosi o'sha manbalardagi motiv va syujetlarga hamohang keladi.

Milliy elshunosligmizda J.Qobulniyozov o'zining doktorlik tadqiqot ishida "O'zbek folklorining shakllanishi va taraqqiyot yo'llarini ilmiy asoslab, milliy folkloristikamizning taraqqiyot istiqbollarini belgilab bergan. Sohaning rivojlanishi va og'zaki badiiy xazinamizning asrlar osha mukammal yetib kelishida folklor ijrochilari – baxshilarining hissasi beqiyosdir.

Xalq baxshilarining folklorshunos olim T.Mirzayev "O'zbek xalq baxshilarining mahorati va ular repertuarining asosiy xususiyatlari"ni o'zining doktorlik ishida asoslab bergan bo'lsa, Folklorshunos S.Ro'zimboyev "Xorazm xalq dostonlarining spetsifikasi, tipologiyasi va poetikasi"ni doktorlik ishida asoslab beradi. Yetuk folklorshunos S.Ro'zimboyev "Xurshidi jahon galdi"(1987), "Anash xalfa", (2006) folklori to'plamlari nashr qilingan. "Xorazm dostonlari" (1985), "Oshiq turkumi dostonlarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari"(1987), "Avesto" mifologiyasi va Xorazm folklori" (2001-yil hamkorlikda) kabi monografiyalar muallifidir.

Ma'lumki, Xorazm hududida qadimgi zamonlardan beri juda ko'p urug'-jamoalar, xalqlar yashagan. Turli xil ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar natijasida vohadan ko'plab qabilalar boshqa hududlarga ko'chib ketgan yoki juda ko'p urug'-qabilalar kelib, o'rashib qolgan. Shu sababli Xorazm aholisining etnik tarkibi nihoyatda murakkab. Bu boroda juda ko'p ilmiy adabiyotlarda ma'lumotlar qayd qilingan[1]

Xorazm folklori namunalari dostonlarni kitobat qilish, ularni qissaxonlar va xalfalar tomonidan erkaklar hamda ayollar davralarida ayrim-ayrim holda o'qib eshittirish qadimdan mavjud bo'lib, uning ildizlari muqaddas "Avesto"ga borib taqaladi. Folklor namunalari ommaviy ijod mahsuli bo'lsa-da asrlar osha yozuv madaniyati, kitobat san'ating vujudga kelishi natijasida folklor asarlari qo'lyozmalari ommaviy ijod mahsuli sifatida qog'ozlarga ko'chirila boshlangan. Bunday xalqona ijod – el adabiyoti yoki boshqacha aytganda, xalq donishmandligi durdonalari ustoz-shogirdlik an'analari natijasida hamda folklor janlarining yaratilishi, o'ziga xosliklari tufayli qo'lyozma nusxalari yaratilgan bo'lsa ham, folklorning janriy tamoyillarga moneliklar bo'lmagan. Aksincha, bunday qo'lyozmalar har bir folklor ijrochisi repertuari xazinasining boyishini ta'min qilgan. Folklor asarlaridagi an'anaviylikning buzilmasligini ta'min etib, marosim folkloridagi milliy qadr-qimmatga ega turli ijobjiy, millatimizning tarbiya va ma'naviyat hamda madaniyatga erishuv uchun tagzamin vazifasini o'tagan. Ana shunday qo'lyozmalarni izlab topish, fanga ma'lum qilish, uning ko'chiruvchisi va ijrochilari haqidagi ma'lumotlarni xalqqa yetkazish folklor asarlarining yaratilishi, genezisi ijro uslublari hamda ijrochilar mahoratlarining o'rganilishi, baholanishi folkloristikada uzviylik zanjirini mustahkamlaydi. Bu sohada izlanishlar qilgan tadqiqotchining mehnatlari qay darajada muhimligini ko'rsatadi.

Urganch davlat universitetining professori Safarboy Ro'zimboyev o'zining ko'p yillik samarali izlanishlari bilan milliy folklorimiz rivojiga salmoqli hissa qo'shgan. Universitet filolog olimlari bilan birgalikda Xorazm vohasining ko'plab qissaxonlar va xalfalar bisotidagi qo'lyozma, toshbosma kitoblarni topib, ularni hozirgi joriy alifboga o'tkazib, juda xayrli ishlarni amalga oshirganlar.

Asrlar osha madaniyatimiz ravnaqi yo'lida ijobjiy hissa qo'shgan tengsiz ma'naviy merosimizga ikkinchi umr bag'ishlaganlar. Go'zal folkloristik majmua yaratib, unga "Oshiq G'arib", "Oshiq Alband", "Oshiq Miskin" kabi dos-

tonlarni jam qilib, Xorazm mintaqasida mazkur dostonlarning muxlislari “Go’ro’g’li” dostonlari muxlislardan kam emasligining isboti sifatida va muxlislarga mazkur to’plam tuhfa qilindi.

Ta’kidlash kerakki, Xorazm vohasida “Oshiq G’arib” dostonining qo’shiqlaridan bir-ikkitasini yod bilmagan, qo’shiq qilib aytmagan keksa avlod vakillarini uchratish qiyin. Afsuski, keyingi asrda mafkuraviy tazyiq asosida arab alifbosidagi qo’lyozma kitoblar eskilik sarqiti sifatida taqiqlandi. Bunday kitoblarni savodxon xalfalar faqat tor doiralardagina o’qib, targ’ib qilib kelishdi. Shu sababli bunday bebahbo kitoblar sahifasiga bitilgan dostonlarimizdan keyingi avlod bebahra qoldi. Ushbu dostonlarni nashrga tayyorlash ma’naviy qadriyatlarimizni qayta tiklab, xalqimizning ma’naviy mulkiga aylantirish demakdir. “Ushbu qo’lyozma kitoblardan vohadagi o’zbek, turkman, qoraqalpoq baxshi va qissaxonlari birgalikda foydalanib, ulardan ma’naviy oziq olib kelishgan. Hatto arab alifbosida bitilgan bitta nusxani uch millat vakili bemalol o’qiy olishgan. Bu holat xalqlar o’tasidagi do’stlik aloqalarini yanada rivojlantirishga katta yordam bergen. Xullas, ushbu dostonlarni nashrga tayyorlash mashaqqatidan cho’chimay, matnlarni qayta tiklab, hozirgi o’quvchiga taqdim qilish milliy istiqlolimiz bergen imkoniyatning yana bir sharofatidir” [2].

Professor Safarboy Ro’zimboyev o’zining “G’aribniyozi – do’stlik kuychisi” maqolasida Xorazm vohasida XIX asr o’talarida yashab ijod etgan baxshi G’aribniyozi haqida ma’lumot berib, uning shogirdi turkman baxshisi Suyan (suyanch, tayanch) haqida so’z yuritadi. Bu baxshi haqida folklorshunos olim A.N. Samoilovichning bergen ma’lumotlarini keltirib o’tadi: “Suyav baxshi Toshhovuz viloyati, hozirgi “Bo’ldimsoz” tumanida yashagan. U faqatgina turkman tilida emas, o’zbek va qoraqalpoq tillarida ham doston kuylagan”. Folklorshunos olim A.N. Samoilovich Xorazm vohasiga 1908-yillarda tadqiqot uyuştirigan paytda Suyav baxshi 58 yoshda bo’lganligi haqida ma’lumot keltiradi. Folklorshunos olim, professor Safarboy Ro’zimboyev Suyav baxshi 1850-yilda tavallud topganligiga aniqlik kiritadi.

Suyav baxshi repertuaridagi doston va termalar turkman, o’zbek, qoraqalpoq baxshilar ijdida hozirgacha saqlanib kelayotgani to’g’risida ma’lumotlar keltiradi. Tadqiqotchi S.Ro’zimboyev[3] Suyav baxshi Toshhovuz viloyatidagi Porsi dostonchilik maktabi asoschilaridan bo’lgan. Gurlanlik Sakrak baxshi va mang’itlik Tursun baxshi Porsi dostonchilik maktabining so’nggi vakillaridan ekanligi haqida ma’lumot beradi. Suyav baxshi repertuarida “Eshvoy” qo’shig’i alohida o’rin tutgan. Mazkur qo’shiq XVIII asrda Porsi atroflarida yashagan o’zbek baxshisi Eshboy baxshiga bag’ishlangan va unda baxshining yuksak insoniy fazilatlari aks etgan:

Eshboy Otash, Nurjon bilan soz etdi,  
Besh kunlik umrini sarafroz etdi.  
O’lgandan so’ng vasfin G’aribniyozi aytdi,  
Soz – so’z bilan umri o’tdi Eshboyni[4].

Porsi baxshisi ijro etgan Eshboy qo’shig’i tarixi xususida qoraqalpoq folklorshunosi professor Q.Ayimbetov 1968-yil Nukusda bosilgan “Xalq donoligi” kitobida Suyav baxshidan burun Eshboy, Otash, G’aribniyozi kabi taniqli baxshilar yashab ijod etganliklari haqida ma’lumotlarni keltirganidan bilib olishimiz mumkin.

Professor S.Ro’zimboyev “G’aribniyozi – do’stlik kuychisi” maqolasida Eshboy baxshi, G’aribniyozi baxshi, Suyav baxshilar – o’zaro ustoz-shogirdlar zanjirini tarixiy-ilmiy jihatdan asoslaydi.

“Eshboy” qo’shig’i asrlar osha hozirgacha yetib kelganligi, ya’ni qo’shiqnинг узоқ tarixi haqida 1963-yilda Ashxobodda nashr etilgan ‘Marjon donalar’ va Nukusda bosilgan “Qoraqalpoq xalq qo’shiqlari” kitobiga ham kiritilganligi fikrimizning yaqqol dalilidir.

O’zaro qardosh xalqlar madaniyatiga singib ketgan bunday qo’shiqlardan juda ko’plab topishimiz mumkin. Xalq baxshilarining hayoti, ijodi misolida folklor san’ati faqat ezgulik ulashishi, millatlarni birodarlikka undovchi go’zal ma’naviy tug’ ekanligini anglaysiz. Bu esa folklor namunalalarining qadr-qimmatini yana-da oshiradi.

#### Foydalilanilgan adabiyotlar

1. To’lابоев О., Маматкулов Ж. “XX asr o’zbek folklorshunosligi” – Antologiya. – Toshkent: “O’zbekisto Milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2017. 592–306-bettar.
2. A.Sa’dullayev, UrDU rektori, professor O’zR FA akademigi. “Oshiqnoma”. 2-kitob. – Urganch: “Xorazm”, 2006. 452-bet.
3. “Xorazm folklori”. X tom. – Urganch, 2008. 3-bet.
4. “Oshiqnoma”. 1-kitob. – Urganch: “Xorazm”, 2006. 350-bet.

Shodiyona Abdugapparova,  
ToshDO'TAU tayanch doktoranti

## ADABIYOTSHUNOSLIKDA "BADIY OBRAZ" TUSHUNCHASI TALQINI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada badiy "obraz" tushunchasi, taraqqiyoti, badiy adabiyotga kirib kelishi, "badiy obraz", "obrazlilik" tushunchalari haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: Obraz, badiy obraz, obrazlilik, badiy adabiyot, in'ikos, aks, adabiyotshunoslik , Aristotel, Gegel, V.G.Belinskiy, san'atkorona qarash, tasavvur, borliq.

**Annotation.** This article discusses the concept of artistic "image", its development, its entry into fiction, the concepts of "artistic image", "imagery"

**Keywords:**Image, artistic image, imagery, fiction, perception, reflection, literary studies, Aristotle, Hegel, V.G. Belinsky, artistic vision, imagination, existence

Adabiyotshunoslikda "obraz" tushunchasi shu qadar muhim ahamiyat kasb etadiki, obrazlarsiz badiy asarni tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki, adabiyotda hayot iniko'si badiy obrazlar vositasida ifodalanadi. Obraz haqidagi ilk qarashlar Aristotel tomonidan ilgari surilgan bo'lib, ma'lum bir voqelikni adabiyot va san'atda obrazlar vositasida tasvirlashni tushunilgan. XIX asrda Gegel, V.G.Belinskiy tomonidan ushbu tushuncha yanada oydinlashdi. Bu ta'rifni birinchi marotaba fanga olib kirgan Gegel adabiyotning obrazliligin mana bunday tushuntirib bergen edi: „Poetik tasvirni biz obrazli tasvir deb belgilay olamiz, chunki, u bizning ko'z oldimizda mavhum mohiyat o'rniiga uning muayyan realligini qo'yadi”<sup>1</sup>.

Adabiyotshunoslikda obraz tushunchasiga ta'rif berilar ekan, bir qator olimlarimiz tomonidan turlicha ta'rif berilgan:

I.Xotamov, B.Sarimsoqov "Adabiyotshunoslik terminlari ruscha-o'zbekcha lug'atida "San'at va adabiyotda hayotni o'ziga xos badiy shaklda aks ettirgan manzara va xarakterlar. Obraz obyektiv voqelikni u yoki bu tarzda inson ongida ini'kos etishi"<sup>2</sup>, - deya ta'rif berishgan. Atrofimizda sodir bo'layotgan har qanday vaziyat, hodisa, holat birinchi navbatda ongimizda o'z ifodasini, o'z aksini, o'z chizgisini chizadi. Bu esa o'z navbatida ayni shu voqeа- hodisalarni obrazga ko'chishiga, obrazlarda muhrlanishiga olib keladi. "Obraz" termini rus tilidan olingen bo'lib, o'zbekcha tarjimada "aks" degan ma'noni anglatadi. Masalan, kishining oynadagi aksiga nisbatan ham "obraz"deb aytildi. Biroq, bilasizki, so'zning lug'aviy ma'nosi bilan istilohiy ma'nosi farqlanadi: lug'aviy ma'no bilan istilohiy ma'no orasida tutash nuqtalar bo'lsa-da, mutaxassis istiloh ostida konkret ma'noni tushunmogi lozim bo'ladi. Shunga ko'ra, biz "obraz" deganda adabiyot va san'atning tafakkur shakli bo'lmish badiy obrazni nazarda tutamiz"<sup>3</sup>.

"Badiy obraz borliqning (undagi narsa, hodisa v.h.) badiy asardagi aksi. Biroq badiy obraz o'sha borliqning oddiygina aksi emas, yo'q, u borliqning san'atkor ko'zi bilan ko'rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlangan aksidir. Bu aksda borliqning ko'plab tanish izlarini topasiz, biroq bu endi biz bilgan borliqning ayni o'zi emas, balki tamoman yangi mayjudlik — badiy borliqdir"<sup>4</sup>. Badiy obraz bizni o'rab turgan jamiki borliqni, o'z tasavvur kengliklarimiz orqali qayta-qayta ishlagan, estetik jihatdan boyitilgan, ijodiy qayta yaratgan voqeа hodisalarimiz sanaladi. Inson ongi yeta olgan, o'z tasavvur olamiga sig'dira olgan barcha voqeа- hodisalar obrazlarda o'z ifodasini topadi. Adabiyotshunos olim D.Quronov ta'kidlaganlaridek, "adabiyotning tasvir mavzysi, avvalambor, insondir. Inson tasviri yo'q, u ko'zda tutilmagan joyda badiy adabiyot ham bo'lmaydi"<sup>5</sup>. Inson ongi orqali adabiyot va san'atda ijodiy qayta ishlanib, o'z mavhum aksini yaqqol namoyon ettirgan har qanday voqelik obraz sanaladi. Ongimiz bilan anglagan har qanday so'zni obrazlar vositasida ko'rishimiz mumkin. Birgina "Ona" tushunchasini eshitganimizda xayolimizda, tasavvurimizda gavdalananadigan biz uchun dunyodagi barcha-barchadan aziz, barchadan mehribon, faqat biz uchun umrini baxshida qila olgan munis ayol ko'z oldimizda gavdalansa, "Vatan" deganimizda o'ynoqlab yurgan bolaligimiz, butun umrimiz davomidagi eng quvonchli lahzalarimizning guvohi bo'lgan uyimiz, mahallamiz ko'z oldimizda yorqin aksini topgani badiy obraz sanaladi.

Badiy obrazni adabiyotshunoslikda keng va tor ma'noda faqat insonni tushunishimiz mumkin, keng ma'noda esa adabiyot va san'at butun borliqni aks ettirar ekan, voqelikni badiy tasvirlashdagi narsa, buyum, vodea-hodisa obraz sanaladi. Adabiyotning bosh mavzusi inson bo'lganligi uchun barcha voqeа-hodisalar badiy yaratilish jarayonida faqat va faqat inson uchun hizmat qiladi. Bu jarayonda obrazlilik" tushunchasi o'zining ahamiyatini ko'rsatadi. Demak, badiy asarda ma'lum bir voqeа-hodisani, narsa-buyumni, inson hatti-xarakteriga ijodiy yondashib tasvirlashimiz bu badiy obraz sanaladi. Badiy adabiyotda, badiy asarda oliy hilqat, oliy yaratiq

<sup>1</sup> Гегель. Эстетика. Т. 4. М., 1958. — 194.

<sup>2</sup> I.Xotamov, B.Sarimsoqov "Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. Т.: "O'qituvchi", 1979. 200-b

<sup>3</sup> Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. zyouz.com kutubxonasi. 68-b

<sup>4</sup> Д.Куронов, З.Мамажонов, М.Шералиева. Адабиётшунослик лўғати. Т.: «Akademnashr». 2013. 43 б

<sup>5</sup> O'sha manba

hazrati inson, u yashab kelayotgan butun borliq, jamiyat va undagi jarayonlar bilan, uni o'rab olgan tabiat, ijtimoiy-ma'naviy muhit, narsa-hodisalar bilan birgalikda, ular bilan chambarchas aloqada tasvirlanadi. Chunki hazrati inson hamisha shular qurshovida bo'ladi. Biroq bularning hammasi inson timsolini yo o'ziga xosligini ko'rsatishga yoki uning ham boshqalarga o'xshash tomonlari borligini ta'kidlashga, yoxud inson obraziga hissiy ta'sirchanlik bag'ishlashga, yoinki uning biror jihatini to'ldirishga xizmat qiladi. Ular yordamchi vositalar sifatida o'z bo'y-bastini ko'rsatadi. Badiiy tasvirning eng oliy maqsadi, niyati ko'pincha insonning o'zi turadi. Narsa va hodisalar tasviri o'z-o'zicha mustaqil badiiy qiymatga ega bo'lmaydi, ular insonni yorqinroq ko'rsatish, uning tabiatini teranroq ochish uchun kerak. Lekin inson yolg'iz o'zi mayjud bo'la olmaydi. Odam odamday yashashi va o'z insonligini namoyon etishi uchun juda ko'p narsalar kerak. Badiiy adabiyotda inson bilan bir qatorda, narsa-hodisalar muhit tasviri ham zarurdir. Faqat ularning badiiy adabiyotdagi tasviri inson holati, kechinmalariga bo'ysundirilgan bo'ladi. Yozuvchi voqelikni aks ettirar ekan, uni o'zi anglaganicha talqin qiladi. Hayotdagi voqe-a-hodisalar, odamlar va ularning dunyoqarashi, xarakter xususiyati, madaniy-ilmiy saviyasi, niyati, orzu-istagi ishlovidan o'tgandan keyingina obraz timsollar qiyofasida namoyon bo'ladi, badiiy asar shaklini oladi. Qisqasi, yozuvchi ijod jarayonida asaridagi obrazlarni individuallashtiradi, umumlashtiradi. Inson tasvirlash, avvalo, uning ichki dunyosini, kechinmalarini tasvirlash demakdir. Odam odamlar orasida, ya'ni jamiyatda yashaydi. Insonning kechinmalari jamiyatga oid turli-tuman masalalar bilan chambarchas aloqador bo'ladi. Shunday ekan, badiiy adabiyot inson kechinmalarini barcha murakkabliklari bilan aks ettirishi kerak. Bu esa ijodkordan yuksak iste'dod va badiiy mahorat talab qiladi. U hayot va odamlarni yaxshi bilishi, insonning holatini, imkonlari boricha, haqqoni, o'z qalbi bilan tuyganday aks ettirishi kerak. Shundagina yaratgan asarları odamlar qalbiga kuchli ta'sir etib, zavq-shavq uyg'otishi, kishilarni ezgulikka e'tiqod va go'zallikka muhabbat ruhida tarbiyalashi mumkin. Demak, badiiy adabiyotda insonning alohida shaxs qiyofasida yaratilgan, ayni paytda badiiy umumlashma xususiyatiga va hissiy ta'sir kuchiga ega bo'lgan surati badiiy obraz deyiladi.”<sup>1</sup>

Badiiy adabiyot asosida go'zallik haqidagi tasavvur yotadi. Bunday tasavvur insonning odam, hayot va jamiyat haqidagi orzu-armonlaridan tug'ilgan. Badiiy asar ana shu orzu-armonlarni aks ettirsagina tarbiyaviy quvvatga ega bo'ladi. Obrazda ob'yektiv anglash bilan sub'yektiv ijodiy tafakkur qorishib ketadi. Badiiy Obrazning o'ziga xos xususiyatlari real voqelikka va fikrlash jarayoniga bo'lgan munosabatda aniq namoyon bo'ladi. Obraz voqelikning badiiy in'ikosi sifatida real mavjud obyektning hissiy aniq, tayin zamon va makonda davom etgan, moddiy tugal, o'zicha yetuk xususiyatlariga ega bo'ladi. Obrazning badiiyligi mavjud voqelikni aks ettirish va uni anglash xususiyati bilan belgilanmaydi, balki badiiylik obrazning misli ko'rilmagan, yangi o'ylab chiqarilgan dunyo yarata olish imkoniyatida yuzaga chiqadi. Obrazda obyektiv mavjud va muhim jihatlar bilan birga, bo'lishi mumkin bo'lgan, mo'ljaldagi, xohishdagi, ya'ni turmushning emotsiyonal-irodaviy tomonlariga munosabat, uning ko'rinas, ichki imkoniyatlari bilan bog'liq xususiyatlar ham muxrlangan bo'ladi. Shuningdek, badiiy obrazda xayolot, bo'yoq, tovush, so'z va boshqalarni ijodiy ishlash yo'lli bilan san'at asari yaratiladi.

Ko'rinish turibdiki, yuqoridaqilarga asoslanib, san'at va badiiy adabiyotda biz so'z san'atkorining tasavvuri va iste'dodi bilan yaratilgan, bilvosita va o'zgartirilgan, voqelik tasvirini, og'zaki vositalar va so'z yordamida yetkazish uchun o'zgartirilgan xayoliy olamning qayta yaratilgan ini'kosini badiiy obraz vositasida ko'rishimiz mumkin.

Obraz-badiiy adabiyotda, badiiy asarda tasvirlangan inson hayotining surati, yozuvchi hayotni tasvirlab, bu haqda o'z fikrlarini bildiradi, tasvirlar yordamida odamlarning turli sharoitlardagi xatti-harakatlariga, tabiat hodisalariga munosabatini ochib beradi va ularni asarda ko'rsatib, o'z fikrlarini bayon qiladi. Badiiy obraz-bu voqelikni san'at tomonidan aks ettirish shakli, ijodiy tasavvur yordamida yaratilgan rassomning estetik ideali asosida o'zgartirilgan, inson hayotining aniq va shu bilan birga umumlashtirilgan tasviri. Badiiy obraz badiiy asarning bir qismi bo'lishi mumkin, lekin u ham unga teng bo'lishi va hatto undan ham oshib ketishi mumkin. Badiiy obraz san'at va adabiyotshunoslikning eng muhim atamalaridan biri bo'lib, u voqelik va san'at o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatishga xizmat qiladi va umuman san'atning o'ziga xos xususiyatlarini eng aniq ifodalaydi. Badiiy obraz odatda san'atda voqelikni aks ettirish shakli yoki vositasi sifatida belgilanadi, uning o'ziga xos xususiyati mavhum g'oyani konkret hissiy shaklda ifodalashdir. Badiiy obraz-bu san'atga xos bo'lgan haqiqatni o'zlashtirish va o'zgartirishning maxsus usulini tafsiflovchi estetika toifasi. Obraz badiiy asarda ijodiy qayta yaratilgan har qanday hodisa deb ham ataladi, Yuqorida biz ko'rib o'tgan barcha qarashlar san'atshunoslari va adabiyotshunoslari tomonidan turli davrlarda berilgan “obraz” ta'riflarining kichik bir qismidir. Ularning har biri ushbu kontsepsiyanı ishlab chiqishga hissa qo'shadi va ularning tahlili ushbu tadqiqot uchun qiziq bo'lgan umumiyy qoidalarni aniqlash imkonini beradi.

Shuni hisobga olish kerakki, obraz mantiqiy tushuncha emas va ilmiy-nazariy fikrlash asosida emas, balki umumlashtirilgan predmet tasavvurlari, kayfiyatlar, tajribalari asosida yaratiladi va badiiy asarlarda inson mavjudligining tashqi va ichki dunyosi hodisalarini o'zlashtirish shaklidir. Badiiy obraz nafaqat mavjud voqelikni aks ettiradi va anglaydi, balki adabiy asar muallifi tomonidan ijodiy ravishda o'zgartirilgan yangi, xayoliy dunyonи yaratadi. Ushbu tasavvur yaratig'i yozuvchining hayotiy tajribasida to'plangan materialga asoslangan. Badiiy

<sup>1</sup> Д.Қурунов, З.Мамажонов, М.Шералиева. Адабиётшунослик луғати. Т.: «Akademnashr». 2013. 45

adabiyot umumlashtirish yo'liga, individual faktlarga umumiylashtirish xususiyatlarni berishga urinishga aylanadi va bunga yozuvchi yoki shoirning boy hayotiy tajribasi asosida erishiladi. Badiiy adabiyot inson hayotining aniq rasmini yaratadi, bu orqali umumlashtirish porlay boshlaydi va muqarrar ravishda o'quvchini u yoki bu hayot hodisasini baholashga olib keladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Гегель. Эстетика. Т. 4. М., 1958.
2. I.Xotamov, B.Sarimsoqov "Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. Т.: "O'qituvchi", 1979.
3. Dilmurod Qur'onov. Adabiyotshunoslikka kirish. ziyouz.com kutubxonasi.
4. Д.Қурунов, З.Мамажонов, М.Шералиева. Адабиётшунослик лугати. Т.: «Akademnashr». 2013.

**Nilufar Turg'unova,**

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU tayanch doktoranti*

## LOYIHA TEKNOLOGIYASI VA UNDAN ONA TILI TA'LIMIDA FOYDALANISH

**Annotatsiya.** Maqolada loyiha ta'lif texnologiyasining ilmiy-metodik asoslari, rivojlanish tarixi va tamoyillari haqida so'z yuritilgan. Mazkur texnologiyaning ta'lif jarayonidagi o'rni va ona tilini o'qitishda foydalanish bo'yicha fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** loyiha texnologiyasi, o'quv loyihasi, texnologiya tamoyillari, til ta'limi, lingvistik kompetensiya, nutqiy kompetensiya.

**Abstract.** The article talks about the scientific-methodical foundations, development history and principles of project technology. Opinions on the role of this technology in the educational process and its use in teaching language are presented.

**Keywords:** project technology, educational project, principles of technology, language education, linguistic competence, speech competence.

Ta'lif texnologiyalari o'qitish jarayonining sifatli va samarali bo'lismi muhim omillardan biridir. Pedagogikaga o'tgan asrda kirib kelib bugungi kunga qadar o'z dolzarbigini yo'qotmagan loyiha texnologiyasi o'quvchilarda 4K modeli asosidagi ko'nikmalarni (tanqidiy fikrash, jamoada ishlash, ijodkorlik, muloqot qila olish) shakllantirishga katta yordam beradi.

Loyiha texnologiyasi bu o'quvchilar uchun muammoli shaklda tuzilgan topshiriq bo'lib, ularning maqsadli faoliyati; o'qituvchi va o'quvchilar, shuningdek, o'zaro o'quvchilar orasida munosabatlarni tashkil etish shaklidir [1:13]. N.Y.Paxomovaning fikriga ko'ra, har bir loyihaning asosida muayyan muammo yotadi. Muammo bo'lmasa faoliyat ham bo'lmaydi. Loyihadagi muammo uni hal qilishga qaratilgan faoliyatning motivini belgilaydi. O'quv loyihasi shunday didaktik vositaki, u o'quvchilarga loyiha yaratish imkonini beradigan, topshiriqni bajarish yo'lida muayyan vaziyatlarda kelib chiquvchi muammolarni hal qilishga qaratilgan jarayondir [1:13]. Shu tariqa o'quvchi loyiha uchun g'oya/muammoni tanlash, maqsadni belgilash, vazifalarni taqsimlash, loyiha ustida ishlash va natijani qo'lga kiritish kabi bir nechta bosqichlarni amalga oshirish orqali o'z loyihasini taqdim etadi. Bunda loyihaning natijasi bilan birgalikda uni bajarish jarayoni, natijagacha bosib o'tiladigan yo'l ham niyoyatda muhimdir. Aynan shu jarayonda o'quvchi nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llaydi, ko'nikmalar malakaga aylanib boradi. Shuningdek, o'quvchida qat'iyatlilik, mas'uliyatlilik, jamoa bo'lib ishlash sifatlarini shakllantirishda ham mazkur texnologiyaning ahamiyati katta.

Bir qator adabiyotlarda loyiha texnologiyasining nazariy asoslarini ishlab chiqqan va faoliyatda qo'llagan shaxs sifatida amerikalik pedagog V.X.Kilpatrick nomi tilga olinadi. U o'zining "Loyiha metodi" (1918) nomli maqolasida mazkur texnologiya konsepsiyasini ishlab chiqdi. Lekin Kilpatrickka qadar ham loyiha texnologiyasiga ta'linda juda ko'p murojat qilingan. Bu texnologiya ancha uzoq o'tmishta ega bo'lib, uning rivojlanish tarixini 5 davrga bo'lish mumkin [2]:

|             |   |
|-------------|---|
| 1590 – 1765 | Rim va Parijdagi arxitektura akademiyalarida talabalar aniq vazifalar ustida ish olib borishar edi, masalan, biror haykal, favvora yoki saroyning loyihasini yaratish |
| 1765 – 1880 | Loyiha metodi ta'liddagi doimiy usullardan biriga aylana boshladidi. Uni Fransiya, Shvetsariya, Germaniyadagi injenerlik maktablarida qo'llay boshlashdi              |
| 1880 – 1918 | Kelvin M.Vudvord loyiha konsepsiyasini mifik mashg'ulotlari uchun moslashtirdi. Bosqich-ma-bosqich loyiha texnologiyasi barcha fanlarda tarqala boshladidi            |

|                   |   |
|-------------------|---|
| 1918 – 1965       | Kilpatrick loyihani “ijtimoiy muhitda amalga oshiriladigan maqsadli faoliyat” ekanligini tushuntirib berdi. Boyda X.Bode, Djon Dyui va boshqa amerikalik pedagoglarning tanqidiy fikrlaridan so‘ng Kilpatrickning yondashuvi AQShda biroz jozibadorligini yo‘qotadi, lekin Yevropa, Hindiston, Sovet Ittifoqi tomonidan umumiy ma‘qullanadi |
| 1970-yildan keyin | Hozirda demokratik jamiyatdagi yagona adekvat ta’lim metodi hisoblanuvchi loyiha metodi Germaniya, Niderlandiya va boshqa Yevropa davlatlarida yangidan ochiladi hamda an'anaviy o‘quv dasturi uchun muhim qo‘sishimcha bo‘lib xizmat qila boshladi   |

Adabiyotlarda loyiha ta’lim texnologiyasining tamoyillari quyidagicha belgilangan [3]:

Aniq belgilangan maqsadga egalik tamoyili – loyihani bajarishdan avval uning maqsadi aniq va tushunarli qilib belgilangan bo‘lishi lozim.

Erkinlik tamoyili – loyihani bajarish uchun, avvalo, o‘quvchining o‘zida xohish bo‘lishi lozim. O‘quvchi o‘z tasavvurlarini to‘liq va erkin yuzaga chiqarishi uchun uni turli xil cheklovlar, majburlashdan ozod qilish kerak.

Foydalilik tamoyili – bajariladigan loyiha o‘quvchi uchun foydali bo‘lishi, nazariy bilimlarni amaliyotda mustahkamlashga qaratilgan bo‘lishi zarur.

Tajribaviylik tamoyili – loyihani bajarish davomida o‘quvchi shaxsiy tajriba orttirib boradi: yangi faktlar, ma’lumotlar bilan tanishadi, bilim zaxirasi kengayib boradi.

Haqiqiylik tamoyili – loyiha real hayot bilan, kundalik vaziyatlar bilan bog‘langan bo‘lishi kerak. Bu o‘quvchilarga topshiriqni tabiiy sharoitlarda sinab ko‘rishlari va bajarishlariga imkon beradi. Mavhum va xayoliy muammolar loyiha sifatida berilmaydi

Ijtimoiy tajriba tamoyili – loyiha o‘quvchini ijtimoiy hayotga tayyorashga qaratilgan bo‘lishi lozim. Yaxshi loyiha o‘zida ijtimoiy ehtiyojlarni aks ettiradi va jamiyat rivojiga e’tibor qaratadi.

Loyiha ta’lim texnologiyasi bir qator afzallikkarga ega bo‘lishi bilan birlashtiriladi, ayrim kamchiliklardan ham xoli emas:

- Mehnat talab qiladigan jarayon;
- Loyihani samarali yakunlash uchun tajribali, bilimli va kreativ o‘qituvchi zarur;
- Bu texnologiya barcha fanlarda foydalanish uchun mos emas;
- Loyihani bajarish uchun tabiiy sharoit yaratib berishning har doim ham iloji yo‘q;
- Asosan yuqori sinflarda foydalanish uchun mo‘ljallangan;
- Ba’zi loyihalalar qo‘sishimcha xarajat talab qiladi [3].

Sanalgan kamchiliklarni mutlaq deb qabul qilmaslik kerak, misol uchun, texnologiyaning talablari, bajarilishi bosqichma-bosqich, sodda tarzda tushuntirib borilsa kichik sinflarda ham bemalol qo‘llash mumkin. Bunda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda kichik loyihalarni vazifa qilib topshirish maqsadga muvofiq.

Ta’limda loyiha usuli dastlab chizmachilik, muhandislik, arxitektura singari sohalarda qo‘llangan bo‘lsa, keyinchalik boshqa fanlarni o‘qitishda, xususan, til ta’limida ham faol qo‘llanila boshlandi. Xorijiy tillarni o‘qitishda mazkur texnologiyaning samarasini haqida ko‘pgina xorijilik va o‘zbek olimlari ilmiy izlanishlar olib borganlar. Bugungi kunda chet tillarini o‘qitishda loyiha texnologiyasidan intensiv ravishda foydalaniladi. Ta’limda loyihalalar bilan ishslash o‘quvchilarga xorijiy tildan atrofdagi dunyoni bilish, o‘z fikrlarini ifodalash va boshqalarning fikrini tushunish hamda idrok etish vositasida foydalanish imkoniyatini beradi. Loyiha texnologiyasi o‘rganuvchilarda sotsial-madaniy kompetensiyani rivojlantirishda eng samarador usullardan biri hisoblanadi [4: 110]. Ona tili ta’limida ham loyiha texnologiyasidan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Loyiha texnologiyasi o‘quvchida ona tili faniga oid bo‘lgan nutqiy va lingistik kompetensiyalar, shuningdek, kommunikativ, axborotlar bilan ishslash, shaxs sifatida o‘zini rivojlantirish kabi tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilgandek, o‘quvchi muayyan loyiha ustida ishslash davomida bir nechta bosqichlarni bosib o‘tadi, ona tili darslarida o‘rgangan grammatik bilimlarini bevosita faoliyatda qo‘llash orqali konkret mahsulot yaratadi. Bunda o‘quvchi faqatgina darslik bilan chegaralanib qolmaydi, qo‘sishimcha adabiyotlar, turli manbalardan o‘zi uchun zarur bo‘lgan materiallarni izlab topadi. Bu orqali o‘quvchida axborotlar bilan ishslash, ularni saralash, tizimlashtirish kabi sifatlar ham shakllana boradi. Bugungi kunda ona tilini o‘qitishning asosiy maqsadi o‘z fikrini ham og‘zaki, ham yozma ravishda aniq, erkin, savodli tarzda ifodalay oladigan o‘quvchini tarbiyalashdir. Bu maqsadga o‘quv yili davomida turli loyihalalar bilan ishslash orqali erishish mumkin.

Ona tili darslarida o‘quvchilarga turli xil ko‘rinishdagi loyihalarni tayyorlashni vazifa qilib topshirish mumkin. Masalan:

- gazeta yoki jurnal sahifasini tayyorlash;
- reklama banneri, e’lonlar yaratish;

muayyan mavzuda videorolik tayyorlash  
lug'atlar tuzish;  
intervyu, suhbat tashkillashtirish.

Ma'lumki, loyihalar individual va jamoaviy shaklda tayyorlanadigan; qisqa va uzoq muddatli; sodda va murakkab kabi turlarga tasniiflanadi. Qisqa muddatli minilojihalar 2-3 darsga mo'ljallab tuziladi, uzoq muddatli loyihalarni esa ma'lum bir chorak davomida, hatto bir o'quv yili davomida ham bajarish mumkin. Loyiha texnologiyasi keng qamrovli va mehnat talab qiladigan jarayon bo'lganligi sababli, barcha jarayonlar o'qituvchi tomonidan batafsil tushuntirilgan holda, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak. Lekin o'qituvchi faqatgina yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi va o'quvchilar faoliyatini tartibga solib turuvchi ekanligini unutmasligi lozim. Chunki texnologiyaning asosiy maqsadlaridan biri o'quvchinining ijodkorligini, qobiliyatlarini namoyon qilishdir. Topshiriq berishdan avval kutilayotgan natijaning maqsadini aniq belgilab olish hamda o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish maqsadga muvoifiqdir.

Quyida 7-sinf Ona tili darsligi misolida loyiha texnologiyasidan foydalanishni ko'rib chiqamiz. Darslikdag'i "Ijtimoiy tarmoqlar" (3 soat) mavzusi bo'yicha loyiha tayyorlashning taxminiy rejasi:

Birinchi darsda loyiha nima ekanligi haqida qisqacha ma'lumot beriladi. O'quvchilar bajarishi lozim bo'lgan topshiriq bayon etiladi.

Topshiriq: Telegram messenjerida "Ijtimoiy tarmoqlardagi izohlarda muomala madaniyati" mavzusida post tayyorlash (mavzu doirasida sarlavhani tanlash ixtiyor). Keyingi darsgacha o'quvchilar juftlik ko'rinishida guruh shakllantirib kelishlari va loyihaning maqsadini aniq yozib kelishlari kerak.

Ikkinchi darsda o'quvchilarning maqsadlari tinglanadi, loyiha rejasi tuziladi.

Bu postni nima maqsadda yozyapsiz? Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilariga izoh yozishda hurmat va axloq chegarasidan chiqmaslikni uqtirish; noo'rin izoh yozuvchilarni tanqid qilish; izoh yozish bo'yicha fikrlar bilan o'rtoqlashish va hokazo. Shuningdek, o'quvchilar tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar aniq belgilab beriladi;

- ijtimoiy tarmoqlardagi postlar, audio, videokontentlarga yozilgan izohlarni kuzatish, ularni tahlil qilish;
- Telegram messenjerida "Ijtimoiy tarmoqlardagi izohlarda muomala madaniyati" mavzusida post tayyorlash;
- tayyorlangan postni guruhlarga tarqatish va eng ko'p ko'rishlar sonini yig'ish.

**O'quvchilar tomonidan yozilgan postni o'qish va kim ko'p ko'rishlar sonini yig'ganligini aniqlash ishlarni onlayn tarzda Telegram guruhda amalga oshirish mumkin.**

**Keyingi darsda esa g'olib ishtirokchilar taqdirlanadi va postlar muhokama qilinadi.**

O'quvchilar yozgan matnning tili, uslubi, imlosi, fikrni qay darajada yetkazib bera olganligi tahlil qilinadi. Ixtiyor ravishda g'oliblar sonini ko'paytirish, o'quvchilarni bir nechta nominatsiyalarda taqdirlash mumkin (eng tanqidiy post, eng mazmunli post, eng ko'p reaksiya yig'gan post....).

Mazkur loyiha ishi kichik loyiha turlariga misol bo'la oladi. Bundan ko'zlangan maqsad o'quvchilarda yozma nutq malakasini, o'z fikrini aniq, qisqa, misollar bilan ifodalay olish ko'nikmalarini rivojlantirish hisoblanadi. O'quvchida tanqidiy tahlil, ijodiy fikrlash sifatlarini shakllantirishga ham yordam beradi. Postni guruhlarga tarqatish va ko'rishlar yig'ish esa maqsadga erishish uchun yordamchi vosita. Chunki bugungi kun o'quvchisini shunchaki matn yozishga qiziqtirish juda qiyin masala. O'quvchilarning kundalik hayotlari, qiziqishlarini hisobga olish ularga qo'shimcha motivatsiya beradi.

Xulosa o'rnila aytish mumkinki, loyiha ta'llim texnologiyasidan faqatgina aniq yoki tabiiy fanlar doirasida emas, ona tili ta'llimida ham unumli foydalanish mumkin. Bu texnologiya orqali o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq savodxonligini oshirish, muloqot ko'nikmasini rivojlantirish, berilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash va mustahkamlashga erishish mumkin. Shuningdek, mazkur texnologiya bolada jamoa bo'lib ishlash, mas'uliyatlilik, javobgarlik sifatlarini tarbiyalashda ham muhim o'rinn tutadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Пахомова Н.Ю Метод учебного проекта в образовательном учреждении: Пособие для учителей и студентов педагогических вузов. – 3-изд., испр. и доп. – М.: АРКТИ, 2005. – 112 с.
2. <https://education.stateuniversity.com/pages/2337/Project-Method.html>
3. <https://www.studyquirk.com/project-method-stepstypesprinciples-merits-and-demerits/>
4. Ermatov U. Using the project method to improve the efficiency of a foreign language lesson // International journal on integrated education 2020,3. P.109-111.
5. Azimova I., Mavlanova K., Qur'onov S., Tursun Sh., Hakimova N., Siddiqov M. Ona tili. Umumiyy o'rta ta'llim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Toshkent – 2022. 224 b.

## QORAQALPOQ TILIGA XORIJY TILLARDAN O'ZLASHGAN SO'ZLARNING O'RGANILISHI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada chet tillaridan qoraqalpoq tiliga o'zlashgan so'zlarning o'zlashish jarayoniga bog'liq masalalari yoritiladi. Qoraqalpoq tilshunos olimlari ham bu masalaga o'z vaqtida qiziqish bildirdi va maxsus izlanishlar olib bordi. Bu jarayonda mahalliy tilshunos olimlarining ilmiy izlanishlari, o'zlashtirish jarayonini o'rganishda madaniy-tarixiy va til omillari alohida o'rganildi.

**Kalit so'zlar:** o'zlashmalar, lisoniy birlik, orfografiya, chet tillar, qoraqalpoq tili

**Abstract:** this article highlights issues related to the process of assimilation of foreign words into the Karakalpak language. Karakalpak linguists also showed interest in this issue and conducted special research. In this process, the scientific research of local linguists was separately studied cultural-historical and linguistic factors in the study of the assimilation process.

**Key words:** borrowing, linguistic unity, spelling, foreign languages, Karakalpak language.

Tillarning bajaradigan ijtimoiy vazifasini, ularning o'zaro aloqasini va boyib borishini, xalqimizga qardosh xalqlarning, milliy tillarining va boshqa tillarning bir-biriga ta'sirini, ta'sir etish yo'llarini ilmiy tomonlama o'rganish nazariyi va amaliy ahamiyatga ega. Ko'plab olimlarning ilmiy izlanish ishlari bu muammoni hal etishga yo'naltirilgan. Qoraqalpoq tilshunos olimlari ham bu masalaga o'z vaqtida qiziqish bildirdi va maxsus izlanishlar olib bordi. Bu jarayonda mahalliy tilshunos olimlarining ilmiy izlanishlari, o'zlashtirish jarayonini o'rganishda madaniy-tarixiy va til omillari alohida o'rganildi. Madaniy-tarixiy o'zlashmalar ikki guruhda o'rganiladi: 1) bir tildan ikkinchi tilga narsa atamalari, tushuncha yoki o'sha tildagi onaloglar yordamida o'zlashgan so'zlar; 2) tilda bor bo'lgan so'zlardan farq qiladigan yangi tushuncha asosida kirib kelgan so'zlar. Xorijiy tillaridan qoraqalpoq tiliga kirib kelgan, o'zlashgan so'zlarni quyidagi xossalarga asoslanib o'rganishni taklif etamiz: manba asosida (to'g'ridan to'g'ri va boshqa til orqali); so'zning tarkibi asosida (o'zlashgan so'zlar va madaniy o'zlashganlar); o'zlashtirilgan tildagi assimilyatsiya qonunlarining kirib kelish bosqichlari; boshqa tildan kirib kelgan so'z mohiyatining o'zgarishi. Rus tilshunos olim R.A.Budagov, «o'zlashtirish jarayoni til egalaringning passiv nisbati bilan ro'yobga oshirilmaydi», deb fikr bildiradi. Ya'ni, bu olimlar o'zlashgan so'zlar o'zlashtirilayotgan davrdagi tarixiy faktlarni o'z ichiga olgan holda o'zlashtiriladi [Budagov 1965:121].

Qoraqalpoq tilchi olimlari orasida R.Esemuratova peshqadamlardan bo'lib qoraqalpoq tili leksikasiga rus tili ta'sirini tadqiq etdi. U o'zining nomzodlik dissertatsiyasini ushbu muammoga bag'ishlab ko'zga ko'rinarli darajada izlanish ishlarini olib borgan, shu bilan lingvistika ilm-faniga katta hissasini qo'shgan.

R.Esemuratova yuqorida aytib o'tilgan qoraqalpoq tili so'z doirasining manbasi til asosida boyishi va taraqqiyotini teran o'rganib, qoraqalpoq tiliga faqatgina qardosh xalqlarning, shu jumladan sharq xalqlarining tillari o'z ta'sirini o'tkazib qolmasdan, boshqa tillar, shuning ichida rus tilining roli katta ekanligini ilmiy jihatdan dalillab beradi. Rus tilidan qoraqalpoq tiliga so'zlarning o'zlashishidagi asosiy sabablarini ko'rsatadiki, bu so'zlar qoraqalpoq tili leksikasini atroficha kengayishiga olib keladi. U so'zlarning sonini va sifat tomonlarini, qoraqalpoq tiliga kirib kelgandan so'ng ularda bo'lgan fonetik, imloviy, grammatik hamda semantik qarashlardan o'zgarishga uchraganlarini, ularning sababini namoyish qiladi. "O'zlashtirilgan so'zlardagi har xil o'zgarishlar tillar orasidagi farqlardan, har bir tilning o'ziga xos bo'lgan xossalardan kelib chiqadi", -deb yozadi olim [Esemuratova 1966:40].

Shu jumladan tilchi olim qoraqalpoq tiliga faqatgina rus tilidan o'tgan so'zlarga emas, balki rus tili orqali xorijiy tillardan kirgan so'zlarni ham tahlilga tortadi, ularni aniqlaydi, hisoblaydi, har bir so'zni teran tahlillashga erishadi. Bularning barchasini o'z maqolasida aniq bayon etadi. R.Esemuratova o'zining bu boradagi ilmiy izlanish ishlarining samarasini 1966 yili monografiya sifatida chop etadi. Uning bu kitobi ham tilchi olimlar, o'qituvchilar orasida katta qiziqishlik paydo qiladi. [R.Esemuratova 1966:40].

Til ilm-fanidagi ushbu masala boshqa olimlar kabi professor E.Berdimuratovning ham e'tiborini o'ziga jalb qiladi. Lingvistika sohasidagi olim o'zining doktorlik dissertatsiyasini, bir qancha maqola va monografiyalarini tilning leksikologiya sohasiga bag'ishlaydi. U o'zining «Hozirgi qoraqalpoq tilining leksikologiyasi» nomli ishida qoraqalpoq tiliga boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarga keng joy ajratgan.

E.Berdimuratov o'zining monografiyasida bu masalaga to'xtalib, o'zlashgan so'zlarning tarkibi va tildagi assimilyatsiya qonunlarining kirib kelish bosqichlari; boshqa tildan kirib kelgan so'z ma'nosining o'zgarish jarayonini o'rgangan. Shuning bilan birga u arab tilidan kirgan so'zlar, fors-tojik so'zlar, rus tilidan va rus tili orqali boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarni o'rganadi, u bu masalani asosan uch guruhga bo'lib o'rganadi. Dastlab, turkiy va mongol tillaridagi mushtarak so'zlarga to'xtalib, bir xil so'zlarning kelib chiqishi, ularning bir tilga xos bo'lmay hammasiga baravar ekanligini, u so'zlarda faqatgina fonetik jihatdan o'zgarishlar mavjudligini misollar bilan dalillab ko'rsatadi.

Olimning fikricha rus tilidan va rus tili orqali boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar ancha va ular qoraqalpoq tilining leksik qatlarni boyitishda o'zining alohida o'rniga ega. Binobarin u bu masalaga ham ko'proq to'xtaladi. So'zlarning rus tilidan hamda rus tili orqali boshqa tillardan kirib kelishi sababli E.Berdimuratov rus aholisi bilan qoraqalpoq aholisi orasidagi uzoq tarixga ega bo'lgan aloqalardan izlaydi va uni topadi.

Rus tilidan va rus tili orqali boshqa tillardan qoraqalpoq tilining leksikasiga so'zlar va atamalar uch turli yo'nalishda qabul qilinganligi professorning ishida bayon etilgan. Ularning har biri misollar orqali dalillangan. Ustoz olim qoraqalpoq tiliga rus tilidan bevosita o'tgan so'zlarni ko'rsatish bilan birga u orqali boshqa tillardan yunon, lotin, nemis (nemis bo'lishi), inglizcha (ingliz bo'lishi), farang, italyan, ispan, polyak tillaridan o'zlashgan so'zlar aniq misollar bilan yoritilgan. Har bitta tildan 10-15 so'z misol sifatida berilgan.

Shu jumladan, E.Berdimuratov elimizning mustaqillikka erishganidan keyingi tildagi o'zgarishlar, uning boyishi, davlat til haqidagi qonunning qabul qilinishi, tilimizni boyitishga bo'lgan harakatlar haqida fikr bildirib, shunga qaramay ya'ni o'zimizda bor so'zlarni qo'llamasdan ruscha so'zlarni tatbiq qilinishi salbiy holat ekanligi haqida kuyunib aytadi. Lekin ingliz, nemis deb aytishning o'rniga olimning o'zi ham anglichan, nemets degan atamalarni qo'llagan. Bu so'zlarda qoraqalpoq tilining emas, balki rus tilining ta'siri, bor deb aytish mumkin. Bu albatta bizning fikrimiz, buning sababi yuqoridaqidek bo'lganda talqin etishga ham yozishga ham qulay bo'lgan bo'lardi.

Olimning fikri bo'yicha so'z o'zlashishdagi yagona sabab va shart ikkita tillilikdir. Ikki tillilik uzoq tarixga ega. Tarixiy manbalar bo'yicha VIII-X asrlarda O'rta Osiyoda fors va turk xalqlarining yuqori qatlarni odamlari o'z tilida gapirish bilan bir qatorda arab tilida ham gaplashishga va yozishga harakat qilganlar. Masalan VII-VIII-asrlarda O'rta Osiyolik turki xalqlarining orasida o'zlarining badiiy asarlarini arab tilida yozgan shoirlar va yozuvchilar bo'lgan. Bunga misol sifatida Ozarbayjonlik Ibn Yasara, Abul Abbas Ama, Musa Shaxaviy va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Shuningdek XVIII-XIX asrlardagi qoraqalpoq tilidagi arab o'zlashtirmalari haqida ham fikr bildirib u davrdagi o'zlashtirmalarning oldingi asrlarga qaraganda o'z xususiyatiga ega ekanligini aytib ketadi. Ushbu davrning o'ziga xosligi shundan iboratki, u ham bo'lsa bu davrlarda klassik (mumtoz) adabiyotning yuzaga kelishidir.

Shuning bilan bir qatorda bir qancha yozma hujjatlar paydo bo'ladi. Ulardagi arab so'zlarining soni oldingi asrlarga qaraganda biroz ko'proq bo'lgan mumtoz adiblardan Berdaq, Ajiniyoz, Kunho'ja, Jiyan jirovlarning salmoqli badiiy asarlarini leksik jihatdan tortib qaysi birining badiiy asarlarida arab o'zlashtirmalari ko'proq, qaysilarida ozroq ekanligini, ularning tutgan o'rnini hisoblab chiqqan va ilmiy asosda bayon qilgan.

XVIII-XIX asrlardagi yozma manbalari tilining leksikasi jihatidan tahlillab ko'rganimizda, u yerda hozirgi zamon qoraqalpoq tilida qo'llanilib kelayotgan arab o'zlashtirmalarining to'liq shakllangani ko'rindi, deb yakun yasaydi.

Tilshunos olim tomonidan arab o'zlashtirmalarining sovet davridagi holatini tasvirlashga ham katta e'tibor berilgan. O'sha davrda yetishib kelayotgan turli imkoniyatlarni, aholi xo'jaligining taraqqiyotini, bularning barchasi tilimizda, ayniqsa leksikada o'z ko'rinishiga ega bo'lganligini baholaydi, arab tilidan o'zlashtirilgan so'zlarning o'sha davrdagi holatini ochiq namoyish qiladi. Arab o'zlashtirmalari davr talabiga loyiq har xil o'zgarishlarga uchraganligini namoyish qiladi. Bunday qurilish so'z qismalarning tarkibida ham rus so'zları keng joy oldi znak pocheta-hurmat belgisi, doska pocheta-hurmat taxtasi, srednyaya shkola-o'rta maktabi va boshqa.

Rus so'zlarini tarjima qilish orqali arab so'zları asosida berish yo'li bilan ham o'zlashtirmalarning aniqroq qoliplashishi yaratiliganligini muallif misollar orqali dalillab beradi: *действительный chlen, хақиқиу а'зо, энергия-күвват, эпоха-дavr, өспитамане-тарбия, политика-сиюсат, ученый-олим, постановление-қарор* va yana boshqa. Demak, muallifning fikricha rus so'zlarini kalka va tarjima orqali berishda arab so'zlarining foydalanishi ularning yangi ma'nolarga ega bo'lishida va qoraqalpoq tilining so'z boyligining boyishida katta ahamiyatga ega ekan. Albatta, bunday so'zlarning tilimizga takroriy kirib kelishining ham o'z sabablari bor. Asosiy sabab Respublikamizning mustaqillikka erishishi, qadriyatlarimizning takroriy tiklanishi, til haqidagi Qonunning ishlab chiqilishi, uning amalga oshirilishi, tilimizni tozalashga bo'lgan harakatlar va boshqa.

Bulardan tashqari K.M.Qoshanov tomonidan bir nechta ilmiy faoliyatlar turli nashrlarda bosilgan va ularning barchasida ushbu muammoga ilmiy yechim topishga, tillarning o'zaro bog'likil tarafini izlanishga, shu tariqa qoraqalpoq tilining rivojlanishiga hissa qo'shishga bag'ishlanadi. Shu jumladan, professor K.M. Qoshanovning bu sohadagi eng e'tiborli va ahamiyatga ega bo'lgan mehnatlaridan biri «Xorijiy tillardan kirgan so'zlarning izoh lug'ati»dir. Lug'atda ingliz, fransuz, lotin, nemis, yunon, italyan, polyak tillaridan qoraqalpoq tiliga kirgan so'zlar berilgan: nemis tili - kontora, paket, preyskurator, aksiya, agent, lager, shtab, qo'mondon; golland tili - matros, reyd, flot, flag; fransuz tili - solon, lakey, avangard, kapitan, general, leytenant, kornet, korpus, buro, vitraj, botinok, garderob, jilet, asalto; ingliz tili - kompyuter, display, fail, interface, printer, barter, diller, windsurfing, scateboard, armwrestling, image, presentation, nomination, sponsor, video, show, talkshow b.r.

Ingliz tilidan kirgan 200 ta so'z lug'atdan o'r'in olib, ular aholi xo'jaligining turli sohalariga tegishli so'zlar. Lekin, o'zlashgan so'zlarning ko'plari iqtisodiyot, siyosat va kompyuter texnologiyalari sohalariga tegishli. Ularning ko'plari bir ma'noli bo'lsa, boshqalari ikki va undan ko'p ma'noli so'zlar. Har bir so'zning aholi xo'jaligining qaysi sohasiga

tegishli ekanligi bildirilgan, qiyoslashda aniq, tushunarli qilib bayon etilgan. Shuning bilan birga tilimizda ingliz tilidan kirib kelgan, o'zlashib ulgurgan so'zlar bo'lib, ular kundalik hayotimizda, og'zaki va yozma nutqda baravar tatbiq qilinadi. Biroq ushbu so'zlarning ko'plari lug'atga kiritilmagan: *antifreeze, outsider, outbuilding, businessman, basketball, block, post, gorilla* (антифриз; аут-спорт, аутбридинг, аутсайдер; бар, баскетбол, бизнесмен, блок ва бoshqalar).

Yuqorida keltirilgan fikrlarni mujassam etgan holda tilda o'zlashgan so'zlarning bir nechta tasnif (klassifikatsiya) turlari barchasi aniqlangan. Tilshunos olimlar o'zlashgan so'zlarni har xil rakurslardan o'rgangan va yoritgan, ya'ni o'zlashgan so'zlarning shakli, aniq bir til sistemasiga semantik qaram emasligi, so'z tarkibini to'ldirish manbai, rivojlanish saviyasi, til egalarining o'zlashish darajasiga asoslanib o'rganadi.

Qoraqalpoq tilidagi o'zlashgan so'zlarning o'rganilishi asosida aytishimiz mumkini o'zlashgan so'zlarning tasnifi hamma tillarda va bir-biriga xos kelavermaydi, sababi o'zlashgan so'zlar bir tilda aniq bir tizim sifatida til va madaniy talablarga javob bersa, boshqa bir tilda ular bajaradigan vazifalariga qarab bo'lib o'rganiladi. Tilshunoslikning bu masalasi bo'yicha olib borilgan ilmiy ishlarning soni ko'p bo'lismiga qaramay, bu til fenomeni hozirgi kunga qadar dolzarbligini yo'qotmadi.

#### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Арбекова, Т. И. Лексикология английского языка (Практический курс) : учебное пособие для II-III курсов ин-тов и фак. ин. яз-в / Т. И. Арбекова. - М.: Высшая школа, 1977. - 239 с.
2. Балли, Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка / Ш. Балли. - 2-е изд, стереотип. - М. : Эдиториал УРСС, 2001. - 416 с.
3. Будагов Р. А. Введение в науку о языке : учебное пособие / Р. А. Будагов. - 2-е изд., переработ. и доп. - М. : Просвещение, 1965. - 490 с.
4. Есемуратова Р. Октябрь ҳәм қарақалпақ лексикасы. –Нөхис.1966. – 126 б.
5. Реформатский А. А. Введение в языковедение / А. А. Реформатский. - М.: Аспект Пресс, 1998. - 536 с.

**Aziza Shodikulova,**

Samarqand davlat tibbiyot universiteti Tillar kafedrası PhD assistant

## MERONIMIYANING METONIMIK KOGEZIYADAGI ISHTIROKI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mediamatnlarining lingvistik tadqiqi masalalari ilmiy-tasnifiy asoslangan bo'lib, meronimiya va metonimiya hodisalarining bog'liqligi, eng avvalo, ularning har ikkalasining ham "yaxlit va bo'lak" munosabatiga asoslanishida ko'rindi. Meronimiya semantik jihatdan giponimiyaga mos keladi degan fikrlarga qo'shilgan holda ularning ikkalasi ham bir-biriga singib ketgani va bu hodisalar o'tasidagi farq elementlar munosabatida namoyon bo'ladi: giponim ma'lum turdagi munosabatlarning mahsuli bo'lsa, meronim qismning butunga munosabatini aks ettiradi.

**Tayanch so'zlar:** mediamatn, meronimiya, kogeziya, axborot, media, sotsium, madaniyat, diskursiv, sotsiolingvistik, nolisoniy tahlil.

**Annotation.** In this article, the issues of linguistic research of media texts are scientifically-classified, and the connection between the phenomena of meronymy and metonymy is seen, first of all, based on the relationship of both of them "whole and part". In addition to the idea that meronymy corresponds to hyponymy semantically, both of them are embedded in each other, and the difference between these phenomena is manifested in the relation of elements: hyponym is the product of certain types of relations, while meronym reflects the relation of part to the whole.

**Key words:** media text, meronymy, cohesion, information, media, society, culture, discursive, sociolinguistic, non-linguistic analysis.

**Аннотация.** В данной статье вопросы лингвистического исследования медиатекстов научно-классифицированы, а связь явлений меронимии и метонимии видится, прежде всего, на основе соотношения их обоих «целого и части». Помимо представления о том, что меронимия семантически соответствует гипонимии, оба они заложены друг в друге, а различие между этими явлениями проявляется в отношении элементов: гипоним является продуктом определенных типов отношений, а мероним отражает отношение части к целому.

**Ключевые слова:** медиатекст, меронимия, связность, информация, медиа, общество, культура, дискурсивный, социолингвистический, нелингвистический анализ.

**Kirish.** Meronimiya semantik jihatdan giponimiyaga o'xshab ketadi, chunki ularning har ikkalasida ham biri ikkinchisiga singish holati kuzatiladi. Ushbu hodisalarning o'zaro farqi elementlar aloqasida namoyon bo'ladi: giponim ma'lum tur munosabati mahsuli bo'lsa, meronim qismning yaxlitga munosabatini aks ettiradi. Giponim odatda "A is a kind of B" (A birligi V ning turidir) modelida izohlanadi.

Masalan: "it hayvonlar turidir" (a dog is a kind of animal) yoki "it hayvondir" (a dog is animal). Meronimiyaning izohlovchi model "A Vning bir qismida" (a is a part of B) ko'rinishiga ega. Masalan: "sahifa-kitobning bo'lagi" (a page is part of a book) yoki "kitobda sahifalar bor" (a book has pages). Bunda "page" birligi "book" birligining meronimiya deb talqin qilinadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Meronimiya va metonimiya hodisalarining bog'liqligi, eng avvalo, ularning har ikkalasining ham "yaxlit va bo'lak" munosabatiga asoslanishida ko'rindi, quyidagi misollarni qiyoslaymiz:

(1) The country has also been pouring money into biomass plants and solar installations – millions of panels now sit on German roofs and fields (NYT, August 29, 2018).

(2) Young people and families with children are increasingly facing homelessness, according to a study, which says rising numbers of people are finding themselves without a roof over their head (The Gardian, December 5, 2019).

Birinchi misoldagi "panels" elementi quyosh energiyasini to'plovchi eng muhim jihozlarni anglatayotib, "solar installations" elementi bilan anoforik zanjirni hosil qilmoqda. Ushbu holatda "panels" va "solar installations" elementlarining referenti bir xil va ular yagona bir tushunchani atamoqda. Ikkinci misoldagi "without a roof over their head" tuzilmasi ushbu kontekstda "yashash joyi (uyi) yo'q" ma'nosini ifodalamoqda, chunki roof "tom" house "uy"ning alohida qismidir. Shu bois, "without a roof" birikmasi "aysiz, boshpanasiz" ma'nosini anglatadi. Keltirilgan misollarda yaxlitning qismiga ishora qiluvchi shakllar yaxlit hodisa o'rnda qo'llanilmoqda.

Shunday qilib, "tushuncha o'rnda tushuncha" modelidagi metonimik munosabat "panels" va "solar installations" birliklarini o'zaro bog'lamoqda. Keltirilgan misollarning ikkinchisida esa ikki xil shakllarning meronimik munosabatga kirishayotganini kuzatamiz. Lekin ifodalanayotgan tushunchalar bir xil bo'lib qolaveradi.


Yuqorida olib borilgan tahlillar metonimik tafakkurning bevosita voqelik va olamning kontseptual manzarasining lisoniy tasvirida muhim vazifa bajarilishidan guvohlik beradi. Aynan shu kontseptual-lisoniy faoliyat turli tuman tushunchalarni aks ettiruvchi til birliklari tanlovin shartlaydi. Yagona bir referent va tushunchaga ishora qiluvchi lisoniy vositalarning qo'llanish matn mazmuni boyitish bilan bir qatorda, o'quvchi diqqatini jaib qilishga asos yaratadi. Boshqa tomondan, lisoniy birliklarning oqilona takrori matnning formal shakllanish vositasiga aylanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Matn tarkibida leksik kogeziya lug'aviy birliklarning assotsiativ aloqalari zamirida ham yuzaga keladi. J. Taylor metonimiya hodisasining mohiyatini "ma'lum bir kontseptual strukturada yonma-yon turadigan birliklarni o'zaro bog'lanishida" ko'radi (Taylor 1995: 123). Yagona kontseptual ma'noni tashkil qiluvchi birliklarning bog'lamlarni hosil qilish ehtimoli esa ancha yuqoridir. O'zbek olimasi D. Lutfullaevning ta'rificha, "verbal assotsiatsiyalar matnni hosil qiluvchi, uni semantik-sintaktik jihatdan shakllantiruvchi, tayanch birliklar vazifasini o'taydi" (Lutfullaeva 2017: 64). Qiyoqlang:

The martial art of wushu provided the first of an onslaught of gold medals for China at the Asian Games in Guangzhou, with the host nation excelling in competitions ranging from weight lifting (two gold medals) to dance (five).... On the first morning of the event, in which 45 nations are competing, the two – time world champion Yan Xiaocho won a gold medal in the Changuna discipline. Yuan set tone for China, which won 18 of the next finals. China had 28 medals over all. Japan and South Korea each picked up four gold medals (NYT, November 13, 2016).

Keltirilgan matn parchasida "games" "competitions", "champion" va "gold medal", "competitions" va "finals", shuningdek, "games" va "medals" juftliklarida assotsiativ bog'lanish namunalarini kuzatamiz. Mazkur maydondagi assotsiativ bog'lanishlarni quyidagicha tasvirlash mumkin:

**Chizma.** Leksik birliklarning kontseptual maydondagi assotsiativ bog'lanishi



**Tahlil va natijalar.** Matnda sport mavzusidagi xabar ma'lum qilinayotganligi sababli biz championlar, musoboqlar, sovrinlar haqida fikr yuritishimiz kutilgan hol. Ushbu tushunchalarning o'zaro aloqadorligi olam idroki bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Buning isbotini boshqa matnlar tahlili jarayonida ham ko'rishimiz mumkin: Police said in a statement Taesay that they arrested 26-year – old Emmett Bramble after a routine search at Golden Grove prison in st. Croix. It was not clear if Bramble had an attorney (WP, July 29, 2018);

The violence also reached Tunisia, one of the most moderate Muslim countries and the birth place of the Arab Spring. Three people died during clashes as protesters stormed the U.S. Embassy compound, climbing over walls and breaking a locked gate (WSJ, September 16, 2018).

Ma'lumki, biron kishi hibsga olinganida qonunga binoan uni himoya qiladigan advokat yollanishi kerak. Shu bois, keltirilgan parchalarning birinchisida "arrested" elementining mavjudligi keyingi qismda "attorney" birligining paydo bo'lishini taqozo etmoqda. Xuddi shuningdek, zo'rovonlik sodir bo'lganida vayronagarchilik va o'llimga yo'l qo'yilishi tabiiydir. Demak, ikkinchi parchadagi "violence", "clashes" va "died" birliklarining assotsiativ bog'liqligi ham kutilgan holdir.

**Xulosa.** Alqissa, leksik kogeziyaning turli ko'rinishlarda voqelanishi hech qanday gumon tug'dirmaydi. Tahlillar guvohlik berishicha, metonimiyaning "shakl-tushuncha" bog'lamidagi modeli leksik kogeziyaning barcha turlarida ustuvorlik qiladi. Ammo bu holat formal bog'lanishning kontseptual bog'lanishdan ayri yuzaga kelishi mumkinligi haqidagi g'ayrimantiqiy xulosaga olib kelmasligi shart.

#### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Hasan R. Coherence and cohesive harmony // Understanding reading comprehension. Delaware: International Reading Association, 1984. – P. 181-219.
2. Holy M.P. Pattern of Lexis in Text. – Oxford: Oxford University Press, 1991.
3. Bieweaczonck B. On formal metonymy // Perspectives in metonymy. – Frankfurt / Main: Peter Lag, 2007. – P. 43-67.
4. Шодикулова, А. З. (2022). Матнда көзөзия ходисаси.
5. Шодикулова, А. З. (2023). АНТОНИМЛАР ВОСИТАСИДА ШАКЛАНАДИГАН МЕТОНИМИК КӨЗЕЗИЯ. *Research Focus International Scientific Journal*, 2(5), 80-84.
6. Шодикулова, А. З. Asian journal of multidimensional research. *India (AJMRI)* Vol, 9, 151-152.
7. Шодикулова, А. З. (2021). Дискурсивный анализ производных метонимий. *Форум молодых ученых*, (4 (56)), 439-444.

**Shahnoza Sidiqova,**  
*Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti*  
*2-kurs tayanch doktaranti*

## ULUG'BEK HAMDAMNING "SAFAR" HIKOYASINING SYUJET XUSUSIYATI TALQINI

**Annotatsiya.** Maqolamizda asosiy ish bu hikoya janriga alohida to'xtalib o'tildi. Ulug'bek Hamdamning "Safar" hikoyasi ko'rib chiqildi va syujeti tahlil qilindi. Syujet xususiyatiga alohida to'xtalinilib, ularning barcha detallari topildi. "Safar" hikoyasi tahlil yo'naliishi nega aynan unday nomlangani va qarashlari inobatga olindi. Hayot yo'liz safarligi, ijodkor mahorati va tasvir usuli haqida so'z yuritildi.

**Kalit so'zlar:** nasr, hikoya, janr, bosh qahramon, tilmoch, haykallar, tugun, voqealar rivoji, konsentrik syujet, konflikt.

**Abstract.** In our the main work focused on this narrative genre. Ulug'bek Hamdam's story "Safar" was reviewed and the plot was analyzed. Plot feature were discussed separately and all their details were found. The trip story analysis direction why exactly so named and views in consideration received. The journey of our life path, artist's skill and image method was discussed.

**Keywords:** prose, story, genre, main character, translation, sculptures, knot, development of events, concentric plot, conflict.

Bilamizki, adabiyotimizda hikoya kichik janr hisoblanadi. Uning eng muhim xususiyatidan asosiy jihatlaridan biri aniq bir voqeaga asoslanadi. Voqealari syujetning muhim materiali, hayot ziddiyatlarini voqealar orqali aks ettirishda badiiy syujet orqali amalga oshadi. Hikoya inson hayotida yuz bergen ixcham voqeani lo'nda ifodalashga mo'ljallangan. Hikoyada tayyor voqealar ya'ni hayotdan bir parcha ifoda etiladi. Juda zarur detallar, obraz, syujet kabilalar bir-biri bilan uyg'un holda ko'rsatiladi. Hikoya mazmuniga ko'ra: lirik, psixologik, falsafiy, ilmiy- fantastic, satiric, humoristik yo'naliishlarga bo'linadi. Hozirgi adabiy jarayonda bahs-munozaraga falsafiy hikoyalardan biri Ulug'bek Hamdamning "Safar" hikoyasidir. "Safar" hikoyasi haqida to'xtalib o'tar ekanmiz, hikoya ikki qabilaning o'zaro kurashtasida doimo yashab yurganligiga guvoh bo'ladi. Hikoya voqealarini rivoji esa ummon qa'rida ikki qayiqning uchrashuvi va ularni nima bog'lab turgani haqida so'z yuritilib boshlanadi. Ikki qabila bir-biriga yuz ko'rmas, lekin ajdodlari bir ikki kishidan iborat bo'lib ikki qabilaga ajralgan insonlarning bu hayotdagisi safari qilgan ishlari va amalga oshirgan ko'rgan kechirgan kechinmalari haqida aytilgan. Voqealar asnosida shuni anglaymizki, insonlar qaysi-bobodan tug'ilib hayotdagisi mayda va ahamiyatsiz bo'lgan narsalar uchun, bog'lanib yashaydigan xotiralar orqali ikki qabila bir-biriga yov bo'ladi. "Ummon vazmin chayqaladi. Cheksiz masofalar o'z qa'riga sir yashirgan yanglig'

uzangan: ular bir vaqtning o'zida ham o'z bag'riga chorlaydi, ham o'zidan itaradi. Hozir esa suv yuzasini qalın oqish tuman qoplagani bois qayiqdan turib qaralganda burun ostinigina ko'z ilg'aydi: ikki quloch narida nima bor, koshki bilib bo'lsa...

Qayiq ichi baliqlarga liq to'lgan esa-da, baliqchilar to'rlarini yana suvgaga tashlagan ko'yи tek qotishgan. Tushib qolgan vaziyatlarda boshqa nimayam qo'llaridan kelardi, deysiz: qiladigan ishlari faqatgina kutish "Kimni, nimani?", deysizmi. Quyosnii!.. Quyosh zinch tuman ko'ksini chok-chokidan so'kkancha ularga yo'l ko'rsatishi kerak. Yo'qsa, adashib, tug'ilib o'sgan yurti bo'lmish orolga dushman tomonidan borib qolishsa, ahvollariga qayiqda potirlab yotgan manavi chalajon baliqlar ham dumlarini likillatib kulib qolishlari hech gapmas". Hikoya ikki qabilaning bir-biri bilan "tilmoch" orqali gaplashishi o'quvchini yuziga kulgu uyg'otadi. Orada o'rtaga maxfiy ravishda insonlarni yuborib ular haqida ma'lumotlar, nima qilayotganliklarini ham surishtirib kelishi doimiy ravishda takrorlanadi. Eng qiziq holat, hikoyada kim o'zarga o'ynash edi. Ummon qarshisida baland haykallar qura boshlashadi. Bu haykallarni suv yaqiniga olib chiqish uchun esa daraxtlarni kesib, arava yasab, unga haykallarni joylashtirib, sohil bo'yiga olib chiqishadi. Bu voqeadan so'ng qad rostlagan haykallar ortidan so'ng ocharchilik, qurg'oqchilik boshlanadi. Qishloq aholisi bu ham kamdek kalamushlar hujumiga uchrashadi. Oxiri yegulik topolmay kalamushlarni ham yeyishadi bu achinarli holat qabilalarida qolgan sanoqli insonlarni ham o'lat olib keta boshlaydi. Bu ham yetmagandek, qabila ular baliq ovlash uchun ketishgan paytda, ikkinchi qabila nima qilayotganliklarini, haykallar ularnikidan qanchalik balandligini kuzatib, hattoki ov qilish niyatidan qaytib, haykal yasay boshlaydilar."Ummonga ov uchun chiqishganda ular bir-birlarining haykallarini tomosha qilishar, chamlashar, solishtirar, qaytib kelgach esa undan-da adl, undan-da savlatdor haykal yo'nishga kirishib ketishardi. Orol ahli hamma narsani unutib, toshdan haykal yo'nishga mukkasidan berildi". Oxiri bunday yashashdan charchab yigit taraf qabila, qiz taraf qabilaga muzokara uchun borib, kitoblarni o'zaro solishtirib bittadan nomzodni qayiqqa o'tkazib, yangi bir hayot boshlash uchun ummonga qo'yib yuborishadi. Qabila aholisi yuztadan kam qolgan aholi ich-ichidan umid bilan bir-biriga qarab qolishadi. Ularning yangi safarlari ummonda o'zaro asli bir avlod vakili ekanligidan shuni anglashadi. Qabilaning muqaddas kitoblari esa bir inson tomonidan bir xil qilib yozilganini ulaninr orasidagi nizoga sabab bo'lganlini angaydi. Yozuvchi "Safar" hikoyasida insoniyat va ularning o'rtaida har xil kutilmagan o'zgarishlar hatto izdan chiqiladigan holatlar, davr ruhiyatini haqqoni qirralar bilan tasvirlab insonni kashf etish qanchalik mushkul ish ekanligini yana bir isbotlab berishga harakat qilgan. Inson hayotida safar sayohat muhim ahamiyatga ega bo'lgan detal. Musulmon kishida farz bo'lgan safar majburiyati o'zga yurtlar, begona kishilar hayotida ibrat nazari bilan qarash bo'lgan ekan. Safarning o'zi bir yo'l va o'zi bir sinov, o'zi bir syujetdan xabar beruvchi sarlavha. Hamma o'zi safarda: bino, odam jamiyki bor tirik mavjudotlar, hamma narsa, daraxt, chumchuq barcha narsalar asli safarda. Asar sarlavhasi ham insonniyat tug'ilibdi, bejizga "Safar" emas. Insoniyat dunyoga keladiki, barcha yo'llarni bir bir o'zi qarichi bilan bosib o'tadi. Har xil o'ylar kechinmalar, yaxshilik-yomonlik, pul, baxt, muhabbat yo'llari ezgulik, mehnat – bu barchasi hayotimiz davomidagi safar orqali qaysi bizga kerak bo'lgani, qaysi biri biz uchun lozim bo'lmaganini angaymiz, solishtirib mushohada qilamiz. Hikoyada obrazlar ham shunaqa darajada zanjirday bir-biriga bog'langanki, ba'zan hayotning yaratilishi shu zaylda davom etadigan. Ulug'bek Hamdam 'Safar' hikoyasida ikki qabilaning bir-biridan kim o'zarga yashashi, xudbinlik, shu bilan bir qattorda insoniyatning ichki kechinmalari, sof va samimiyy muhabatini aniq va lo'nda ko'rsatishga harakat qiladi. Bitta ajdod vakillari tosh yo'nishi bilan qurilgan haykallar, asli bu haykallar ularning zaharhanda juda baland tebranishi, butun jon-u dili, hayotini shunaqa sarflash barcha-barchasi bir markazga to'planib qolishiga olib keladi. "Safar" hikoyasi konsentrik syujet turiga kirib, unda voqealar bitta asosiy voqeа tegrasida aylanishi bilan xarakterlanadi. Ya'ni voqeа shu ikki qabilaning paydo bo'lishidan ularning farzandlarining bir-biriga ko'ngli va o'zaro munosabati atrofida yuz beradi. Hikoyadagi tugun, ya'ni asar konflikti ular o'rtaidagi konflikt bir-biridan o'zaman deya yaratgan yo'nish ishlari, qurga bahaybat haykallarning paydo bo'lishini ko'rsatib bersak bo'ladi: "Haykalni ulkan, yaxlit toshdan o'yib ishlashar, tayyor bo'lgach, o'rmonдан daraxtlarni kesib, maxsus yog'ochlar yordamida uni belgilangan joyga sudrab keltirishar, tiklar, so'ng yana behisob o'tin yoqib, uni qutlashar, atrofqa, to'g'rirog'i, yog'iy nazariга ko'z-ko'z qilib zavqlanishardi. Bunga javoban, sal o'tmay, raqib tomon ham xuddi shu ishni takrorlab, undan-da baland, undan-da hashamdar yangi haykal o'natib, yuzlab daraxtlarning sarjinlari evaziga yovning hasadini qo'zg'ab, olov tegrasida haftalab raqsga tushib, qiyqirib shodlanishardi". Voqealar rivoji shu tarzda ummondagи uchrashuv, o'zaro sulh yigit va qizning qayiqqa o'tirib ketishi asosida davom etadi. Birinchi voqeа ikkinchi voqeani keltirib chiqaraveradi. Hikoya qarindosh insonlarning dushmanga aylanib ketib, ular o'zaro sulh bilan yangi bir hayotni, zamonni, kelajakni yaratish, o'rtaida kelib chiqqan nifoqni buzish bilan chiroyli bir kelajakni qurish uchun yigit va qiz jo'nab ketishi chiroyli qilib yoritib berilgan. Asl muammoning sababini ular topshini, ahl va inoqlikda hayot kechirishlarini, bu asli yo'q e'tibor berishga arzimaydiga holatlar, insonlarning ichki g'alayoni qancha-qancha xalqni, bilan a'zolarini qirilib ketishiga, hayotni keraksiz bo'lgan muammolar bilan sarflab vaqlari faqat, kibr, mag'rurlik uchun sarflaganliklarini yozuvchi o'z tuyg'u ichki kechinmalari bilan yoritib bermoqchi bo'lgan. Darhaqiqat, bugungi kun o'zbek adabiyoti vakillari orasida Ulug'bek Hamdam o'zining chuqur sermazmun roman va hikoyalari bilan xalq og"ziga tushgan yozuvchilardan

birdir. Uning "Muvozanat", "Isyon va Itoat", "Sabo va Samandar" kabi romanlari, "Uzoqdagi Dilnura" qissa va hikoyalar to'plami XX asr o'zbek adabiyotida o'z o'rni ega. Ulug'bek Hamdam zamonaviy o'zbek adiblari orasida asarlari boshqa tillarga ko'p o'girilayotgan va O'zbekistondan tashqarida e'tirof etilayotgan oz sonli ijodkorlardan birdir. Ulug'bek Hamdam asarlari bugungi kunda allaqachon o'z o'quvchilarini topgan. Uning asarlari o'quvchini tanlaydigan asarlardir. Ijodidan bahramand bo'lmoqchi bo'lgan o'quvchida ma'lum intellektual tayyorgarlik bo'lishi kerak. Chunki "Ulug'bek Hamdam asarlari" murakkab ramzlar uncha-muncha o'quvchiga og'ir tuyulishi hech gap emas. Eng muhimi shuki, Ulug'bek Hamdam o'quvchini faqat o'zingina xos bo'lgan ruhiy olami bilan tanishtiradi. Ulug'bek Hamdam mavzu va uslub tanlashda, bayon va asar tuzilishida hech kimga taqlid qilmaydi. Hatto unda kimdandir ijodiy ta'sirlanish degan taqlidning nozik shaklini ham payqamaysiz". Ulug'bek Hamdam asarlарини mutolaa qilgan o'quvchi o'zbek adabiyotida shakl va ma'nodagi yangilanishlардан yaxshi xabardor bo'ldi. Chunki Ulug'bek Hamdamning asarlarini, xususan, hikoyalarini ham shunchaki o'qib bo'lmaydi. Ularda inson tafakkuri, ruhiyatidagi o'zgarishlar ayni o'zgarishlarga mos usulda beriladi. Umuman olganda, adabiy tanqidchi U.Normatov ta'kidlaganidek, "Ulug'bek Hamdam hikoyalariga nazar tashlasangiz, muallif badiiy tafakkurida to'xtovsiz o'zgarish, yangilanish jarayoni kechayotganligiga, miqyos-ko'lamning tobora kengayib borayotganligiga amin bo'lasiz"

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Ulug'bek Hamdamning "Safar" hikoyasi syujet xususiyati boshqa asarlardan safarga xos syujet xususiyati bilan farq qiladi. Hayotimizni, atrofimizni o'rab turgan, harakatlanayotgan, o'sayotgan, unayotgan, rivojlanayotgan barcha narsa bu – "Safar". Safar qilib insoniyat qancha narsalarni, yangilikni, xató va kamchilikni topayotganini yozuvchi yorqinlik bilan ifodalab bergen.

#### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Dilmurod Quronovning "Adabiyot nazariyasi asoslari" Toshkent "Navoiy universiteti"-2018-yil.
2. Qomus.info – internet sayti
3. Zyouz.net – internet sayti
4. Komiljon Hamroyev "hikoya kompozitsiyasi" T.: "Nurafshon business", 2020.-140bet.
5. Ulug'bek Hamdam " To'lin oy qissasi" hikoyalar, Toshkent:"O'zbekiston" NMIU,2017.-360bet
6. Normatov U. "Kichik janrlarning katta imkoniyatlari" // U.Hamdam "Vatan haqida qo'shiq".- T.:Akademnashr,2014.B.425.

**Durdona Abdurayimova,**  
*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti  
tayanch doktorant (Phd)*

## SUD EKSPERTIZASIDA PSIXOLOGIK-LINGVISTIK METODIKANING O'RNI

**Annotatsiya.** Sud-tergov jarayonida keng qamrovli tahlil qilishda yordamga keladigan sohalarning hamda psixologik-lingvistik metodikaning hamiyati haqida fikr yuriladi.

**Kalit so'zlar.** Metodika, psixologiya, lingvistika, verbal aloqa, nonverbal aloqa.

**Ключевые слова.** Методология, психология, лингвистика, вербальная коммуникация, невербальная коммуникация.

**Аннотация:** В ходе судебно-медицинского расследования обсуждается значение полей и психолого-лингвистической методики.

**Abstract.** In the course of the forensic investigation, the significance of the fields and psychological-linguistic methodology is discussed.

**Keywords.** Methodology, psychological, linguistics, verbal communication, non-verbal communication.

Asrning boshlariga kelib internet tarmog'ining rivojlanishi bilan butun jahonda sud ekspertiza jarayonlarida muhim faktlar bo'lib xizmat qiladigan og'zaki va yozma manbalar, audio video va chat matnlari bu jarayonlarga oydinlik kiritish uchun obyektga aylanib bormoqda. Sud jarayonlarida obyekt bo'lib xizmat qilayotgan og'zaki va yozma matnlarni tahlil qilishda tilshunoslik bilan birgalikda psixologiya sohasiga ham murojaat qilish lozim bo'ladi. Sud jarayonida konkret protsesslarni qo'llash uchun murakkab lingvistik va psixologik sud ekspertizasini tayinlash hamda maxsus mutaxassislarni jaib qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Sud jarayonlari shuni ko'rsatadiki, kompleksli tekshiruv bo'imas ekan og'zaki va yozma matnlarni tekshirishda bir soha mutaxassis yoki sudning o'zi bu jarayonlarni aniqlay olmaydi yoki aniqlashi juda murakkab, shuning uchun bunday huquqbuzarliklarni aniqlash uchun ma'lum sohalarning malakali mutaxassislaridan iborat bo'lgan kompleksli tekshiruv guruhi lozim bo'ladi.

Sud ekspertizasining kompleksli psixologik-lingvistik metodikasini ishlab chiqish ekspertiza jarayonlarini bir muncha oson tahlil qilish uchun muhim hisoblanadi. Sud ekspertizasi kompleksli psixologik-lingvistik usullarda

tushuncha va maqsadlar muhim hisoblanadi. "Специфика такого рода судебной экспертизы, как **судебная психолого-лингвистическая экспертиза**, заключается в ее комплексности, в направленности ее лингвистических и психологических результатов на повышение объективности и всесторонности решения юридически значимой проблемы, следовательно, и в большей доказательности." [ 20. 06. 2023].

Haqiqatdan ham sud jarayonida sud-psixologik va lingvistik ekspertizaning bu turining ahamiyatli bo'lgan jihatni murakkab va kompleksli tahlil qila olishi nafaqat yuridik ahamiyatga ega bo'lgan problemalar, balki ijtimoiy hayotga doir bo'lgan ko'plab muammolarni tahlil qilishda muhim sanaladi. Har qanday sohada metodika muhim hisoblangani kabi bunda ham metodika va metodologiya katta ahamiyat kasb etadi. Bu sohada metodika ishlab chiqish uchun psixologiya va lingvistikaning metodikalaridan foydalaniladi, shu bilan birgalikda, nazariyani ishlab chiqishda dastlab amaliyotlarning, ya'ni tajribalarning o'rni beqiyos hisoblanadi.

Shaxslaring ruhiy holati ularning verbal va noverbal xatti-harakatlarda namoyon bo'ladi. Verbal aloqa jarayonida shaxs qo'llayotgan lingvistik birliklar muhim hisoblanib, uning nutq jarayonidagi urg'usi, ovoz toni, pauzalari, qanday so'z va iboralardan foydalanishi, sintaktik qurilmalarni qanday qo'llashi kabilar hamiyatli hisoblansa, noverbal jarayonida esa uning yuz, ko'z, lab, qosh, qo'l va tana ishoralari muhim hisoblanadi. Shaxslarning ruhiy holati nafaqat ichida, so'zida, balki uning tashqi olamida, ya'ni tana harakatlarda ham yaqqol namoyon bo'ladi. Noverbal aloqada shaxs boshqa bir shaxsni kamsitishi, haqoratlashi, tahqirlashi ham mumkin. Shunday holatlar bo'lishi mumkinki, verbal kommunikatsiyadan ham noverbal jarayon emotSIONALROQ ta'sir qilishi mumkin. Nutqiy jarayonning bu xususiyatlarini tahlil qilish shaxsnинг taxminiy portretini chizishda muhim hisoblanadi. Bunday tahlil qilish keng qamrovli bo'lib, huquqbazarliklarni aniqlash va aniqlangan huquqbazarlarga chora ko'rishda konkret faktlarga tayanadi.

"Keng qamrovli psixologik va lingvistik sud-tibbiy ekspertizasi davomida og'zaki va yozma nutqning tergov va sud amaliyoti uchun muhim bo'lgan quyidagi xususiyatlari aniqlanadi:

- 1) noverbal (og'zaki nutq uchun);
- 2) semantik-grammatik (iboralarning tabiat, so'z va konstruksiyalarning tanlanishi, ifodalilik o'lchovi, to'g'riliqi, matnning tashkil etilishi va boshqalar);
- 3) toifali (jinsi, yoshi, ijtimoiy mavqeい, kasbi, hududi, millati va boshqalar);
- 4) pragmatik (maqsad, niyat, reaksiya va boshqalar);
- 5) patologik (ruhiy kasallik belgilari va psixikaning morbid holatlari)" [3.357].

Sud-tergov jarayonida bunday metodika tarkibiy qismlaridagi birinchi xususiyati semiotika sohasiga to'rtinchи xususiyati pragmatikaga va beshinchi xususiyati psixoterapiya sohalariga murojaat qilishni talab qiladi. Bunday murakkab tizim ko'p qirrali muammolarni yechishda katta xizmat qiladi. Bundan ko'rindaniki, Sud-tergov jarayoni shaxslar bilan bog'liq bo'lgani uchun uning nutqini, psixologiyasini, maqsadini, hatto, tibbiy holatini aniqlash uchun bir qancha sohalar tutashadi va yagona sud jarayoni uchun xizmat qiladi.

Bu metodikani ijtimoiy tarmoq yozishmalari ustida ham qo'llash mumkin, chunki ijtimoiy tarmoq yozishmalarida ham shaxs ruhiyati va uning lingvistik bilimlari namoyon bo'ladi. Ijtimoiy tarmoqda ham og'zaki va yozma nutq mavjud bo'lib, yozma nutqni tahlil qilish qo'l yozmalarni tahlil qilishdan biroz farqli bo'ladi. Bu jarayonda asosiy e'tibor yozishma fonetikasiga, uslubiga qaratiladi, ammo metodika o'zgarmaydi.

Metodik tadqiq jarayonida har bir aspekt bo'yicha tadqiq qilinadi. "Pragmatik aspektida nutq bayoni ko'rib chiqiladi. aloqa ehtiyojlari bilan belgilanadigan aloqa birligi sifatida va til faoliyatining ijtimoiy-tarixiy konteksti. Kognitiv jihatdan tilshunoslik, nutq va nutq faoliyat qayta ishlash turidir lingvistik vositalar bilan kodlangan ma'lumotlar, kognitiv jarayon [2.355]. Bunday keng qamrovli aspektida tadqiq qilinishi shal va mazmun mutanosibligiga sabab bo'ladi. Shaxs ko'p qirrali mavjudot bo'lgani uning psixologiyasiga turli obyektiv va subyektiv omillar ta'siri natijasida ruhiyatidagi o'zgarishlar uning lingvistik, psixologik, pragmatik kabi bir qator aspektlarda o'rganilishini talab qiladi.

"Psixolingvistik sud-tibbiyot amaliyotida asosiy tahlil predmeti og'zaki yoki yozma nutq mahsulotlarining lingvistik va paralingvistik parametrлari bo'lib, ular tergov, surishtiruv va sudning bir qator savollariga javob beradi" [21.06. 2023].

Bularning o'zi ikki turga bo'linadi:

- Oddiy savollar;
- Murakkab savollar.

"Oddiy savollar:

- Muloqotchilar suhbatining asosiy mavzulari nimalardan iborat?
- Muloqotchilarning suhbatlari mavzusi va maqsadi nima?
- Muloqotchilarning suhbatda ishtirok etish darajasi qanday... "[21.06. 2023].

Oddiy tahlil murakkab tahlilning dastlabki bosqichi bo'lib xizmat qilishi bilan keyingi bosqichga yo'l xaritasi tayyorlaydi.

"Murakkab psixolingvistik kriminalistikaning umumiy usuli ekspertiza nutqning psixologik xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Og'zaki nutqning rasmij va norasmiy lingvistik va paralingvistik xususiyatlarini o'rganish asosida muloqot qiluvchilarining xatti-harakati yaxlit psixologik nutqni qayta yaratish uchun yozma matn qo'yilgan savollar bilan bog'liq holda muloqotchilarining portretlari shakllantirishga xizmat qiladi "[21.06. 2023].

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, bunday kompleksli metodikaning ishlab chiqilishi shakl va mazmun mutanosibligini yuzaga keltirib, sud-tergov jarayonidagi ekspertiza izchil, ishonchli, jadal, dalillangan hamda konkret bo'lishini ta'minlaydi. Shu bilan birga sohaning rivojida bir qancha mutaxassislar hamkorligini va bu sohalarni kesishuvi muammoli holatlarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Gumanlonayotgan shaxs yoki aybdor shaxslarni aniqlashda ahamiyatl bo'libgina qolmay, ularga beriladigan yengillik va jazo choralarini tayinlash yoki noma'lum jinoyatchilarni aniqlashga katta hissa qo'shadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Желтухина М.Р. Комплексная судебная экспертиза: психолого-лингвистический аспект // Юрислингвистика-11: Право как дискурс, текст и слово: межвуз. сб. науч. тр. / Под ред. Н.Д. Голова и К.И. Бринева; Кемеровский гос. ун-т. – Кемерово, 2011. – С. 355.
2. Желтухина М.Р. Тропологическая суггестивность массмедиаль-ного дискурса: о проблеме речевого воздействия тропов в языке СМИ. – М.– Волгоград: ПринТерра, 2003.
- 3.<https://cyberleninka.ru/article/n/kompleksnaya-sudebnaya-ekspertiza-psihologo-lingvisticheskiy-aspekt-1/viewer>. [21.06.2023].
4. [https://siberiaexpert.ucoz.ru/publ/konferencija\\_2010/doklad\\_s\\_obsuzhdeniem\\_na\\_sajte/zhetukhina\\_m\\_r\\_kompleksnaja\\_sudebnaja\\_ekspertiza\\_psikhologo\\_lingvisticheskij\\_aspekt/2-1-0-66](https://siberiaexpert.ucoz.ru/publ/konferencija_2010/doklad_s_obsuzhdeniem_na_sajte/zhetukhina_m_r_kompleksnaja_sudebnaja_ekspertiza_psikhologo_lingvisticheskij_aspekt/2-1-0-66) . [ 20. 06. 2023].

Mahliyo G'aniyeva,

Qarshi davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

## IJTIMOY TARMOQLARDA NEOLOGIZMLARNING QO'LLANILISHI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda ommalashib borayotgan neologizm so'zlar haqida qisqacha so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** neologizmlar; Internetga asoslangan aloqa; ijtimoiy tarmoq saytlari.

**Abstract.** This article briefly talks about the neologism words that are popular in social networks today.

**Key words:** neologisms; internet-based communication; social networking sites.

**Аннотация.** В данной статье кратко рассказывается о словах-неологизмах, которые популярны сегодня в социальных сетях.

**Ключевые слова:** неологизмы; общение через Интернет; социальные сети.

Tilning ma'lum bir vaqtida qo'llanilishini o'z ichiga olgan yangi shakllangan so'zga ishora qilib, neologizm atamasi nisbatan yaqinda yoki yakkalanib qolgan atama, so'z yoki kundalik foydalanish jarayoniga kirishi mumkin bo'lgan, ammo to'liq qabul qilinmagan so'zni anglatadi. Ularga jamiyatdagi, ayniqsa madaniyat va texnologiyadagi o'zgarishlar hamda so'nggi paytlarda internetga asoslangan muloqotning jadal rivojlanishi kuchli ta'sir ko'rsatadi. Biroq, ulardan sezilarli foydalanish tufayli neologizmlar butun dunyo bo'ylab ijtimoiy tarmoq saytlarida (Facebook, Twitter, Instagram va WhatsApp) keng va tez ommalashib bormoqda. Ushbu ijtimoiy tarmoq saytlari bugungi kunda barchaga sezilarli ta'sir ko'rsatdi, chunki ular munosabatlarni rivojlantiradi va biznes jarayonlarini kuchaytiradi. Ushbu maqolada turli morfologik jarayonlar natijasida yaratilgan neologizmlarning internetga asoslangan muloqotda qo'llanilishi ochib berilgan.

Internetga asoslangan aloqa va ijtimoiy tarmoqlarning yaratilishidagi texnologik taraqqiyotning so'nggi rivojlanishi odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni shakllantirdi va sifatini oshirdi. Texnologiya jadal rivojlanib borar ekan, odamlar ham bu o'zgarishlarga moslashib, bir-birlari bilan eng tez muloqot qilish uchun yangi so'zlarni birlashtirib, yaratish orqali ularga moslashib bormoqda. Muloqotning ushbu yangi turi, ya'ni internetga asoslangan aloqa yangi so'zlar va yangi atamalar bilan butunlay yangi xilma-xillikning rivojlanishiga hissa qo'shdi. Ularning ko'pchiligi hali lug'atlarda rasman keltirilmagan, ammo ular keng tarqalgan so'zlar sirasiga kiradi. Neologizmlar ingliz lug'atida mayjud so'zlardan farq qiladigan yangi so'zlarni taqdim etdi. Yangi so'zlarni yaratishda turli xil morfologik jarayonlar sodir bo'ladi. Tezroq muloqot qilish uchun odamlarning ijodkorligi til ritmi va so'zlarning o'zgarishini tezlashtirdi. Shunday qilib, neologizmlar doimiy ravishda paydo bo'lib, ingliz lug'atini kengaytirmoqda, shu bilan birga ularni yaxshiroq va aniqroq tushunish o'quvchilarni ingliz tilidan har qanday usulda foydalanishga, kerakli ma'lumotlarni olishga va muloqot qilish qobiliyatini yaxshilashga yordam beradi[1, 2]. Neologizmlar yangi madaniy kontekstni olgan ixtiolar, yangi hodisalar yoki eski g'oyalarni belgilashda ayniqsa foydali hisoblanadi.

Neologizm atamasi - birinchi marta 1772 yilda fransuz tilida qo'llanilgan (fransuz tilidan tarjimada) "tilda yangilik amaliyoti, yangi so'zlarni yoki eski so'zlarni yangi ma'nolarda ishlatalish degan ma'noni anglatadi. U fransuzcha *néologisme* - neo- "yangi" + yunoncha logos "so'z" + -izm dan olingen. "Yangi so'z yoki ibora" ma'nosi ingliz tilida keyinroq, 1803 yilda paydo bo'lgan. "Yangi so'zlar yoki iboralar bilan tavsiflangan" neologik foydalanish 1754 yilda tasdiqlangan[2]. Yangi tushunchalar va texnologiyalarni va ular biz uchun nimani anglatishini tasvirlash uchun yangi so'zlar aniq va doimiy ravishda leksikologiyaga kirib boradi. Aksincha, eski so'zlar ko'proq arxaik bo'lib qoladi va madaniy ahamiyati pasayganligi sababli doimiy ravishda qo'llanilmaydi. Raqamli texnologiyaning global jamiyatga ta'sirini hisobga oladigan bo'lsak, leksikograflar fan va texnologiya so'nggi paytlarda neologizmlarning eng ko'p manbalari ekanligini aniqlangan. Neologizmlar ommaviy axborot vositalarida tez-tez qo'llaniladi, reklama va texnik sohalar "muayyan ehtiyoja javob" sifatida tavsiflanadi, masalan, (hozir leksiklashtirilgan) neologizm kompyuterini (shaxsiy kompyuter) yaratish zarurati mahsulot-kompyuter paydo bo'lishi bilanoq paydo bo'ldi.

Neologizmlarning turlari mavjud bo'lib:

- 1) Shaklning neologizmlari.
- 2) Semantik neologizmlar.
- 3) Funktsional neologizmlar.
- 4) Ijtimoiy neologizmlar.
- 5) Texnologik neologizmlar.
- 6) Stilistik neologizmlar[3,80].

Neologizmlar ma'lum bir shaxsga, nashrnga, davrga yoki hodisaga bevosita bog'liq bo'lib, uni tilshunoslikdan (psixologiya, falsafa va boshqalar) boshqa fanlarda ham uchratish mumkin.

S.Ozodovga ko'ra, neologizmlarni kundalik turmushdag'i yangicha munosabatlarni, yangi narsalar va ularning belgilarini, yangi hodisalar, tushunchalarni ifodolovch'i lug'aviy birliklar sifatida e'tirof etish mumkin. Bunday so'zlar xususiyatiga ko'ra ikki turga bo'linadi:

1. Leksik neologizmlar.
2. Semantik neologizmlar. Leksik neologizmlar tilga tamoman o'zlashib ketmagan o'zbek tilining o'zida yasalgan yoki boshqa tillardan o'zlashib butunlay iste'molga kirmagan so'zlardir. Masalan, zovut, zamin studiyasi, sarhad, kollej, menejment, bakalavriat, magistratura, dastur, bar, bojxona, aksiya, bandargoh, tuman kabilalar. Semantik neologizmlar tilda oldindan mavjud bo'lgan va hozirda yangi ma'noda ishlatalayotgan so'zlardir. Masalan, noyib (deputat), tuman (rayon), viloyat (oblast), do'kon (magazin), tadbirkor, pudrat, sarmoya, vazir, hokim, anjuman (konferensiya) va boshqalar[4,11].

Ko'pgina ilmiy fanlarda neologizmlar yangi narsani ochib berish bilan birga tushunchaning mohiyatini aks ettiradi. Ular yangi madaniy konteksti oлган ixtirolarni, yangi hodisalarni yoki eski g'oyalarni belgilashda qo'llaniladi[5,1]. Quyida internet olamiga kirib ommalashgan neologizmlardan misollar keltiramiz.

**Facebook** - ijtimoiy tarmoqlar veb-sayti va foydalanuvchilarning fikrlari, fotosuratları va veb-saytidagi yangiliklar yoki boshqa qiziqarli kontentlarga link berishlari, o'yin o'ynashlari, jonli suhbatlashishlari va jonli videolarni ko'chirishlari mumkin bo'lgan xizmatdir.

**Imo** – aloqa vositasini amalga oshiruvchi ijtimoiy tarmoq.

**Instagram** – Kevin Systrom va Mike Krieger tomonidan yaratilgan hamda rasm va videolarni ularishish uchun mo'ljallangan ijtimoiy tarmoq. Shuningdek, boshqa ijtimoiy tarmoq platformalari orqali ularni yuklash imkonini beradi. Bundan tashqari, foydalanuvchilar rasmlar va videolar uchun raqamli filtrlar qo'llash imkoniga egadir. Instagramda videolar uchun maksimal davomiylik 60 soniyadir.

**Instagram Apple App Store** va Android Google Play orqali bepul tarqatiladi.

**Kanal** – ijtimoiy tarmoqlarda admin tomonidan boshqariladigan tarmoq.

**Komment** – izoh

**Kontent(tarkib)-** biznes yoki reklama rejasi tarkibi.

**Link** –Bu nemischa "GHE LENK" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "birga" degan ma'noni anglatadi.

**Like bosmoq** – ijtimoiy tarmoqlarda biror xabarga ovoz bermoq.

**Messenger** – tezkor xabar almashish uchun mo'ljallangan dastur.

**Mobil ilova** - ma'lum bir platforma uchun ishlab chiqilgan smartfonlar, planshetlar va boshqa mobil qurilmalarda ishlashga mo'ljallangan dastur.

**Portal** – ma'lum bir mavzu yoki ilm sohasi bo'yicha bosh sahifa.

Neologizmning eski ma'nosi varvarizm, Gallitizm (engliz tilida), Anglisizm (frantsuz tilida) va hatto arxaizmning sinonimi hisoblangan[5,2]. So'zga nisbatan arxaizm yoki neologizm tarixiy jihatdan nisbiy masaladir. Tilning ijtimoiy mavjudligining ma'lum bir davriga qarabgina so'zni neologizm sifatida qabul qilish yoki eskirgan tushuncha sifatida qarash mumkin. 'CD-ROM' (1988), 'flashback' (1966), 'environment' (1972), 'hip-hop' (1985) yoki kabi so'zlar o'z davrida yangi so'zlar edi; bugungi kunda esa ularning barchasi keng jamoatchilikka tanishdir. Neologizmlar

va ularning yoshi haqida juda ko'p turli xil qarashlar mavjud. Asosiy muammo - yangi so'z qachon neologizmga aylanishini aniq ko'rsatishdir. Ayrim olimlar, so'zlovchining shunday nomlanishi uchun so'zni neologizm deb bilishi kerak, desa, ba'zilari, bu so'z 25 yildan ko'p iste'molda bo'lmasligi kerak deb hisoblashadi. Tilshunoslikda nutqning turli qismlari, shuningdek, so'zlarning gapdag'i vazifalari tadqiq etilgan. Biroq, neologizmlarni tasniflash masalasi haligacha tilshunoslikda hal etilmagan, chunki ularni tasniflashning yagona usuli mavjud emas. Bundan tashqari, turli tasniflarda neologizmning turli jihatlari hisobga olinadi[5,2].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, neologizmlar har bir tilda innovatsiyani anglatadi va ular har kuni yaratiladi va ingлиз leksikasida tez kengayadi. Maqolada ko'rinish turibdiki, ular odatda affiksatsiya va birikma kabi an'anaviy so'z yasash jarayonlariga tayanadilar.

#### Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Shahlee, Sakina, Rosniah Mustaffa (2019), "Neologisms in Social Networking among Youths", Toryish International Journal of Multidisciplinary (TIJM), 1 (1), 1-9.
2. <https://www.etymonline.com/word/neologism>
3. Qo'ziboyeva G. TILIMIZGA KIRIB KELGAN NEOLOGIZMLAR VA ULARNING TAHLILI. ISSN: 2181-3337 SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 2022 № 3,
4. S.Ozodov. "Hozirgi o'zbek tilida neologizmlar" BMI., Toshkent - 2018
5. Usevičs, Sergejs (2012), Neologisms in British Newspapers, <https://www.semanticscholar.org/paper/NEOLOGISMS-IN-BRITISH-NEWSPAPERS-Usevi%C4%8Ds/1dd8c7e932e8670ccc9ae24cfa90dc809f434c07>; accessed on 28/6/2020

Dilnoza Tursunova,  
Qarshi davlat universitet o'qituvchisi

## LAKUNANING MADANIYATLARARO VA MATN ASPEKTLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolaning maqsadi turli xil tillarda muloqot qiluvchi xalqlar o'rtasida mavjud bo'lgan munosabatlarni alohida yo'naliш tarzida o'rganish va madaniyatlararo muloqotning asosiy kommunikativ tamoyillarini tahlil qilish. Ushbu tamoyillar psixolingvistikating eng taniqli tadqiqot sohasi bo'lgan lakuna nazariyasi nuqtai nazaridan yoritilgan. Lakunalar deganda turli tillar va madaniy an'analarga xos bo'lgan kognitiv tuzilmalardagi farqlarni muntazam ravishda ochib beradigan hodisalar tushuniladi. Maqolada lakuna nazariyasi zamонавиy adabiy matnlarni sharhlashda yuzaga keladigan madaniyatlararo dissonansni tushuntirishning kuchli vositasi sifatida ishlataladi.

**Kalit so'zlar:** fatik aloqa, til artefaktlari, domen, metamatr

**Kirish.** Nazariy jihatdan, madaniyatlararo muloqot tadqiqot sohasi sifatida fatik aloqani saqlab turish asosida - gi kognitiv-pragmatik tamoyillar va o'ziga xos kontekstlarni, shuningdek, turli tillarda so'zlashuvchilar o'rtasidagi bevosita va bilvosita shaxslararo muloqotni o'rganadi. Shaxslararo o'zaro ta'sirning universal sotsiopragmatik tamoyillarini qo'llash individual nutq harakatlarining ahamiyatini yoritadi, chunki ular qo'llaniladigan so'zlar, iboralar va tuzilmalarning ma'nolarini aktuallashirish asosida kundalik muloqotga ustun ta'sir ko'rsatadi. Boshqacha qilib aytganda, har bir tabiiy tilda, har bir nutqiy harakatda va madaniy kontekstda nafaqat tegishli ma'lumotlarni uzatish, balki suhbatdoshlarning o'zaro tushunishini ta'minlash uchun asosiy kommunikativ makon yaratiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Madaniyat turli g'oyalar, og'zaki/og'zaki bo'lmagan xatti-harakatlar va dunyoغا munosabat nuqtai nazaridan amalga oshiriladi. Har qanday jamiyat kontekstida ko'plab individual ruhiy tasavvurlar topiladi, ularning ma'lum bir qismi til va til artefaktlarida aniq ifodalanishi mumkin. Binobarin, bunday vakillik ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, til jamiyatni a'zolari o'rtasidagi muloqot jarayonida ishtirok etadi. Tez-tez ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ruhiy tasavvurlar, o'z navbatida, madaniy bilimlarni shakllantiradi [1, 6]. Muayyan psixik tasvirning madaniyatga aylangan vaqtini belgilash madaniy talqinining boshlanishini ko'rsatadi va shuning uchun aqliy, ijtimoiy va madaniy tasvirlar o'rtasida aniq belgilangan bo'linish yo'q.

Til nisbiyligi nazariyasi doirasida qarama-qarshi fikrlar ifodalanadi: til leksikasi, lingvistik tuzilmalar shaxsning fikrlesh tarziga, uning dunyoqarashi va xulq-atvorining shakllanishiga ta'sir qiladi. Ona tili kognitiv va xulq-atvorni oldindan belgilashning konstruktiv manbasi sifatida namoyon bo'ladi degan fikr nemis idealistik falsafasiga borib taqaladi va bu g'oyani targ'ib qilgan fon Gumboldt tomonidan eng izchil shakllantirilgan, til bilish tizimi sifatida avtonom ijodiy ramziy tashkilotni ochib beradi - "energeia" [3, 115]. Zamонавиy tilshunoslikda tilning ma'naviy tuzilishi ma'lum bir jamiyat vakillari ongida psixik jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini ko'p qirrali tarzda aks ettirishi, har bir til ob'ektiv voqelik va bu voqelikni kontseptuallasshtirish chorrahasida faoliyat ko'rsatishi keng e'tirof etilgan. ona tilida so'zlashuvchilar.

Madaniyatlararo muloqotning nazariy asoslarini ishlab chiqish turli xil turmush tarzi, mafkura va qadriyatlarga ega bo'lgan turli madaniyat vakillari o'tasidagi muvaffaqiyatlari o'zaro munosabatlarning asoslarini belgilaydi. Rus tilshunosligida madaniyatlararo muloqot muammolarini o'rganishda quyidagi yondashuvlar aniqlangan:

ushbu o'zaro ta'sir ishtirokchilarining kommunikativ nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda madaniyatlararo o'zaro ta'sirni tahlil qiluvchi kontrastli yondashuv [6,383];

muloqotni diskursiv faoliyatning namoyon bo'lishi deb hisoblaydigan strukturalistik-semiotik yondashuv [5,107];

madaniyatlararo kontekstda ma'lum tushunchalarni noto'g'ri tushunish, noto'g'ri talqin qilishga olib keladigan semantik "bo'shlqlar" ga qaratilgan lakunar yondashuv [8,48];

Madaniyatlararo o'zaro ta'sirning hal qiluvchi omili har bir ijtimoiy-madaniy hamjamiyatda turli xil tushunchalarni idrok etish va ushbu tushunchalarning semantik mazmunining vaziyatga bog'liqligidir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolaning asosiy metodologik printsipi psixolingvistikada eng mashhur tadqiqot sohasi bo'lgan lakuna nazariyasidir. Lakunalar deganda turli tillar va madaniy an'analarga xos bo'lgan kognitiv tuzilmalardagi farqlarni muntazam ravishda olib beradigan hodisalar tushuniladi. Maqolada lakuna nazariyasi zamonaviy adabiy matnlarni sharhlashda yuzaga keladigan madaniyatlararo dissonansni tushuntirishning kuchli vositasi sifatida ishlataladi.

Ijtimoiy va pragmatik tamoyillarni ko'p qirrali tahlil qilish uchun klassik ritorika nazariyasi, xususan, klassik ritorikaning uchta ichki komponenti - etos, logos va patos qo'llaniladi. Ular og'zaki yoki yozma muloqot jarayonida suhbatdoshlar uchun xarakterli bo'lgan tushunish, tushunish va e'tiqod tizimini belgilaydi:

Etos so'zlovchining axloqiy munosabatlari, uning og'zaki xabari yoki yozma matnining haqiqatga mos kelishi va oldindi muloqot tajribasi bilan bevosa bog'liq;

Og'zaki xabar yoki yozma matnning mantiqiy tuzilishi, uning ichki izchilligi va yaxlitligi negizida logotip yotadi;

Patos so'zlovchining emotsiyonal holati, uning suhbatdoshning xushyoqishini uyg'otish, ongida aniq g'oya va obrazlarni yaratish qobiliyati bilan bog'liq.

Yuqorida aytib o'tilgan tarzda tahlil qilinganda, axloq va pafos muloqotning madaniy kontekstiga muqarrar ravishda kiritiladigan sof sub'ektiv kategoriylar sifatida taqdim etiladi; logotiplar - ob'ektiv baholash va aloqa sifatini yoritib beruvchi, ma'lum darajada suhbatdoshlar o'tasidagi mavjud munosabatlarning tranzaksiyaviy mazmuni bilan o'xshashlikni ko'rsatadigan kategoriya.

**Tahlil va natijalar.** Lakunalar haqidagi g'oyalarni tizimlashtirish ikkita asosiy sohani yoritadi - ob'ektiv va sub'ektiv dunyo haqidagi g'oyalari va tilni bilish; shuningdek, madaniyatlararo muloqot muammolarini yoritib beruvchi gumanitar fanlarning turli sohalari uchun optimal metodologiyani taqdim etadi. Xususan, bu g'oyalari ko'pincha semantik noaniqlik va loyqalikni kodlaydigan lingvistik va madaniy bo'shlqlarga boy zamonaviy adabiy matnlarni o'rganish uchun samarali bo'ladi. Shu munosabat bilan maqolada lakuna ikki yoki undan ortiq semantik tizimlar o'rtaida ma'lum darajada nomuwofiqlikni ta'minlovchi kontekstual madaniy invariant bo'lgan semantik shaxs sifatida talqin etiladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, lakunalar ikki nuqtai nazardan - lingvistik va madaniy jihatdan o'rganilmoqda. Badiiy matnda ular qarama-qarshilik, ikki tizim va kontekst o'rtaida to'qnashuv natijasida aktullahsgan.

Lingvistik lakunalar til jamoasining madaniy voqeliklari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan so'z va iboralar tufayli shakllanadi, ular doirasida badiiy matn yaratilgan. Bu so'z va iboralar turkumlari matn muallifining ichki dunyosini aks ettirishi, u tomonidan turli kontekstlarda yaratilishi va moslashtirilishi hamda uslubiy maqsadlarga xizmat qilishi mumkin:

"Но когда я опять посмотрел перед собой, то чайник был совершенно пуст, заварку я из него вылил всю – желторжавая лужица стояла на стальном поблескивающем дне раковины" [4,26]. – "Ammo yana oldimga qarasam, choynak butunlay bo'm-bo'sh edi, undan choyni to'kib tashladim – lavaboning po'lat yaltirab turgan tubida sarg'ish zangnamo ko'lmak turardi";

"Глаза его тепло и сливочно улыбались" [7,10]. – "Ko'zlari iliq va mayin jilmayib qo'ydi";

"Мы сели и с равнодушными улыбками уставились друг в друга" [7,92]. - "Biz o'tirdik va bir-birimizga bir xil nosamimiyl tabassumlar bilan qaradik";

"А слезы ведь на то и слезы, что их льют, останавливая, оставляя, так сказать, на это проливное время все другие деяния, льют, проживая именно таким дождевально-ливневым способом свою жизнь" [4,111]. – "Ko'z yoshlari esa, ular to'kadigan, to'xtatadigan, tashlab, ta'bir joiz bo'lsa, mana shu shiddatli davr uchun barcha boshqa amallarini, to'kadigan, hayotlarini shunday yomg'ir-yomg'ir bilan o'tkazadigan ko'z yoshlaridir".

Belgilangan ta'kidlangan sifatlar va qo'shimchalar rus tilining lug'atlarida uchramaydi, chunki ular rus tilida mavjud emas, ular muallifning nutq ijodi sohasini aks ettiradi, bu tashqi va ichki dunyoni sub'ektiv idrok etish xususiyatlarini o'ziga xos tarzda aks ettiradi.

**Xulosa va takliflar.** Lingvistik va madaniy lakunalar adabiy matnni yashirin ma'nolar bilan boyitib, butun badiiy asarda semantik noaniqlikni keltirib chiqaradi, adresatni bayon etuvchi pozitsiyasini qabul qilishga ishontirishda

konstruktiv pragmatik rol o'ynaydi, uning ortida muallifning yashirin hayoloti yashiringan. Muallifning lakunalarni faollashtirishi adabiy matnning quyidagi funktsional sohalarining madaniyatlararo tabiatini belgilaydi:

- matn ichidagi domen: matn segmentlarida o'quvchi e'tiborini avtomatlashtirish;
- kontekst sohasi: butun matnning stilistik va konnotativ salohiyatini, uning alohida segmentlarining semantik noaniqligini yaratish;
- metamatr sohasi: ushbu til hamjamiyatiga tegishli bo'lgan madaniy qadriyatlar fonida o'quvchiga tegishli ma'lumotlarni baholash;
- talqin qilish sohasi: o'quvchi uchun ma'lumotni kognitiv qayta ishlashni murakkablashtirish, o'quvchini muallif tomonidan yaratilgan virtual dunyonи tushunishga undash;
- shaxslararo domen: muallif, hikoyachi va o'quvchi o'rtasida kommunikativ aloqani saqlash, muallifning bilim, e'tiqod, qadriyatlar dunyosini ochib berish.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azarova, O. A., & Kudriashov, I. A. (2016). Emotions, language, cognition: the problem of interdependence in an interdisciplinary perspective. *Int. Res. J.*, 10-3(52), 6–9.
2. Gavrilova, G. F. (2015). Sentence and Text: Consistency and Functionality. AkademLit.
3. Kislytsyna, N. N. (2018). Connotation in the light of «ENERGEIA» language hypothesis. *Bull. of the Tver State Univer. Ser. Philol.*, 4, 155-160.
4. Kononov, N. (2000). The Funeral of a Grasshopper. Sankt-Peterburg: Inapress. [http://www.litres.ru/pages/biblio\\_book/?art=325652](http://www.litres.ru/pages/biblio_book/?art=325652)
5. Martynova, O. I. (2006). Intercultural communication as a special type of communication. *Omsk Sci. Bull.*, 8(45), 107–111.
6. Mogilevich, B. R. (2008). Intercultural Communication in the Era of Globalization. *Bull. of the Tambov Univer. Ser. Human.*, 5(61), 383–386.
7. Prilepin, Z. (2018). The Black Monkey. AST.
8. Savitskaia, E. V. (2013). The Interpretation of the Language Lacuna in Linguistic Literature. *Samara Sci. Bull.*, 2(3), 48–50.
9. Tursunova D.A. *THEORITICAL BASES OF LEXICOLOGY, SCIENTIFIC PROGRESS*. -ISSN: 2181-1601, 2022-yil

**Malik Xodjiyorov,**

*Qarshi davlat universiteti*

*Ingliz filologiyasi fakulteti mustaqil tadqiqotchisi*

## ZAMONAVIY MEDIAMATNLARNING LINGVISTIK TADQIQI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy mediamatlarning nazariy asoslari va lingvistik tadqiqi haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** mediamatn, medialingvistika, kognitiv tilshunoslik, diskurs.

**Abstract.** This article discusses the theoretical foundations and linguistic research of modern media texts.

**Keywords:** mediatext, medialinguistics, cognitive linguistics, discourse.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются теоретические основы и лингвистические исследования современных медиатекстов.

**Ключевые слова:** медиатекст, медиалингвистика, когнитивная лингвистика, дискурс.

**Kirish.** Bir qator lingvistik tadqiqotlarda ommaviy axborot vositalari (OAV) materiallari asosida qiyosiy tilshunoslik, sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik va boshqa sohalardagi dolzarb muammolarni hal qilishga bag'ishlangan keng ko'lami tadqiqot ishlari mavjud. Internet, OAV, davriy nashrlar, radio, teledasturlar va ijtimoiy tarmoqlar qisqa vaqt ichida hatto eng uzoq hududlarga yetib borishi va ommaga tez ta'sir qilish ko'lami katta. 1998 yili "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinishi soha rivoji yo'lida qo'yilgan muhim qadam bo'ldi. Jumladan, ushbu Qonunning 1-moddasida: "Ommaviy axborot vositalari deganda gazetalar, jurnallar, tele – va radiodasturlar, hujjalik kino, ommaviy axborotni keng ommaga yetkazuvchi davriy nashrlar nazarda tutiladi"[1]. Bugungi kunda ilg'or texnologiyalar rivoji tufayli OAV tushunchasi Internet, bloglar, ijtimoiy tarmoqlar va Internet saytlariga kuchib bormoqda. Auditoriya esa davriy nashrlardan ko'ra Internet tarmoqlaridagi media bloglar va yangiliklarni tezkor xabarlarni o'qishni avzal ko'rmoqda. Ilmiy adabiyotlarda «ommaviy axborot vositalari» va «OAV» atamalari ko'pincha bir xil mazmunda qo'llaniladi. Birinchisi uchta ma'noni o'z ichiga oladi:

1) axborot materiallarining maxsus turi (yangiliklar, tahliliy ma'lumotlar, boshqa jurnalistik matnlar, audio va video dasturlar) asosi sifatida dolzarb va ijtimoiy ahamiyatga ega axborot;

2) jamiyat uchun ahamiyatli faktlar, hodisalar va jarayonlar yetkaziladigan ommaviy auditoriya;  
3) axborot auditoriyaga yetkaziladigan aloqa kanallari. Ommaviy kommunikatsiya deganda “ijtimoiy mavqega ega bo’lgan murojaat qiluvchining (jurnalist, siyosatchi va boshqalar) ommaviy ongga ta’sir qilish maqsadida ommaviy axborot vositalari (OAV) orqali yuborilgan ijtimoiy ahamiyatga ega xabar” tushuniladi[2,298].

OAV tili haqida D.Teshaboyeva shunday deydi: “Til – OAVning asosiy xabar berish quroli bo’lib xizmat qiladi. Shu boisdan ham uni, avvalo, lingvistik tomondan o’rganish zarurati mavjud. Biroq ma’lumotlarni qabul qilish, albatta, bir qancha boshqa gumanitar fanlar bilan ham bog’liq. OAV tilini tadqiq etish uni qabul qilish masalasi bilan aloqador holda olib borilsa, bu borada yanada xolis fikr yuritish mumkin”[3,13].

Shuni ta’kidlash kerakki, OAV atamasi ko’pincha ommaviy axborot vositalarida Internet va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish bilan bog’liq yangi zamonaviy aloqa kanallari: onlayn nashrlar, veb-saytlar, ilovalar va boshqalar mavjudligini ko’rsatadi. Ommaviy axborot vositalari matnlari tilning hozirgi holatini tavsiflash uchun material sifatida tobora ko’proq foydalanilmoxda, chunki ular lisoniy voqelikdagagi ko’plab o’zgarishlarni boshqa manbalarga qaraganda tezroq aks ettiradi va zamonaviy nutqdan foydalanishga xos bo’lgan barcha jarayonlarni o’zida mujassamlaydi.

T.G. Dobrosklonskaya jurnalistik matnlarga lingvistik tadqiqotlar uchun empirik material sifatida, agar badiiy adabiyot matnlari o’ziga xos “yuqori san’at”, voqelikni aks ettirishning asosiy usuli bo’lsa, ommaviy axborot vositalarining matnlari har qanday voqeani, hayotning har qanday harakatini bir zumda aks ettiruvchi, ko’proq tasviriy uslubdir” deydi[4,20]. M.N. Volodina insонning dunyoqarashini shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining etakchi rolini ta’kidlab, “Bizning dunyoqarashimizning 10 foizi o’z tajribamizga asoslangan bilimlarimizdir, qolgan barcha bilimlarni esa kitoblar, gazetalar, filmlar, radio va televide niye dasturlari va Internetdan olamiz. Ommaviy axborot vositalari insонning olam milliy manzarasi, uning bo’sh vaqtini to’ldirish, uning ongi, dunyoqarashi va bugungi madaniyat turiga ta’sir qiladi” [5,10]. “Dunyoning lingvistik tasviri kabi dunyoning axborot tasviri ham madaniy jihatdan o’ziga xosdir, chunki u dunyoqarashning milliy-madaniy xususiyatlarini, qadriyat munosabatlari tizimini aks ettiradi. Aytishimiz mumkinki, ommaviy axborot vositalari matnlarida olam milliy manzarasining lisoniy va axborot tasvirining bir biriga o’xshashligi mavjud” [6,185]. I.V. Erofeyeva boshqa tilshunoslarning fikrlarini umumlashtirgan holda “Olam milliy manzarasi ommaviy axborot vositalari matnida yorqin aks ettirilgan” degan xulosaga keladi[7,103]. Demak, ommaviy axborot vositalari matnlarini o’rganish orqali ko’rib chiqilayotgan material tilining milliy xususiyatlarini aniqlash mumkin. Akademik N.I. Konrad ommaviy axborot vositalarining tilini xalqning o’rtacha, umumiy tili deb ataydi: “Bugungi kunda “umumiyl til”ni ommaviy aloqa tili deb hisoblash mumkin”[8,10]. G.Y.Solganik ommaviy axborot vositalari tili bilan ifodalanadigan ommaviy muloqot milliy tilning aksi bo’lib, unda adabiy va nostandard vositalar yonma-yon mavjud bo’lishini ta’kidlaydi: “Ommaviy muloqot – zamonaviy tilshunoslik jarayonlarining markazida turgan yangi lisoniy voqelikdir. Bu zamonaviy milliy tilning adabiy asosi va adabiy bo’lmagan sohalari o’zaro ta’sir qiladigan modelidir” [9,13].

N.I. Klushinaning yozishicha, yangi zamonaviy ommaviy axborot vositalari (internet media, bloglar, ijtimoiy tarmoqlar va messengerlar) paydo bo’lishi bilan adabiy tilning media versiyasi mavjudligi masalasini ko’tarish kerak: “Zamonaviy axborot jamiyatni, hozirgi milliy adabiy tilning ikki shaklini vujudga keltirdi:

- 1) adabiy til;
- 2) ommaviy til (va uni biz “media tili” deb belgilagan variant sifatida ommaviy axborot vositalarida amalga oshirishdir). Tadqiqotchining fikricha, “ma’lumotnomalar meyorlari o’z resurslarini butun jamiyatning ommaviy tilidan oladigan va bu ommaviy tilning o’zini shakllantiradigan media kommunikatsiya normalari bilan siqib chiqarilmoqda”. Demak, ommaviy axborot vositalarining tili milliy tilda kechayotgan barcha jarayonlarning in’ikosidir. Birinchidan, Internet va ommaviy axborot vositalarining butun jamiyatga ta’siri ostida, o’rnatilgan nutq normalari o’zarmoqda: til o’zining milliy o’ziga xosligini saqlab qolgan holda, tarmoqdagagi ommaviy axborot vositalarining yangi nutq modellarini o’zlashtiradi. Ikkinchidan, ommaviy axborot vositalari tili ma’lumotnomalar va milliy til lug’atlarida mustahkamlangan adabiy meyirlarning harakatlantiruvchi kuchi bo’lib xizmat qiladi. Yuqoridaqlarni umumlashtirgan holda, biz ommaviy axborot vositalarining nutq amaliyoti bir tilning hodisalarini va bir vaqtning o’zida bir nechtasini qiyosiy jihatdan lisoniy tadqiq qilish uchun empirik material uchun eng yaxshi variant deb hisoblaymiz, bu bizga umumiy va xususiylikni aniqlash imkonini beradi. Milliy tilning hozirgi rivojlanish bosqichidagi faoliyati: til o’zgarishlarning tabiatini va dinamikasini tavsiflash, lingvo-ijodiy (jurnalistlar nutqini yaratish bilan bog’liq) vositalarni, til birliklarining yangi funksiyalari va ma’nolarini kashf qilishdan iborat.

Bugungi kunda medialingvistika ommaviy axborot vositalarida samarali nutq faoliyati to’g’risidagi mustaqil fan maqomini oldi, uning obyekti media kommunikatsiyalaridagi media matnlari oqimi, predmeti esa undagi nutq harakatlaridir. Medialingvistika fan sifatida hali shakllanmagan (ilmiy maktablar o’zining ilmiy apparatini shakllantirishda ham nazariy, ham amaliy ma’noda yondashuvlarni rivojlanishda davom etmoqda) va hanuzgacha ko’plab olimlar tomonidan ommaviy axborot vositalari matnlarini lingvistik tadqiqotlar majmuasi sifatida qabul qilinadi. L.R. Duskaevaning ta’kidlashicha, ommaviy axborot vositalari matni jurnalistlarning nutqiy xatti-harakatlarining

belgilangan qoidalarini aks ettiradi: "professional media muhitida qabul qilingan nutq xatti-harakatlari qoidalarini, professional muhitda o'rnatilgan matnni tashkil etish stereotiplarini ifodalovchi nutq faoliyati shakli.

**Xulosa.** Shunday qilib, mediamatnlar deganda og'zaki va multimedia komponentlardan tashkil topgan, ommaviy auditoriya uchun ma'lum bir maqsad (niyat) bilan yaratilgan va ommaviy axborot vositalari orqali uzatiladigan kreollashtirilgan, polikodli matnlar tushuniladi. Shuni ta'kidlash kerakki, mediamatndagi og'zaki va multimedia komponentlarining nisbati muallifning niyatiga, ma'lum bir tarqatish kanaliga va undagi potensial qabul qiluvchilarning media xatti-harakatlariga bog'liq.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Оммавий ахборот воситалари тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни. – Тошкент., 1997.
2. Эффективное речевое общение (базовые компетенции): словарь-справочник 2014: 298
3. Тешабоева Д. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи. – ф.ф.док.лик диссертацияси. – Тошкент. 2021
4. Добросклонская, Т. Г. Вопросы изучения медиатекстов: опыт исследования современной английской медиаречи / Т. Г. Добросклонская. – Изд. стер. – М. : КРАСАНД, 2020а. – 286 с. 206
5. Володина, М. Н. Язык массовой коммуникации как основное средство информационного воздействия на общественное сознание / М. Н. Володина // Язык СМИ как объект междисциплинарного исследования. – М., 2003. – С. 6–24. 46. 106
6. Добросклонская, Т. Г. Вопросы изучения медиатекстов: опыт исследования современной английской медиаречи / Т. Г. Добросклонская. – Изд. стер. – М. : КРАСАНД, 2020а. – 286 с. 185б
7. Ерофеева, И. В. Медиатекст как носитель национальных ценностей / И. В. Ерофеева // Медиатекст: стратегии – функции – стиль. – Орел, 2010. – С. 101–109. – 1036
8. Конрад, Н. Предисловие / Н. Конрад // Большой японско-русский словарь / под ред. Н. И. Конрада. – М., 1970. – С. 5–10
9. Солганик, Г. Я. Место языка СМИ в литературном языке. Перспективы развития / Г. Я. Солганик // Мир русского слова. – 2008. – № 2. – С. 9–18.: - 12–13б

**Madina Abduqodirova,**

*PKQTMO tarmoq markazi*

*Qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'llim  
jarayonini tashkil etish va  
sifatini o'rganish bo'lim boshlig'i*

## DEVID MERRILLNING – “KOMPONENTLARNI KO’RSATISH” NAZARIYASI

Kognitivizm (inglizcha cognitivism, lotincha “cognoscere” – “bilmoq” so‘zidan) – yetakchi nazariyalardan biri bo‘lib, psixologiya va pedagogikada keng qo’llaniladi. Kognitivizm 1960-yillarda dominant paradigma sifatida bixevoirizm o‘rnini egallagan bo‘lib, unda ichki aqliy faoliyatga qaratilgan – inson ongining “qora qutisi” ochilishi va tushunilishini eng asosiy omil sifatida qaraladi va bunday qarashlar Devid Nanen (David Nunan), Ken Gudmen (Ken Goodman), Devid Rumelhart (David Rumelhart) kabilar tomonidan ilgari suriladi<sup>1</sup>.

**M. Devid Merrill** (Marriner David Merrill)<sup>2</sup> o‘quv loyihalari va texnologiyalari bo‘yicha tadqiqotlar olib boradigan professor olim. Merrillning tadqiqotlari bugungi kunda o‘quv dizayni va texnologiyasini rivojlantirishga qaratilgan uchta muhim nazariyani ishlab chiqishga yordam berdi: “Komponentlarni ko’rsatish” nazariyasi (Component Display Theory (CDT 1980)), “O‘quv tranzaksiyalari nazariyasi” (Instructional Transaction Theory (1990)) va “O‘qitishning birinchi tamoyillari” (First Principles of Instruction (2002)). Merrillning fikriga ko‘ra, ko‘pgina mavzularning mazmunini o‘qitish bilim va ko‘nikmalarning ba’zi fundamental turlarining kombinatsiyasini o‘z ichiga oladi. U 1980-yillarning boshlarida komponent ko‘nikmalari g‘oyasi bilan birga “Komponentlarni ko’rsatish” nazariyasini ishlab chiqdi<sup>3</sup>. O‘quvchilar tomonidan egallanadigan ko‘nikmalar kamdan-kam hollarda alohida-alohida yuzaga kelganligi sababli, Merrill “Komponentli ko‘nikmalar” atamasini ular butun muammoning tarkibiy qismlari sifatida birlgilikda ishlayotganligini ko’rsatish uchun ishlatadi. Talabalar topshiriqlarni bajarish yoki muammolarni hal qilish uchun ushbu komponent ko‘nikmalarini egallashlari kerak.

Devid Merrillning “Komponentlarni ko’rsatish” nazariyasining bitta jumladan iborat “tavsifi” mavjud emas, chunki

1 Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot o‘qitish metodikasi. –Toshkent: 2020, 45-bet.

2 [https://en.wikipedia.org/wiki/M.\\_Devid\\_Merrill](https://en.wikipedia.org/wiki/M._Devid_Merrill)

3 <https://www.mybrainisopen.net/component-display-theory/>

ushbu nazariya murakkab, to'liq, o'zaro bog'liq, qoidalar asosida o'qtishni loyihalash bo'yicha tushunchalardan iborat bo'lgan usullar to'plami<sup>1</sup>. M. Devid Merrill "Komponentlarni ko'rsatish" nazariyasi deb nomlanuvchi ikki tomonlama o'qtish nazariyasini ishlab chiqdi. Birinchi qism tavsiflovchi nazariya, ikkinchi qism esa unga oid yo'l-yo'rqlarni ko'rsatishga asoslangan nazariyasi hisoblanadi. Ushbu nazariyaning asosiy diqqat markazi ta'lim oluvchilarga va kompyuter yordamida o'qtishga asoslangan bo'lganligiga qaramay, o'qtishning barcha shakllariga tatbiq etish mumkinligi bilan ajralib turadi. Nazariya kognitiv qarash bo'yicha ish olib boradi. Nazariya o'qtishning mikro darajalari (individual tushunchalar yoki g'oyalarni o'rgatish) bilan shug'ullanadi. Gagnening ta'lim (o'rganish) nazariyalaridan<sup>2</sup> katta ta'sirlangan Merrill turli xil o'quv natijalari turli xil o'qtish strategiyalarini talab qilishini haqida fikr yuritadi. M. Devid Merrill "Komponentlarni ko'rsatish" nazariyasi – ta'lim jarayonini tashkil qiluvchilarga o'qtish turiga asoslangan va kontendan mustaqil ravishda o'qtish jarayonlarini loyihalash va yaratish bo'yicha dastlabki nazariyaga asoslangan harakat hisoblanadi.

Merrill nazariyasingin muhim tarkibiy qismi bu "Faoliyat-mazmun matriksasi"dir<sup>3</sup>. Ushbu matriksa yo'riqnomada ko'rib chiqiladigan "Faoliyat" va "Mazmun" ni aniqlash uchun ishlataladi. Faoliyat Y o'qi bilan, mazmun esa X o'qi bilan ko'rsatiladi. Ushbu toifalar birma-bir tavsiflab aniqlanadi, o'qtishni to'g'ri yo'lga qo'yish uchun qoida va jarayonlar tushuntirib chiqiladi.

"Komponentlarni ko'rsatish" nazariyasi orqali adabiy ta'lim jarayonlari, xususan, adabiyot o'qtish davomida darsni tarkibiy qismlarga ajratadi va ularni tavsiflaydi, bu jarayonda bevosita o'quvchi faoliyati bilan ham shug'ullanadi. Ya'ni o'quvchi tomonidan bajarishi lozim bo'lgan vazifalarni ajratib, belgilab beradi va xulosalaydi. Darsning asosiy qismi bo'lgan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilimlar, xususan, badiiy asar, adabiy mavzularning mazmunini o'quvchi faoliyatiga moslagan holda tasniflanadi va tashkillashtiradi. Mashg'ulot davomida foydalaniладиган тақдимот шакллари, ушбу тақдимотларни тақдим etish usullari sifatida tasniflanadi.

"Komponentlarni ko'rsatish" nazariyasiga binoan adabiyot darslarini maqsad va vazifalariga yoki turli xil test topshiriqlari orqali tashkillashtirilganligiga ko'ra dars jarayonini ikki asos(qism)ga ko'ra tasniflanadi:

**Birinchi qism**, faoliyat o'quvchilarning bilim olish jarayoniga bevosita aloqador bo'lib, unda "Misol-eslab qolish", "Mavzu-eslab qolish", "Qo'llash va topish" faoliyatlaridan iborat bo'ladi.

**Ikkinchi qism**, darsning mavzusiga qaratilgan bo'lib, uning mazmunini Fakt, Konsepsiya, Jarayon va Prinsiplar tashkil qiladi. Dars jarayonlarida o'quvchi faoliyatini tashkil qilinadigan jarayonlar quyidagi jadvalda tasniflanadi.

|               |                      |            |         |         |  |
|---------------|----------------------|------------|---------|---------|--|
| FAOLIYAT      | Topmoq               |            |         |         |  |
|               | Qo'llash             |            |         |         |  |
|               | Mavzuni eslab qolish |            |         |         |  |
|               | Misolni eslab qolish |            |         |         |  |
|               | Fakt                 | Konsepsiya | Jarayon | Prinsip |  |
| <b>MAZMUN</b> |                      |            |         |         |  |

Jadvalga nazar tashlaydigan bo'lsak, dastlab, "**Eslab qolish**" kategoriyasi berilgan bo'lib, u avvaldan mavjud bo'lgan turli xil axborotlar, ma'lumotlar yoki voqealardan yana qayta aniqlab olishlari (tanib olishlari) yoki takrorlashlari uchun xotiralaridan foydalanishlariga qaratilgan jarayon hisoblanadi. Adabiyot darslarida ham o'quvchilar asar mutolaasidan so'ng asar qahramonlari, ular bilan sodir bo'lgan voqealar haqida o'ylay boshlaydilar va xotiralarida saqlaydilar. Asarning nomini eshitgan zahotlaridayoq u bilan bog'liq bo'lgan xotiralarida saqlangan ma'lumotlarni eslaydilar. Matriksaga nazar tashlaydigan bo'lsak, darslarni tashkil etish jarayonida ham birinchi urg'u xotiraga qaratiladi. Ya'ni o'quvchidan asar orqali berilgan yoki undagi ma'lumotlarni eslab qolganmi yoki yo'qliklari tekshiriladi. Qozoqboy Yo'ldoshev "Badiiy tahlil asoslar" kitobida badiiy butunga xos qonuniyatlar dastlab anglab yetilishi, tahlil jarayonini analiz emas sintez jarayonidan boshlash lozimligi haqida aytadi va bu jarayonda eslab qolish jarayoni haqida quyidagi fikrlarni bildirganliklarini ko'rish mumkin: "Sinchi birinchi navbatda, o'zining asardan olgan ilk taassurotini eslab qolishi va uning qanchalik to'g'ri ekanini qayta o'qish orqali tekshirib, paydo bo'lgan qarashlarini tushuncha holida ifodalashi va ularni adabiyot ilmi xulosalari hamda asardagi dalillar yordamida

<sup>1</sup> [https://mDevidmerrill.files.wordpress.com/2019/04/cdt\\_chapter7-1.pdf](https://mDevidmerrill.files.wordpress.com/2019/04/cdt_chapter7-1.pdf)

<sup>2</sup> Gagne ta'llimning beshta asosiy toifasini aniqlaydi: og'zaki ma'lumot, intellektual ko'nikmalar, kognitiv strategiyalar, vosita qobiliyatlar va munosabatlari. Har bir ta'lim turi uchun turli xil ichki va tashqi sharoitlar zarur. Masalan, kognitiv strategiyalarni o'rganish uchun muammolarga yangi yechimlarni ishlab chiqishda mashq qilish imkoniyati bo'lishi kerak; munosabati o'rganish uchun o'quvchi ishonchli na'muna yoki ishonarli dalillarga duch kelishi kerak. <https://www.instructionaldesign.org/theories/conditions-learning/>

<sup>3</sup> [https://mDevidmerrill.files.wordpress.com/2019/04/cdt\\_chapter7-1.pdf](https://mDevidmerrill.files.wordpress.com/2019/04/cdt_chapter7-1.pdf)

asoslashi zarur"<sup>1</sup>. Ya'ni o'qirman dastlab asardagi ma'lumotlarni yodida saqlaydi va tahlil jarayonini usha bilimlarga tayangan holda amalga oshiradi. Quyida eslab qolish jarayoniga oid savollar berilgan va ular birinchi bosqichni amalga oshirishga qaratilgan:

"Kitob topish qiyin bo'lgan, topilganini ham bir pasda o'qib tashlashgan" kimning bolalik yillari xuddi shunday esga olingan?

Normurod Norqobilovning egallagan bilimlari uning hayotida qanday ahamiyatga ega bo'lgan deb o'ylaysiz? Fikringizni dalillashga harakat qiling.

Ikkinci faoliyat kategoriyasi "**Qo'llash**" – talabalarni mavjud bilimlaridan ma'lum bir vaziyatlarda qo'llashlariga qaratilgan jarayon hisoblanadi. Ma'lumki, adabiyot, xususan, badiiy asardan o'quvchi o'zi uchun yangi ma'lumotlarni, hayot haqidagi xulosalarini oladi. Xususan, adabiyot haqida Chingiz Aytmatov ham "Badiiy adabiyot odamning haqidagi hikoyasidir" deb bejizga aytmagan. Adabiyotdan inson haqida yoyinki butun yaratiqlar haqidagi ma'lumotlarni va yangiliklarni olish mumkin. "Adabiyot o'zining ichki tabiatiga ko'ra g'oyat qimmatli ma'rifiy-madaniy, baholovchi-axloqiy, kechinmali hissiy, ijtimoiy-siyosiy, badiiy-estetik, va boshqa xil axborotlarni to'plash va uzatish imkoniyatiga ega"<sup>2</sup>. Adabiyot orqali olingen yangi bilimlar, ma'lumotlar, xulosalar o'quvchi hayoti davomida turli xil vaziyatlarda qo'llanadi va shu qo'llashni quyidagi topshiriplarda ko'rish mumkin:

Normurod Norqobilov hayotida uni ijodiga ta'sir qilgan faktlar (yoki ma'lumotlar) asosida kichik klaster tuzing.

Normurod Norqobilovning "Oqbo'yin" qissasidagi ushbu ta'rif qaysi it haqida: "Bu kuchuk arloni it naslidan. Bunaqasi mingtadan bitta chiqadi".

Faoliyat kategoriyasining uchinchi jarayoni "**Topmoq**" – talabalardan o'zлari uchun yangiliklarni topishlari yoki ixtiro qilishlariga qaratilgan jarayon hisoblanadi. Adabiyot o'quvchiga o'zлari tasavvur qilmagan darajada ko'plab yangiliklarni ma'lumotlarni beradi. Matn orqali chiqarilgan xulosalar asosida o'qirman o'zi bilmagan narsalari haqida bilib olishlari, yangi g'oya va fikrlarni ixtiro qilishlari mumkin. Misol uchun, Izzat Sultonning "Adabiyot nazariyasi" kitobida "Insoniyat tarixi" hikoyasi haqida so'z yuritib quyidagi fikrlarini bildiradi: "Yozuvchilar esa ko'pincha boshqa yo'l bilan boradilar: ular hayot manzarasining o'zini tasvir etadilar-u, undan kelib chiqadigan xulosani ochiq aytmaydilar; uni tushunib olishni o'quvchining o'ziga havola qiladilar. Masalan, Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasida dehqonlar hayotidan bir manzara yaratiladi. Birdan-bir tayanchi ho'kizi bo'lgan dehqonning uyiga o'g'ri tushadi. O'z tayanchidan mahrum bo'lgan dehqon o'g'irlangan ho'kizni topish niyatida turli amaldorlarga murojaat etadi. Ammo ho'kizning o'g'irlanish hodisisi podshoh amaldorlari uchun kambag'al dehqonni "qonuniy ravishda" talash bahonasi bo'lib qoladi, xolos. Natijada, dehqon uzil-kesil xonavayron boladi. Bizning ongimizda "aslida ho'kizni o'g'irlagan o'g'ri" oddiy o'g'ri emas, balki mehnatkash xalqni talashga asoslangan tuzum degan taassurot paydo bo'ladи<sup>3</sup>. Yozuvchi o'z g'oyasi, tushunchalari asosida yaratilgan yaratiqdan xulosa chiqarishni yoki topishni o'quvchiga qo'yib beradi. O'qirman adabiy asar asosida hayot haqidagi hodisalar bilan tanishadi, xulosaga keladi va ko'picha hayot ustidan hukm chiqaradi. O'zini uchun kerakli ma'lumotlarni topadi. Quyida ushbu darajadagi savollar tuzilgan:

3.1. O'qbo'yin, Oqtosh va Malla o'rtasida odamlarga xos qanday xususiyatlarni ko'rish mumkin? Bu yana qaysi voqealarda aks etgan?

3.2. Oqbo'yin taqdiri o'lim bilan yakunlanganida asar voqealarida qanday o'zgarish bo'lishi mumkin edi deb o'ylaysiz?

Birinchi raqamda berilgan savollar eslab qolish darajasiga, ikkinchisi qo'llash, uchinchisi topish darajasiga mos ravishda tuzilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Merrill M. D. Component display theory, 1983. In C.M.Reigeluth, Instructional Design theories and models. Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates.
2. Mirzayeva Z. XX asr o'zbek adabiyotining Amerikada o'rganilishi. II kitob. –T.: Akademnashr, 2017.
3. Muhamedova S. va boshq. O'zbek tili va adabiyoti ta'limida zamonaviy axborot texnologiyalari. – T.: 2018.
4. Mirzayeva Z. XX asr adabiyotining xorijiy tadqiqotchilari. – T.: 2016.
5. Niyozmetova R., Husanboyeva Q. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: 2018.
6. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: Yangi asr avlodи, 2006.
7. Adabiyot. 7-sinf uchun darslik / Z.Mirzayeva, K. Jalilov. –T.: Respublika ta'lim markazi, 2022.

<sup>1</sup> Yo'ldosh Q., Yo'ldosh M. Badiiy tahlil asoslari.–T.:2006, 202-b.

<sup>2</sup> Yo'ldosh Q., Yo'ldosh M. Badiiy tahlil asoslari.–T.:2006, 21-b.

<sup>3</sup> Sulton I. Adabiyot nazariyasi, -T.: 2005. O'qituvchi, 2005, 23-b.

Firuza Sharipova,  
Toshkent davlat pedagogika universiteti doktoranti

## BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KASBIY MADANIYATNI TAKOMILLAHSHTIRISH

**Annotatsiya.** Ushbu maqola bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy madaniyat va uning tarkibiy qismlariga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlar:** kasbiy madaniyat, pedagogik madaniyat, pedagogik faoliyat, pedagogi qadriyat

**Annotation.** This article is dedicated to professional culture and its components in future teachers.

**Keywords:** professional culture, pedagogical culture, pedagogical activity, pedagogical value.

**Kirish qismi:** Mamlakatimizda bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarini tayyorlash jarayonini xalqaro malaka talablari asosida tashkil etish, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini ilg'or xorijiy tajribaga asoslangan holda tayyorlash xorijiy tillarda erkin muloqot qila oladigan mutaxassislar tayyorlash jaxon sivilizatsiyasi yutuqlaridan keng foydalinishning me'yoriy asoslari yaratildi va moddiy texnik bazasi boyitildi. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi farmonda ta'lif sifatini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlarga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash ustuvor vazifa etib belgilandi, shuningdek, xalqaro ta'lif standartlarini joriy etish va ta'lif sifatini baholash asosida oliy ta'lif muassasalarini faoliyati va samaradorligini oshirish ustuvor vazifa etib belgilandi. Natijada, oliy ta'lif muassasalarida tillarning fanlarga integrallashtirilgan holda o'rgatish imkoniyati kengaytirildi.

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy faoliyati qanchalik muvaffaqiyatli bo'lishi shaxsiy va kasbiy fazilatlarning, ya'ni kasbiy madaniyatning kasb talablariga muvofiqligi darajasiga bog'liq. Boshqacha qilib aytganda, bo'lajak o'qituvchining kasbiy madaniyatni kasbiy faoliyatga tayyorlikning muhim belgisidir

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy faoliyati sohasidagi pedagogik madaniyatni loyihalash "o'qituvchining kasbiy madaniyati" tushunchasida o'z aksini topgan.

Bundan tashqari, "Bo'lajak o'qituvchining kasb madaniyati" tushunchasini ko'rib chiqib, "kasbiy-pedagogik madaniyat" atamasini tahlil qilish zarur. V.A Slasteninning fikriga ko'ra, "o'qituvchining kasbiy-pedagogik madaniyati" tushunchasi pedagogik madaniyatning bir qismi sifatida tushuniladi, ammo uning tashuvchilari pedagogik faoliyat va kasbiy darajada pedagogik muloqotdan iborat pedagogik ishlarni amalga oshiradigan odamlardir, tashuvchilar esa pedagogik madaniyatning bir qismidir. Pedagogik madaniyat - bu hatto kasbiy bo'ligan darajada ham pedagogik amaliyot bilan shug'ullanadigan odamlardir. Shu bilan birga, bo'lajak o'qituvchining pedagogik madaniyati haqida gapiradigan bo'lsak, bu uning kasbiy madaniyatining bir qismi bo'lishi shubhasiz. Bundan tashqari, I.F. Isaev, V.A. Slastenin va boshqalar kasbiy va pedagogik madaniyatning uchta tarkibiy qismini ajratib ko'rsatishadi:

- aksiologik komponent, shu jumladan pedagogik qadriyatlar majmui;
- texnologik komponent, shu jumladan pedagogik faoliyat usullari
- shaxsiy-ijodiy komponent, jumladan, shaxsiy xususiyatlar va pedagogik ijod.

**Asosiy qism:** Pedagog ixtisosligini tanlagan har bir inson kimlarni o'qitayotgan va tarbiyalayotganligi uchun o'ziga javobgarlikni oladi. U o'zining kasbiy tayyorgarligiga javob berish bilan birga pedagog, o'qituvchi, tarbiyachi, muallim bo'lishi xuquqiga ega bo'lishi uchun juda ko'plab majburiyatlarni olishi zarur.

Insonning ijtimoiy mohiyatini jamiyat talabiga mos ravishda shakkantiruvchi soha xalq ta'limi tizimi deb atalib, uni amalga oshiruvchi shaxs o'qituvchi yoki muallim deyiladi. Muallimlik kasbining sharafliligi, nafaqat, uning o'qituvchi, turli bilimlarni o'rgatuvchi va mohir tarbiyachi bo'lganligi uchungina emas, balki uning o'zi tanlagan kasbxunar yunalishidagi barcha mutaxassisliklar bo'yicha maxsus fanlarni va ularning poydevori bo'lgan fundamental fanlarni hamda o'qitish va tarbiya berishni, psixologiya va pedagogika asoslarini a'lo darajada egallagan bo'lishi shart. Pedagog bu – yuksak madaniyatli mutaxassis, o'z fanini chuqur biluvchi, umumiy va bolalar psixologiyasini yaxshi biluvchi, ta'lim-tarbiya metodikasini mukammal biluvchidir. Ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy maqsadi va vazifasi barkamol, yetuk shaxs, malakali mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Shunday ekan biz ta'lim-tarbiya samaradorligini o'quvchilarning qay darajada bilim, ko'nikma va malakaga ega ekanliklari, mustaqil bilim olishga, jamiyatda o'z o'rinalarini topish uchun qanday tayyorgarligi bilan o'lchashimiz, baho berishimiz lozimligini bilishimiz shart.

O.G. Skvortsova ta'kidlaganidek, universitet o'qituvchisining kasbiy madaniyati uning kasbiy va pedagogik haqiqatining butun sohasini qamrab oladi. Bo'lajak o'qituvchining "kasbiy madaniyati" tushunchasi A.P. Sitnik pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan shaxsning umumiy madaniyati va kasbiy bilimlarining kombinatsiyasi sifatida belgilaydi. Muallif kasbiy madaniyatning besh tarkibiy qismini ajratib ko'rsatdi: umumiy, axloqiy, falsafiy, estetik va pedagogik madaniyat. Shu bilan birga, pedagogik madaniyat o'qituvchi kasbiy madaniyatining elementi ekanligini ta'kidlaydi.

A.N.Limarning ta'kidlashicha, oliv ta'lism xodimlarining kasbiy madaniyati "o'qituvchi va ta'lism muhitni o'rtasidagi maxsus o'zaro ta'siri, sub'ektiv va ob'ektiv omillarning o'zaro ta'siri" kasbiy bilimlar, me'yorlar va qadriyatlar mavjudligiga asoslangan bo'lib, talabalar tomonidan egallangan mutaxassislikni muvaffaqiyatli o'zlashtirishni ta'minlaydi. A.N.Limarning fikricha, o'qituvchilar talabalarga o'rgatadigan mehnat faoliyatining bajarilishini ta'minlash uchun ko'nikma va qobiliyatlarga ega; kasbiy fikrlash asoslariga ega bo'lish va ishlab chiqarish sharoitida ushbu fikrlash turidan foydalanish qobiliyati; talabalarning o'z-o'zini rivojlanТИRISH, o'z taqdirini o'zi belgilash, o'z-o'zini tarbiyalash, talabalarni o'quv jarayonini tashkil etishga qabul qilishni rag'batlantirish uchun o'quv jarayonini tashkil etishni maqsadli yo'naltirish; pedagogik va tadqiqot faoliyatining kombinatsiyasini ifodalaydi.

M.P. Kolesnikova o'qituvchining kasbiy madaniyatini pedagogik qadriyatlar, axloqiy munosabatlar va e'tiqodlar, o'qituvchi faoliyatini ijodiy amalga oshirishga qaratilgan shaxsiy xususiyatlarning birligi deb belgilaydi. Bundan tashqari, muallif o'zaro bog'liq bo'lган quyidagi tarkibiy qismlarni belgilaydi: ma'naviy-axloqiy madaniyat, pedagogik muloqot madaniyati, nutq madaniyati va tafakkur madaniyati, xulq-atvor va tashqi ko'rinish madaniyati.

I.M.Kupchigina ta'lism tizimidagi bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy madaniyati tarkibida quyidagi tarkibiy qismlarni aniqladi:

- kognitiv- kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish jarayonida umuman kasbiy madaniyat, uning qadriyatlarining ahamiyati to'g'risida bilimlarning mavjudligi bilan tavsiflangan;
- empatik- empatik munosabatlar mavjudligi va hissiyotlarning namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadi;
- kommunikativ- shakllanishni aks ettiruvchi muloqot qobiliyatları va qobiliyatları;
- refleksiv- o'z-o'zini aks ettirish va introspeksiya qilish qobiliyatini shakllantirish bilan tavsiflanadi [9].

Bundan tashqari, tahlil bugungi kunda bo'lajak o'qituvchining kasbiy madaniyati va uning tarkibiy qismlari haqida yagona g'oya yo'q degan xulosaga kelishimizga imkon berdi.

Shuni ta'kidlash kerakki, "Madaniyat", "Kasbiy madaniyat" va "bo'lajak o'qituvchining kasbiy madaniyati" tushunchalarining uchtasi ham o'zaro bog'liq .

I.F. Isaeva, U. Kullibali, V.A. Slastenining tadqiqotlari asosida biz "bo'lajak o'qituvchining kasbiy madaniyati" tushunchasiga axborot-metodik komponentni kiritishni zarur deb hisoblaymiz. Rivojlanayotgan mamlakatlarda kasbiy va pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bilim tizimini, ta'lism texnologiyalarini doimiy ravishda takomillashtirish, jarayonning o'zini ham, ta'lism muhitini ham tashkil etishga ijodiy yondashish zarur[8].

Shunday qilib, kasbiy madaniyat bo'lajak o'qituvchilarning o'quv muassasalarida o'z ishini qanday bajarishini anglatadi. Bu orqali, olib borilayotgan ishlar mazmunli bo'lib, bo'lajak o'qituvchilar asta-sekin o'z muammolarini hal qilishni va integratsiyalashgan hamjamiyatda professional bo'lishni o'rganadilar.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi PF 60-son farmon.
- 2 Исаев, И.Ф.Профессионально-педагогическая культура преподавателя: учеб. пособие для студентов вузов, обучающихся по педагогическим специальностям - 2-е издание, стереотипное. - Сер. Высшее образование / И.Ф. Исаев. - М.: «Академия», 2004. - 208 с.
3. Сластенин, В. А. Педагогика: Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / В. А. Сластенин, И. Ф. Исаев, Е. Н. Шиянов; Под ред. В.А. Сластенина. - М.: Издательский центр «Академия», 2002. - 576 с.
- 4.Скворцова, О. Г. Профессиональная культура преподавателя вуза социологическом измерении / О. Г. Скворцова // Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. - 2015. - № 12-7. - С. 114-119.
- 5.Ситник, А. П. Профессиональная культура учителя: исторические аспекты проблемы / А. П. Ситник // Школа. - 1998. - №1. - С. 3-40
- 6.Лымарь, А. Н. Профессиональная культура педагогов высшей школы: социологический анализ : автореф. дис. ... канд. социол. наук : 22.00.06 / Лымарь Анна Николаевна. - Екатеринбург, 2008. - 22 с
- 7.Колесникова, М. П. Формирование профессиональной культуры будущего педагога / М. П. Колесникова // Профессионально-личностное становление и развитие специалиста: история и современность: сборник статей. - Рязань : Издательство «концепция», 2017. - С.161-164.
- 8.Кулибали, У. Этнокультурный контекст формирования профессиональной культуры будущих педагогов в Республике Мали : диссертация ... канд. пед. наук : 13.00.08 / Кулибали Усман. - Орел, 2015. - 202с
- 9.Купчигина, И. М. Изучение и анализ сформированности профессиональной культуры у будущих учителей в системе среднего профессионального образования / И. М. Купчигина, И. Е. Балыкова // Мир науки, культуры, образования. - 2013. - № 3(40). - С. 62-66.

Dildora Turg'unova,  
Andijon davlat universiteti erkin tadqiqotchisi

## “KISHNAMOQ” LEKSEMASI QAMROVIDAGI SO’ZLARNING SEMANTIK VA TARIXIY-ETIMOLOGIK QAMROVI

**Annotatsiya.** Maqolada o’zbek tilida ot zoonimi ovozi bilan bog’liq xatti-harakatni ifodalovchi so’zlarning semantik xususiyatlari tavsiflangan. Bunday leksik-semantik guruhni tashkil qiluvchi birliklarning etnos bilan bog’liq tarixiy shakllari tadqiq etilgan.

**Kalit so’zlar:** Olamning lisoniy manzarasi, leksik-semantik guruh, etnos tabiat, umumturkiy so’z, parema, milliy-madaniy xususiyat.

**Аннотация.** В статье описаны семантические особенности слов, выражающих поведение, связанное со звучанием зоонима “лошадь” в узбекском языке. Исследовали исторические формы этносовых единиц, составляющих такие лексико-семантические группы.

**Ключевые слова:** лингвистическая картина вселенной, лексико-семантическая группа, природа этноса, общетюркское слово, парема, национально-культурная особенность.

**Annotation.** The article describes the semantic features of the words expressing the behavior related to the sound of the horse zoonimi in the Uzbek language. Historical forms of units that make up such a LSG related to ethnosc have been researched.

**Keywords.** Linguistic landscape of the world, lexical-semantic groupnature of ethnosc, universal Turkish word, parema, national-cultural characteristic.

Bugungi kunda ko’plab tilshunoslar tomonidan zoonimlar yirik tadqiqot predmeti sifatida o’rganilmoqda. Zoonimlarning leksik-semantik jihatlari, ularning konseptologik xususiyatlari aniqlanmoqda. Biroq shuni aytilishimiz mumkinki, amalga oshirilgan tadqiqotlarning barchasida hayvonlarning xatti-harakatini ifodalovchi so’zlar tilshunoslar e’tiboridan chetda qoldi. Negaki, olamning lisoniy manzarasida nafaqat zoonimlar, balki ularning xatti-harakatini ifodalovchi so’zlar ham muhim ahamiyatga ega. Har bir tilda o’zining flora va faunasi bilan azaliy bog’liq bo’lgan zoonimlar mavjud bo’ladi. Shunday ekan, til egalarida ularning xatti-harakatini ifodalashga ehtiyoj sezilish tabiiy.

Ushbu maqolada ot zoonimining “kishnash” harakatini ifodalovchi leksemalarni tadqiq qilishni lozim deb topdik.

Otning ovoz harakatini ifodalovchi so’zlar leksik-semantik guruhini **kishnamoq, arillamoq, arqiramoq, oqramoq, o’kranmoq, pirqillamoq, pirqiramoq, pishqiramoq, tigrätti** kabi leksemalar tashkil qiladi.

O’zbek tilida otning ovoziga nisbatan **kishnamoq** so’zi qo’llanadi. Obyektiv borliqda ot hayvonining og’zidan chiqadigan tovushda kishnov elementi bo’lmasa-da, otning tovush chiqarish harakatiga nisbatan shu so’z qo’llanadi. Misol: *Tarlon jilovini silkib-silkib kishnadi, yulqib-yulqib kishnadi. Keyin men sari yuzlandi. Oyoqlarini katta-katta yoydi. Bo’ynini cho’zdi. Quloqlarini chimirdi.* (Tog’ay Murod, “Ot kishnagan oqshom”).

Bu so’z juda uzoq tarixga ega bo’lib, qadimgi turkiy tilda ham **kishnädi** so’zi **kishnär, kishnämäk** variantlari bilan iste’molda bo’lgan va hayvonning ovoziga nisbatan qo’llangan [6: III, 317]. Biroq, qadimgi turkiy tilda kishnamoq so’zi xachirning ovoziga nisbatan ham qo’llangan. Misol: **qatır kishnädi – xachir hangradi.** [6: III, 317].

“Devon” da keltirilgan kishnash ma’nosini beruvchi leksemalardan biri **kökrädi** so’zi bo’lib, u **kökrär, kökrämäk** variantlariga egadir [6: III, 297]. Mahmud Qoshg’ariy yuqoridagi so’zni quyidagi ma’nolarni ifodalash xususiyatiga ega ekanligini qayd etgan:

1. Otning tur-jins munosabatiga ko’ra bu tovush faqat ayg’irning (erkak otning) ovoziga nisbatan “kishnamoq” ma’nosini ifodalaydi. Masalan: *Bog’ra kökrädi – ayg’ir kishnadi.*

2. Yovvoyi hayvonlarning tovushiga nisbatan “bo’kirmoq” ma’nosini ifodalaydi. Masalan: *Arslan kökrädi – arslon bo’kirdi.*

3. Chaqmoq chaqishiga nisbatan qo’llanib, “hayqirmoq” ma’nosini ifodalaydi. Masalan: *Bulit kökrädi – osmonda bulutlar hayqirishdi* [6: III, 297].

Qadimi turkiy tilda yuqoridagi leksema ishtirok etgan **tägärmändä tug’mış sïchg’an kök kökräkinä** qo’rqmas maqoli ham mavjud [4: III, 279]. Bu maqol hozirgi kunda ham o’zbek tili paremalari qatorida saqlanib qolgan. Davrlar o’tishi bilan maqol leksemalari tarkibida fonetik o’zgarish yuz bergan, lekin semantik xususiyati aynan XI asrdagi ma’nosiga to’liq mos keladi. Misol: *Tegirmonda tug’ilgan sichqon momaqaldiroqdan qo’rqmas* [10:110].

Qadimgi turkiy tilda aynan otlarning ovozini – kishnash harakatini ifodalovchi leksema ham mavjud bo’lgan. Masalan: **oqradi** so’zi. Bu so’z ham **oqrar, oqramaq** varantlariga ega bo’lib, **kishnadi** degan ma’noni bildiradi. Misol: *Ot oqradi – ot ovqat yeyish vaqtida kishnadi* [6: I, 272]. Bu so’zning qadimgi turkiy tilda ko’plik shakli - **sh affaksi** bilan hosil qilingan. Masalan: *Jund qamug’ oqrashdi – [o’tni] ko’rib ot podasi kishnashdi* [6: I, 238].

Ot hayvoni, asosan, boshqa begona otni ko’rganda kishnaydi. Masalan: *Odam so’zlashib topishadi, yilqi kishnashib topishadi, Ziyodulla chavondoz! Shunday-shunday topishadi-da!* (T.Murod, “Ot kishnagan oqshom”).

Shuningdek, yilqichilik bilan shug'ullanuvchi chorvadorlar otning kishnov tovush chiqarishini hayvonning biror xavfdan ogoh qilayotganini bildiradi, va o'zini xavf-xatardan himoya qilishning o'ziga xos uslubi deydi. Misol: *Tishlarini irjaytirib kishnadi. To'riqni ogoh qildi. Yaqinlashma, degan bo'ldi* (T.Murod, "Ot kishnagan oqshom").

Otning kishnov ovoz chiqarishi, kishnamoq ma'nosi keyingi XV-XVI asr adabiy manbalarida, xususan, Alisher Navoy asarlari tilida quyidagi leksemalar vositasida ifodalanadi:

1) "Muhokamat-ul lug'atayn" da **oxranmäk** leksemasi bilan ifodalanadi;

2) Asarning Anqara nashrida **ohrenmek** shaklida qayd etiladi [1:6].

Har ikki so'z ham ot hayvonining ovoz harakati va holatini ifodalaydi.

E'tibori jihat shundaki, turkiy tillar ichida ozarbayjon tilida bugungi kunda ham tahlilga olingan so'zning aynan "Muhokamat-ul lug'atayn" da ko'rsatilgan **oxranmäk** shakli iste'molda mavjud bo`lib, otning kishnov tovush chiqarish semasini ifodalaydi. (<https://sozluk.obastan.com>) Leksemadagi bu xususiyat esa yuqoridagi so'zlarni umumturkiy so'z sifatida o'rganishga asos bo'la oladi.

O'zbek tili xalq og'zaki ijodi sanalmish xalq dostonlarimizda ot hayvonining o'ziga xos obrazlari tasvirlanganki, ular xalqimizning bu hayvon bilan o'rnatilgan kuchli do'stlik aloqlari, ijobiy munosabatlarini aks ettiradi. Misol:

*Chingirib kishnaydi boylovl Chibor,*

*Siyosatman zarb ko'rsatdi qalmoqlar* [3: 317].

Xalq dostonlarida ot hayvonining kishnashi ko'proq **arqiramoq** so'zi bilan qayd etilgan. Bu so'z asarning badiiy ta'sirchanligini oshirish, otning chopish manzarasini tasvirlash, bu jarayonni bo'rttirish maqsadida qo'llanadi. Bunday o'rnlarda arqiramoq so'zi *na'ra tortmoq* ma'nosiga yaqin ma'noni ifodalaydi. Misol:

*Boychibor boradi shunday arqirab,*

*Tuyog 'ida to'rt sixi bor yarqirab,*

*Irg'iganda qumlar ketti tirqirab,*

*Borayotir cho'lda shunday sharqirab* [ 3: 237].

O'zbek tilida kishnamoq so'zini ba'zan insonga va predmetga nisbatan qo'llanilishi ham kuzatiladi. Masalan: *ingramaydi kishnaydi, tilanchimas ishlaydi*. (She'rdan);

*Tishlaganda kishnaydi.*

*Kishnab-kishnab ishlaydi,*

*Ishlab ko'ngil xushlaydi.* ("Topishmoqlar". Tikuv mashinasi. <https://ilmilar.uz>).

Bunday o'rnlarda tahlilga olingan so'zning hayvon ovoziga aloqadorlik semasi yo'qoladi va "o'ta g'ayratli", "kuch-quvvatga to'la", "sog lom", "baquvvat" kabi shaxsnинг xususiyatlarini ko'rsatadi. Narsa-buyumga, asosan, texnikaga nisbatan qo'llanganda esa "yaxshi yurmoq", "yaxshi ishlaromoq" semalarini ifodalaydi [7:179].

O'zbek tilida kishnamoq so'zi ishtiroy etgan maqollar mavjud bo'lib, ularda o'zbek xalqi madaniy turmushi, milliy o'ziga xosligi aks etadi. Masalan: *Yaqin tursa tepishar, uzoq tursa kishnashar.* (So'zdan so'zning farqi bormi. <https://telemetr.me>).

Bu maqolda hayoti davomida bir-birlari bilan kelisha olmaydigan insonlarning bir-birlaridan uzoqlashganda esa qadrlariga yetishi, sog'inishi haqidagi ko'chim ifodalanadi.

O'zbek tilining izohli lug'atida ot, qoramolning burunidan kuchli bo'g'iq ovush chiqarish ma'nosini **pishqirmoq** so'zi ifodalashi ko'rsatib o'tilgan. Misol: *Tayoq jonidan o'tgan sho'rik jonivor pishqira-pishqira noiloj oldinga yurdi.* (N.Norqobilov, "Oqbo'yin").

Qadimgi turkiy tilda esa tahlilga olingan pishqirmoq ma'nosini ifodalovchi **tigrätti** so'zi (*tigrätür, tigrätümäk* variantlari bilan birga) iste'molda bo'lgan. Misol: *Oi afin tigrätti – U otini pishqirtirib, kishnatib yuradigan qildi* [6: II, 382].

Ot hayvonining burnidan baland ovoz chiqarishi **pishqirmoq, pirqillamoq** so'zlari bilan ifodalansa, burnidan past tovush chiqarishi **o'kranmoq** leksemasi bilan ifodalanadi [9: I, 153].

O'kranmoq so'zi ham turli adabiy manbalarda va o'zbek tili tarixining turli davrlarida bir nechta shaklda qayd etiladi. Masalan, folklor asarlari tilining izohli lug'atida **o'qranmoq** shaklida ko'rsatilgan bo'lib, ot hayvoniga nisbatan bir-biri bilan tanishmoq ma'nosini bildiradi deya izohlanadi [8: 223]. Masalan: *O'qranib topishib endi qoladi, Hayvonning tarziga Hakim qaradi* [3: 317].

Shuningdek, bu so'z dostonlarda **o'kranmoq** shakli bilan ham qo'llangan. Misol: *Qashlagani otga yoqib qolibdi, o'kranib u gir aylanib turibdi* [3: 141].

**O'kranmoq** so'zining asosi "o'kra" bo'lib, qayta-qayta baland ovoz chiqarmoqdirdi. Bu fe'l qadimgi turkiy tildagi "baland ovoz chiqar" ma'nosini ifodalovchi **o'kur** fe'lidan hosil qilingan [5: 447].

Eski o'zbek tilida insonning baland ovozda yig'lash holati **o'kranmoq** leksemasi bilan ifodalanadi. Misol: *Biz endi shunday qolaberamizmi, agar zolimlar... – dedi-da Kumush so'zining oxirini aytomay o'krab yubordi.* (A.Qodiriy "O'tkan kunlar", <https://library.samdu>). Tahlilga olingan so'z hozirgi o'zbek tili shevalarida iste'molda mavjud. Asosan insonga nisbatan qo'llanib, "yig'lamoq" ma'nosini anglatadi. Masalan: *Zebi xola uni ko'rib, o'zini*

tutolmay, o'krab yubordi. (O'lmas Umarbekov "Qiyomat qarz", <https://zarnews.uz.184>).

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, o'zbek tili leksik zaxirasining katta qismini nafaqat zoonimlar, balki hayvonning xatti-harakatini ifodalovchi leksemalar ham tashkil qiladi. Bunday so'zlar juda uzoq tarixga ega bo'lib, o'zida etnos tabiatini, madaniyatini aks ettiradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Эгамова Ш. Алишер Навоий асарлари тилидаги қадимги турккий лексика тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 6.
2. <https://sozluk.obastan.com>.
3. Fozil Yo'ldosh o'g'li. Alpomish. – Toshkent: Sharq, 1998.
4. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005. –В. 110.
5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2003.–Б.447.
6. Маҳмуд Қошғарий. Турккий сўзлар девони. III томлик. Нашрга тайёорловчи С.М.Муталлипов. – Тошкент. 1963. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com).
7. Turg'unova D. Etnolingvistik aspektida hayvon harakatini ifodalovchi so'zlar tadqiqi. Innovative Development in Educational Activities ISSN: 2181-3523 VOLUME 2 | ISSUE 7 | 2023. [https://t.me/openidea\\_uz](https://t.me/openidea_uz).
8. O'rınboyeva D.B. Folklor asarlari tilining izohli lug'ati. – Samarqand, 2017.–В. 223
9. O'zbek tilining izohli lug'ati (O'TIL). 5 jiddlik. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi " Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008.
10. Шотурсун Шомақсудов., Шуҳрат Шораҳмедов. Ўзбек халқ мақолларининг изохли луғати. –Тошкент: 1987. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)

Biloliddin Sharipov,  
Nurafshon shahri Prezident maktabi  
biologiya fani o'qituvchisi

## DARS JARAYONIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

**Annotatsiya:** Ushbu maqlada yangi axborot texnologiyalari asrida ta'lrim tizimi oldiga qo'yilayotgan ulkan vazifalar va bunda o'qituvchilardan talab qilinadigan zamonaviy ko'nikma va malakalar haqida so'z yuritiladi

**Kalit so'zlar:** an'anaviy ta'lim, UNESCO, AKT savodxonligi, ijodiy fikrash, zamonaviy ta'lim

XXI asr – yangi axborot texnologiyalari asri. Ushbu davrda axborot texnologiyalariga oid bilimlarga ega bo'lmay turib zarur ko'nikma va malakalarni shakllantirish murakkab. O'quvchilarda hayotiy zarur bo'lgan yangi asr bilim va ko'nikmalariga ega bo'lishlari ularni keyingi hayotga tayyorligining bosh mezoni hisoblanadi. Ushbu sharoitda zamonaviy ta'larning maqsad va vazifalari ham o'zgarib boryapti, an'anaviy ta'lim yondashuvidan XXI asr ta'lim yondashuviga, ya'ni shaxsga yo'naltirilgan ta'limga o'tilmoqda. Bunday ta'lim yondashuvining asosida o'quvchi shaxsining to'la rivojlanishi, tez o'zgaruvchan hayotga har tomonlama tayyor bo'lishi, ularning mustaqil ravishda bilim olish ko'nikmalarini, ijodiy fikrashini rivojlanishiga, ulkan axborot makonida axborotlarni tanqidiy nuqtai nazaridan to'g'ri izlash, tanlab olishni, oldida turgan muammolarni nafaqat ko'ra bilish, balki ularni ifodalash va hal eta olish yotadi.

Axborot texnologiyalari, kompyuter va kompyuter dasturlari insonlar bajaradigan ishlarni yengillashtirish, samarali faoliyat yuritish va bilimlarga ega bo'lish uchun yaratiladi, yangi imkoniyatlar ochadi va bizdan yangi bilim va ko'nikmaga ega bo'lishimizni talab etadi. Shu o'rinda Kreyg Barretning so'zlarini keltirish o'rinni bo'ladi: "Mo'jizani kompyuterlar emas, balki o'qituvchilar yaratadi". Ya'ni, axborot texnologiyalari vositalari ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilishi, bu jarayonda ular faqatgina bilimlarni yig'ish vositasi sifatida qatnashishi nazarda tutiladi.

Ta'lrim tizimi oldiga qo'yilayotgan ulkan vazifalarni amalga oshirishda o'qituvchilardan zamonaviy ko'nikma va malakalarga ega bo'lishni talab etadi. Bugungi kunda XXI asr ko'nikma va malakalariga oid ko'plab taddiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan "O'qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid bilimlarga ega bo'lishlik bo'yicha tavsiyalar (Information and Communication Tools Competency Framework for Teachers (ICT CFT))", XXI asr ko'nikma va malakalari bo'yicha hamkorlik tashkiloti (Partnership for 21st Century Skills – [www.21stcenturyskills.org](http://www.21stcenturyskills.org))dir. Bundan tashqari XXI asr ko'nikma va malakalari bo'yicha alohida izlanishlarni Apple Computer, Cisco Systems, Dell Computer Corporation, Microsoft Corporation, Intel Corporation tashkilotlari ham olib bormoqda.

XXI asrda mehnat bozori ish o'rinalarini o'zgarishiga, yangilarini paydo bo'lishiga ta'sir etar ekan, ta'lrim tizimi ham shunga mos ravishda javob berishi kerak. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) ta'lim jarayoniga joriy etish o'quvchilarga XXI asrda muvaffaqiyatga erishish uchun muhim bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirishda eng muhim vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

AKTni ta'lrim jarayoniga joriy etish o'qituvchilardan bir qator ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlikni talab etadi: didaktik materiallarni va faoliyatiga oid hujjatlarni tayyorlashda matn muharriridan samarali foydalanish, multimedia taqdimotlarini tayyorlash, tarmoq ichida ma'lumotlarni izlash va muloqot qilish.

Ushbu vazifalarni bajarishda o'qituvchilardan kompyuter savodxonligiga ega bo'lishlik talab etiladi. Bugungi kunda kompyuter savodxonligi keng qamrovli tushuncha bo'lib, o'z ichiga juda ham ko'plab ko'nikmalarini oladi. Shular ichidan o'qituvchilar tomonidan kompyuter savodxonligiga ega bo'lishlikning eng kerakli va zarur bo'lgan tayanch qismini ajratib olish muhimdir.

Fan o'qituvchilarining AKT savodxonligi bo'yicha egallashi lozim bo'lgan tayanch ko'nikmalar:

- Kompyuter haqida tushunchaga ega bo'lish va uning ishlash prinsiplarini bilish (asosiy va qo'shimcha qurilmalari haqida ma'lumotga ega bo'lish);
- Dasturiy ta'minot haqida bilimlarga ega bo'lish;
- Didaktik materiallar va ishchi hujjatlarni tayyorlashda matn muharrirlari, elektron jadvallar va boshqa amaliy dasturlar to'plashidan foydalana olish;
- Internet tarmog'i imkoniyatlaridan foydalanishni bilish.

Yuqorida keltirilgan ko'nikmalar AKT savodxonligiga erishish uchun zarur bo'lgan minimal ko'nikmalar hisoblanadi. Bugungi kun o'qituvchisi uchun axborot texnologiyalari uning kasb faoliyatidagi vazifalarnigina (dars rejasini tuzish, taqdimotlar yaratish, Internet tarmog'idan o'z faniga oid materiallarni to'plash) bajarish uchun emas, balki o'qitadigan fani yuzasidan didaktik materiallar yaratish, o'quvchilarning o'quv faoliyatini tashkil etishda AKT vositalaridan foydalanish (kompyuter tarmog'i orqali turli vazifalar berish, Internet resurslarini yaratish va ularda ta'lim materiallарini joylashtirish) uchun ham xizmat qilishi kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Khodjamkulov, U., Makhmudov, K., & Shofkorov, A. (2020). The Issue of Spiritual and Patriotic Education of Young Generation in the Scientific, Political and Literary Heritage of Central Asian Thinkers. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(05), 6694-6701.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). –T.: Iste'dod, 2008.-180 b.
3. Ishmuhamedov R.J, Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsiontexnologiyalar (ta'lim muassasalari o'qituvchilari, tarbiyachilari, guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar).–T.: Iste'dod, 2010.-140 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boyicha, harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-son Farmon. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
5. Jumaboyeva M. Umumiyo o'rta ta'limda kasbga yo'naltirish ishlarning tuzilmasi va mazmuni. Kurs ishi. Andijon qishloq xo'jaligi instituti, 2014. — 21 b.
6. Mardanov D. Maktabda kasbga yo'naltirish ishlari. — Nukus. 2013. — 182 b
7. Zaripov K.Z. Педагогическая диагностика в системе непрерывного повышения квалификации учителей: Методические рекомендации Под. Ред. А.Е. Марона. –Л: НИИ ОOB АПН СССР. 1989. –39 с.
8. Зеер Э.Ф., Павлова А.М., Сыманюк Э.Э. Модернизация профессионального образования: компетентностный подход: Учебное пособие. – М., 2005.

**Nasiba Meyliyeva,**  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o'zbek tili va adabiyoti universiteti  
magsitranti,

## RUBOIY JANRI VAZNALARINI TA'LIM JARAYONIDA O'QITISHGA INNOVATSION YONDASHUV

**Annotatsiya:** mazkur maqolada 8–10-sinf "Adabiyot" darsligida keltirilgan Alisher Navoiy qalamiga mansub ruboiylarining vazn xususiyatlari, mazmun uyg'unligini o'rgatish usullari ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** "Adabiyot" darsligi, aruz, vazn, ruboiy, janr.

**Annotation:** in this article, methods of teaching the weight characteristics of the rubai written by Alisher Navai, presented in the textbook "Literature" of the 8<sup>th</sup> – 10<sup>th</sup> grade, have been developed.

**Keywords:** 8<sup>th</sup> grade, 10<sup>th</sup> grade textbook "Literature", aruz, prosody (Weight) rubai.

Oliy ta'limga aruz tizimi vaznlarini o'qitish adabiyot o'qituvchilari uchun murakkab vazifalardan biri sanaladi. Sababi, vaznlarni o'rgatish uchun hamma dasturlarda juda oz soat ajratib kelingan bo'lib, ba'zilarida esa umuman bu mavzu haqida fikr yuritilmagan. Yoki murakkablikdan soddalikka qarab aruz tizimi bilan bog'liq mavzular kirit-

ilmagan. Biz bu o'rinda Sh.Rahmonovaning "Umumta'lim maktablarida aruz tizimini o'qitish muammolari" uslubiy qo'llanmasidagi ruboiy vaznlarining tahliliga tayandik.

O'quvchi va talabalar aruz ilmidan xususan, ruboiy vaznlarni mustaqil o'rganishda ularning mazmun tomoni, ruboilyarda qo'llangan she'riy san'atlar bilan bir qatorda vazn xususiyatini ham o'rganishi lozim.

8-sinf "Adabiyot" darsligidagi "Jondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz" deb boshlanuvchi ruboiy Alisher Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar" devonida 47-raqam ostida keltirilgan<sup>1</sup>. Bu ruboiy a-a-b-a qofiyalangani uchun ruboysi xasiy yoki erkin ruboiy hisoblanadi. Ruboiy mazmuni: ey, hayoti, umri men uchun aziz bo'lgan yor, men seni tanimdag'i jonimdan ham ko'proq sevaman, hattoki bu dunyoda qancha son eng ko'p miqdor hisoblansa, o'shandan ham ortiqroq sevaman. Guvohi bo'lganimizdek, mazmun go'zalligi ruboiydagi daho shoirga xos mubolag'a usuli tufayli shunday yuksak darajada ko'rsatilgan. "She'r san'ati sifatida mubolag'a deganda voqelikdagi narsa-hodisalarni ulkanlashtirish yoki o'ta kichraytirish usuli tushuniladi. Demak, mubolag'a avvalo ikki xil bo'ladi: ulkanlashtirish va kichraytish. Birinchisi: ifrot – kattalashtirish, ikkinchisi tafrit – kichraytirishdir<sup>2</sup>". Demak, ko'rinib turganidek "Jondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz" deb boshlanuvchi ruboiy ifrot – kattalashtirish usulida yozilgan. She'rning 1-, 2-, 4-misralarai *hazaji musammani axrabi maqbuzi makfufi ajabba*, 3-misrasida esa *hazaji musammani axrabi maqbuzi solimi abtar* vaznida yaratilgan. Shunday ekan uning misralari

### maf'uvlu mafoilun mafoiylu faal,

**maf'uvlu mafoilun  
mafoiylu faal,**

**maf'uvlu mafoilun  
mafoiylyn fa',**

**maf'uvlu mafoilun  
mafoiylu faal.**

ruknlar ohangida o'qiladi. Buning uchun ayrim o'rindardagi qo'shib o'qiladigan hijolarga diqqat qaratish lozim.

|            |               |                 |                     |
|------------|---------------|-----------------|---------------------|
| Jonden se  | ni ko'p sevar | me-n+ey umri    | aziz                |
| Sonden ser | ni ko'p sevar | me-n+ey umri    | aziz                |
| Har neni   | ki sevma-k+on | di-n+ortuq bo'l | mas                 |
| Ondin se   | ni ko'p sevar | me-n+ey umri    | aziz <sup>3</sup> . |

Jadvalda aks etganidek, 1-, 2-, 3-, 4-misralardagi ifodali o'qish uchun ta'kidlangan so'zlarni bir-biriga qo'shib "**sevarme-n+ey**", "**sevma-k+on-din**", "**ondin-n+ortuq**" tarzida vaznga mos talaffuz qilish lozim. Biz mazkur vaznni o'quvchilarga yanada soddalashtirib tushuntirish maqsadida "Konceptual jadval" asosida yoritamiz.

"Jondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz" deb boshlanuvchi ruboiy vaznining "**Konceptual jadval**" asosidagi tahlili

| Ruknlar | Afoyili  | Taqti'si | Ruknlarning kelish o'rni |
|---------|----------|----------|--------------------------|
| Axrab   | Maf'uvlu | – – V    | 1-ruknda axrab           |
| Maqbuz  | Mafoilun | V – V –  | 2-ruknda maqbuz          |
| Makfuf  | Mafoiylu | V – V –  | 3-ruknda makfuf          |
| Ajabb   | Faal     | V –      | 4-ruknda ajabb           |

Shoirning 10-sinf "Adabiyot" darslikdan o'r'in olgan so'nggi ruboysi "G'aroyib us-sig'ar devonida 127-raqam ostida keltirilgan. Ruboiy "Ko'z birla qoshing yaxshi, qabog'ing yaxshi" misralari bilan boshlanib, barcha misralari hazaji musammani axrabi makfufi solimi abtar (ruknlari va taqtisi: maf'uvlu mafoiylu mafoiylyn fa' – – V / V – – / – ) vaznida bitilgan. Ruboyning birinchi rukni, odatdagidek, maf'uvlu (axrab), ikkinchi rukni esa mafoiylu (makfuf), uchinchi rukni mafoiylu (solim), so'nggi rukni fa' (abtar)dan iborat.

Alisher Navoiy ruboilyari orasida qofiyalar to'rt bo'lakka bo'lingan holda yaratilganlari ham bor. Dastlabki uch bo'lakda bir xil qofiyali so'zlar keltiriladi. She'rda bunday usul qo'llanilganda ichki qofiya san'ati hosil bo'ladi. Bunga quyidagi ruboiy misol bo'ladi.

<sup>1</sup> Alisher Navoiy. G'aroyib us-sig 'ar. TAT. 10-jildlik. 1-jild. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2013. – 733-b.

<sup>2</sup> Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Т.: "Sharq", 2020. – 240 б.

<sup>3</sup> Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo'chqorov R. Ko'rsatilgan manba. – 70-b.

Alisher  
Navoiy:

Ko'z birla/ qoshing yaxshi,/ qabog'ing yax/shi,  
 Yuz birla/ so'zing yaxshi,/ dudog'ing yax/shi.  
 Eng birla/ menging yaxshi,/ saqog 'ing yax/shi,  
 Bir-bir ne deyin, boshdi/n+ayog 'ing yax/shi.

*maf'uvlu mafoiylu mafoiylyn fa'*

— — V / V — — V / V — — / —

Ruboiy mazmunini tushunish uchun quyidagi so'zlar ma'nosini anglamoq kerak: 1. Qabog' – qovoq, ko'z bilan qosh oralig'i 2. Eng – Yuz 3. Meng – hol 4. Saqog' – iyak. Mazkur ruboiy turkiy tilning ichki imkoniyatlari, har qanday hol va holatning, narsa va predmetning, hodisaning tasvirini ona tilida yaratib bera olish imkoniyatini yaqqol ko'rsatib berishi bilan ham e'tiborga molik. Unda ma'shuqa portretini chizib ko'rsatish asosiy maqsad sifatida namoyon bo'lgan.

Bu ruboioyning to'rt satri ham qofiya, ham radifga ega. Ruboiydagi "yaxshi" so'zi radifdir. She'rda o'quvchi diqqatini ko'proq jalb etadigan misra esa uchunchi misra hisoblanadi. Shoir unda she'rga asos qilib olingan masalaning qamrovini ya'ni, yuz, yuzdag'i xol, iyaklarning mos va mutanosibligini kengaytirib yuboradi. Ruboioyning xulosasi haqiqatda zo'r topilgan. U "boshdin oyog'ing tarzida shakkantirilgan.


O'zbek klassik ruboioytining kattagina qismi ishqiy ruboiylardan iborat. Ruboioyning hajmi umumiy tafsilotlari ni, ortiqcha so'z yoki biror bir detalni qo'llashga aslo imkon bermaydi. Shuning uchun shoirlar janr imkoniyatlari va talablaridan kelib chiqib, unda ishq mavzusini qisqa ifoda, konkret shtrixlar orqali yoritishga harakat qilganlar. Masalan, bir guruh ruboiylarda ma'shuqa portreti yoki portert belgilari (qosh, ko'z, yuz, xol, yanoq, soch va hokazolar) poetiklashtirilib, shu vositada oshiq kechinmalarining bayon berilgan<sup>1</sup>. Yuqorida keltirilgan "Ko'z birla qoshing yaxshi, qabog'ing yaxshi" misralari bilan boshlanuvchi ruboiy ham aynan ishqiy-muhabbat yo'lida ma'shuqa portretini chizib ko'rsatish asosiy maqsad sifatida namoyon bo'lgan.

Navoiy mazkur she'rda tavzi' san'atidan ustalik bilan foydalanib suyuklining "boshdin-ayog" go'zal qiyofasini mohirlik bilan tasvirlagan. Yana ushbu ruboiyda radif ham qatnashgan. "Radif shuning uchun ham san'atki, misralar oxiri so'z takrori sifatida klear ekan, u she'rdagi asosiy fikr ko'rsatkichi bo'lib xizmat qilganidek, xushohanglik, xushjarganlik yaratuvchi unsur hamdir<sup>2</sup>". She'rdagi "yaxshi" so'zi radifdir.

**"Charxpalak" metodi** – talabalarga o'tilgan mavzu bo'yicha bilimlarini mustahkamlash yoki tekshirish hamda bir-birini baholash umkiniyatini beruvchi metoddir.

"Charxpalak" metodi uchun savollarni yuqorida keltirib o'tilgan ruboiylarni janrini, vaznini, taqtiyini aniqlashda qo'llash mumkin. Bu metod qo'llanilganda talabalar berilgan savol va topshirishlarga tezda fikr yuritib, o'qituvchiga javoblarni beradilar. Ushbu metod qo'llash jarayonida talabalar o'tilgan mavzu bo'yicha bilimlarini sinab ko'rishni va bir-birlarini baholashni o'rganadilar.

"Charxpalak" metodidan foydalanganda huddi "Davra suhbati" metodida foydalanilgandek aylana stol ("charxpalak") atrofida o'kaziladi



<sup>1</sup> Хақкулов И. Ўзбек адабиётида рубоий. – Т.: Фан, 1981, 25-б.

<sup>2</sup> Qarang: Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Т.: Sharq, 2020. – 240 б.

Belgilar:

- 1-ta'lif oluvchilar
- 2-aylana stol

Bu metodning afzallik tomonlari shundaki, bunda talabalar tez fikrlashni o'rganadilar, barcha talabalarning ishtiroti ta'minlanadi.

Zamonaviy innovatsiya davrida hamma narsa inson faoliyatini osonlashtirish uchun xizmat qiladi. Xususan, ta'lilda ham ta'lif oluvchi va ta'lif beruvchilar faoliyatini innovatsion texnologiya va turli metodlarsiz tasavvur etish qiyin. Umumta'lif mifiktablarida ham oliy ta'lif tizimida ham mavzu yuzasidan konsultatsiya jarayonida o'quvchi va talabalarga ma'lumotlar turli innovatsion texnologiyalar va grafik organayzerlar yordamida yetkazilishi mumkin. Bunda ishning samaradorligi ortadi, talabalarning mavzuni tushunishi osonlashadi.

Shuningdek, shoir ruboiylarini tahlil qilishda grafik organayzerlar, ruboiy vaznni aniqlashda turli jadvallardan foydalanish samaraliroq natija beradi. Ushbu jadvallar ruboiy tahlilida tizimlilikni, aniqlikni va izchillikni ta'minlashda asosiy yordamchidir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo'chqorov R. Adabiyot. 8-sinf uchun darslik. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2019. – 330-b.
2. Hojihmedov A. Aruz nazariyasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2018. – Б. 80.
3. Rahmonova Sh. Umumta'lif mifiktablarida aruz tizimini o'qitishning muammolari. – T.: Mahalla va oila, 2021. – 114-b.
4. Юсупова Д. Таълим тизимида рубоий вазнларини ўқитиш тажрибасидан Ўзбекистонда хорижий тиллар (илмий-методик электрон журнал). – Т.: 2019. – № 4 (27). – 10 б.
5. Ҳожиахмедов А. Мактабда аруз вазнини ўрганиш. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – 190 б.
6. Ҳаққулов И. Рубоий ҳақида баъзи мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т.: 1974, № 6; Ўзбек адабиётида рубоий . – Т.: 1981. – 98 б.
7. Alisher Navoiy. G'aroyib us-sig'ar. TAT. 10-jildlik. 1-jild. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2013. – 733 b.
8. Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Т.: "Sharq" , 2020. – 240 б.

Jurabek Xolmirzayev  
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat  
universiteti tadqiqotchisi

## «QUNDUZ BILAN YULDUZ» DOSTONI KASB-HUNAR LEKSIKASINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada “Qunduz bilan Yulduz” dostoni matnida qo'llanilgan kasb-hunar leksikasining leksik-semantik xususiyatlari misollar asosida tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** leksika, uslubiy vosita, semantika, jangnoma, doston tili, harbiy atamalar,

**Annotation.** In this article, the lexical-semantic features of the professional lexicon used in the text of the epic “Kunduz bilin Yulduz” are analyzed on the basis of examples.

**Key words:** lexicon, methodological tool, semantics, battle history, epic language, military terms.

**Аннотация.** В данной статье на основе примеров анализируются лексико-семантические особенности профессиональной лексики, использованной в тексте эпоса «Кундуз билин Юлдуз».

Ключевые слова: лексика, методический инструмент, семантика, история сражения, эпический язык, военные термины.

«Qunduz bilan Yulduz» dostoni mavzusiga ko'ra jangnoma xarakterida bo'lgani, xalqning turmush tarzi asosan chovchachilikka moslashgani uchun uning matnida harbiy harakatlarga oid atamalar faol qo'llanilgan. Asar syujetini urush voqealari, jangu-jadallar tashkil etgandan keyin ushbu guruhga tegishli bo'lgan atamalarning uchrashi tabiiy bir holdir.

Doston matnida harbiy harakatlarga oid qo'llanilgan atamalarni jangchilik kasbiga oid so'zlar sifatida qarab o'rganish mumkin. Asar syujetini urush voqealari, jangu-jadallar tashkil etgandan keyin ushbu guruhga tegishli bo'lgan atamalarning faolligi tabiiy bir holdir. Masalan, «Qunduz bilan Yulduz» dostoni matnida quyidagi atamalarni uchratish mumkin: *dubulg'a, yoy, jazoyil, kirovka, lashkar, miltiq, navkar, nayza, savash, sarboz, sarkarda, sipoh, sovut, tig', to'p, xanjar, xun, qalqon, qilich* va hokazo.

-*dubulg'a: Boshimda dubulg'a, belda belligi,*

Otu anjomimning yo'kdir kamligi [5,402]

-yoy: Tarlon qarchig'ayday bo'lib.  
*Labin bo'rib, qoshin kerib,  
 Misli sari **yoyday** bo'lib.  
 Noz bilan oyim jo'nadi,  
 Irg'alib oyim jo'nadi. [5,301]*

-jazoyil (kichkina to'p, katta miltiq):  
*Otgan qalmoq otayotir,  
 Xitoychalar shatir-shatir.*

**Jazoyillar** qatir-qatir,  
*Otildi maydon ichinda. [5,452]*

-kirovka (jangda tanani o'q va tig'dan saqlash uchun kiyiladigan misdan yasalgan nimcha):  
**Kiravkadan**sovut to'nning yoqasi,  
*Kumush bo'lar tarlon qushning chakasi,  
 Dono mavlom obro' bep, deb qistaydi,  
 Oti Avaz Chambilbelning egasi. [5,271]*

-lashkar: Buni ko'rib polvon Avaz ishindi,  
*Botir bo'lsang endi otdan tush endi,  
 Bet oldiga soyga polvon qarasa,  
 Endi ko'rди sonsiz **lashkar** – qo'shindi.  
 G'arib kalla ne ishlarga duch endi. [5,394]*

Ana shunda Avazxon pastga tushib qarasa, kechagi qo'shin emas; qo'shin haddidan oshib ketibdi, **lashkar** lashkarga yamashib ketibdi[5,401]

*Lashkar so'zidan yasalgan lashkARBOSHI ham qo'llangan: Hali ham bir odamni podshoga yuborayik tug' begidan, haydovchidan, sarkarda – **lashkARBOSHI** botirlardan bizlarga odam yuborsin [5,399]kabi.*

-miltiq: Yov desa, to'p, **miltiq** - yov-yarog'i yo'q; to'y deyin desa, ko'pkarisi yo'q; dimjit qimillamay yotibdi. [5,253]  
*Tomosha qing Bol Avazday jalloddi,  
 Kulosi qayqayib oldiga o'tdi,  
 Qahri kelganakan, jonivor G'irko'k ot  
 Miltiqning o'qiday zingillab ketdi. [5,287]*

Avazxon o'g'lon goh ovga chiqadi, goh **miltiq** olib tovga chiqadi. [5,375]U ham o'rtaqa oladi, Qilich, **miltiq** soladi. Kim yonashsa qoshiga, Avaz ikki bo'ladi.(405-b/)

-navkar: Bol Avaz degan er otang bor edi,  
*Ahmad Sardor otangga **navkar** edi,  
 Shu Ahmadmi bepadar deb so'zlagan?  
 Otlansa otangga jilovdor edi[5,434]*

-nayza: Zo'rligini bildirib,  
*Oq **nayzaga** ildirib,  
 Ne bir «botir» beklarni  
 Do'staman qip yiqitib. [5,405]*

Nayza urush quroli bo'lishi barobarida u askarning salobatini ham bildirib turgan. Shuning uchun baxshilar nayza ga nisbatan popuk so'zi epitet sifatida qo'llangan: *G'irko'k otni shaylab, po'lat Sovutni kiyib, kark teri qa'lqonni orqasiga taylab, choraynani to'rt yog'iga mahkam qilib boylab, keskir isfihonni beliga boylab, qo'sh **po'pakli nayzani** qo'liga ushlab G'irko'kka mindi. [5,401]*

Boshqa bir o'rinda nayza ning o'zi epitet vazifasini bajargan: *Bir qo'shin kelayotir olamni bosib, pilta to'qayday sasib, **nayza qamishday** irg'alib, bayroq tuqqa suyanib, tug' bayroqqa suyanib, qop-qora selday balandni ham, pastni ham shunday bosib keldi. [5,401]*

-savash:*Ot chopmoqqa qoim xizirning dashi,*  
*Qiyomatcha bo'lar mardning savashi.  
 Borib qoldi ko'p qo'shining ustidan,  
 Nishabga qaradi bedovning boshi. [5,254]*

*Bir yog'i ko'pkari, bir yog'i **savash**, bir yog'i o'yin, bir yog'i kurash; o'rtaqa tushibdi katta polvonlar, qiladi talash. [5,333]*

-sarkarda: *Hali ham bir odamni podshoga yuborayiq tug' begidan, haydovchidan, **sarkarda** – lashkar boshi botirlardan bizlarga odam yuborsin. [5, 399]*

-sovut: *Tilla qilich yarqillab, Po'lat **sovut** chirqillab, Suvsiz cho'lda Bol Avaz, Och tuyg'unday charqillab [5,387]. Ana Avazxon otini dam oldirib, ayil-pushtanini mahkam tortib, qobog'ini uyib, **sovutni** kiyib, egniga kark teri qa-*

Iqonini tashlab, qo'sha po'pakli nay-zani ushlab, vaqtini xushlab, G'irko'kka minib, qalmoqning ustidan borib, dobilni tuyib, qo'shining ustiqqa qarab ot qo'yib turibdi. [5,395]

-tig': *Yakka Avazning boshiga Tig'u xanjar, qurzi yog'ib, Qira berdi Avaz botir, Har tarafqa otin chopib.* [5,396]

-to'p: Urush talab bo'lib kelgan bachchag'arlar emasmi, damga qo'ymay katta **to'plarni** ota berdi. **To'pning** dovushini Avazxon eshitib Qunduzoyga qarab aytdi. [5,401]

-xun:Sening **xuning** bir baytal-da, otasi yo'q enag'ar! – dedi. Anda ot topmay yurgan **xunobaxo'r** kal xez qilib, sachrab kelib Boycho'mmoqning ustiga o'zini oldi (xunobaxur ning ma'nosi qon yutuvchi, qon yig'lovchi, demakdir). [5,261]

Urush harakatlariga oid leksemalarning qo'llanishida dostonda o'ziga xos jihatlarni kuzatamiz. Doston mu-alliflari ushbu so'zlarga ijodiy munosabatda bo'ladi va bu bilan ularning nafaqat qo'llanish ko'lamini kengaytiradi, balki ma'nolariga ham muayyan o'zgarishlar olib kiradi. Masalan, harbiy leksikaga oid birliklar orasida eng ko'p qo'llangan so'z *qilich* elementi bo'lib hisoblanadi va u dostonda 24 marta qo'llangan.

Qadim o'zbek jangchilarining asosiy yarog'i, urush quroli qilich bo'lgan va jang voqyealari tasvir etilgan epizodlarda bu so'zga tez-tez murojaat qilingan. Shuning uchun doston matnidagi harbiy leksikaga oid so'zlar orasida *qilich* o'zining faoliqi bilan arialib turadi.

Harbiy saf tortish qadimda yasov tortmoq deb atalqan. Doston matnida ham bu ibora uchraydi:

*Hali ham ortingadan kelavotiri.*

**Yasov tortgan ganday shohning botiri?[5,401]**

Shunday qilib, urush harakatlariga oid leksemalarning qo'llanishida dostonda o'ziga xos jihatlarni kuzatamiz. Ergash shoир ushbu so'zlarga ijodiy munosabatda bo'ladi va bu bilan ularning nafaqat qo'llanish ko'laminini kengaytiradi, balki ma'nolariga ham muayyan o'zgarishlar olib kiradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

- Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. - Тошкент: Фан, 1979. -Б. 134-144.
  - Маҳмадиев Ш. Ўзбек халқ достонлари тилида стилистик формулалар фонетикаси // Ўзбек тилшунослиги масалалари. Илмий мақолалар тўплами.– Самарқанд: СамдУ нашриёти. 2007 -Б. 80 - 86.
  - Ўзбек тилининг изохли луфати. 5 жилдлик. Бешинчи жилд. - Тошкент: Ўзбекистон миллпий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 152-271.
  - Яхшиева Г. Ўзбек тилида фонографик услубий воситалар. – Т.: Фан, 1996. –31 б.
  - Кундуз билан Юлдуз. Айтувчи: Эргаш Жуманбулбул ўғли / Булбул тароналари, беш томлик, III том. – Т.: Фан, 1972. -Б.203-458.

**Gulnoza Sheraliyeva,**  
*Uzbekistan State University of World Languages*  
*Teacher of the Department of English Language Theory*

# CLASSIFICATION OF IDIOMS IN ENGLISH

**Annotation.** Every language has its unique collection of sayings and phrases. These expressions, known as idioms, often contain meanings that may not be obvious by simply looking at the individual words.

**Keywords:** cultural experience, idiomatic expression, figurative language; *complex ideas*;

**Annotatsiya.** Har bir tilda o'ziga xos so'zlar va iboralar to'plamini mayjud. Bu birliliklarni biz frazeologizmlar yoki idiomalar deb ataymiz. Bu iboralar ko'pincha alohida so'zma-so'z tarjima qilinganida aniq ma'no ifodalamasligi mumkin.

**Kalit so'zlar:** madaniy tajriba, idiomatik ifoda, majoziy til, umumiy fikr;

## What Does “Idiom” Mean?

An idiom is a widely recognized saying or expression that carries a figurative meaning distinct from its literal interpretation. The term "idiom" originated from the Greek word "idioma," which means peculiar phrasing. For instance, the idiom "under the weather" universally signifies feeling sick or unwell. When you say you're "under the weather," you are not literally stating that you are beneath the rain.

Idioms often encapsulate or symbolize commonly shared cultural experiences, even if those experiences are now outdated or obsolete. As an example, advising someone to “bite the bullet” implies that they should tackle

something unpleasant. This phrase originates from the practice of injured soldiers biting on a bullet to suppress their screams during wartime procedures. That recurring occurrence in the past has led to the continued use of this phrase today. Furthermore, idioms are unique to their respective language of origin. In other words, English idioms differ from Spanish or French idioms.

#### Classification of idioms

Idiomatic expressions form an important part of the English vocabulary and an active tool to conceptualize the social environment and reality around us. Grammarians and linguists have made many attempts over the time to categorize idioms. The categorization of idiomatic expressions might be a complex linguistic process.

#### Idioms classification according to their spectrum of idiomacity

It is one of the most important classification of idioms. The main characteristic feature that differentiates between the different kinds of idioms is the degree of idiomacity that an idiomatic expression carries. By this criterion idioms may be classified in !

*transparent idioms:* are those idiomatic strings which are easy to comprehend and translate and their meaning can be inferred from the significance of their constituents “one# to# one semantic relations between the idiom constituents and components of the idiom\$ meaning%

to fight a loosing battle, back and forth, to see the light

*Semi-transparent idioms:* semi-transparent idioms are idiomatic expressions which usually carry a metaphorical sense and their constituents have a small role in comprehending the overall meaning of the expression.

e.g to break the ice ( to reveal the tension)

*Semi-opaque idioms:* This group of idioms refers to those idiomatic expression in which the figurative sense is not related to that of the constituent words of the expression.

e.g to pass the buck ( to pass responsibility)

to know the rope (to know how a particular “ob” should be done)

*Opaque idioms:* This type of idioms are the most difficult type of idiomatic expression because the relation between idioms constituents and its meaning may be opaque and the senses of individual words can be nevertheless constrain both interpretation and use “

e.g to burn ones boat to make retreat impossible claimed that - an idiom is a particular lexical collocation or phrasal lexeme peculiar to a language. How to **Use Idioms in Writing**

Idioms are a type of figurative language writers can use to add dynamism and character to otherwise stale writing. Writers can also use idioms to:

*Add humor:* Idiomatic expressions can help transform flat descriptions with the help of a funny turn-of-phrase. For instance, rather than describing someone as not very smart, you could say they are “not the sharpest tool in the shed” or “not the brightest star in the sky.” In addition to conveying that the subject in question is not intelligent, the inherent comparison of a person’s brain to a toolbox or a star is unexpected and humorous.

*Engage the reader:* By inserting an idiomatic phrase into your writing, you force the reader to shift from thinking literally to abstractly. This can help focus and excite the reader, as they must activate a more conceptual part of their brain to comprehend the idiom’s meaning. For example, the idiom “biting off more than they can chew” describes someone taking on a challenging task. Using this idiom can encourage the reader to conjure a visual image in their head.

*Evoke a specific region:* Certain idioms can be unique to a particular group of people or world area. For instance, “that dog won’t hunt” is a common idiom in the Southern United States that means something doesn’t work or make sense. On the other hand, if someone were to refer to a mess or a debacle as a “dog’s dinner,” they are likely British. In fiction writing, the strategic employment of specific idioms can often add a regional flavor and authenticity to your characters.

*Share a point of view:* Idioms can express commonly shared or universal ideas, so there are often dozens of idioms that apply to the same concept. However, depending on which idiom you choose, you can convey an entirely different attitude or point of view about the subject. For example, several idioms express the concept of death. If you were to write that someone “passed away,” you are using an idiom to describe death in a graceful, delicate way. Alternatively, you could say that a person “kicked the bucket,” a much cruder way of describing the act of dying. Though both idioms ultimately mean the same thing, they convey entirely different attitudes toward death.

*Simplify complex ideas:* Often, idioms can help express a large or abstract idea in a way that is concise and easy to understand. For instance, you could say that two things are impossible to

compare to one another because they possess different traits or meanings. Or you could say it's like "comparing apples to oranges." In this case, using an idiom helps express the same idea in a much simpler way.

#### Examples of Idioms

Here are some commonly used idioms in the English language:

1. A bird in the hand is worth two in the bush: This means it is more valuable to have something certain and small than the potential for something greater that may never materialize.
2. At the drop of a hat: Doing something at the drop of a hat means doing it without any delay.
3. A piece of cake: Describing something as a piece of cake means it is easily achievable.
4. A penny saved is a penny earned: This expression signifies that saving money is as valuable as earning money.
5. Add insult to injury: Adding insult to injury means making a bad situation even worse.
6. Back to the drawing board: Returning to the drawing board implies the need to start a process again from the beginning.
7. Bark up the wrong tree: Barking up the wrong tree means pursuing the wrong course of action. The phrase comes from dogs barking at a tree in search of prey that is not there.
8. Beat a dead horse: This phrase describes a situation or topic that has been excessively discussed and cannot be changed.
9. By the skin of your teeth: This phrase, originating from the Bible, describes a situation in which someone narrowly escapes or barely achieves something.
10. Cut corners: Cutting corners means achieving something quickly or inexpensively by omitting necessary steps.

#### References

1. Idioms and Phraseology | Oxford Research Encyclopedia of Linguistics
2. <https://oxfordre.com/linguistics/linguistics/abstract/10.1093/acrefore/9780199384655.001.0001/acrefore-9780199384655-e-51>
3. [https://is.muni.cz/th/i65yv/Comparative\\_Analysis\\_of\\_English\\_and\\_French\\_Body\\_Idioms.doc?lang=en](https://is.muni.cz/th/i65yv/Comparative_Analysis_of_English_and_French_Body_Idioms.doc?lang=en)
4. Classification of idioms in Shakespeare's works <https://prezi.com/moetbhzlnmgk/classification-of-idioms-in-shakespeares-works/>
5. <https://www.impactjournals.us/download/archives/1-84-1501067213-3.Hum-%20A%20NEW%20TAXONOMY%20OF%20ENGLISH%20IDIOMATICITY%20-SALAH%20MOHAMMED%20SALIH.pdf>

Gulfuza MADIRIMOVA,  
O'zMU magistranti

## “MAHBUB UL-QULUB”DA PAYG’AMBARLAR OBRAZI TALQINI

**Annotatsiya:** maqlolada buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari badiiyati, xususan, asarda keltirilgan payg’ambarlar obrazlariga xos yetakchi badiiy xususiyatlar, obrazning adib mahoratining yuzaga chiqarishdagi ahmiyati xususida bahs yuritilgan.

**Kalit so’zlar:** obraz, timsol, payg’ambar, nabiy, zikr, Odam, Nuh Ibrohim, Ya’qub, Yusuf, Xizr, Ayyub, Sulaymon, Iso Masih

Ma'lumki, “Mahbub ul-qulub” asari buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiyning hayotiy qarashlari, teran xulosalarini o’zda jamlagan badiiyat namunasidir. Kitobdagagi obrazlar olamining xilma-xilligi ham uning poetik jihatdan mukammalligini ta’minlaydi. Asardagi obrazlar tizimini shartli ravishda quyidagicha tahlil qilishimiz mumkin: 1. An'anaviy obrazlar 2. Valiyalar, shayx-u avliyolar obrazi 3. Yuqori tabaqa vakillari – podshoh va amaldorlar obrazi 4. Ziyoli, ma’rifatli kishilar obrazi 5. Jamiyatdagi turli tabaqa kishilar obrazi kabi. Alisher Navoiy ijodida, aayniqscha, nabiyilar obraziga juda ko’p murojaat qilingan. Asarda Odam alayhissalom, Nuh alayhissalom, Ibrohim alayhissalom, Ya’qub alayhissalom, Yusuf alayhissalom, Xizr alayhissalom, Ayyub alayhissalom, Sulaymon alayhissalom, Iso Masih alayhissalomlar nomi zikr qilingan. Kitobning na’t qismida Muhammad (s.a.v) ta’rifida, Alloh taoloning odam zotini, hattoki, butun olamni yaratishdan murodi Muhammad alayhissalomni yaratish bo’lganligini bayon qilinadi. Insonning to’rt unsur – suv, havo tuproq, otashdan yaralganligiga o’ziga xos ishoralar beriladi. Muhammad(s.a.v)ni yaratishda Alloh taolo Iso Masihning jonbaxsh nafasi, Ya’qub ko’zini surtgan tuproq, Xizr chashmasidan olingen tiriklik suvi, kalim daraxti o’tidan foydalanganligini bayon qilib, payg’ambarimiz ulug’lanadi.

Asarning "Dehqonlik zikrida" faslida dehqonlarning mehnatkashligini ulug'larkan, ilk dehqonchilik bilan shug'ullanib, avlodlariga bu hunarni meros qoldirgan Odam Ato ham tavsiflangan: "Dehqonki, dona sochar, yerni yormoq bila rizq yo'lin ochar. Agar rostliq va salohi bordur, o'yni Solih noqasidin namudordur. Qo'shi ham ikki zo'r pahlavon, yukiga bo'yun sunub olida ravon; ish qilurda hamdam va hamqadam, dehqon alarni suradi andoqli Odam". Odam Atoning jannatdan quvilgach, yer yuziga tushib, dehqonchilik bilan shug'ullanganiga ishora mavjud. Dehqonlar Odam safiullohning haqiqiy izdoshlari deya e'tirof qilinadi<sup>1</sup> "Mundoq dehqon Odamning farzandi xalafidur, balki marzuqlar anga farzand va ul Odami Safiydur", ya'ni xalqqa foyda keltiruvchi dehqon Odam alayhissalom xalifasi - o'rinosaridir. Dehqonni Odam alayhissalomga qiyoslanshi bilan fikr yanada teranlashadi.

Asarning uchinchi qismidagi o'n yettinchi tanbeh "Vafo zaylida va hayo zikrida" deb nomlangan bo'lib, Navoiy zamonasining bevafo insonlari qilmishlari va behayoligi jabridan qalbiga tikan sanchilganday azoblanayotganini shunday tasvirlaydi: "Zamon ahli bevafoligidin ko'ksumda tunganlar va davron xayli behayoligidin bag'rimda tikanlar, har qaysiga raqam uray desam, Ayub sabri vafo etmas va qalam suray desam, Nuh umrida tamomga yetmas". Adib bu insonlar qilmishidan so'z ochsa, Ayyub payg'ambarning sabr-u toqati-yu, Nuh alayhissalomning umri ham kamlik qilishini mubolag'ali tasvirada yoritgan.

Ibrohim alayhissalom obraziga "Rizo zikrida" bobida duch kelamiz: "Ajab maqoledurkim, agar bu korxonada xitoyi naqshin ko'rsun va agar islomiy parchani naqqosh naqshbandxonai sun'idin mutaassir bilg'ay va har birini o'z yerida Benazir tasavvur qilg'ay. Ravzai xuldidin ko'p shod va do'zax dudidin ko'p tiyra nihod bo'lg'ay. Kalimulloh madhiba mubolaga ko'rguzmag'ay. Xalilullohi ogoh bila Namrudi mardud arosida muxolafat eshgin rust ko'rgay"<sup>2</sup>. Xalilulloh deya Ibrohim alayhissalomning laqabi tilga olingani va solikning rizo maqomidagi holatini anglatish uchun Ibrohim alayhissalomning Namrud podshoh tomonidan o'tga tashlanish voqeasiga ishora qilinishi asar badiiyatini oshirgan.

Kitobning uchinchi qismidagi beshinchi tanbehdan manmanlik haqida mulohaza yuritilgan va insonni naqdara o'ziga bino qo'yishi sabab haqiqatni ko'ra olmasligini shunday ifodalangan: "Jamni holoti noxush xayoloti o'ziga pisandida va raboyanda, mustahzan va xush oyanda ko'rungay. Va ul qaboyihni yaxshi deb o'kungay. Karib zot o'zin Yusufi Kan'oniy degay". Inson manmanlikka, kibrga berilgach, yomon fikrlari o'ziga ma'qul, yoqimli va chiroyli ko'rinishini, o'z yaramasliklarini yaxshi deb maqtashgacha borishini, hatto xunukbashara kibr egasi ham o'zini dunyoda go'zallik timsoli bo'lmish Yusuf Ka'noniyiga tenglashtirishdan tiyilmasligini ta'sirliochib beradi.

"Atibbo zikrida" faslida bemorlarga shifo ulashuvchi, shirinso'z tabiblar Xizr alayhissalomga qiyoslanadi: "Xizri najot aning tal'ati va obi hayot aning sharbati" deya tabibning dorisi Xizrning tiriklik suvi, o'zi esa Xizrdek najot bag'ishlovchi bo'lishi aytildi. "Vuzaro zikrida" faslida "Dahr elida birovki Osafnihoddur, bilg'aykim Sulaymon taxti barboddur"<sup>2</sup>, "Atibbo zikrida" faslida "Hoziq tabibki shafqati bo'lgay – Iso Ruhullohg'a nisbati bo'lg'ay. Iso ishi chiqqon jonni tanga kivurmak duo bila, munung tandin chiqadurgon jonga mone' bolmoq davo bila."<sup>3</sup> deya adib shafqatli tabibni o'lakka jon bag'ishlovchi Iso Masihga o'xshatadi. Iso Masihning nafasi hatto o'lgan insonning jonini qayta tanaga kirgiza olganidek, tabib davosi bilan tanadan chiqayotgan jonga qarshilik ko'rsatishi va inson hayotini saqlab qolishi ulug'lanadi.

Asarning uchinchi qismidagi qirq sakkizinch tanbehdan adib so'zlash odobi, yaxshi so'z, yomon til borasida o'z mulohazalarini bayon qilarkan, shunday yozadi: "So'zdadur har yaxshiliqni imkonibor, munda debdurlarki, nafasning joni bor. Masihokim, nafas bila o'lukka jon berdi, go'yo bu jihatdin erdi. Ayn ul-quzot til sharafidin Masih guftor bo'ldi va Husayn Mansur til sur'atidin dorga sazovor". Navoiy so'z orqali har qanday yaxshikni qila olish mumkinligini, chunki so'zning ham ruhi bo'lishini ishonarli ifodalaydi. Iso Masih nafasi bilan o'lakka jon baxsh etgani ham shu sababdandir. Adib so'z orqali o'lgan qalbga qayta hayot bag'ishlash mumkinligiga ishora qiladi.

Xullas, Alisher Navoiy nabiylar siymosi orqali asarda ifodalamoqchi bo'lgan g'oyaviy niyatining yanada ta'sirchan, ishonarli chiqishiga erishgan. Asarda payg'ambarlar obrazi vositasida ulug' mutafakkirning badiiy niyati, hayotiy xulosalari, maqsad-muddaosi niyoyatda jonli ifoda topgan.

#### Adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 tomlik. 9-tom. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMU, 2011. – 766 b.
2. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 jiddlik. 2-jild. – Toshkent: Fan, 1985. – 448 b.

Xusniddin Irgashov,  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
Tarix yo'nalishi talabasi

## ABU BAKR NARSHAXIYNING "BUXORO TARIXI" ASARI TARIXIY MANBA SIFATIDA

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ilk o'rta asrlar xususida eng qimmatli manbalardan biri hisoblangan Abu Bakr Narshaxiying "Buxoro tarixi" asari xususida so'z boradi. Qolaversa, arablarning O'rta Osiyo, shu jumladan Mavarounnahr hududiga qilgan harbiy yurishlari, ularning mintaqada amalga oshirgan siyosati, hamda IX asrdan boshlab Mavarounnahr hududida tashkil topgan yangi mustaqil davlatlar tarixini o'rganishimizda aynan "Buxoro tarixi" asari eng muhim manba ekanligi ta'kidlanadi. Bundan tashqari, asarda keltirilgan ba'zi toponimik nomlar xususida ham fikr yuritiladi.

**Аннотация.** В данной статье говорится о произведении Абу Бакра Наршахи «История Бухары», которое считается одним из ценнейших источников по раннему средневековью. Кроме того, подчеркивается, что «История Бухары» является важнейшим источником в нашем изучении военных походов арабов в Среднюю Азию, в том числе в регион Моваруннахр, их политики в регионе, а также истории арабов. новые независимые государства образовались в регионе Моваруннахр с 9 века. Кроме того, обсуждаются некоторые топонимические названия, упомянутые в работе.

**Abstract.** This article talks about the work "History of Bukhara" by Abu Bakr Narshahi, which is considered one of the most valuable sources for the early Middle Ages. In addition, it is emphasized that the "History of Bukhara" is the most important source in our study of the military campaigns of the Arabs in Central Asia, including the Mavarunnahr region, their policies in the region, as well as the history of the new independent states formed in the Mavarunnahr region from the 9th century. In addition, some toponymic names mentioned in the work are discussed.

**Kalit so'zlar:** Abu Bakr Narshaxi, Nasr al-Kubavi, Dari Registon, Dari G'o'riyon, Somoniylar, Zandana, "Xazain ul-ulum", "Badiyayi kurdak", Poyi Kalon.

**Ключевые слова:** Абу Бакр Наршахи, Наср аль-Кубави, Дари Регистан, Дари Гориян, Саманис, Зандана, «Хазайн ул-Улум», «Бадийи Хурдак», Пойи Калон.

**Keywords:** Abu Bakr Narshahi, Nasr al-Kubawi, Dari Registon, Dari Ghoriyan, Samanis, Zandana, "Khazain ul-Ulum", "Badiyyi Khurdak", Poyi Kalon.

Tarixdan ma'lumki, Abu Bakr Narshaxi-Markaziy Osiyo tarixnavisligining ilk qadimiy durdonalaridan biri bo'lmish "Tarixi Buxoro" deb shuhrat topgan, o'rta asr Buxoro va uning atroflarining tarixiy topografiyasi, tabiat, halqlarning madaniy va ijtimoiy hayoti, savdo-sotiq, ishlab chiqarish, to'qmachilik, va eng asosiysi konchilik masalalari xususida qimmatli ma'lumotlar beradigan nodir asarning muallifidir. Narshaxiying "Buxoro tarixi" asari 943-944 (boshqa ma'lumotlarga ko'ra 948-949) yillarda arab tilida yozilgan. Afsuski bu asarning ilk to'liq matni saqlanmagan. Asarning bizgacha yetib kelgan qismi esa arab tilidan fors tiliga qisqartirilib qilingan tarjima varianti bo'lib uni 1128-yilda Farg'onalik Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr al-Kubaviy tarjima qilgan. Tarixchi Narshaxiying "Buxoro tarixi" asarida o'rta asrlarda Buxoroning ikki darvozasi ("Dari Registon", "Dari G'o'riyon") bo'lganligi va bu darvozalar jimjimador bezaklari va tosh supalari bilan ko'zni quvontirgani xikoya qilinadi. Tarixchi Narshaxiying ushbu asari o'rta asr shaharlari, ularda yashagan xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, toponimlar, numizmatik va boshqa ma'lumotlarga to'la bo'lishi bilan birga ayni paytda biz yashab turgan hududning tarixiy joylari, uning toponimifikasi va etnografiyasi, tabiat xususida hikoya qiluvchi tarixiy manba hisoblanadi. Aynan biz yashayotgan hudud tarixiga oid manbalar mavjudligi bois tarix darslarida ushbu asarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar-tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy va siyosiy tahlil, ketma-ketlik, xoslik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, mazkur manba anchagina boy sanaladi. Negaki, ilk o'rta asrlardagi O'rta osiyoda mavjud bo'lgan davlatlar tarixi xususida ilmiy tadqiqot olib borgan tarixchilar aynan Narshaxiying "Buxoro tarixi" asarini asosiy manbalardan biri sifatida foydalanishgan. "Buxoro tarixi" asari O'rta osiyoga arablar kirib kelishidan oldingi davr, xususan, arablarning Mavarounnahr hududini zabit etishi, arablar davrida mintaqadagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlar, arablardan keyin mintaqada paydo bo'lgan mustaqil davlarlarning siyosiy boshqaruvi (xususan, Somoniylar) kabi o'lkamiz tarixiga oid eng muhim manbalardan biri hisoblanadi. Umuman olganda Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiying «Buxoro tarixi»ni O'rta Osiyoning yerli xalqlari tomonidan qachonlardir yozilib endi o'tmish asrlar sahifalarini yoritish uchun xizmat kilib kelayotgan nodir yozma yodgorliklarning eng qadimiylaridan biridir desak adashmagan bo'lamiz.

«Buxoro tarixi»ni bosh manbaa sifatida o'rganib undagi qimmatli ma'lumotlarni ilmiy tadqiqotlarga jalb qilish ishlari ko'p vaqtlardan beri davom etib kelmoqda. Buxoroning VIII-XII asrlardagi tarixidan bahs etuvchi hozirgi zamon yirik ilmiy tadqiqot ishlarining hammasidan ham «Buxoro tarixi»dan olingan ma'lumotlarni uchratamiz desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Masalan: Buyuk bobokalonimiz Imom Al-Buxoriyning 1225 yilligiga bag'ishlab yozilgan «Moziydan taralgan ziyo» asarini yoritishda Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiying asarlaridan o'rinni foydalangan holda Imom Al-Buxoriyning yashab va ijod qilgan davrini shu asar asnosida ochib berganlar desak xato qilmagan bo'lamiz. Tarixiy voqealarning shoxidi bo'lgan Karmana tarixi, tarixshunosligi haqida juda ko'plab tarixiy manbaalar, ilmiy asarlar, tadqiqotlar, manbaalar vaboshqa ma'lumotlar mavjud[1]. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, "Buxoro tarixi" asaridan tarix darslarida manbaa sifatida foydalanish tarix fani o'qituvchisidan katta mas'uliyat talab etadi. Ammo zamonaviy tarix darslarini manbaalar va ashyolar asosida tashkil etish bu zamonaviy tarix darsi va zamonaviy tarix fani o'qituvchisi oldidagi muhim vazifalar sirasiga kiradi. Agar biz ilmiy ish yozish uchun tanlagan mavzuning o'rganilganlik darajasi xususida fikr yuritadigan bo'lsak, bunda tarix darslarida Narshaxiying "Buxoro tarixi" asaridan foydalanish ilmiy mavzu sifatida

alohida o'rganilgan emas, lekin, ushbu asardan tarix darslarida foydalana turib o'lka tarixi, madaniyati va ma'naviyat, milliy urf-odatlar, pul zarb etish, savdo-sotiq masalalari Buyuk ipak yo'llari tarixini o'rganish jarayonida o'rganib o'tiladi.

Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asari 943-944 (boshqa ma'lumotlarga ko'ra 948-949) yillarda arab tilida yozilgan. Afsuski bu asarning ilk to'liq matni saqlanmagan asarning bizgacha yetib kelgan qismi esa arab tilidan fors tiliga qisqartirilib qilingan tarjima varianti bo'lib uni 1128 yilda Farg'onalik Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr al-Kubaviy tarji-ma qilgan. Tarjimon qo'lyozmaga o'z shaxsiy kuzatishlarini ham qo'shib, Buxoro tarixi bo'yicha o'zi yashagan davrgacha bo'lgan voqealarni ham bayon qilgan[2]. Narshaxiy Buxoro shahrining tarixiy topografiyasi va uning ijtimoiy tuzilishi to'g'risida keltirgan ma'lumotlarni keltirgan. Ma'lumotlarga qaraganda Imom al-Buxoriy yashagan davrda mahallalarga bo'linish bo'yicha qadimiy an'analar saqlanib qolganligi tasdiqlaydi. Markaziy Osiyoda bunday bo'linish tarixi antik davrlardan ixtisoslashgan hunarmandlar mahallalari ham bo'lgan shahar tuzilishiga borib taqaladi.

Narshaxiyning Buxoroni ko'chmanchi qabilalar hujumidan mudofaa qilish maqsadida 782-783 yillarda shahar atrofini devor bilan o'rash bo'yicha ishlar boshlangani to'g'risidagi ma'lumotlar diqqatga sazovordir. Bu asarda Narshaxiy Buxoroning o'sha davrdagi hunarmandchiligi haqida ham ma'lumotlar berib o'tgan. Xususan, Buxoro yaqinida joylashgan Zandana qishlog'ida tayyorlangan mato va VIII-IX asrga tegishli Baytul-tiroz korxonasi haqida ham yozib qoldirgan[3]. Narshaxiyning ma'lumotiga qaraganda bu yerda tayyorlangan buyumlar Shomga, Misrga va Rumga ham olib ketilgan. Asarda keltirilgan ma'lumotlar hozirgi zamon ilmiy tarixiy adabiyotida boshqa yozma manbalar hamda arxeologik, topografik, etnografik va boshqa turli xil tarixiy materiallar bilan solishtirib bir qadar yoritilgan. Navoiy viloyatining qadimiy maskanlardan biri Karmanadir. Quyi Zarafshon vohasida joylashgan bu go'zal diyor o'ziga xos tabiat, iqlimi, suv sharoiti, libosi, zilol buloqlari, konchilik va kulolchilik san'ati, sangburlik va hunarmandchilik, dehqonchilik va chorvachiligi bilan qadim Turon zaminida ham yuksak mavqega ega bo'lgan. Tarjimon Abu Nasr Ahmad Narshaxiyning arab tilidagi nusxasida mavjud bo'lgan ba'zi mavzularni tashlab ketish bilan bir qatorda asarga katta tarixiy qimmatga ega bo'lgan ko'pgina ma'lumotlarni qo'shgan va bunda u o'z davridan ilgarigi voqealarni yoritish uchun boshqa tarixiy manaalardan foydalangan. Bu manbaalardan biri Abu Nasr Ahmadning o'zi ko'rsatib o'tgani Abul Hasan Abdurahmon ibn Muhammad Nishopuriyning "Xazoin ul-ulum" nomli asaridir. Bu asarning bizning davrimizgacha yetib kelgan kelmaganligi hozircha ma'lum emas. Ammo undan keltirilgan "Buxoro tarixi"dagi ayrim satrlarning o'zi ham Abul Hasan Abdurahmonning kitobi ham naqadar muhim bir tarixiy manbaa bo'lganligidan dalolat beradi.

Narshaxiyning Karmananing qadimgi nomi "Badiyayi xurdak" to'g'risidagi ma'lumoti esa bevosita shahar yoki qishloq haqida emas, balki, katta hududni egallagan joy sifatida bayon qilingan. Ikki so'z birikmasidan tashqil topgan bu topominining birinchi qismi "Badiya" emas, "Dasht", "Cho'l" ma'nolarini anglatadi. "Badiya" so'ziga biriktirilgan "xurd" so'zi esa forschha bo'lib u "kichik, mayda" kabi tushunchalarni bildirgan. Bu so'zga biriktirilgan "ak" qo'shimchasi vositasida u "juda kichik, juda mayda" sifatiga ega bo'lgan. "Badiyayi xurdak" topominimi hosil etgan. Tarixda dasht yoki cho'l ahli o'zbek va tojik xalqlari tillarida "badiya ahli va badiya nishin" kabi iboralar bilan atalib kelingan[4]. Arablar esa dashtliklarni badaviy deb atashganlar. Zarafshon va Nurota tizmalarining oraligida joylashgan bu dashtlik, ya'ni Karmana yerlarining o'zlashtirilmagan g'arbiy qismi so'nggi o'rta asr yozma manbalarida Cho'l Malik va Malikcho'l nomlari ostida tilga olinadi.

Asarning hozirgi davrgacha yetib kelish tarixi boshqa qo'lyozma manbalardan ko'ra boshqacharoq bo'lib, uni o'rganishidan avval bu haqda qisqacha ma'lumotga ega bo'lib olish unda keltirilgan ma'lumotlardan to'g'ri foydalanish uchun albatta zaruriyidir. «Buxoro tarixi»ning bosh so'zida aytigelandeik, uni dastavval Buxoroning Narshax qishlog'idan bo'lgan Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy 943—944 yillarda arab tilida yozgan. Hozirda Narshaxiyning nomi O'rta Osiyoning VIII—XII asrlar tarixiga oid deyarli barcha ilmiy tadqiqot ishlarida tilga olinadi-yu, ammo uning to'la nomi Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far ibn Zakariyo ibn Xattob ibn Sharik ekanligi va u Buxoro ahlidan bo'lib, hijriy 286 (899) yili tug'ilgan va hijriy 348 (959—960) yili vafot etganligi haqida ma'lumot berib o'tiladi[5].

Xulosa qilib aytganda, Narshaxiy "Buxoro tarixi" asari o'rta asrlarga oid eng muhim manba ekanligining yana bir bor guvohi bo'ldik. Bundan tashqari, asarda Buxoro mahallalari, ariqlari va unga qo'shilgan joy nomlari tilga olinadi. Shaharning mahallalarga bo'linishi o'z davri uchu qonuniyat bo'lganligini tilga olgan, qarangki hozirgi vaqtida ham shahar ma'muriy tuzilishida bunday bo'linish usullarii mavjuddir. Qolaversa, tarixdan ma'lumki ushbu asar Buxoro tarixi yozilgan asarlarning eng qadimisi hisoblanib keladi bu asarning asl nusxasi bizgacha yetib kelmagan. Buxoro yurtimizning qadimiy viloyati hisoblandi. Bu viloyat yurtimiz tarixan qadimiy ekanini anglatuvchi yaqqol misol hamdir. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2018-yil Buxoroga qilgan tashrifida shaharni yangilashda bir qancha o'zgarishlar va tarixiy maskanlarni yanada obodonlashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi bulardan - Poyi Kalon majmuasidagi tarixiy obidalarni ta'mirdan chiqarish bo'yicha loyihalarni ishlab chiqildi. Bir so'z bilan aytganda tarixchi Abu Bakr Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asari bizga buyuk tariximizni yanada chuqurroq anglashimizga o'zining ulkan xissasini qo'shadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. S.Arziqulov – "Zamonaviy tarix darslarida narshaxiyning "Buxoro tarixi" asaridan foydalanish". N.:2015.
2. Narshaxiy M. "Buxoro tarixi" asari . T. "Meros". Kamalak. 1991.
3. Inoyatov S, O.Xayitova. "Karmana tarix ko'zgusida". "Sharq". 2006.
4. "Moziylan taralgan ziyo". "Sharq". Toshkent .1998 yil
5. S.Inoyatov "Amir Temur Raboti Malikda". Toshkent. Sharq. 1998 yil.

Okila Turakulova,  
Pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)  
Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti  
universiteti O'zbek tili ta'limi fakulteti dotsenti

## TA'LIM JARAYONIDA MUSTAQIL MUTOLAA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada adabiyot darslari va sinfdan tashqari dars mashg'ulotlari jarayonida mustaqil mutolaa madaniyatini rivojlantirish borasida ayrim metodik tavsiyalar berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** mutolaa, kitob, adabiy to'garak, adabiy zal, adabiy o'yin, adabiy hordiq, adabiy al'manax, ko'rgazma zali, adabiy yarmarka, auktsion, adabiy targ'ibot guruhi, kitobxon haftaligi

**Abstract:** This article provides some methodological recommendations for the development of a culture of independent reading in the course of literature lessons and extracurricular activities

**Key words:** reading, book, literary club, literary hall, literary game, literary recreation, literary almanac, exhibition hall, literary fair, auction, literary promotion group, reader's week

**Аннотация:** В данной статье даны некоторые методические рекомендации по развитию культуры самостоятельного чтения в процессе уроков литературы и внеклассных занятий

**Ключевые слова:** чтение, книга, литературный кружок, литературный зал, литературная игра, литературный досуг, литературный альманах, выставочный зал, литературная ярмарка, аукцион, литературно-пропагандистская группа, неделя читателя

Ma'lumki, adabiyot darslarida o'rganilayotgan asarga nisbatan o'quvchilarda qiziqish va motivatsiya hosil qilinib, mustaqil mutolaa jarayonida asarni to'liq o'qib-o'rganish va adabiy tahlil malakalarini shakllantirishga erishiladi. Ta'lim jarayonida "Adabiyot" fani bo'yicha namunaviy va ishchi o'quv dasturini tahlil etish jarayonida mustaqil ish uchun ajratilgan soatlarning bajarilishi ko'zda tutilgan topshirqlar ham ko'proq nazariy tafsifga ega bo'lib, o'quvchilarda amaliy ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarni tarkib toptirishga to'liq xizmat qilmaydi. Buni ayrim mustaqil ish uchun tavsiya etilgan mavzular misolida ham yaqqol ko'rish mumkin: "Zarbulmasaladagi maqol va masallar", "Boburnoma – memuar asar", "Adibning kulgi yaratish mahorati haqida", "Ogahiyning tarixiy asarlari haqida ma'lumot", "Ma'rifatparvarlik adabiyoti haqida referat", "Navoiy" romanining badiiylik darajasi", "A.Qahhor so'z ustasi" va h.k.

O'quvchilarining mutolaa madaniyatini rivojlantirish ularning mustaqil o'qish faoliyatini va fan bo'yicha sinfdan tashqari ishlarini tashkil etmasdan samarali amalga oshmaydi. Dars bilan aloqadorlik, uzyiylik mazkur turdag'i ishlarni tashkil etishning asosiy tamoyillaridan biridir. Biroq sinf va ta'lim muassasasidan tashqari ishlar dars bilan bog'liqlikda amalga oshirilsada, ularning o'ziga xosliklari ham mavjudligi qayd etib o'tish lozim.

Birinchisi sinf va ta'lim muassasasidan tashqari faoliyatda o'quvchilarning ixtiyoriy ishtirot etishidir. Ular o'zlari uchun sevimli ishni mustaqil tanlashi, tashabbuskorlik, mustaqillik, faoliytni namoyon etishi mumkin. Adabiyot fani bo'yicha ushbu turdag'i mashg'ulotlarning samaradorligi o'quvchilarning faolligiga bog'liqidir.

Mazkur turdag'i ishlarning ikkinchi o'ziga xosligi – uning ko'ngil ochar va ijodiy tafsifga ega ekanligi. Unda o'yin elementlaridan keng foydalilanadi. Faqat ko'ngil ochishga yo'nalanlik asosiy maqsad emas, bu o'quvchilarning qiziqishini oshirish vositasidir.

Adabiyot fani bo'yicha sinf va ta'lim muassasasidan tashqari ish turlariga adabiy to'garak, adabiy zal, adabiy o'yin, adabiy hordiq, adabiy al'manax, ko'rgazma zali, adabiy yarmarka, auktsion, adabiy targ'ibot guruhi, kitobxon haftaligi, ommaviy tadbirlar kabilarni kiritish mumkin.

Adabiy to'garak: auditoriyada o'rganilgan bilimlarni tizimlashtirish va chuqurlashtirishga hissa qo'shadi. O'quvchilar auditoriyada bilimlarni o'zlashtirish va ijodiy faoliyat yuritish, o'qish talablariga ega.

Kitob mutolaasiga qiziqishni oshirish maqsadida sinfdan tashqari o'qish darslarini, adabiyot to'garaklarini namunali tashkil etishning ahamiyati katta. Ijodiy va drama to'garaklarining ham bu o'rinda muhimligini alohida ta'kidlash kerak. Albatta, o'quvchi san'atkorlarga taqlid qilishni yoqtiradi. Drama to'garaklari o'quvchilarda teatr madaniyatini, tomoshabin mas'uliyatini, ijro mahoratini shakllantiradi.

O'quv yili yakunida "**Yozgi mutolaa**", qishki ta'tilda "**Qishki mutolaa**" o'qishlari tashkil etilishi ham yaxshi samara beradi. Unda ta'til davomida o'quvchilarga o'qilishi kerak bo'lgan badiiy asarlar ro'yxatini tuzib, bolalarga o'qish uchun topshiriladi. O'quv jarayoni boshlanganda o'quvchilar o'zları o'qigan badiiy asarlarini sinfdan tashqari mashg'ulotlarda, to'garaklarda "**Men kitobxon**", "**Men sayyoh**", "**Men yozuvchi**" usullari orqali taqdim etishadi.

Adabiy zal: dramatik harakatlar, musiqa va qo'shiqlarni, adabiy o'yinni, kitob qahramonlari bilan muloqotni uyg'unlashtiradigan har qanday, hatto eng jasur g'oyani eng yuqori darajaga ko'tarish imkonini beradigan joy.

Adabiy o'zin: u o'zin faoliyati asosida amalga oshiriladi, bu asar janrining xususiyatlarini aniqlash, asarning tarkibiy qismlarini ko'rish, o'qish matnni tasavvur qilishingiz, muallifning niyatini tushunish va o'z pozitsiyasini aniqlash uchun qo'llanadi. Bu adabiy o'yinda "Nega", "Isbotla" o'yini tashkil etiladi. O'qituvchi tomonidan bir necha savollar beriladi. Nega bu asar shunday nomlandi?, Nega fikringizni shunday izohlayapsiz? O'quvchilardan javoblarini dalillar bilan isbotlashi so'raladi."Asar matnni o'qish va tasavvur qilish". To'rtta talabaga bir xil matn beriladi va o'quvchilar o'zlariga tushgan kartochkalar bo'yicha matnni o'qishi so'raladi. Bu kartochkalarda "**Quvonch**", "**G'am**", "**Musiqa**", "**Ertak**" so'zları yozilgan bo'ladi.

"Quvonch" usulida o'quvchi matnni xuddi quvonchli xabar eshitgandek o'qiydi v h k.

O'quvchilarning qiziqishlarini o'rganish turli xil adabiy o'zinlar orqali amalga oshiriladi: kitobni dramatizatsiya, viktorinalar, charades, krossvordlar, jumboqlar, adabiy o'zin-safar, adabiy mavzulardagi o'zin shaklida, kontseptsiyalarni assimilyatsiya qilish bo'yicha intellektual o'zin-lar, o'quvchilarning fikrini kengaytirish uchun o'zinlar, asarning asosiy tasavvuriga, o'qish tajribasini boyitishga qaratilgan o'yinlarga, san'at asarlarini chuqur in'ikos etishga qaratilgan o'yinlarga qaratilgan.

Adabiy o'zining maqsadi kitobning mayjud matnni o'zgartirish yoki yangi, ijodiyligi adabiy mahsulotni yaratishdir.

Adabiy hordiq: qo'lga kiritilgan ko'nikmalarni chuqurlashtiradigan, xalq ijodiyoti va yozuvchilarga bo'lgan qiziqish va muhabbatni kuchaytiradigan, o'quv-mashg'ulotdan tashqari turli tadbirlar, yangi taassurot qoldiradi, quvonchli kayfiyatni yaratadi. Adabiy bayramlar badiiy adabiyotlar mazmunini tuzatadi va umumlashtiradi, yangi taassurotlar yaratadi. Bunday bayramlarda o'quvchilar monolog o'qish, rol o'ynash, hikoya qilish, tinglash, kitob mazmuni qo'shiq va raqs bilan to'ldirilib, kitobni kino adaptatsiyasi qismlarini tomosha qilishlari mumkin.

Adabiy al'manax: mavzuli, janr yoki boshqa sabablarga ko'ra birlashtirilgan kitoblar, asarlar, mualliflar haqidagi tadbir. Al'manax tematik bo'lishi mumkin, keyin kitoblarni bir mavzu bo'yicha: harbiy, tarixiy, fantastika, tabiat, ertak, she'rlar va boshqalar bilan birlashtiradi. Adabiy almanaxlarning yaratilishi – o'quvchilarni kitob bilan tanishtirish va unga e'tibor berishning eng samarali usullaridan biridir.

Adabiy yarmarka: adabiy festivalni tashkil etishning an'anaviy bo'lмаган shakllaridan biri, shu jumladan, bir vaqtning o'zida kichik, turli xil adabiy tadbirlar majmuasi. Yarmarka davomida adabiy viktorinalar va tanlovlardan qiziqarli kishilar bilan uchrashuvlar o'tkazish mumkin. Yarmarkada o'quvchi o'zi xohlagan kitobni sotib oladi.

Auktsion: o'quvchilarning o'qish qiziqishini oshirishga mo'ljallangan shakl. Auktsion tematik va universal bo'lishi mumkin, ammo vazifalar har doim turli xil tarkibdagi kitoblarga bag'ishlangan. Auktsionda o'quvchilar, o'qituvchilar va ota-onalarning qo'llari bilan chiqarilgan adabiyot qahramon-lari yoki ularga tegishli biror narsa bo'lishi mumkin.

Adabiy targ'ibot guruhi: kitoblarni, ularning belgilarini va mazmunini reklama qiluvchi, odatda bitta auditoriyadan boshqasiga ko'chiradigan kichik guruh va o'quvchilar.

Adabiyot fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarning mustaqil o'qish faoliyatini tashkil etishning an'anaviy turlari bilan birga, uning yangi va samarali usullarini q o'llash metodikasini takomillashtirishga alohida ehtiyoj sezilmogda.

Ma'lumki, har bir o'qituvchi dars maqsadiga erishish uchun eng ilg'or metodik usullarni izlab topmog'i zarur. Adabiyot darslari qanchalik yangiliklar asosida o'tilsa, o'quvchilarning fanga, kitobga bo'lgan qiziqishlari shunchalik ortadi. Bunda o'qituvchi darsni to'g'ri tashkil qilib, ta'limning xilma-xil usullarini qo'llashi, sinfda o'quvchilarning faolligini oshirishi, ularda ezgu fazilatlarni tarkib toptirishi zarur.

**"Ortiqcha obraz"**, **"O'yla, izla, top – bu aynan sen bop"**, **"Men kitobxon"** rolli o'yini, **"Asar yuzasidan esse yozish"** usullari orqali o'quvchilar orasida yaxshigina kitobxonlikni yuzaga keltirish mumkin.

Bundan tashqari "Men kitobxon" rolli o'yinida o'quvchilarning kitobga qiziqishini oshirish maqsadida "Mutolaa kundaligi"ni tutish, o'qigan asarlari yuzasidan "Kitobxon kundaligi" virtual guruhini tashkil etish o'zining ijobiy samarasini beradi.

O'qituvchi tomonidan o'quvchilarning badiiy asarlarni o'qishga qiziqishlarini oshirish maqsadida ijtimoiy tarmoqlar orqali kitoblarning audio va android variantlarini taqdim etib borish ham kutilgan natijani beradi.

"Kitobxon kundaligi" chizmasi namunasi:

| Muallifning IFO | Kitobning sarlavhasi | Mutolaa qilingan vaqt | Asarning asosiy g'oyasi | Asarning muhim jihatlari |
|-----------------|----------------------|-----------------------|-------------------------|--------------------------|
|-----------------|----------------------|-----------------------|-------------------------|--------------------------|

Shuningdek, adabiyot darslarida o'quvchilarni guruhlarga bo'lib, o'qilgan asar yuzasidan shaxsiy ma'lumotlar bazasini ishlab chiqishga ham alohida e'tibor qaratildi. Shu bilan birga, zamonaviy dars turlariga tayangan holda o'quvchilarni mutolaa malakasiga doir o'zini- o'zi baholash jarayonining ham mukammal o'rganib borishiga alohida e'tibor qaratildi. Mana shunday interfaol usullarjan biri "o'quv portfoliosi"dir\*.

Aslida "**Kitobxon kundaligi**" portfolioning zamonaliv va takomillaşgan ko'rinishidir. Portfolioni yaratishning birinchi bosqichida o'quvchilarga portfolioning afzalliklari, uni yaratishdan ko'zlangan maqsad, portfolioning turlari haqida ma'lumot berildi. So'ngra portfolioning tuzilishi bilan tanishtiriladi.

### “Yutuqlar” portfoliosi (“Kitobxon kundaligi”).

O'quv portfoliosi turlaridan biri yutuqlar portfoliosi deb yuritiladi. Bunday portfolio “Nuqtai nazar”, “E'tirof”, “Munosabat”, “Kitob haqidagi o'ylarim” kabi bo'limlardan iborat bo'ladi.

“**Nuqtai nazar**” bo'limida o'quvchining o'qigan badiiy asari yuzasidan insho, taqriz, annotatsiya, maqlolar va qisqa ma'ruzalar shaklidagi ijodkorlik hamda tadqiqotchilik faoliyatini ko'rsatadigan ishlar o'rinni oldi. Erishilgan yutuqlarning sifat jihatni aks etgan ushbu bo'limida o'quvchining ijodiy faolligi dinamikasi, qiziqish doirasi yorqin namoyon bo'ldi.

“**E'tirof**” bo'limida o'zbek va boshqa xalqlar adiblarining hayoti va faoliyati haqidagi ijodiy mulohazalar yoritilishiga e'tibor qaratildi. Ushbu bo'limda o'quvchining mustaqil fikrlash madaniyatini tarkib toptirishga alohida e'tibor qaratildi.

“**Munosabat**” bo'limida o'qilgan badiiy asarining to'liq yoki ma'lum bo'lim uslubi, obrazlar tizimining xarakter xususiyatlarni o'rganish natijalari aks etadi.

“**Kitob haqidagi o'ylarim**”. Mazkur sahifada o'quvchining asarning g'oyaviy badiiy maqsadi, estetik ta'sirchanligi, obrazlarning umumlashmaliligi, asardagi chuqur dramatizm, milliylik, umuminsoniylik, asarning o'tkir syuyjeti, turli xarakterlar xaqidagi qarashlari bayoni aks etdi.

Adabiyot darslarida bunday turdag'i o'quv portfoliolarini yaratish o'quvchidan ijodkorlikni, ko'p kitob o'qishni, o'z ustida tinimsiz mehnat qilishni, badiiy ijodkorlikni shakllantiradi va darsda ko'zlangan maqsadga erishtiradi. Har bir o'zlashtirilgan dars, o'qilgan badiiy asar, albatta o'quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlanishadirishga katta yordam beradi.

Yuqorida fikrlarimiz asosida, adabiyot darslarida o'quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlanishadirishga doir quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

- mutolaa qilinayotgan asarlarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari dolzarb muammolar bilan qiyoslab o'rganilishi zarur: ta'limning real hayat bilan bog'liq holda amalga oshirilishi hamisha ijobiyligi natija bergen. Bundan kitobxonlik madaniyatini shakllantirish jarayoni ham mustasno emas;

- mutolaa jarayonida asar personajlarining ruhiy dunyosiga o'ziga xos va mos tarzda yondashish yo'lga qo'yilishi zarur; qahramonlarning ruhiy dunyosiga turlicha yondashuv o'quvchilarning tuyg'ularini ko'rklashtiradi, hayotiy tasavvurlarini boyitadi, estetik didini shakllantiradi. Kitobxonlik orqali o'quvchilarning adabiyotga qiziqishi ortadi. Adabiyot darslaridagi mutolaa orqali kitobxonlik saviyasi yuksaladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

- Мирқосимова М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва тақомиллаштириш асослари. – Тошкент: Фан, 2006. – 112 б.
- Ниёзметова Р.Х. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганиш методикаси. – Тошкент: Фан., 2007. – 215 б.
- Ниёзметова Р.Х. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганишнинг назарий методик асослари: пед. фан. док. дисс... – Тошкент, 2007. – Б.14-51.
- Камбарова С.И. Умумий ўрта таълим тизимида ўқувчиларнинг мустақил мутолaa маданиятини шакллантириш технологияси. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). ...дисс. Автореф. – Самарқанд, 2019. – 52 б.

Nigina Temirova,

Teacher, Department of Translation theory and practice,  
Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

## NOTE-TAKING IN CONSECUTIVE INTERPRETATION

**Abstract.** This paper analyzes the concept of note-taking in consecutive interpretation as the dominant feature or the main difficulty of consecutive interpreting. It deals with the history of note-taking, its usage, forms and advantages, in addition to the views of foreign scholars on it.

**Key words:** consecutive interpretation, translation records, note-taking, forms and history of note-taking.

**Абстракт.** В данной статье анализируется концепция *переводческая семантография* при последовательном переводе как доминирующая особенность или основная трудность последовательного перевода. В нем рассказывается об истории ведения заметок, их использовании, формах и преимуществах, а также о взглядах зарубежных ученых на это.

**Ключевые слова:** последовательный перевод, *переводческая семантография*, переводческой записи, формы и история переводческой записи.

**Introduction.** Within the framework of the methodology of teaching interpretation, the development of teaching methods for certain types of translation involves the identification of dominants that determine their specifics and ensure the integrative formation of professional translation competence.

The concept of dominant as the main property of the analyzed object is widely used in various scientific disciplines. Translation studies is no exception. Based on the ideas of R.O.Jacobson, within the framework of the concept of functional equivalence, A.D.Schweitzer introduced the concept of the functional dominant of the translation text (Schweitzer, 1988). I.S.Alekseeva defines the dominant of translation as the main property of the translated text, to which the translator's attention should be directed (Alekseeva, 2001).

Following N.V.Shutemova and A.Yu.Fetisov, by the dominant of interpretation the leading interpretation problem or difficulty should be understood. For example, the dominant feature or the main difficulty of interpreting from a sheet is the simultaneous reading of the source text and the oral generation of the message in the target language. Therefore, learning to interpret from a sheet should, first of all, contribute to the formation and development of operational orientation skills in the text space of the translated document discourse. As the dominant of consecutive interpretation, we will consider a large volume of a single fragment of the original message, which leads to an overstrain of mental mechanisms and creates an intense load on operational memory. Since the approval of the status of consecutive interpretation as a professional type of translation activity, the main solution to the problem of processing the incoming volume of information has been the use of written note-taking by the translator.

**Theoretical Basis.** It should be emphasized that the further development of note-taking was carried out to a greater extent within the framework of methodological and educational-didactic works. Confirmation of the observations of D.Gile and other scholars, who worked on translation recordings, is the book published in 1956 by a follower and colleague J.Herbert by the University of Geneva J.F.Rozan *La prise de notes en interpretation consecutive* (Note-taking in consecutive interpretation) (Rozan, 1956). In it, the author systematized and illustrated by examples seven key rules of note-taking: choosing of ideas, use of abbreviations, linking with arrows, negation by crossing out, reinforcement by underlining, vertical arrangement, "stepwise".

Formulated by J.F.Rozan the principle of vertical arrangement "was the main syntactic rule of note-taking, indicating the syntactic-semantic transformation of the original sentence occurring in the interpreter's mind during its analysis" (Rozan, 1956 p. 78). This made it possible to express logical relationships between ideas and to arrange the location of the key elements of the utterance in certain positions. Rozan introduced ways to designate grammatical categories of tense, gender and number.

Exactly J.F.Rozan set the task of purposeful teaching how to take notes. In the manual, he gave several examples of real texts of speeches and his own versions of their notes, which he provided with detailed comments. He gave examples in two languages: French and English, using both, depending on the presence of more concise and visual word symbols in them. At the end of the 50s, two more works by representatives of the Geneva School of Translation were published, E.Cary and J.Ilg, devoted to the issues of teaching consecutive interpretation, an integral attribute of which was recognized as note-taking.

Introspective in relation to his professional translation activity was the work of the famous Belgian translator, teacher of the Higher Institute of Interpreters and Translators in Brussels H.van Hoof *Théorie et pratique de l'interprétation* (Theory and Practice of Interpretation), published in 1962. For the first time, van Hoof distinguished the two stages of taking notes: 1) writing the actual note-taking and 2) reading the note.

One of the first scientific publications on translation recording was an article by J.A.Henderson. According to him, it is possible to rely solely on memory without making any notes, however, the note-taking system significantly improves the quality of the final product and is important for transmitting a message that exceeds several sentences. Summarizing the principles set forth in the literature of the 50s–60s, the author offers his own note-taking techniques and methods of teaching it, based on the experience of teaching at the University of Bradford.

In particular, the author attributes to the features of deep semantics the representation of the original text in the form of a spatially ordered system, the use of relational symbols to indicate subject-logical relations, lines-footnotes to indicate discursive cohesion. At the superficial semantic level, such features as the step-by-step note-taking of arguments and predicate, the use of symbols of comparison and superiority, as well as the independence of symbols and abbreviations from a particular language are manifested.

In addition to the techniques of J.F.Rozana, H.Matissek introduced the designation of logical connections between ideas on the left margins of the sheet, crossing out the translated fragment with a horizontal line of 2-3 centimeters, a fairly convenient system of underscores: once to highlight the main information, twice to indicate reinforcement, with a wavy line to weaken. The system of X.Matisseka allows you to reflect such nuances as the designation of specific forms of the verb. These techniques are currently used by interpreters.

**Discussion.** In order to make terminological clarity, in previous works in this sphere the concept of "note-taking" was introduced (Alikina, 2006), which includes a number of other names, such as "translation records", "translation notation", "system of notes of an interpreter", "translator's notes", etc. According to T.V. Voevodina's fair remark, the "rules of interpretation", like the whole translation theory, were formed in response to the needs of practice [58]. Note-taking is no exception. According to sources devoted to the history of translation activities, translators began using special notes in the 30s of the XX century, when at meetings of the League of Nations speeches in French and English were not interrupted by interpretation, but alternated with it. In this regard, interpreters were required to translate accurately and fully sufficiently long segments of speech (up to 30-40 minutes) (Heyden, 2007).

The first description of the principles of translation notes is found in the manual for interpreters J.Herbert's *Manuel de l'interprète* (Interpreter's Textbook), published in 1952. Having had extensive experience since the First World War as an interpreter for the League of Nations, many peace conferences, and the head of the UN translators group, J.Herbert outlined the basic rules of translation activity in his manual. His chosen style of presenting the material to this day is the most characteristic of foreign translation manuals. The author proposed several principles and methods of taking notes, universal signs and symbols borrowed from various fields of science. According to many modern experts in this field, the recommendations of J.Herbert has not lost its significance so far.

Among the basic rules of recording J.Herbert called: to start fixing from the moment of the beginning of the speech; to carry out logical analysis of speech by highlighting the main thing, classifying, underlining, bracketing; to rely on the translation language in the recording; to record clearly and accurately; to use abbreviations, abbreviate multi-digit numbers; to cross out when negating; to indicate links with arrows (Herbert, 1952).

In addition, a number of factors that affect the effectiveness of recording are identified:

- 1) the proportion of blocks of essential information in the note in relation to the number of such blocks in the original text;
- 2) the number of blocks of essential information in the translation text in relation to the total number of blocks of essential information in the original text;
- 3) the proportion of sentences written vertically in relation to the number of sentences in the original text;
- 4) the proportion of blocks of homogeneous sentence members in the records in relation to the number of such blocks in the original text;
- 5) the percentage of correct recognition of blocks of homogeneous sentence terms written in a column.

**Conclusion.** It is determined that the dominant difficulty of consecutive interpretation consists in a large volume of a single fragment of the original message of high semantic density. Due to the fact that the main way to overcome this difficulty is taking notes, the paper puts forward the idea of using note-taking as an integrative basis for teaching interpretation

The historiography of the formation of note-taking showed that the first description of its principles refers to the middle of the twentieth century and is presented in the works of J.Herbert, J.F.Rozan, R.K.Minyar-Beloruchev. In subsequent years, translation notes acquires a deep theoretical understanding in the works of domestic and foreign scientists (M. Albl-Mikasa, D. Andres, G.Gile, N.A.Kraevskaya, I.V.Poluyan, H.Matissek, D.Seleskovich, E.N.Sladkovskaya, E.A.Chervinko, etc.) in connection with the research of problems of memory, thinking, decoding, internal speech, text generation, visual autocommunication, cognitive modeling the translation process, etc.

The content of the concept of note-taking allows us to present it as a multidimensional phenomenon that is included in such scientific categories as system, activity, action, process, stage of translation activity, text, discourse, metatext, program of utterance generation. Special emphasis is placed on the meaning-oriented nature of notes, which allows us to consider it as a system-forming, integrative basis for teaching oral translation activities.

#### References

1. Gile, D. Regards sur la recherche en interprétation de conference / D. Gile. Lille: Presse Universitaire de Lille, 1995. 276 p.
2. Jones, R. Conference Interpreting Explained / R. Jones. Manchester: St. Jerome Publishing, 2002. 142 p.
3. Rozan, J.F. La prise de notes en interprétation consecutive / J.F. Rozan. Génève: Université de Génève, 1956.
4. Temirova, N. Strategies and tactics in English-Uzbek and Uzbek-English simultaneous interpreting: Master's degree thesis / N. Temirova. Tashkent State University of Uzbek language and literature, 2021.
5. Temirova, N. The history of simultaneous interpretation as a type of interpreting / N. Temirova // Ta'lim fidoyilar: respublika ilmiy-amaliy jurnali. T., 2021.

## PIKTOGRAFIK YOZUV VA UNING KISHILIK JAMIYATIDAGI O'RNI

(Sopollitepa va Jarqo'ton piktografik yozuv usuli)

**Annotatsiya.** Mazkur maqlolada piktografik yozuv va uning kelib chiqishi haqida batafsil ma'lumot berilgan. Piktografik yozuvning har xil turlari rivojlanish bosqichlarida tahlil qilinadi. Shuningdek Sopollitepa va Jarqo'ton piktografik yozuv usuli qo'llanilish usullari ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** shumerliklar, piktografik yozuv, yodgorlilar, sivilizatsiya, sxemalashtirilgan, mixxatsimon, monotsentrik, qas-qonlar, arava, patriarchal, Kesh.

Jahon tarixidan bizga ma'lumki, yuksak ma'naviyat va boy madaniyatga ega bo'lgan har bir xalqning o'z yozuvi mavjud bo'lgan. Bugungi voqeligimiz, hayotning taraqqiyot oqimi o'tmish merosimizni har tomonlama chuqur o'rganishni taqozo etmoqda. Insoniyat tafakkuri taraqqiyotining eng oly mahsullaridan biri, bo'lgan yozuvni shumerliklar ixtiro qilgan. Eng dastlabki yozuv usuli fanda piktografik belgilari deb ataladi.

Yozuvning ixtiro qilinishini shumer xalqining eng katta madaniy yutuqlaridan biri deb ham atash kerak. Insoniyat tarixida shumerliklar miloddan avvalgi IV ming yillikda, bugungi kundan olti ming yillar avval piktografik yozuv usulini ixtiro qilganlar. Ingliz arxeologlari J.Koper, X.Nissen hamda L.Vulle so'nggi yillarda qadimgi shumerning bir qator yodgorliklarida tadqiqotlar olib borib, shumerliklar tarixini yanada oydinlashtirdilar. Ular Diyali "nom"i markazi Eshnun shahri (hozirgi Tel-Asmar yodgorligi), Sippar "nom"i markazi Abu-Xabba yodgorligi, Irmn "nom"i markazi Kutu shahri (hozirgi Tello-Ibrohim yodgorligi), Kish "nom"i markazi Kish shahri (hozirgi Tell-Uxaymir yodgorligi), Kesh "nom"i markazi Abu-Salabix yodgorligi, Niffer yodgorligi, Fira yodgorligi, Lrsa shahri, Ur shahri, Eredu, Ubayd kabi ko'plab yodgorliklardan piktografik yozuvlar topdilar.

